Idealistik model. Bu model naturalistik konsepsiya modellaridan farqli ravishda, insonni tabiatdan ihotalagan holda, jamiyatning ijtimoiy hayot sohalarini alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan mustaqil subs-tansiyaga aylantiradi. Jamiyat tarixini bunday idealistik tarzda tushunish ma‘naviy omillarni absolutlash-tirish oqibatining mahsuli bo‘lib, bu insoniyat olamini “G‘oya dunyoni boshqaradi” degan tamoyilga asoslangan holda tushuntirishga undaydi. Bu falsafiy-mafkuraviy konsepsiyaning ijodkori nemis mumtzo falsafasining yirik namoyandasi Georg Vilgelm Fridrix Gegel (1770–1831) hisoblanadi.

Gegelnin fikricha, tabiat va jamiyat hodisalarining asosida ”Absolut ruh”, ”Dunyoviy ruh”, ”Mut-laq g‘oya”lar yotishini ta’kidlagan holda, ”Bunda biz uchun ruh o‘zining dastlabki tabiiy shart-sharoit, za-minlariga ega bo‘lishiga qaramasdan, ularga nisbatan birinchi yaratuvchi absolut haqiqat hisoblanadi. Bunday absolut haqiqat (Ruh) tabiatni ko‘zdan g‘oyib qilib, odatda, u g‘oya shaklida zohir bo‘ladi”,³ de-gan edi.

Umuman olganda, Gegelning fikricha, birlamchi dunyo ruhi, insondan ajragan aql bo‘lib, moddiy olam esa ikkilamchi, ya‘ni dunyo ruhining gavdala nishidan iboratdir. Dunyo ruhi, uningcha, yaratuvchi sabab bo‘lib, moddiy olam uning mahsulidir. Tabiat va jamiyatdagi har bir buyum yoki hodisa shakl bo‘-lib, uning mazmuni esa ruh yoki aqldir. Chunki bu predmetlar ruhning gavdalanishidan o‘zga narsa emas. Dunyo ruhi mangu, u o‘tmishda bor edi, hozir ham bor va kelgusida ham bo‘ladi. U tabiat va jamiyatdagi hamma mumkin bo‘lgan voqealarning manbayi va harakatlantiruvchi kuchidir. Dunyo ruhi har doim ha-rakat va rivojlanish jarayonida bo‘lib, ruh o‘z-o‘zidan rivoji jarayonida yangi-yangi bosqichlarga o‘ta bor-gan sari, uning ichki mazmuni to‘laroq ochila boradi. Boshlab, u o‘z-o‘zida rivojlanadi, so‘ngra jonsiz va jonli tabiat ham inson shakllarida, undan so‘ng davlat, san‘at, din va filosofiya shaklida ifoda etiladi. Olamdagi turli-tuman predmet va hodisalar ruhning o‘z-o‘zidan rivoji mahsulidir. Dunyo ruhining hara-kat va rivojlanish manbayi uning ichki qarama-qarshiligida. Shu ichki qarama-qarshilik asosida ruh doim

¹ Творения блаженного Августина Епископа Иппонийского. 2-е изд, Киев, 1901–1915, ч. 1–8, с. 49.

² Йўлдошев С.А., Усмонов О.М., Каримов Р.Р. Қадимги ва ўрта аср Фарбий Европа фалсафаси. Т., ”Шарк”, 2003, 159-бет

³³ Гегель. Энциклопедия философских наук. Т.3. Философия духа. Москва, «Мысль», 1977, с. 15.

harakat, rivojlanish jarayonida, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tib, tushunchalar shaklida, jamiyat va tabiatdagi predmet va hodisalar shaklida o'zini ifodalab boradi. Aql rivojining turli bosqichi sifatida turli kategoriyalar, shu jumladan, mohiyat va voqea, sabab va oqibat, sifat va miqdor, imkoniyat va voqelik, tasodif va zaruriyat, erkinlik vujudga keladi. Bu kategoriyalar sof aqlning turli bosqichlari sifatida moddiy predmet va hodisalarga nisbatan birlamchi mazmun bo'lib, moddiy buyumlarning mohiyatini tashkil etadi.

Gegelning jamiyatning genezisi, evolutsiyasi va rivojlanishi borasidagi asosiy falsafiy-mafkuraviy konsepsiyasining asosini "Aqlga muvofiq narsalarning barchasi voqeyidir, voqeyi narsalarning hammasi aqlga muvofiqdir" degan mazmundagi tezisi tashkil qiladi. Bunga ko'ra, u tarixiy makon va zamonda mavjud bo'lgan real jamiyatni, uning boshqaruv tizimini tan olish zarurligini uqtiradi. Bu uning Pruss monarxiyasini" tarixiy aqlning ayyorligi"ni pesh qilish niqobi ostida, undagi hayot haqiqatlarini ochishga qaratilgan falsafiy-mafkuraviy ta'limoti edi.

Materialistik model. Jamiyatning genezisi, evolutsiyasi va rivojlanishi haqidagi mazkur falsafiy-mafkuraviy modelning asoschilari nemis faylasuflari Karl Marks (1818–1883) va Fridrix Engels hisoblanadi. Ularning fikricha, odam mehnat qilishi tufayli hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan bo'lib, mehnat boyliklarini o'zlashtirishda odamlar o'rtasida tengsizlik kelib chiqadi. Bunda ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlari tizimi jamiyatning bazasini, boshqa huquqiy, siyosiy, mafkuraviy munosabatlar esa uning usqurmasini tashkil etadi. Antagonistik sinflar o'rtasidagi ziddiyat sinfiy kurash shaklida sodir bo'lib, oldin bitta, keyinchalik, butun dunyoda yo'qsillar tomonidan proletariyat diktaturasining o'rnatilishiga, bu esa oxir-oqibatda yerdagi jannat deb atalmish "kommunizm"ning qaror topishiga olib keladi, degan falsafiy-mafkuraviy modelni yaratib, uni amalga oshirishga bel bog'lagan edilar. Natijada SSSR boshchiligidagi bir qator sotsialistik davlatlar paydo bo'ldi va totalitar tuzum sifatida hayot sinovlariga bardosh berolmay, tarix sahnasini tark etdilar.

Hozirgi kundagi jamiyatning genezisi, evolutsiyasi va rivojlanishi haqidagi qiziqarli zamonaviy falsafiy-mafkuraviy konsepsiyalarni germerivtika, fenomenologiya, analitik falsafa, postmodernizm kabi falsafiy oqimlarning falsafiy-mafkuraviy qarashlarida ham ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida qisqacha tadqiq qilingan barcha model va konsepsiyalar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, siyosiy, huquqiy birliklardan tashkil topgan ijtimoiy borliq shakllariga ta'sir o'tkazuvchi ijtimoiy ongning faol tarkibiy qismi bo'lgan nisbatan mustaqil mafkuraviy hayot sohasining ham borligini ko'rsatadi.

Sagdullayeva Dilbar Shuxratovna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi; sagdullaeva.76@mail.ru)
MODERNIZATSIYA PARADIGMASINING TARIXIY ILDIZLARI

Annatsiya. *Jamiyatni taraqqiy ettirishga oid konsepsiyalar qatorida modernizatsiyaning ahamiyati kattadir. Mazkur maqolada modernizatsiyaning paradigma sifatida qaror topishi, uning tarixiy ildizlari, nazariy asoslari falsafiy tahlil etilgan. Faylasuflarning an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tishga doir qarashlari qiyosiy asoslangan.*

Аннотация. *Модернизация как концепция развития общества имеет большое значение. В данной статье рассматриваются понятия "модернизация", "парадигма", а также исторические корни, теоретические основы парадигмы модернизации. Дан сравнительный анализ философских взглядов о переходе от традиционного к современному обществу.*

Annotation. *Modernization as a concept for the development of society is of great importance. This article discusses the concepts of "modernization", "paradigm", as well as the historical roots, the theoretical foundations of the paradigm of modernization. A comparative analysis of philosophical views on the transition from traditional to modern society is given.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy o'zgarish, taraqqiyot, modernizatsiya, paradigma, an'anaviy jamiyat, zamonaviylik, evolutsionizm, funksionalizm.*

Ключевые слова: *социальные изменения, развитие, модернизация, парадигма, традиционное общество, модерн, эволюционизм, функционализм.*

Key words: *social change, development, modernization, paradigm, traditional society, modernity, evolutionism, functionalism.*

Ijtimoiy o'zgarishlar qamrovining kengayishi, ayniqsa, XX asr ikkinchi yarmiga xos bo'lgan jarayondir. Xuddi shu davrdan dolzarblashgan, modernizatsiya konsepsiyasi jamiyatlar siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarining takomillashuvi asosidagi rivojini nazarda tutuvchi paradigma sifatida qaror topdi. Sanoat texnika taraqqiyotiga asoslangan modernizatsiya paradigmasining shakllanishi, o'z navbatida, inson tafakkur tarzi, metodologik yondashuvi hamda u bilan bog'liq jarayonlarning yangilinishiga olib keldi. Natijada inson tomonidan qo'llaniladigan yangi tushunchalar, konsepsiyalar qaror topdi.

Manbalarda "Modernizatsiya (frants. moderne – eng yangi, zamonaviy) – biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish"¹ deb izohlangan bo'lsa, falsafa ensiklopedik lug'atida "jamiyatni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish maqsadida xilma-xil o'zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy-tarixiy jarayonni ifodalovchi tushuncha"² ekanligiga urg'u beriladi. Demak, ijtimoiy o'zgarishning turi sifatida modernizatsiya tizimni butkul yangidan qurishni anglatmaydi, balki muayyan poydevor asosida uni yangilab, yuqoriroq darajadagi sifat ko'rsatkichiga erishish zaruriyatiga muvofiq o'zgartirishini ifodalaydi.

Ijtimoiy borliqdagi o'zgarish va rivojlanish jarayonlarining tahlili ularga oid turli xil nazariy-metodologik yondashuvlar qaror topganligini ko'rsatadi. Kishilik jamiyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlarga oid formatsion, sivilizatsion yondashuvlar qatori modernizatsiya paradigmasi ham alohida o'ringa ega. Modernizatsiya paradigmasi ilk bor XX asrning o'rtalarida Yevropa mustamlakachilik siyosatining tugatilishi natijasida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida mustaqil davlatchilikning qaror topish jarayonida shakllandi.

Paradigmaning o'zi nima? Paradigma (yun. paradigma – para – yaqinida. qarshi, deyarli; diegma-namuna, misol) – ma'lum bir vaqt davomida ilmiy jamoatchilikka muammolarni qo'yish va hal etish modeli sifatida xizmat qiluvchi ilmiy yutuqlar, g'oyalar, me'yorlar yig'indisi bo'lib, turmush va fikrlashning biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan tamoyil.

Paradigma Tomas Kun tomonidan uning "Ilmiy inqiloblar tuzilmasi" asarida ilmiy muomalaga kiritilgan. Paradigma, T.Kun ta'limotida, muayyan vaqt mobaynida barqaror bo'lgan bilimlar majmuyi va ularni hosil qilish, rivojlantirish vositalari sifatida asoslanib, uning umumilmiy, xususiy, mahalliy ahamiyatga molik turlari farqlanilishi ta'kidlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, paradigma zamonaviy falsafada ilm-fanning nazariy-metodologik va qadriyatlar tizimi asosidagi ilmiy muammolarni yechishda namuna sifatida qabul qilingan va ilmiy jamoa tomonidan ma'qullangan tushuncha, tamoyildir. Professor M.Abdullayeva ta'biri bilan aytganda, paradigma norma doirasida rivojlanayotgan fanning dunyoqarashi va metodologiyasining poydevoridir.¹

Demak, paradigma me'yor doirasida fanning rivojlanish usuli va shakli, dunyo to'g'risidagi bilimlarning takomillashib borishi bo'lsa, modernizatsiya paradigmasi tarixiy jarayonda muayyan shart-sharoitlar asosida dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy manzarasiga oid avvalgi bilimlar o'rnida qaror topgan zamonaviy ilmiy izlanishlar natijasi to'plamini ifodalovchi hodisadir. Demak, aytish mumkinki, modernizatsiya paradigmasi jamiyatning taraqqiyot modeli yoki strategiyasidir.

Mavjud manbalarni o'rganish asosida aytish mumkinki, modernizatsiya paradigmasining vujudga kelishiga olib kelgan omillar g'arb mamlakatlari ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy hayotidan kelib chiqadi. Ular quyidagilardir:

birinchidan, o'sha davrda, Osvald Shpengler, Arnold Toynbi, Pitirim Sorokin, Karl Yaspers kabi faylasuf va sotsiologlar tomonidan ilgari surilgan taraqqiyot inkor etilgan konsepsiyalar ommaviyligi sharoitida ijtimoiy pessimizmni yengib o'tib, kelajakka optimistik qarashni shakllantira oladigan uning muqobiliga ehtiyoj mavjud edi;

ikkinchidan, Osiyo, xususan, uchinchi dunyo mamlakatlarini o'rganish ijtimoiy-siyosiy omil sifatida zaruriyat edi;

uchinchidan, mafkuraviy omil, ya'ni o'sha davrda sotsializmga muqobil bo'lgan rivojlanish yo'li sifatida modernizatsiya nazariyasini yaratish ehtiyoji.²

Demak, modernizatsiya ijtimoiy-tarixiy fenomen sifatida AQSH va Yevropadagi mamlakatlarning

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-j, T., 43-bet.

² Falsafa: ensiklopedik lug'ati. T., 2010, 197-bet.

¹ Modernizatsiya jarayonining falsafiy-metodologik tahlili. Mas'ul muharrir M.N.Abdullayeva. Toshkent, "Noshir", 2010, 10-bet.

² Ермаханова С.А. Теория модернизации: история и современность. М., 2002, с. 29.

tartibsiz (xaotik) modernizatsiyalashuv tajribasini umumlashtirishga urinish sifatida hamda ularning geosiyosiy manfaatlar uchun kurashi jarayonida ijtimoiy taraqqiyot strategiyasi, yo‘li sifatida qaror topdi.

Modernizatsiya paradigmasining qaror topishida qator ta’limotlar nazariy asos vazifasini bajardi. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: 1. Evolutsionizm; 2. Funksionalizm; 3. U.Rostou. 4. T.Parsons, E.Shilza kabi olimlarning izlanishlari.

XIX asrda ijtimoiy evolutsiya nazariyasi (Kant, Gegel, Spenser, Taylor, Morgan) insoniyat jamiyati taraqqiyotining oddiydan murakkab tomon o‘tib borishini himoya qilib, insoniyat jamiyatlari o‘rtasida ham, xuddi biologik organizmlar o‘rtasida bo‘lgani singari, yashash uchun kurash mavjud ekanligini ta’kidlaydi.¹ Agar evolutsionizm jamiyaturakkablik darajasiga ko‘ra, ko‘proq “yashab ketish” qobiliyatiga ega bo‘lishini ta’kidlasa, funksionalizm esa jamiyat va uning turli qismlari bir birlari bilan chambarchas aloqadorlikdagina rivojlanishi mumkinligiga urg‘u berdi. “Tizim elementlari o‘z funksiyalarini bajarishi orqaligina ular bir butunlik xossasiga ega bo‘ladi. Hodisa muayyan funktsiyani bajarsagina, tizimning tarkibiy elementiga aylanadi”.²

Shu orqali tizimning uyushishi, o‘zaro mustahkam aloqadorligi, o‘z-o‘zini qayta ishlab chiqarishi, demak, yashovchanligiga erishiladi. Ijtimoiy hodisalarni ularning funksiyalari, ya’ni ijtimoiy jarayonlarga ta’siri nuqtayi nazaridan tushuntirishga intilgan strukturaviy-funksional tahlilning asosiy qoidalari, va-killarining ijtimoiy rivojlanish haqidagi tasavvurlari hamda madaniy taraqqiyotning qonuniyligini himoya qilgan evolutsionizm g‘oyalari modernizatsiya nazariyotchilari tayangan nazariy negiz vazifasini bajardi.

Modernizatsiya bo‘yicha klassik tadqiqotlar Kont, Spenser, Marks, Veber, Dyurkgeym va Tennisga taalluqlidir. Modernizatsiya nazariyasi XIX asr oxiri va XX asrning boshida yashab, ijod qilgan mutafakkirlar, jumladan, Yevropa sivilizatsiyasini an’anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga xulq-atvorni ratsionalizatsiya qilish asosida rivojlantirish g‘oyasini ilgari surgan M.Veber, ijtimoiy o‘zgarishlar jarayonida iqtisodiy sharoitlar asosiy omil deb hisoblagan K.Marks, «mexanik birdamlik» jamiyatlaridan «birdamligi cheklangan» jamiyatlarga mehnatni taqsimlash asosida o‘tish konsepsiyasini taklif etgan F.Tyonnis va E.Dyurkgeym ta’limotidan oziqlandi.

Jamiyatda ijtimoiy farovonlikni ta’minlashning bosh manbayi milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish ekanligiga urg‘u bergan Rostou insoniyat tarixida taraqqiyotning besh bosqichini ko‘rsatib, texnik iqtisodiy omillarga ustuvorlikni berdi. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti – an’anaviy jamiyat, o‘tkinchi jamiyat, yuksalish davri, yetuklik bosqichi, ommaviy iste’mol bosqichi kabilarni bosib o‘tishi orqali an’anaviylikdan zamonaviylikka o‘tib borishini asosladi. Modernizatsiya ta’limoti uchun nazariy asoslardan biri bo‘lgan ushbu ta’limot dastlabki sotsiologlar g‘oyasidan farqli o‘laroq, jamiyat taraqqiyotini izohlashda texnikaviy-xo‘jalik ko‘rsatkichlari (texnika taraqqiyoti darajasi, jamg‘arish normasi, iste’mol darajasi)ni asos qilib olib, ijtimoiy omillar ikkilamchi ekanligiga urg‘u berdi. Natijada ular jamiyat iqtisodiy rivoji asosini “iqtisodiy omillar” emas, balki insoniy ehtiyojlar, intilishlar tashkil etishini inkor etdi.

Modernizatsiya paradigmasi nazariy asoslariga doir yana boshqa qarashlar ham mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, XVII asrda Yevropa jamiyatlarining qayta shakllanish tarixiy tajribasini (modernizatsiyaning asosiy tarmog‘i zamonaviy bosqichda uningcha, “amerikanlashtirish”dir) va XIX asrda Yaponiyadagi Meydji “revolutsiya”sini modernizatsiya paradigmasi uchun namuna sifatida ko‘rsatish mumkin. Ushbu buyuk inqilobiy davrlar yutuqlari modernizatsiyaning eng yangi konsepsiyalari va dasturlari uchun asos hisoblanadi.¹ Zero, ularda ijtimoiy taraqqiyot g‘oyasi himoya qilinadi.

Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, modernizatsiya ijtimoiy o‘zgarishlarning muhim turi sifatida murakkab, bahsli tushuncha bo‘lib, ilmiy tadqiqotlarda ikki qarama-qarshi nuqtai nazardan tahlil etib kelinadi. Ularning biri modernizatsiyaning muqarrarligiga, oqimining bir chiziqililigi va yagona imkoniy natijaga ega bo‘lishiga urg‘u bersa, determinizm, fatalizmni tanqid qilish asosida yuzaga kelgan boshqa nuqtai nazar modernizatsiyaning tasodifiyligi, oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan shart-sharoitlarga egaligi, beqarorligi, ko‘p chiziqililigi va intihosining, yakunining ochiqiligi ta’kidlaydi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, modernizatsiya tushunchasi talqinlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

¹ Giddens E. Sotsiologiya. M., 1999, 728 – 730-betlar.

² O‘sha joyda. 736-bet.

¹ Парсонс Т. Система современных обществ. Под ред. М.С.Ковалевой, пер. с англ. М., “Аспект-Пресс”, 1998, 270 с.

1. Modernizatsiya, umumiy ma'noda, jamiyat ilgarilama harakatlanishi jarayonidagi barcha taraqqiyparvar ijtimoiy o'zgarishlarning sinonimidir. Inson ajdodlari tomonidan g'orlar tark etilib, birinchi boshpanalarning barpo etilishidan tortib, to ot aravalar o'rini avtomobillar, yozuv mashinalari o'rini kompyuterlar egallagani ham modernizatsiyaning yorqin namunasidir

2. «Modernizatsiya» tushunchasi qoloq yoki rivojlanmagan jamiyatlarga taalluqli bo'lib, ular bilan bir davrda mavjud bo'lgan ilg'or, nisbatan rivojlangan mamlakatlarni quvib yetishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, bu holatda "modernizatsiya" tushunchasi zamonaviy jamiyatning sirtidan, tashqaridan markazga tomon harakatini ifodalaydi. Umumiy talqinda modernizatsiya an'anaviy jamiyatni taraqqiyparvar, sanoati rivojlangan jamiyatga o'tishini ifodalovchi ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida tavsiflanadi.

3. «Modernizatsiya» «zamonaviylik» tushunchasiga aynan mos bo'lib, G'arbda XVI asrdan boshlab sodir bo'lgan va XIX–XX asrlarda o'z cho'qqisiga yetgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va intellektual transformatsiyani anglatadi. Ushbu talqin sanoatlashish, urbanizatsiya, ratsionallashish, byurokratlashtirish, demokratlashish, kapitalizmning hal qiluvchi ta'siri, individualizmning keng tarqalishi, aql va fan kuchiga e'tiborning ortishi kabi jarayonlarga borib taqaladi.

Demak, paradigma sifatida modernizatsiya zamonaviylashuvni anglatib, an'anaviy jamiyatning mashina texnologiyasi, ratsional, dunyoviy munosabatlar hamda yuqori differensiallashgan ijtimoiy tizimlar mansub bo'lgan jamiyatga aylanish jarayoni, transformatsiyasidir.

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович (Наманган Мухандислик-технология институти Ижтимоий фанлар кафедраси доценти, фалсафа фанлари доктори. e-mail: Mirzahmedov@mail.ru),
Парпиев Икромжон Ғайбуллаевич (Наманган Мухандислик-қурилиш институти академик
лицейининг ўқитувчиси. e-mail: Sotsial.nauki@gmail.com)
ИЖТИМОЙ ТАРБИЯДА ҚЎРҚУВ ФАЛСАФАСИ**

Аннотация. Жамиятнинг глобал ахборотлашуви, илм-фан техника тараққиёти шароитида инсоннинг олам қонуниятларини билиши туфайли табиат устидан ҳукмронлик ва эркинлик туйғулари остида қўрқув ҳиссидан халос бўлди. Инсон табиатига хос бўлган қўрқув давлат, жамият ва шахс муносабатларида ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи регулятор ҳисобланади. Шу маънода, муаллифлар қўрқув фалсафасининг тадқиқи асосида замонавий таълим ва тарбия муаммоларининг ечимини топиш мумкинлигини асослайди.

Аннотация. В условиях глобализации информационного общества, развития науки и техники, благодаря познанию законов природы, человечество избавилось от чувства страха перед природой и господства над ней. Страх является важнейшим регулятором социальных отношений государства, общества и личности. Таким образом, авторы обосновывают решения современных проблем воспитания и образования на основе исследования философии страха.

Annotation. The globalization of the information society and in the conditions of the development of science and technology, thanks to which man learned the laws of being, got rid of fear with a sense of freedom and domination over nature. Fear is a regulator of the regulation of social relations between the state, society and individuals. Thus, the author will substantiate solutions to modern problems of upbringing and education based on the study of the philosophy of fear.

Калит сўзлар: қўрқув, ибтидоий динлар, исломда қўрқув омили, миллий таълим сабоқлари.

Ключевые слова: страх, первобытные религии, факт страха в исламе, уроки национального образования.

Key words: fear, primitive religions, the fact of fear in islam, the lessons of national education.

Инсоннинг биологик ва ижтимоий жиҳати қўрқув ҳисси билан индивидуал ахлоқий-маънавий руҳиятини ҳосил қилади. Ибтидоий одамлар ибтидоий гала шаклида ёввойилик даврини бошидан кечириб, қўрқувни ҳис этиб, ўзининг табиат олдида ночорлигини сезган. Натижада яшаш учун кураш эҳтиёжи, ҳимоя ва хавфсизлик туфайли яшаш учун кураш одамни антропологик қиёфасини шакллантирган. Чунки инсон онги шаклланиб, у атроф-муҳитни билиш, унинг сиру синоатини англашга интилиши билан, "сабабият" ғоясини тушуниб етишга имкон туғилди. Шу боис оламнинг биринчи сабаби яратувчи ҳақидаги ғоялар билан ўзининг хавфсизлигини таъминлаш орқали ўзини руҳий англаш бошланди. Цивилизациянинг қўрқув омили инсон шахсининг руҳий тинчлиги ва мувозанатини ўрнатишда бирдан бир йўл эди. Тарихий манбаларда ибтидоий одам-

ларнинг ҳар бир хатти-ҳаракати аслида илоҳий кучлардан қўрқувда амалга оширилганлигини тасдиқлайди. Айни пайтда, улар илоҳий маъбудаларга турли-туман маросим ва анъаналар асосида сиғиниб, маъбудаларнинг қаҳрини пасайтириш, қилинган гуноҳлар учун ижтимоий “кечирим” сўраш учун ўз қабиладошларини ҳам қурбонликка ажратган. Қўрқув кишилик жамиятининг шаклланишида диннинг одамга нисбатан руҳийлашув (маънавият мазмунида) жараёнида ҳосил қилинган психик ҳодиса эканлиги файласуфлар томонидан тадқиқ этилган.¹

Ибтидоий одамлар табиат кучларига қарши туриш, унинг сирли ҳолатларидан муҳофазалашини индивидуал ёки жамоавий мажбурият тарзида намоеън бўлган. Борлиқнинг ўзгариши, ундаги табиат ҳодисаларидан огоҳ бўлиш, хатарларга тайёр туриш, ундан кам талафот билан чиқиш учун билишга интилган. Шу маънода, қўрқув табиат ҳодисалари билан бирга, йиртқич ҳайвонлар, қолаверса, ўзга “жоҳил” қабилаларнинг одамларидан ҳам қўрқиш туфайли огоҳ бўлиб, у ёки бу ҳодисани олдини олиш учун муайян ҳимоя тизимини ишга солувчи қарорлар қабул қилган. Инсон томонидан хавф-хатарлар тизими ўрганилиб, яхши-ёмон, эзгулик ва ёвузлик ахлоқи одамларнинг инсоний феъл-атворидаги ижобий хатти-ҳаракатларни англаш билан оммалаштириш эҳтиёжини заруратга айлантирганки, жаҳон динларининг ахлоқий таълимотининг негизини ишлаб чиқишга асос бўлган.

Ибтидоий одамлар табиатнинг англаши туфайли озик-овқат маҳсулотларини ўзлари ишлаб чиқариш, ҳайвонларни овлаш технологияларини ривожлантириб, табиат устидан ҳукмдорликка томон имконият ила “ботирлик” туйғуларини ҳиссиётда қарор топишига эришган. Бизнингча, бу ботирлик табиат ва инсон муносабатидаги экологик фалокатнинг илк тарихий шакли, деб ҳисоблаш мумкин. Чунки одамзод “Мен нимадан қўрқаман?” деган саволни бера бошлаши билан қўрқув ҳиссидан озод бўла бошлади. Биз инсонни тарбиясидаги қўрқувнинг ўрни ниҳоятда муҳим ижтимоий ҳодиса эканлигини ўзгача фалсафий таҳлилларини мисол келтиришимиз мумкин.² Шундай бўлса-да, қўрқувни енгиш учун инсоннинг руҳий ҳолати белгиловчи омил бўлиб, тунги овозларни эшитиш ёки қоронғиликда ўзини таъқиб этилишини психик жиҳатдан одам ҳис этади. Миллий тартибда “чилла” каби нозик хилқатни (янги никоҳли ёки чақалоқ) ёвуз кучлардан сақлаш учун ўрнатилган қоида эди.

Қўрқув инсоннинг ахлоқий барқарорлигидан келиб чиққан ҳолда, ўткинчи ёки доимий хавотир шаклида ўзини ижтимоий-маданий ҳодиса ёки хавф солувчи воқеликдан муҳофазаланиш шаклида намоеън бўлади. Бу ҳолатга тушган одам хавотир остида руҳий азоб туфайли ўзини лозим бўлган хатти-ҳаракатни амалга оширишдан тийишида ҳам намоеън бўлади. Ахлоқий муносабатларда шахс ана шу қўрқувни енгиб, ўзининг бурчини тўла адо этиши учун жасорат талаб этилади. Шунинг учун шахснинг ёлғизлиги, пессимистик кайфиятга берилиши келажақдан умидсизлик қўрқувни келтириб чиқаради.

Қўрқув фалсафаси ислом динидаги устувор тамойил бўлиб, мусулмоннинг иймон келтиргувчи омиллардан қўрқувини ифодалаган. Исломда имон одамнинг қўрқув рейтингини сифатида ҳам қабул қилинган. Биз буюк пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳи вассаломнинг жоҳилларни ислом динига жалб этиш саъй-ҳаракатларида мўъжизалар кўрсатгани, улар орасида Абу Жаҳлга осмондаги тўхлин ойни олмадек иккига пичоқ тиғидек бўлишдан токи бир палласини Абу Қубайс, иккинчисини эса Қайқаон тепаликлари устига етказиб, уни яна асл ҳолатига келтириш билан имонга келтирган. Абу Жаҳл сеҳргарлик, дея бир муддат имон келтирмаган. Шу билан бирга, унинг саросимага тушиб қолгани ҳақида манбалар гувоҳлик беради.³

Саросима шахснинг психологик ҳолатидаги қўрқувнинг кутиш элементи бўлиб, инсонга бўладиган таҳдиддан хавотирни ҳосил қилиб, уни кутиш азоби билан руҳий мувозанатни бузади. Саросима инсон ҳаётида ҳимояланиш эҳтиёжини орттириб, қўрқув остида инсонни имонга олиб келади.

Ислом дини жаҳон динлари каби одамни Аллоҳнинг олдида ожиз бандалиги, Ўзининг паноҳида сақланиш, турли хил бало-қазо офатлардан ҳимоясида бу фоний дунёдан боқийга синов эканлигини уқдиради. Муқаддас динининг моҳияти қиёмат кундаги оғир судлов билан белгилашниши “жазо ёки мукофот” ўлчови борлиги билан белгиланган. Демак, диннинг моҳияти инсон табиатидаги қўрқув асосида ижтимоий фаол, маънавий-ахлоқий баркамолликни тарбиялашни на-

¹ Кьиркегор С. Страх и трепет. М., “Республика”, 1993, с. 109.

² Наполеон Х. Ўйла ва бой бўл. Т., “Янги аср авлоди”, 2016, 113-бет.

³ Лутфий А. Саодат қиссалари. 2-китоб. www.ziyouz.com кутубхонаси (мурожаат санаси 14.11.2021).

зарда тутади. Қўрқув Аллоҳга ҳурмат ва муҳаббат тамойилларида диний қонун ва қоидаларни ихтиёрӣ, сўзсиз бажариш билан тизимлаштирилган. Зеро, ижтимоӣ бошқарув шахсни фаолиятини тартибга солишда ўзгача самарали таъсирнинг умуминсоний усулини кашф эта олмади. Айни вақтда, бошқарув ўзаро фарқланиб, миллий-худудий, хўжалик юритиш усулидан келиб чиққан ҳолда, алоҳида бўлиши мумкин. Насронийда қўнғироқ чалиш билан инс-жинс ҳайдалса, масжидларимизда “Азон” чақириш билан ибодатга чорлаш орқали турли офат ва фалокатлардан нажот топиш таъмин этилади.

Саросима эса инсон диққат-эътиборини у ёки бу таҳдид хавф-хатарга жамлаб, унинг атрофида фикрлашга мажбурлаши билан одамни реал воқеликдаги ҳодисани сунъӣ ўзгача мураккабликдаги тасаввурини ўйғотиб, тинчлик ва хотиржамлигидан мосуво этади. Шахснинг психологик безовталиқда тўғри қарор ва қоидани топишга имкон бермай, ваҳимага солиши мумкин. Ваҳима эса, ўз навбатида, саросимадаги одамни қўрқувга солиб, муаммонинг ижобӣ ечимларини топиш, салбий жиҳатларини бартараф этишдан чалғитади. Шу боис ваҳима тиббиётда касаллик сифатида инсон юрак, қон-томир фаолиятини издан чиқариши билан боғлиқ белгилари аниқланган.

Тиббиётда ваҳима касаллиги В витаминининг етишмаслигидан одамни қўрқув ҳолати билан ҳам ташхисланган. Шундай бўлса-да, уламоларимиз ваҳиманинг “Хутуботу ҳақимул умма” номли асарда Ашраф Али Таҳонавий раҳматуллоҳи алайҳдан далил келтирадилар. Жумладан, унда мўминнинг ризқиға Аллоҳ таолонинг ўзи кафил бўлганлиғига иймон келтириш одамни хотиржам қилади. Ҳар бир мўмин танамда жоним бор экан, албатта, Аллоҳ таоло ризқимни етказди, деган ақидада бўлади. Бу тақдирнинг сирларидан бири эканлиги асосида даҳрийлик эса инсон ризқини ўзининг қўлида ҳисоблашидан ваҳимага тушганлар жонига қасд қилишида намоён бўлади.¹

Ваҳиманинг хатари пандемия шароитида ҳам ўзини намоён этди. Одамлар ўтган даврда бозорларда озиқ-овқат маҳсулотларини кўтарасига сотиб олиши туфайли бозорларда картошка сабзи ва пиёзнинг нархи жиддий ўсиб, уларнинг сақлаш имкониятлари кўпчиликда бўлмаганидан маҳсулотларнинг сифати бузилиб, нес-нобуд бўлгани ОАВда эътироф этилди. Шу боисдан оммавий қўрқув ва ваҳимага қарши энг муҳим омил оқилу доно ҳамюртларимизнинг сабр-тоқат, мурсою мадора эканини тажриба тасдиқлаб, ҳар бир ишда ақл билан иш юритишни кўрсатди. Чунки давлатимиз арзонлаштирилган маҳсулот ярмаркалари, саховатпеша тадбиркорларга эса ўз атрофидаги кам таъминланган оилаларга эҳсонлари билан илоҳий синовлар тажрибаси намоён бўлди. Бу даврда сунъӣ танқисликни ҳосил қилиб, бойиган бойваччаларнинг савол-жавоби ўзига ҳавола қилинади.

Бизнинг фалсафӣ таҳлилларимиз инсон тарбиясида қўрқув фалсафаси шахснинг сабр-тоқат, чидамга бошловчи позитив хусусиятни шакллантиришини ҳам тасдиқлади. Чунки мусулмоннинг Аллоҳдан қўрқиши ислом амалларини тўла ва чиройли адо этиш талаби билан жамиятнинг муҳим фуқаролик муносабатларини ривожлантириш йўллари ишлаб чиқади. Муқаддас китобларда инсоннинг биологик хусусиятига қўрқув хослиги, ҳар қандай одамнинг табиатида мавжудлиги эътироф этилган. Уламоларимиз тарбияланувчининг бебошлиғида тушунтириш ва охириги чора сифатида тан жазосини қўллашни тавсия этадилар. Шу ўринда қаттиқ қалтаклаш, синдириш ёки жароҳат етказишни назарда тутилмайди.² Биз илоҳий қўрқув туйғуси жаҳон чемпионатларида таниқли спортчиларнинг мусобақадан аввал дуо ўқиши, сажда қилганликлари билан фикримизни далиллаймиз.

Сиёсий тарихга назар ташласак, узоқ йиллар мобайнида Шўролар тузуми сиёсий мафқурани шакллантириш учун сунъӣ капиталистик давлатларнинг социализмга таҳдидини ишлаб чиқиб, одамларни қўрқувда ушлаб, улкан давлат халқларини бирлаштиришда фойдаланган. Чунки икки йирик давлат ўзаро ҳарбий таҳдидлар билан башариятда қўрқувни оммалаштиришга ҳам олиб келган. Сиёсий тарихдаги миллий қатағон ва ўзга таҳдидлар ҳам миллатни бош кўтаришдан тийиш усули бўлган. Тарихий манбаларда қўрқув бошқарувнинг кенг тарқалган осиеча шакли эканлиги ҳақида ҳам манбалар мавжуд. Тарихнинг қатъӣ қонуни у ёки бу подшоҳнинг ҳокимиятга келиши билан халқни бошқаришда қаттиққўллик, аслида, одамларни қўрқувда тутиш учун шафқатсизлик усулларидан кенг фойдаланилганлигини кўрсатади. Чунки халқни қўрқув ва даҳшатда ушлаб туриш орқали мустамлакачилик сиёсатини амалга оширилган. Алоҳида ҳолларда давлатга қарши ҳаракат шафқатсизларча террор ва жазога тортиш билан оммавий бўйсундиришни таъминланган.

¹ Қўрқув// <https://savollar.islom.uz/wparxiv/115759> (мурожаат санаси 14.11.2021).

² Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Бахтиёр оила. Тошкент, “Hilol-nashr”, 2021, 436-бет.

Шу маънода, босқинчилар мазлумларни оғир изтиробли азоб-уқубатларга солиб, кўрқув ва ваҳима уруғини сепган, уларни бирлашиб, миллат сифатида шаклланишига имкон бермаган. Н.Макиавеллининг “Хукмдор” асарида давлат бошқарувига даъвогарнинг келиш йўллари, халқни бошқариш усули, тинчликни сақлаш учун ҳарбий ишни ҳаёлидан ҳам чиқармаслик, кўрқув ва саросималик бошқарув омили сифатида таърифланган.¹

Ҳозирги давр ижтимоий-маданий кадриятларни ўзгариши, анъанавийликдан замонавийликка ўтиш шароитида фуқароларда кўрқув туйғусини пасайиши, айниқса, ёшларнинг феълида андиша, ҳаё, ифбат ҳиссиётининг кадрсизланиши туфайли кўрқув йўқолиб бормоқда. Айниқса, ўзининг моддий таъминотиغا эга бўлган ёшлар нафақат Аллоҳ, балки ота-оналаридан ҳам кўрқмайдилар. Фикри ожизимизча, миллий тарбияни шўроларнинг “оммавий педагогика”си батамом сиқиб чиқариши туфайли миллатнинг миллий менталитети жиддий ўзбошимчалик (девиант) қолипларига солинди. Натижада санъату ҳаётда бола образи бош қаҳрамон, ота-она образи кичик саҳна кўринишларида бўлиши “бесўнақай ўсган” янги авлодни ҳосил қилди. Ота-онанинг болага “боғ-бон”лиги даври тугаб, уларнинг фақат биологик функцияси қолиши билан миллий тарбиянинг бошини чўрт кесиб қўйди. Шу маънода муаллиф замонавий ахборот воситаларидаги тарбия хусусидаги фикр-мулоҳазаларда фалсафий софистика кўпроқ деган қарашга мойилдир. Айни вақтда баъзи бир психологик хизматларда “Оила нимага керак?” “Аёл нега эрга тегиши керак?” каби саволларда енгил-елпи ёндашувлар хотин-қизларни маънавий-ахлоқий маърифатини тартибга солиш эҳтиёжини кўрсатади.²

Замонавий таълимда миллий-ижтимоий тарбия моҳият мазмунан кўрқув психологиясини қўлламай одамнинг руҳиятини бошқариш мумкин эмаслигини кўрсатади. Тарбияда кўрқув ижтимоий услубият ҳисобланиб, шахснинг муайян йўналишдаги дунёқарашини ҳосил қилиш мумкин. Жамиятнинг тараққиёти канчалик юксалиб борса, тарбиянинг ижтимоий қиммати ортиб боришини ҳаётини эҳтиёга айлантиради. Шу маънода, миллий педагогиканинг муҳим вазифаси ёш авлодни миллий маънавий идеаллар, одат ва анъаналар асосида шакллантиришнинг янги тартибини ишлаб чиқиши даркор. Чунки замонавий ёшлар инновацион даражада янги авлод эканлиги, катта авлоддан ахборотлашув даражаси билан жиддий фарқланиши билан бирга, тарбиясининг мураккаблигини ҳам ёдда тутиш даркор. Биз фақат буйруқни бажарувчи болани эмас, замонавий илм-фан ютуқларини эгаллашга тайёр бўлган авлодни назарда тутмоқдамиз. Тарбия эса миллий тажрибани ўргатиш, унга одатлантириш, бажарилмаган вақтда мажбурлаш усулини талаб этади. Шу маънода, барча педагоглар тарбияда ижтимоий меҳнат тарбияси, интизом ва тартиботни устуворлигини тан оладилар.

Ахборотлашган жамиятнинг ривожига ўқувчиларнинг ўз ўқитувчиларини интернет тармоқларга юклаб андишали умуммиллий муҳокамасига қўйиши таълимнинг издан чиқишига олиб келади. Муаллиманинг меҳнат жамоасидаги обрў-эътибори, шаън-номусига дахл қилиш тарбиявий банкротликнинг кўрсаткичи, деб ҳисоблаймиз. Энг катта фалокат таълимнинг барча тизимидаги ўқийдиган ёшларнинг илм-маърифатдан совиши билан ўлчанади. Олий таълимда эса касбий диплом учун ўқиш шаклланиб, кўшни давлатлардаги “талаба”ликни изоҳлаш мушкул ишдир.

Шоирларнинг шоири, уламоларнинг уламози, муаллимларнинг устози Алишер Навоий шоғирларнинг уч тоифада бўлиши: биринчисига имо қилсангиз, ўзи вазифани бажариши, иккинчилари шоғирди-калимага – тушунтириш, лекин учинчи тоифа шоғирдни калтак зарбида онгига етказиш мумкинлиги эслатилган. Бу хулоса тан жазосини оммавийлаштириш эмас, балки тарбияни миллий оқилона ота-оналик тарбия иддаоси маъносида тушуниш деганидир. ОАВда ёшлар жиноятчилигининг ўсиши, ўта хавfli жиноятларда уларнинг совуққонлиги таълим ва тарбияда боланинг феълида ўсиб борган ўзбошимчалик ва худбинликни жиловлашга ота-онадан кўркиши орқали эришилади. Отасидан кўркмаган фарзанд, устозининг олдида бўйсунмаган бола ўқувчи мақомида туролмайди.

Юқоридаги фикр-мулоҳазалардан бир қатор тарбияга оид хулосалар яшаш мумкин.

Жамиятнинг глобал миқёсда ахборотлашуви миллийлик ва заонавийликни зиддиятида намоён бўлмоқда. Аждодлар ўзининг этноконфесионал ҳаётини тажрибасини янги авлодларга ўтказиш жараёнида узилиш юз берди. Чунки мураккаб макро оиладан микро оилага ўтиш миллий анъ-

¹ Макиавелли Н. Государь. М., “Азбука”, 2021, с. 24.

² Гап интернет тармоқларда Н.Саттарованинг хотин-қизлар орасидаги психологик роликлари ҳақида бормоқда.

ана ва кадрятлар тарбиясини ворисийликни таъминлай олмайди. Боз устига, “Оммавий маданият”нинг миллий маданиятга нисбатан таъсири жиддий ўсиб бормоқда.

Замонавий турмуш тарзида нафақат оилавий “беғоналашув”, балки ижтимоий беғоналашув жараёнида ёшларнинг тарбияси издан чиқиши, оила ва никоҳ муносабатларида катта авлоднинг ташаббускорлигига барҳам берилиши миллий ижтимоий банкротликка томон оғишни бошлаб берди. Миллий тарбия ва педагогикани шакллантириш эҳтиёжи таълим ва тарбиянинг ҳозирги ҳолатида ўз исботини топади. ОАВда ёшларнинг “Оммавий маданият” тарғиботи, айниқса, маънавий-маърифий ночорлик ёшларни етаклашга қодир янги тарбиячини талаб этади. Тарбия минг йиллардан бери фалсафий бўлган, у ёшларни доноликка бошлаган.

Давлат миқёсида гендер тенглиги сиёсатининг “оммавий маданият” нуқтаи назаридан ҳаётга татбиқ этилиши миллий маънавий муҳит қиз бола, хотин ва аёл мақомидаги антропологик кадрятга шикаст етказди. Энди уни тиклаш учун миллий маънавиятда инқилобий ўзгартиришлар билан амалга ошириш мумкин. Чунки аёлда кўрқув туйғуси ўрни жасорат феъли пайдо бўлиб, ўз идентификациясини йўқотди. Унинг иккинчи жиҳати эркак ўзининг эрлигидан (маскулинизация) руҳан мосуво бўлди. Шунинг учун қиз бола, аёлнинг тарбияси билангина биз вазиятни бошқаришимиз мумкин. Ўзбекда ота-онадан, мактабда ўқитувчидан кўрқмайдиган бола Аллоҳдан ҳам кўрқмайди. Бу ҳол тарбия кадрятини таърифида Абдулла Авлоний домлани яна бир бор эслатишга тўғри келади. Зеро, тарбия биз учун тақдир саодатидир.

**O‘razmetov Mangubek Tursunboevich (Urganch davlat universiteti)
O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi kafedrasida doktranti)
TASAVVUF TA’LIMOTI VA SULAYMON BOQIRG‘ONIYNING MA’NAVY MEROSI**

Аннотация. *Ushbu maqolada, Sulaymon Boqirg‘oniyning diniy balki ijtimoiy, axloqiy, estetik, ma’naviy, ma’rifiy tarbiyaga oid ilg‘or g‘oyalari, shuningdek, o‘z ustozining tariqati qoidalarini yanada chuqurlashtirishi, sodda, ravon uslubda keng xalq ommasiga yetkazganligi, diniy va dunyoviy ilmlardan ta’lim berish bilan birga tasavvuf ta’limoti g‘oyalari yoyishga ham o‘z hissasini qo‘shganligi haqida fikr yuritilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены передовые идеи Сулеймана Бакиргани о религиозном, социальном, нравственном, эстетическом, духовном, просветительском воспитании, а также его деятельность по углублению содержания правил учения своего учителя, донесенных до широкой публики простыми, доступными методами, а также речь идёт о том, какой вклад внес Сулейман Бакиргани в распространение наряду со светскими и религиозных учений.*

Annotation. *In this article, the advanced ideas of Suleiman Bakirgani about religious, but also social, moral, aesthetic, spiritual, educational education, as well as deepening the rules of his teacher's teachings, conveyed to the general public in a simple, fluent style, along with it is believed that the teaching of religious and secular sciences also contributed to the spread.*

Kalit so‘zlar: *islom, shariat va tariqat qoidalari, Sulaymon Boqirg‘oniy islom ma’rifatini Allohni tanish, ma’naviy-axloqiy jarayon, Allohga bo‘lgan muhabbat, mehr-muhabbat, islom ma’rifatparvarligi, komil insonni tarbiyalash yo‘li, jannatga eltuvchi yo‘l, ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik.*

Ключевые слова: *ислам, шариат и правила секты, Сулейман Великолепный, исламское просвещение, духовно-нравственный процесс, любовь к Богу, сострадание, исламское просвещение, путь воспитания совершенного человека, путь в рай илил, социальное неравенство, несправедливость.*

Key words: *islam, Sharia and the rules of the sect, Suleiman the Magnificent, Islamic education, spiritual and moral process, love for God, compassion, Islamic education, the path to educating a perfect person, the path to paradise oril, social inequality, injustice.*

Tasavvuf ta’limotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon sharqi madaniy hayoti haqida aniq tasavvur hosil qilib bo‘lmaydi. Mazkur ta’limot mazmunini tahlil qilish natijasidagina ajdodlarimiz ruhiyati, ma’naviy-intellektual merosi mazmunini yoshlarga yetkazish va shu orqali ular ma’naviyatini shakllantirish mumkin. Chunonchi: 1. Tasavvuf ta’limotining paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqida X.V.

Koshifiy «So'fiy» qadimiy bo'lib, Odam a.s. o'g'illari Shish a.s. davrida paydo bo'lganligini bayon qiladi.¹

Demak, so'fiylik Shish a.s. davrida vujudga kelgan. 2. Islom dini paydo bo'lgach (Muhammad payg'ambar s.a.v.), tasavvuf ta'limoti ham vujudga kelgan. Bu haqida M.A.Jo'shon shunday fikr bildiradi: «...tasavvuf hol ilmi bo'lib, payg'ambarimiz (s.a.v.) davrida sahobai kiromda mavjud edi. Hazrati payg'ambarimiz mutasavviflarning sultoni edilar. Ul zot hayotlari mobaynida tavoze bilan, ibodatga mush-toqligi bilan, voqealarga ko'rsatgan xatti-harakatlari bilan tasavvufiy hayot tarzining eng go'zal namunasi bo'ldilar. Ul zot dunyo saltanatini orzu qilmadilar, dunyo matosiga mayl etmadilar, mol-davlat to'plamadilar, qo'llariga pul tushguday bo'lsa, o'sha kundayoq kech tushmasdan cadaqa qilishga harakat qildilar.²

O'sha davrlarda bugungi kundagidek «tasavvuf», «so'fiy» so'zlari qo'llanilmagan. Tobeyindagi e'tiqod, taqvo, va Olloh sevgisini ko'rgan keyingi nasllar ham ularning izidan yurdilar. Bu an'ana avlod-dan avlodga o'tib kelaverdi. Tasavvuf iborasi, keyinchalik, paydo bo'ldi. Tasavvuf yo'lining, keyinchalik, tariqatlar sifatida davom etishi, bu mavzudagi eng asosiy ma'naviy va ijtimoiy yo'nalish yana Rasullulloh (s.a.v.)ning o'quv-ta'lim uslublariga ergashish natijasida hosil bo'ldi.

Ma'lumki, payg'ambarimiz kishilarni suhbat yo'li bilan tarbiyalar edilar. Masjidi Nabaviy faqatgina ibodatgoh emas, ayni vaqtda, talabaga ziyo tarqatuvchi ta'lim-tarbiya dargohi bo'lgan. Sahobalar, talabalar Payg'ambardan Hadislarni tinglab, Qur'on oyatlarini o'rganish natijasida diniy bilimlar va axloq-odob me'yorlarini o'rganganlar. Payg'ambarning ilmi, Qur'on ma'rifatidan bahramand bo'lishni istaganlar, mazkur masjidda tun-u kun qolar edilar. «Ahli Suffa» yoxud «As'hoobi Suffa» deya sifatlangan sahobalar kechalari 70–80 kishini, kunduzlari 400–450 kishini tashkil etardi. Gypuh-gypuh holida u yerga oqib kelgan omma Rasulullohdan ilm o'rganish ishtiyoqida bu yerda to'planishardi.³

Ko'rinib turibdiki, Muhammad Payg'ambar mutasavvuf – ustoz bo'lganlar. Islom dini va ma'naviyati asoslarini o'rgatish uchun atrofdagi xalqlarga «As'hoobi suffa»dan vakillar tanlab jo'natganlar. Suffa ahli davrasida tonggacha suhbat qilganlari ham ayni haqiqatdir. Suhbat asnosidagi zavq-u shavq tufayli uyqu nimaligini bilmay, saharga qadap qiziqarli ilmiy muloqotlar davom etgan. Suhbat – eng ta'sirli ta'lim-tarbiya usulidir. ...Tolibning aybi, xatosini ko'rgan o'rnak zot darhol uni xafa qilmay, nozik ishora bilan tuzatish imkoniga ega bo'ladi. Bu yo'l Rasulullohning yo'li bo'lgani uchun tasavvuf ham ushbu «shayx-murid suhbatini» ta'lim yo'lini tanlagan».⁴

O'sha davrda islom ma'naviyati sahobalar tomonidan talabalarga faol tarzda singdirilgan. Mazkur davrda yashagan xalqlar, bir tomondan, jome masjidlarida ilm sirlarini o'rgansalar, ikkinchi tomondan, o'z davlatlarining chegaralari hamda islom dini ma'naviyati qamrovini kengaytirishga intilganlar. Islom diniga qiziqib, mazkur ma'naviyat asoslarini egallovchilar chegaralardagi qal'alarda ta'lim olish uchun to'planishgan. Bunday qal'alar «Rabot»lar deb atalgan. Rabotlarda sahobalar to'plangan odamlar bilan ilmiy-ma'rifiy mavzularda suhbatlar o'tkazganlar. O'sha vaqtlarda odamlarning ilm egallashga bo'lgan ehtiyoji yuqori bo'lib, ular bo'sh vaqtlarini islom ma'naviyati va axloqi asoslarini o'rganishga sarflaganlar. Rabotlarda amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya ko'plab odamlarni o'ziga jalb etib, xonaqohlar va ilmiy-ma'rifiy dapgohlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Kishilarning tarixiy, ijtimoiy, aqliy hamda ma'naviy yuksalish ehtiyojlari mahsuli sifatida tasavvuf ta'limoti vujudga keldi.

Sulaymon Boqirg'oniy (1091–1186) – turkiy “avliyo”, afsonaviy so'fiy shayxi, islomning O'rta Osiyodagi yirik targ'ibotchisi hamda yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy shogirdlarining eng ko'zga ko'ringan vakli hisoblanadi. U Qiyomatning islomiy versiyasi bo'lgan “Oxir zamon kitobi” asarining muallifidir. “Boqirg'oniy ko'nglida “ishqi ilohiy va zavqi ilohiy” tug'yon qilgan shoir murabbidir. Uning she'rlari bu dunyoni do'zaxga aylantirmaslik, nafsu havoga berilib, xalq boshiga qiyomat azoblarini solmaslik, ong qulligidan xalos bo'lish, din qudratini ulug'lash kabi ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarni ifodalaydi”.⁵

¹ Koshifiy X.V. Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (tarj. N.Komilov). T., A.Qodiriy nom. “Xalq merosi” nashr., 1994, 17 – 18-betlar.

² Jo'shon M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi (N.Hasan tarj.). T., “Cho'lpon”, 1998, 64 – 65-betlar.

³ Shu manba.

⁴ Shu manba.

⁵ Кыдырбаева М., Турдыбаев А. Хаким ота Сулаймон Бакирғоний ва унинг даври. Zbo'r artykułow naukowych recenzowanych. (1) Z 40 Zbiór artykułow naukowych z Konferencji Międzynarodowej NaukowoPraktycznej (on-line) zorganizowanej dla pracowników naukowych uczelni, jednostek naukowo-badawczych oraz badawczych z państw obszaru byłego Związku Radzieckiego oraz byłej Jugosławii. (30.03.2020), Warszawa, 2020, p. 12.

Allomaning shaxs aqliy, intellektual, axloqiy, estetik, ma'naviy, madaniy, jismoniy tarbiyasiga oid fikrlari yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Sulaymon Boqirg'oniyning hayoti va ijodi haqidagi tarixiy ma'lumotlar turli rivoyatlar bilan aralashib ketganligi bois uni asl ilmiy-tarixiy dalillar asosida o'rganish tadqiqotchilar uchun ancha murakkablik tug'diradi. Xalq orasida "Hakim ota" nomi bilan ham mashhur bo'lgan valiy inson Sulaymon Boqirg'oni o'z iqtidori va she'riy iste'dodi bilan Xoja Ahmad Yassaviyning e'tiborini qozongan. "1911-yilda yozilgan Jo'yborzoda qalamiga mansub "Manoqib"da aytilishicha, Hakim ota (Hazrat Sulaymon) Qur'oni karimga o'zgacha hurmat ko'rsatib, darsga borayotib, Mus'hafni boshi uzra ko'tarib olar ekan. Buni ko'rgan Ahmad Yassaviy hazratlari uni shogirdlikka taklif etadi. Hakim ota u zotning qo'lida ta'lim olib, o'n besh yoshida muridlikni qabul qiladi"¹.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, Allomaning nafaqat diniy balki ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy, estetik, ma'naviy, ma'rifiy tarbiyaga oid ilg'or g'oyalari alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, odob-axloq, insonparvarlik, xalqsevarlik, adolatparvarlik, tejamkorlik, mehnatsevarlik, ota-onani e'zozlash, yoshlarni o'zlaridan katta kishilarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilishga oid yondashuvlari bugungi kunda muhim tarbiyaviy qadriyat sifatida baholanadi. Alloma o'z ustozining tariqati qoidalarini yanada chuqurlashtirib sodda, ravon uslubda keng xalq ommasiga yetkazgan. Udiniy va dunyoviy ilmlardan ta'lim berish bilan birga tasavvuf ta'limoti g'oyalarini yoyishga ham o'z hissasini qo'shgan. U o'z asarlarida islomni, shariat va tariqat qoidalarini targ'ib qilib, kishilarni o'z nafsini quliga aylanishdan qaytargan hamda kishilarni ilmi bo'lishga, u dunyoni o'ylab yashashga, Allohning karamidan bahramand bo'lishga da'vat etgan.

Sulaymon Boqirg'oni o'zidan "Oxir zamon kitobi" nomli mashhur hikmatlar to'plamini yozib qoldirgan. Ko'plab tarixchilarning fikricha, Sulaymon Boqirg'oniyning hayoti va ijodi haqidagi tarixiy ma'lumotlar turli rivoyatlar bilan aralashib ketganligi bois uni asl ilmiy-tarixiy dalillar asosida o'rganish tadqiqotchilar uchun ancha murakkablik tug'diradi. Xalq orasida "Hakim ato" nomi bilan ham mashhur bo'lgan valiy inson Sulaymon Boqirg'oni o'z iqtidori va she'riy iste'dodi bilan Xoja Ahmad Yassaviyning e'tiborini qozongan.

Sulaymon Boqirg'oni islom ma'rifatini Allohni tanish, uning nazariga tushishdan iborat ma'naviy-axloqiy jarayon sifatida talqin qiladi. Oliy muhabbatni Allohga bo'lgan muhabbat, deb uni keyingi darajasi boshqa insonlarga mehr-muhabbatda bo'lish kerakligini alohida ta'kidlab o'tadi.²

Sulaymon Boqirg'oni islom ma'rifatparvarligi va bag'rikengligini yorqin ifodasi bo'lgan tariqat yo'lini komil insonni tarbiyalash yo'li, jannatga eltuvchi yo'l, deb biladi. Alloma o'z o'gitlarida davriga xos ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik va boshqa illatlar uchun javobgar shaxslarni u dunyo azoblari dahshatini eslatish bilan tarbiyalashga harakat qiladi. Insofsiz va imonsiz amaldorlar, nopok ishlar bilan shug'ullanuvchi, haromxo'r, nodon va johillar hamda bosqinchi, talonchi kishilarni keskin tanqid qiladi.

Sulaymon Boqirg'oniyning she'rlari o'z davrida "Boqirg'on kitobi" (bu asar 19–20-asr boshlarida Qozonda 3 marta nashr etilgan) nomi bilan mashhur bo'lgan. Shuningdek, allomaning "Bibi Maryam kitobi", "Oxir zamon kitobi" kabi dostonlari xalq orasida mashhur bo'lgan. Bu asarlarda alloma o'zining tasavvufiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy va estetik qarashlarini batafsil bayon etadi³. Ularda shariat va tariqat talablari, uning zaminidagi axloqiy qarashlar, jumladan, yaxshilik qilish kerakligi, hirs, baxillik, hacad, zulm kabi yomon illatlardan xoli bo'lish; dunyoga berilmaslik kabilar bayon qilinadi. Sulaymon Boqirg'oniyning bu risollarida insonning poklanish va kamolga yetishi zarur bo'lgan barcha narsalarni qalamga olgan. Ayniqsa, shariat va tariqat munosabatlarini ochib berib, bu borada katta xizmatni amalga oshirgan. Sulaymon Boqirg'oniyning muhabbat haqidagi fikrlari tasavvufdagi qarashlarga nihoyatda yaqin bo'lgan. So'fiylar ta'limotida Xudo butun borliq bilan birlashib ketgan, uning nuri borliqning har bir zarrachasida, har bir vujudida mavjud. Shuning uchun so'fiylar dunyoqarashida Allohga bo'lgan muhabbat butun borliq bilan birlashib ketishi, o'z "Men"ligini yengishdir. O'z "Men"ligidan voz kechish ancha murakkab jarayon bo'lib, ziddiyat va qiyinchiliklarga boydir.

¹ <https://hidoyat.uz/23902>

² Тарикат Ясавийа и Крым. Сулейман Бакыргани: дастаны и химкаты (текст). М-во культуры Российской Федерации, Гос. республиканский центр русского фольклора, Крымский центр этнокультурных ценностей; вступ. очерк, пер. и коммент. Л.В.Бахревского. Москва, Гос. республиканский центр русского фольклора, 2015, с. 207.

³ Родная литература. Учебник, сост. Р.Р.Валиуллина, Д.Д.Гурьянова, К.М.Тухбатуллина (и др.), Казанский инновационный университет имени В.Г.Тимирязова, Казань, "Познание", 2020, с. 153.

Жумаев Санжар Жўрақулович (Қарши Мухандислик-иқтисодиёт институти Хорижий тиллар кафедраси катта ўқитувчиси)

ТИЛШУНОСЛИК ГАП КОНТЕКСТИДА МОДАЛЛИК МАЪНОСИНИНГ НУТҚИЙ ТУЗИЛМА МАЗМУНИДАГИ ЎРНИ

Аннотация. Ушбу мақолада гап прагматик мазмунини шаклланишида модал бирликлар ба-жарадиган вазифалар кўламини ўрганиш ва мазмун ривожини таъминловчи лисоний воситалар вариантлашувининг семантик, грамматик ва синтактик хусусиятларини чегаралаш, прагматик мазмунни таъкидлаш ва юмишатиш воситаларининг мулоқот матни доирасида фаоллашув ва ўзаро мослашув шартларини таҳлил қилинган.

Аннотация. В статье исследуется объем задач, выполняемых модальными единицами при формировании прагматического контента, и ограничиваются семантические, грамматические и синтаксические особенности выбора языковых средств для обеспечения разработки контента, анализируются условия активации и взаимодействия в рамках коммуникативного текста прагматического содержания.

Annotation. This article examines the scope of tasks performed by modal units in the formation of pragmatic content and limits the semantic, grammatical and syntactic features of the choice of linguistic means to ensure content development, analyzes the conditions of activation and interoperability within the communication text of pragmatic content.

Калим сўзлар: гап тузилиши, прагматик мазмун, нутқий тузилмалар, нутқий мулоқот, модал сўз, сўзловчи, тингловчи.

Ключевые слова: структура речи, прагматическое содержание, речевые структуры, речевое общение, модальное слово, говорящий, слушатель.

Key words: speech structure, pragmatic content, speech structures, speech communication, modal word, speaker, listener.

Нутқий тузилманинг коммуникатив мазмуни, умумий маънодан ташқари, гапнинг нутқ контекстида фаоллашуви билан боғлиқ ҳолда юзага келадиган қатор семаларни акс эттириши юқорида қайд этилди. Шунга биноан, тилшунослар тасдиқ иллокутив ҳаракати доирасида турли нутқий актлар бажарилишини қайд этиб келмоқдалар. Жумладан, Л.Б.Чахоян констатив нутқий актлари 1) хабар; 2) тасдиқ; 3) тахмин; 4) маълум қилиш ва бошқа маъноларни ҳам ифодалашини айтиб ўтган.¹ Бошқалар ушбу қаторни яна-да кенгайтириш тарафдоридирлар. Масалан, Н.А.Комина гапнинг мазкур прагматик тури сўзловчининг пропозиция маъносининг ростлигига ишора қилаётиб, хабар тасдигидан ташқари, баён, изоҳ, ишонтириш каби маъноларига эга бўлишини таъкидлайди.²

Дарак, ундов, сўроқ кабиларни категориал прагматик маъно сифатида қарайдиган бўлсак, гап тузилмасининг ифода планидаги бундай имконияти вазифавий ва коммуникатив жиҳатдан намоён бўлишини эътироф этмоқ керак. Нутқий актларнинг фарқланиши эса кўпроқ сўзловчининг мулоқот мақсадидаги даражаланиш билан боғлиқдир. Ж.Жумабоева айланма характердаги градуонимик қаторларга «циклик градуонимик қатор» атамасини бераётиб, ушбу қаторнинг моҳиятини бирор-бир ходисага нисбатан қатор аъзоларида бошланғич ва охириги нукта мавжуд бўлишини, «уларнинг бу нукталари бир-бирига антоним бўлмасдан, айланма ҳаракатда эканлигини» уқдиради.³ Шунга нисбатан, иллокутив куч даражаланишини ҳам нутқ тизимида намоён бўладиган градуонимия ходисасининг намунаси сифатида талқин қилиш мумкин, деб ҳисоблаймиз.

Нутқ актларининг мазмун жиҳатидан даражаланиши ва фарқланишида гап прагматикасида муҳим ўринни эгаллайдиган модалликнинг ҳам ҳиссаси бор. Нутқий ҳаракатлар маълум қилинаётган ахборотнинг ҳақиқатлиги, аниқлиги, ишончилиги, фарзлилиги, зарурлиги кабилар билан фарқланади. Анъанавий грамматикада ушбу маъно оттенкаларининг модаллик категориясига ки-

¹ Чахоян Л.П. Общая теория высказывания. Спорные вопросы английской грамматики. Л., изд-во Ленинградского университета, 1988, с. 122 – 141.

² Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия. Филол. фанлари доктори. дисс. автореферати, Т., 2016, 81-бет.

³ Жумабаева Ж.Ш. Шу манба.

ритилиши барчага маълум. Прагмалингвистлар мазкур қатордаги маънолар баҳо модаллиги мазмуни касб этишини қайд этадилар.¹

Маълумки, тилшунослик ва мантиқшунослик фанларида узоқ вақтдан буён муҳокама қилиб келинаётган модаллик категориясининг моҳияти ҳақида аниқ бир тўхтамга келингани йўқ. Кўпчилик ҳозиргача бу борада В.В.Виноградов ва Ш.Балли билдирган фикрларга эргшиб келмоқда. Ш.Баллининг қайдича, ҳар қандай гап таркибида, асосий маъно (диктум)дан ташқари, сўзловчининг интеллектуал ва эмоционал муносабатини ифодоловчи модал қисм (модус)ни ажратиш мумкин. Бундай талқинда модаллик синтаксис сатҳига оид категория кўринишини олиб, унинг зоҳирланишида сўзловчининг тасвирланаётган ҳодисага нисбатан муносабатини кўрсатувчи феъллар етакчи ролни ўтайди.²

Академик В.В.Виноградов модаллик ҳодисасини кенг қўламдаги семантик воқелик сифатида талқин қилиш тарафдори бўлса-да, лекин уни синтактик категориялар қаторидан ўрин оладиган предикативлик доирасида тавсифлашни маъқул кўради. Унинг талқинича, «гапда ифодаланаётган ахборотнинг воқелик билан боғлиқ жиҳати – модал муносабатдир»³ ва шунинг учун ҳам модаллик предикативлик акс топадиган категориялар орасида олдинги ўринга чиқади.

Модаллик ва предикативлик категорияларининг ёнма-ён қўйилиши масаласи тилшунослар томонидан хануз муҳокама қилиниб келинмоқда. Турли олимлар томонидан ушбу мавзуга оид билдирилган фикрлар Ж.Ёқубовнинг монографиясида бирмунча батафсил баён қилинганини инобатга олиб, олим билдирган хулоса бизга маъқул эканлигини маълум қилиш билан чегараланамиз. Ушбу хулосада айтилишича, предикативлик тил сатҳида мантикий-синтактик категория сифатида қаралганида, модаллик ва предикативлик ўртасида муайян чегара бўлиши мумкин. Предикативликнинг юзага келиши тилнинг фикрни ифодалаш функцияси билан боғлиқ бўлса, «модаллик эса шундай грамматик воситаларни қамраб оладиги, улар тилни алоқа воситаси сифатида белгиланганлиги туфайли ҳосил қилиб, амалда фикр-мулоҳазаларимизни баён қилишни таъминлайди».⁴

Умуман, замонавий тилшуносликда модаллик категорияси уч йўналишда тавсифланмоқда: мантикий-тушунчавий, коммуникатив ва функционал-семантик.

Мантиқшунослик фанида кенг тарқалган мантикий-тушунчавий ёндашувда модаллик категорияси ҳукм билан боғлиқ ҳолда қаралиб, зарурий (аподиктик), эҳтимол (проблематик), воқеий (ассерторик) ҳукмлар бир-биридан фарқланади.⁵

Нутқий мулоқот, инсон фаолиятининг бир тури сифатида реал воқеликни билиш жараёни билан боғлиқликда кечади ва бу жараёнда сўзловчи идрок этилаётган объектлар ўзаро боғлиқлигини аниқлаш билан биргаликда, уларга нисбатан ўз муносабатини билдиради. Шунга асосан, модаллик лисоний коммуникация бирликларининг вазифавий белгиси ҳисобланади. Бинобарин, Л.Г. Давиденконинг диссертациясида модаллик коммуникатив турининг алоҳида модал феълларнинг шахс олошлари билан бирикишидаги фарқли жиҳатлари билан боғлиқлиги кўрсатиб берилган.⁶

Лисоний ҳодисалар тадқиқига функционал ёндашув тилнинг мулоқот жараёнида намоён бўладиган табиатини очиб бериш ва шарҳлаш имкониятини яратади. Функционал грамматиканинг шаклланиши тилшунослик фани ривожининг зарурий талабига айланди ва ўтган аср охирларига келиб етакчи йўналишлардан бирига айланди.⁷ Аммо «функционал грамматика» термини турли маънода қўлланиб келинмоқда ва бунинг сабаби тил тизимининг ҳозирги пайтда турлича талқин қилиниши ҳамда «вазифа» тушунчасининг объектнинг ўзи таркибида турган структура билан боғлиқ ҳолда қаралишидадир. Оқибатда айрим тадқиқотчилар модалликни «тилнинг турли сатҳларида намоён бўладиган грамматик маънолар тизими», деб тавсифлаш измидан бормоқдалар.⁸

¹ Levinson S. Presumptive Meanings. A Theory of Generalized Conversational Implicature. Cambridge, Ma: MIT press, 2000, p. 504.

² Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. Изд. 2, М., URSS, 2001, с. 416.

³ Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. М., «Наука», 1975, с. 559.

⁴ Ёқубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланишининг семантик хусусиятлари. Т., «Фан», 2005, 223-бет.

⁵ Давыденко Л.Г. Коммуникативная модальность предложений с глаголами can/could, may/might. Автореф. дисс.... канд. филол. наук, Пятигорск, 1994, с. 24.

⁶ Слюсарева Н.А. Проблемы функционального синтаксиса современного английского языка. М., «Наука», 1981, с. 201.

⁷ Беляева Е.И. Достоверность. В кн.: Теория функциональной грамматики. Темпоральность. Модальность. Л., «Наука», 1990, с. 157 – 169.

А.В.Бондарко модалликни сўзловчи нуқтаи назаридан нутқий тузилма пропозитив маъноси-нинг воқеликка муносабатини фаоллаштирувчи категориялар мажмуаси сифатида қарашни таклиф қилади ва бунда реаллик ирреаллик етакчи хусусиятга айланади. Ушбу хусусиятларга бўлган муносабат: 1) мумкинлик, эҳтимоллик, зарурат; 2) ҳақиқатлик баҳоси; 3) коммуникатив мўлжал; 4) тасдиқ/инкор; 5) гувоҳлик каби маъноларда акс топади.¹

Айтиш жоизки, тилнинг турли сатҳларига оид маъно кўрсаткичларини ягона бир мажмуа, майдон атрофида тўплаш анъанаси О.Есперсен, Л.В.Щерба, И.И.Мещанинов каби олимлар давридан буён давом этиб келмоқда. Бироқ А.В.Бондарко тушунчавий категория грамматик қаторга ўтишини унинг фақат махсус шакллар воситасида ифодаланишида кўради.² Рус тилшуноси Т.П. Ломтев ҳам модал кўринишдаги семантик фарқларни грамматик хусусиятлар қаторига қўшади, чунки улар турли гап моделларида ифода топади.³

А.В.Бондарконинг фикрича, замон, майл, вид, даража каби грамматик категориялар аспектуаллик, модаллик каби функционал-семантик майдонларнинг морфологик асосини ташкил қилади. Бундай ҳолатда тилнинг функционал бирлиги етакчи ўринга чиқиб, унинг бажараётган вазифавий маъноси инобатга олинади. Функционал-семантик категория мажмуавий характерга эга ва маълум миқдорда маънолар тўпланими камраб олади. Ушбу маънолар турли сатҳларга оид бирликлар томонидан ифодаланади ҳамда маълум синтактик вазифани бажаради. Тилнинг коммуникатив моҳиятини рўёбга чиқаришда синтаксиснинг роли алоҳида эканлигини функционал йўналиш тарафдорлари доимо қайд этиб келадилар.⁴ Функционал майдон назарияси лисоний ҳодисаларнинг вазифавий ва тизимли тавсифини бирлаштиришга имкон туғдиради. Агарда грамматик категорияларни ажратишда турли шакллар қарама-қаршилиги турса, функционал-семантик категорияда эса маънолар тўплами туради. Майдон таҳлили усулидан фойдаланадиган функционал-семантик категория тил сатҳлари ва уларга тегишли бирликларнинг тизимли муносабатини тавсифлашга шароит туғдиради.

Kalandarov Aybek Ruzimbaevich (PhD), Ismoilova Onagul Ibrohimovna (Urganch davlat universiteti)
VALENTLIK NAZARYASIGA DUNYO OLIMLARINING TURLICHA YONDASHUVI

***Annotatsiya.** Maqolada valentlik tushunchasining gap qurilmasidagi muhim ahamiyati va mazkur atama haqidagi jahon tilshunoslarining turlicha qarashlari va munozarali fikrlari, bugungi kunda so'z turkumlari valentligi, qardosh va qardosh bo'lmagan tillardagi valentlikning roli haqida so'z boradi.*

***Аннотация.** В статье обсуждаются значение понятия валентность в структуре речи и различные взгляды и споры мировых лингвистов о термине, валентность словосочетаний на сегодняшний день, роль валентности в родственных и неродственных языках.*

***Annotation.** The article discusses the importance of the concept of valency in the speech structure and the different views and debates of world linguists on the term, the valency of word groups today as well as its role in related and non-related languages.*

***Kalit so'zlar:** valentlik, verbosentrizm, morfema, fonologik sath, leksik sathda, taksokomik elementlar, ko'p valentli fe'l, bir valentli fe'l, nolga teng valentli fe'llar, sintagmali sath, semantik, leksik, sintaktik.*

***Ключевые слова:** валентность, verboцентризм, морфема, фонологический уровень, лексический уровень, таксономические элементы, поливалентный глагол, одновалентный глагол, нульвалентные глаголы, синтагматический уровень, семантический, лексический, синтаксический.*

***Key words:** valency, verbocentrism, morpheme, phonological level, lexical level, taxonomic elements, polyvalent verbs, monovalent verbs, zero-valent verbs, syntagmatic level, semantic, lexical, syntactic.*

¹ Бондарко А.В. Предисловие. В кн.: Теория функциональной грамматики. Темпоральность. Модальность. Л., "Наука", 1990, с. 3 – 4.

² Бондарко А.В. Основа функциональной грамматики. СПб., изд-во СПб ун-та, 2001, с. 297.

³ Ломтев Т.П. Предложение и его грамматические категории. М., URSS, 2007, с. 200.

⁴ Слюсарева Н.А. Проблемы функционального синтаксиса современного английского языка. М., "Наука", 1981, с. 201.

Lingvistika tarixida valentlik nazaryasi S.D.Kasnelson tomonidan 1948-yilda ishlatilib, quyidagicha izohlanadi: “So‘zning gap qurilmasida ishtirok etishi xususiyatlaridan asosiysi boshqa so‘zlar bilan ma’lum kombinatsiya asosida voqealanishini valentlik deb nomlanadi”.¹

Keyinchalik esa L.Tenyerning fe‘lning valentlik nazaryasini ishlab chiqishi gapning verbosentrizm konsepsiyasining rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Lekin sintaktik sathda valentlik tushunchasi tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilindi, ya’ni ”...so‘zlarning boshqa so‘zlar bilan birikishi mohiyati tushunilsa”, V.V.Burlikova esa so‘zlarning morfemalar asosida birikish usullari, ya’ni ikki valentlik to‘g‘risida fikr yuritadi.²

Umuman oladigan bo‘lsak, valentlik nazaryasi tilning barcha sathlarida keng qo‘llanilmoqda, fonologik sathda (Stepanova, Xelbeg. 1978) leksik sathda (Rozenivich. 1984; Kibordina. 1979, 1975, 1976, 1981, 1988; Peshkovskiy. 2002; Burlakova. 1981 va boshqalar), tilshunoslikda ko‘pchilik olimlar tilning leksik sathida fe‘lning leksik ma’nosidan kelib chiqib, fe‘llarni gapda boshqa sintaktik birliklar bilan birikishi imkoniyatlaridan kelib chiqib, bir valentli, ikki valentli va hokazolarga ajratib tadqiq qilishadi.

Rus olimi I.B.Dolinaning fikriga ko‘ra: “Valentlik–lingvistik tahlilning bir sathida elementlarning o‘zaro birikish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, bu birinchi imkoniyatlari ularning ichki xususiyatlari bo‘lib, unga, avvalo, uning semantik holati deb hisoblashga aytiladi”.³ Odatda, valentlik haqida gap ketganda, taksokomik elementlar haqida gapiriladi, lekin so‘z turkumlar valentligi borasida gap boradi.

Ko‘p tadqiqotlarda fe‘lning valentligi lug‘atlarda berilgan fe‘lning leksik ma’nosidan kelib chiqadi. Albatta, lug‘atlarga asoslanib, valentlikni aniqlash maqsadga muvofiq kelgan. Chunki fe‘llarning leksik ma’nolari ba’zi lug‘atlarda to‘liq bayon qilinadi. Ayniqsa, shunday holat N.N.Stepanova va E.V.Rozevalarni monografik ishlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.⁴ Hatto qardosh bo‘lmagan tillar misolida ko‘radigan bo‘lsak, gap qurilmasini tahlil qilishda valentlikni aniqlashda, kesim bo‘lib kelgan fe‘lning leksik ma’nosidan ta’kidlanadi.

Turli xil sinfga tobe so‘zlarning valentligi masalasi bugungi zamonamizda ko‘pchilik tadqiqotlarning asosiy mavzusiga aylangan. Bu sohada ko‘proq e’tibor fe‘lga qaratiladi, chunki uning valentlik xususiyatlari gap qurilmasiga yorqinlik kiritadi. Bunday vaziyatlarda fe‘l so‘z turkumiga oid bo‘lgan so‘zlarni bir valentli, ikki valentli hamda ko‘p valentli, nolga teng valentlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Nemis tili misolida qaraydigan bo‘lsak, ular fe‘llarni bir valentliga ajratishda shaxssiz fe‘llarni hisobga oladi.⁵ Ayrim tilshunoslarning nazarida, kesim vazifasini o‘tab kelgan fe‘l subyekt va obyekt bilan birikib kelsa, bir valentli fe‘l deb hisoblansa, subyekt va obyektidan tashqari (hol, maqsad, sabab, payt, o‘rin va h.k.) kabilar bilan ham birikib kelsa, ko‘p valentli fe‘l deb qaraladi. Tilshunos olimlar ingliz tili misolida fe‘llarning valentliklarini aniqlaganda, ularni leksik-semantik guruhlariga ajratib tadqiq qilishni ta’kidlaydilar.⁶

Valentlik leksik sathda fe‘l bazasida qaralganda, mazmuni ham nazardan chetda qoldirmasligimiz lozim. Har ikkisining ham mutanosibli, ya’ni mazmuniy valentliklarning muvofiq kelishi predmet fe‘l bilan yoki bog‘lama fe‘lning predikat bilan kelishi, predikatning argument fe‘lni to‘ldiradigan otlar bilan mos keladi. Bunday holatda fe‘lning mazmuniy valentligi uning qanday otlar bilan birika olish imkoniyatlari bo‘lsa, u subyekt-obyekt funksiyalari orqali aniqlanadi.

Valentlik tushunchasini ingliz tiliga lotin tilidan kirib kelgan otlarda so‘z yasalish valentligini leksik sathda ifodalanishiga harakat qilinadi.⁷ Lekin valentlik deganda ot yasovchi qo‘shimchalari so‘z bilan cheklanadi. Bundan tashqari, N.N.Bilimovich ilmiy uslub manbasida old qo‘shimchasiz fe‘llarning leksik-semantik subyekt valentlik haqida ayrim fikrlarini yoritib, tilning leksik sathidan sintagmali sathiga o‘tib, gapdagi ega va kesimning o‘zaro birikishini valentlik deb hisoblaydi.

¹ Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значения и обозначения. Москва – Ленинград, “Наука”, 1965, с. 81.

² Бурлакова В.В. Основы структуры словосочетания в современном английском языке. Ленинград, ЛГУ, 1975, с. 81.

³ Долинина И.Б. Системный анализ предложений. Москва, “Высшая школа”, 1977, с. 28.

⁴ Степанова М.Д., Хельбиг Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке. Москва, “Высшая школа”, 1978, с. 184.

⁵ Тот же. 184 с.

⁶ Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. Перевод с франц., Москва, “Наука”, 2007, с. 15.

⁷ Юликова Н.М. О локативной валентности переходных и непереходных глаголов. Функционально-семантические аспекты грамматики. Лингвистические исследования, 1987, с. 216 – 217.

Yuqorida keltirilgan faktlardan ma'lumki, valentlikni aniqlashda, asosan, "вербоцентризм" konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, fe'llar, asosan, 4 guruhga bo'linadi:

Nolga teng valentli fe'llar: to drizzle, to rain, to snow, to freeze;

Bir valentli fe'llar o'timsiz: to doze, to travel, to back, to blink, to cough, to joint;

Ikki valentli fe'llar o'timli: to answer, to attack, to begin, to go, to keep, to love;

Uch valentli fe'llar: to say, to tell, to give, to present.¹

Bunday ajratishda asosan ishtirokchilar irearxiyasiga tayaniladi: ega birinchi ishtirokchi, vositasiz to'ldiruvchi ikkinchi ishtirokchi, vositali to'ldiruvchi uchinchi ishtirokchi hisobidan valentlik soni aniqlanadi.

J.Erben nafaqat gap qurilmasida ega va to'ldiruvchi fe'l valentligini aniqladi, balki hol, predikativli aniqlovchi va predikativlar ham fe'l valentligini aniqlashga yordam berishini ta'kidlab, sodda gapni to'rt modelga ajratadi:

1) bir valentli fe'l bilan: the girl is napping;

2) ikki valentli fe'l bilan: the dog caught a fish;

3) uch valentli fe'l bilan: the aunt teaches her niece to sew;

4) to'rt valentli fe'l bilan: the daughter is writing a letter to her father with the pen.²

G.Helbrig bo'lsa valentlikni uch turga ajratadi: logik (mantiqiy) valentlik, sintaktik va semantik valentlik.

Logik, ya'ni mantiqiy valentlikda logik predmetlar bir necha bo'sh argumntlarga ega bo'lishi hisobga olinsa, semantik valentli fe'llar ushbu kontekstga mazmun jihatdan mos keladigan sintaktik birliklarni talab qiladi. Sintaktik valentlik esa bo'sh joylarni majburiy yoki fakultativ tarzda boshqa sintaktik birliklar bilan to'ldirilishiga aytiladi.

Y.D.Apresyan shunday ta'kidlaydi: "...valentlik uch ko'rinishga ega: semantik, leksik, sintaktik. Semantik valentlik so'zning bir aniq semantik belgisi asosida boshqa lug'at birliklarning bog'lanishi, leksik valentlik aniq so'zlarning soniga qarab, so'zlarning bog'lanishiga aytiladi. Sintaktik valentlik ba'zi bir lug'at birliklarining boshqa so'zlar bilan boshqaruviga yoki boshqarish imkoniyatlari inobatga olinadi".³

Demak, valentlik nazaryasi tilshunolarimiz tomonidan turlicha talqin qilinishi bu nazaryaning bahstalab nazaryalardan ekanini isbotlaydi. Mazkur ishimizda barcha tilshunolarning valentlik to'g'risidagi fikrlarini atroflicha talqin qilmasdan, biz, asosan, valentlikni gapda sintaktik sathda sintaktik aloqalar bazasida faktik misollarni tahlil qilish bilan cheklanamiz.

**Tuychiyev Soxibjon Erkinovich (SamDCHTI 1-kurs doktoranti; sohibjontuychiev1982@gmail.com)
UYUSHIQ BO'LAKLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR**

Annotatsiya. Ushbu maqola gap tarkibida uyushtirilgan bo'laklarni tadqiq etishga bag'ishlangan. Muallif maqolada gap tarkibida uyushtirilgan bo'laklar o'zaro bog'lovchilar, tinish belgilari va intonatsiya orqali bog'lanishini yoritib bergan. Gapning uyushtirilgan bo'laklari zamonaviy tahlil metodlari asosida tadqiq qilinishi ta'kidlanadi.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению однородных членов предложения в языках. Автор описывает способ взаимоотношений однородных членов в предложении, особенно союзов, знаков препинания и интонации. Отмечается, что однородные члены предложения необходимо исследовать с помощью современных лингвистических методов.

Annotation. This article is dedicated to the study of homogeneous parts of sentence in the languages. The author describes the way of interrelations of homogeneous parts in the sentence, especially, with conjunctions, punctuations and intonation. It is noted that homogeneous parts of sentence should be investigated through modern linguistic methods.

Kalit so'zlar: gap tarkibi, tilshunoslik, metod, gap bo'laklari, uyushtirilgan bo'laklar, bog'lovchilar, sintaktik vazifa, komponent va sintaksem tahlil.

Ключевые слова: состав предложения, лингвистика, метод, члены предложения, однородные члены, соединение, синтаксическая функция, компонентный и синтаксемный анализ.

¹ Терещенко Н.М. Синтаксис самодийских языков. Простое предложение. Ленинград, Ленинградское отделение, 1973, с. 14 – 28.

² Erben J. Abriss der Deutschen Grammatik. 9. Unvererandert. Auf 1. Berlin, 1966, p. 45.

³ Апресян Ю.Д. Отечественная теоретическая семантика в конце XX столетия. Изб. РАНСЛЯ. 1999, с. 51.

Key words: *sentence structure, linguistics, method, parts of sentence, homogeneous parts, conjunctions, syntactic function, componential and syntaxem analysis.*

Jahon tilshunosligida uyushiq bo‘laklar haqida bir qator tadqiqot ishlari olib borilganiga qaramasdan, hamon gap tarkibidagi uyushiq bo‘laklar tilshunoslarning diqqat markazida turganligi, ayni haqiqatdir. Shu bilan birgalikda, mazkur ilmiy maqolada jahon tilshunos olimlari tomonidan gap tarkibida ishtirok etuvchi uyushiq bo‘laklarga berilgan izoh va ta’riflar haqida ayrim mulohazalarni tadqiq etish maqsad qilib olingan.

Gap tarkibining elementlaridan hisoblanuvchi uyushiq bo‘laklarni sintaktik tahlil orqali aniqlanishiga e’tibor qaratilgan. Bu borada nemis tili misolida A.M.Arsenovaning ta’riflashicha, “...uyushiq bo‘laklar ikki va undan ortiq egalar bir umumiy kesimda, ikki va undan ortiq kesimlar bir umumiy egaga, kesimga bir va o‘sha munosabatda turgan ikki va undan ortiq to‘ldiruvchilar, kesimga bir va o‘sha munosabatda turgan bir umumiy nisbiy so‘zda turgan ikki va undan ortiq aniqlovchilar, bir umumiy egaga yoki to‘ldiruvchida ikki va undan ortiq predikativ aniqlovchilar, kesimga bir va o‘sha munosabatda turgan ikki va undan ortiq hollar tarzida ifodalanadi”.¹

Bundan tashqari, o‘zbek tilshunos olimi T.Z.Mirsoatovning fikriga ko‘ra, “gapda aynan bir gap bo‘lagining birdan ortiq qo‘llanilishi, uyushiq kelishi mumkin. Bunday bo‘laklar gapning uyushiq bo‘laklari deyiladi. Uyushiq bo‘laklar o‘zaro teng bog‘lovchilar bilan yoki ularsiz birikadi. Har bir bo‘lagi, chunki, ega, kesim, aniqlovchi va hol uyushib keladi”.²

Tilshunoslikda uyushiq bo‘laklar tahlili uzoq tarixga ega bo‘lib, ushbu uzoq o‘tmishda uyushiq bo‘laklar haqida keng, mukammal ma’lumotlar bo‘lmagan, uyushiq bo‘laklarning u yoki bu xususiyati to‘g‘risida qisqa fikrlar bayon etilgan, xolos.³

Turk-tatar tillari misolida A.Kazimbekning ta’riflashicha, “Agar gapda bir qancha ega bo‘lsa, ular ba’zan “menen” ko‘makchisi bilan bog‘lanadi”.⁴

Taniqli tilshunos A.Fitrat o‘zining “Nahv” asarining “Gapning uyushgan bo‘laklari” deb nomlagan qismida gap bo‘laklarining takrorlanib, uyushib kelishi haqida, ularning imlosi va intonatsiyasining mavqeyi kabi masalalarni tahlil etadi.⁵

H.G‘oziyevning ta’kidlashicha, “Gap tuzilishida bir ega, bir kesim va bir xil ergash bo‘laklar bittadangina kelavermaydi. Bir turli bo‘laklar uyushib keladilar. Uyushiq bo‘lakli gaplarning sodda gaplarlardan farqi, asosan, uch holatda ko‘zga tashlanadi:

1. Bir xil vazifa va unga mos bir xil formada bir necha bo‘lak bo‘ladi.
2. Uyushuvchi bo‘laklarni o‘zaro bog‘lovchi ko‘makchi so‘z, qo‘shimchalar bo‘ladi.
3. Uyushiq bo‘lakli gapdagi uyushuvchi bo‘laklar, asosan, urg‘u bilan aytilib, o‘zaro bog‘lanadi”.⁶

Bulardan tashqari, H.G‘oziyev uyushiq bo‘laklarning boshqa xususiyatlari to‘g‘risida quyidagicha ta’rif beradi:

1. Uyushiq bo‘lakli gapdagi uyushiq bo‘laklar bir turli so‘roqqa javob bo‘ladilar.
2. Ba’zida qaratqich bo‘laklar qator kelib, bir xil so‘roqqa javob bo‘lsalar ham, uyushiq bo‘lak hisoblanmaydi. Chunki ular bir qaralmishni o‘zlariga qaratmasdan, balki birinchisi ikkinchi qaratqichni o‘ziga qaratib keladi.

Masalan:

Kolxozchining otining

Oq qashqasi bor ekan.

Anavi yigitga qarang

Mehnatga tayyor ekan. (misol G‘oziyevning asaridan)

Yuqoridagi misolda bir xil so‘roqqa javob bo‘ladigan ikki bo‘lak (*kolxozchining otining*) bo‘lsa ham, ular uyushiq bo‘lak emas. Chunki u qator kelgan qaratqichlardan *Kolxozchining* degan qaratqichni

¹ Arseneva A.M. Grammatik der deutschen Sprache. Leipzig. 1976, s. 102.

² Мирсоатов Т.З. Deutsche Grammatik. Тошкент, Ўздавнашр, 1980, 94 – 95-бетлар.

³ Ёров Б.А. Уюшиқ кесим: унинг зоти (субстанциал) табиати ва гапдаги мавқеи. Филол.фан.номз. ... дисс. автореф., Тошкент, 2001, 30-бет.

⁴ Казимбек А. Общая грамматика турецко-татарского языка. Изд. второя. Казань, 1846, с. 176.

⁵ Фитрат А. Наҳв. Тошкент – Самарқанд, Ўздавнашр, 1930, 28-бет.

⁶ Ғозиев Х. Грамматика (синтаксис). Тошкент, 1941, 38-бет.

o'zidan keyin kelgan *ot* deyilgan so'zni o'ziga qaratgan; *otning* deyilgan qaratqich *qashqasi* deyilgan so'zni o'ziga qaratib kelgan.¹

Undan tashqari, muallif uyushiq bo'laklar ma'nolaridagi bog'lanishlik asosida uyushiq bo'laklarni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Bir xildagi uyushiq bo'laklar. Bu holdagi uyushuvchi bo'laklar, asosan, ma'no jihatidan bir-birlariga qarama-qarshi bo'lmasdan, ular gapda yo bo'lishli, yo bo'lishsiz holdagi uyushgan kishi, narsa yoki ish-harakatni anglatadigan so'zlar bo'ladi. Masalan, *Quyosh yoritadi ham isitadi*. Bunday turdagi uyushiq bo'laklar *ham, na...na, bilan* kabi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi.

2. Turli holdagi uyushuvchi bo'laklar. Bu turga oid uyushiq bo'laklar ma'no tomonidan bir-biriga o'xshash bo'lmasdan, ular *lekin, ammo, biroq, balki* ko'makchi so'zlar yordamida bog'lanib, uyushiq bo'laklarning ma'nolarini ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Masalan, *Oy yoritadi lekin isitmaydi*.

3. Tanlanganlardan biri bo'luvchi uyushuvchi bo'laklar. Bularning uyushishlarida uyushiq bo'laklagan intonatsiyasi bilan *yoki, yo, yoxud* ko'makchilar yordamida ifodalanadi. Masalan, *Biz ekskursiya uchun Moskvaga yoki (yo, yoxud) Kievga boramiz*.

4. Galma-gal bo'luvchi uyushuvchi bo'laklar. Bunda bir turli bo'laklar galma-gal bo'lishini yoki qat'iy emasligini anglatib uyushadilar. Bunday holda uyushiq bo'lakli gap intonatsiyasi bilan *dam, goh (goh), ba'zi vaqtda, ba'zan* ko'makchilari bilan bog'lanadi. Masalan, *Onaning vahimali, sirqiratkich bir horg'inlik egalladi, u narsa uning ichidan chiqib kelar, ko'nglida dam qayg'u, dam shodlik qo'zg'alib boshini aylantirar edi*.

5. Ketma-ketin ma'noli uyushiq bo'laklar. Bu turli bo'laklarning ma'nosi biridan keyinroq ikkinchisining ish-harakati bo'lganini bildiradi. Bunday holda uyushiq bo'lakli gap intonatsiyasi yoki intonatsiya bilan uyushiq bo'laklarga *-u, -yu, -da* qo'shimchalari bilan beriladi.

Umuman olganda, turkiyshunos olimlarning mulohazalaridan ma'lumki, gap tarkibidagi uyushiq bo'laklarni gapning ana'naviy sintaktik tahlili, ya'ni bosh va ikkinchi darajali bo'laklar kesimida tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'lanishida ko'makchilarning, bog'lovchilarning va yuklamalarning roli haqida ko'proq e'tibor qaratilgan.

Hozirgi zamon o'zbek tilshunoslarining yaratgan nazariy grammatikalarida "gapning uyushiq bo'laklari, uyushiq bo'laklarning o'zaro bog'lanishi, uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi birliklar" kabi masalalarni oydinlashtirganligi ko'zga tashlanadi.

Masalan, A.G'ulomov yuqorida bayon etilganlar uyushiq bo'laklar haqidagi fikrlarga qo'shimcha ravishda quyidagilarni ta'kidlaydi:

1. Ular (uyushiq bo'laklar) grammatik formalari, so'z turkumi jihatdan ham, odatda, bir xil bo'ladilar, biroq bu holda doim shart emas;

2. Hamma uyushiq bo'laklar bosh urg'uga ega bo'ladilar.

3. Uyushiq fe'l kesimlarning o'z ayrim xususiyatlari bor:

a) eng oxirgi kesim to'la shakllangan bo'lib (shunisi asosiy ishni anglatib, mustaqil kesim sanaladi), bundan avvalgilari ravishdosh shaklida keladi. Bu holat, odatda, bir vaqtda, yo ketma-ket bo'lgan ish-harakatni ifodalashda uchraydi.

Masalan, *U tanib, bilib, so'ng so'zlay boshladi*.

4. Uyushiq bo'laklar juda kuchli birikkanda, ularga qo'shiluvchi so'z yasovchi affiks, yordamchi so'z ba'zan birgina bo'lib, hammasiga umumiy sanalishi mumkin.

5. Uyushiq qaratqichlarda qaratqich belgisini eng oxirgi bo'lakka qo'shish ba'zan ma'noda turli liklarni tug'diradi (intonatsiya o'zgarishi bilan).

Masalan, *Karim, Sharif va Tolibning otasi keldi* (1. Uchta ota. 2. Ikki bola, bir ota. 3. Bir bola, ikki ota. 4. Bir ota va boshqalar).

6. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'zlar ham keladi;

7. Birgina bo'lagi ko'rinib, chog'ishtirish ma'nosini ifodalovchi bo'laklar ham uyushiq bo'laklar qatoriga kira oladi. Bunda uning, aslida, uyushiq ekanligini shu bor bo'lgan bir bo'lakdan so'ng keluvchi "ham" yordamchisi ko'rsatadi. Bu yordamchi umumiy songa kiritish ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *Onasi ham keldi* (demak, boshqa odam ham kelgan). *Hatto kechasi ham o'qiydi* (demak, kunduzi ham o'qiydi). Bunda jinsdosh, ya'ni qarindosh tushunchalar biri orqali ikkinchisi anglashilib turadi.

8. Ba'zan uyushiq bo'lmagan aniqovchining uyushiq aniqovchiga aylanishi mumkin (yoki aksincha). Bu umumiy fikriy-grammatik holatdan, intonatsiyadan bilinib turadi.

¹ Шу маъба.

Masalan, *keng, yorug' yo'l* (uyushiq keng yo'l va yorug' yo'l) – *keng yorug' yo'l* (uyushiq emas: keng yo'l sifatlovchi, yorug' yo'l sifatlanmish).¹

Uyushiq bo'laklarni o'zaro bog'laydigan vositalarning qo'llanish darajasiga to'xtalib, "ham" bog'lovchisi bilan "va" bog'lovchisi qo'llanish darajasi va nutq uslubiga ko'ra farq qiladi: "va" bog'lovchisi kitobiy nutqqa mos bo'lib, yozma adabiy tilda juda faol qo'llanadi.

Rus tilshunosligiga e'tiborni qaratsak uyushiq bo'laklar gap tarkibida bir xil sintaktik funksiyada kelib, teng bog'lovchilar yordamida bog'lanadi yoki vergul bilan ajratiladi.² F.N.Gvozdev uyushiq bo'laklarning qanday so'z turkumlari bilan ifodalanishiga to'xtalib, gap qurilmasida uyushiq bo'laklarning sintaktik funksiyasi ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol vazifalaridan birida kelib, uyushiq bo'laklar pauza (yozma nutqda vergul bilan), bog'lovchilardan и, да, ни-ни, как-так и, да, так-как, сколько-столько, насколько-настолько, а, но, зато, хотя, нетолько-ко и, если не-то ravishlaridan, не столько-сколько, хотя, нетолько-а и, нетолько-но и, если не-то, не-то чтобы-а ёки но, не-то что -а ёки но, не только-но и, если не-то, не-то чтобы-а, или, либо, то-то, не-то- не-то, то ли- то ли kabilarga to'xtalib, ularning uyushiq bo'laklarga beradigan ma'nolarini aniqlaydi.³

Ayrim rus tilshunoslari gap tarkibida qanday sintaktik vazifasida uyushiq bo'laklarning kelishini, ya'ni ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol kabilarning har birini ifodalanish usullarini o'zaro qanday bog'lovchilar bilan bog'lanishi hamda uyushiq bo'laklar oldidan qanday predloglar bilan birikishini shaklan ham mazmuniy va stilistik holatlarini atroflicha izohlaydi.

V.V.Babayseva, L.Y.Maksimovlarning ta'kidlashicha, "Gapning uyushiq bo'laklari sintaksisning struktur-semantik kategoriyasi bo'lib, u nafaqat sodda gaplar tarkibida, balki qo'shma gaplar tarkibida ham uchraydi". Uyushiq bo'laklar gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklar o'rnida berilishi mumkin".⁴

Ushbu darslikda ham uyushiq bo'laklar gap tarkibida ega, kesim, ega va kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol kabi vazifalarda uchradi va ular, asosan, yozma nutqda vergul va teng, ayiruv va zid bog'lovchilari yordamida bog'lanishi hamda uyushiq bo'laklarning qanday so'z turkumlari yordamida ifodalanishi kabilarni izohlash bilan cheklanadi.

Ingliz tili amaliy va nazariy grammatikalarining uyushiq bo'laklari haqida to'xtaladigan bo'lsak, V.L.Kaushanskaya, R.L.Kovner, O.N.Kojevnikova, E.V.Propofeva, Z.M.Raynes, S.E.Sivirskaya, F.Y.Sirlina, ular gap strukturasi qanday sintaktik funksiyalarda uyushiq bo'laklar kelishi haqida qisqacha to'xtalgan.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan ma'lumki, gap tarkibida uyushiq bo'laklarning sintaktik o'rni, ularning o'zaro bog'lanishida bog'lovchilarning va intonatsiyaning rollari haqida atroflicha ishonchli fikrlar o'z o'rnini topgan. Gap tarkibida uyushiq bo'laklarning sintaktik tahlili ana'naviy tarzda bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib tahlil qilingan. Bizning fikrimizcha, gap tarkibidagi uyushiq bo'laklarni zamonaviy lingvistik tadqiqot metodlari asosida tahlil qilishni taqozo etadi.

Shu sababli keyingi ilmiy tadqiqot ishlarimizda har qanday gap strukturasi komponentlarga va sintaksemalarga ajratib, qiyosiy-funksional tahlil qilish tamoyillariga atroflicha to'xtalib o'tishni maqsad qilib oldik.

Xulosa o'rnidan shuni aytib o'tish kerakki, jahon tilshunoslari tomonidan aniqlangan uyushiq bo'laklarning gap tarkibida ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol vazifalarida kelishi mumkin degan e'tiroflari haqiqatdir. Ammo, uyushiq bo'laklar asosan kesimga nisbatan bo'lgan munosabat asosida aniqlangan. Uyushiq bo'laklarga berilgan ta'riflar ham to'g'riligini ta'kidlash kerak. Biroq ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan gap strukturasi uyushiq bo'laklarning o'zaro bog'lovchilar, ularning imlosi va intonatsiyasi haqida ko'proq fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, dunyo tilshunosligida uyushiq bo'laklar gap tizimida ana'naviy, ya'ni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib tahlil qilishni, ularning o'zaro bog'lanishida ko'makchilar, bog'lovchilar va yuklamalarning ahamiyati borasida birmuncha mulohazalar bildirilgan.

¹ Гуломов А. Содда гап. Тошкент, "Фан", 1955, 92 – 96-бетлар.

² Фёдоров А.К. Трудные вопросы синтаксиса. Москва, "Просвещение", 1972, с. 56 – 57.

³ Гвоздев А.Н. Современный русский литературный язык. Часть II, синтаксис, изд-во. "Просвещения", 1973, с. 134 – 144.

⁴ Бабайцева В.В., Максимов Л.Ю. Современный русский язык. Часть II, Москва, "Просвещения", 1981, с. 143 – 144.

Аннотация. Ушбу мақолада “Бобурнома”даги айрим ономастик бирликларнинг таснифи ҳақида сўз боради. Муаллиф филологик маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида муаммони таҳлил қилган ва “Бобурнома”даги айрим ономастик бирликларнинг таснифи бўйича мавжуд ўзига хос жиҳатларини ўрганган.

Аннотация. В статье рассказывается о классификации некоторых ономастических единиц в “Бобурноме”. Автор, опираясь на филологические данные, проанализировал проблему на основе имеющейся научной литературы и изучил существующие особенности классификации отдельных ономастических единиц в “Бобурноме”.

Annotation. In this article, we will talk about the classification of some onomastic units in the “Boburnoma”. The author relied on the philological data, analyzed the problem on the basis of existing scientific literature and studied the existing peculiarities of the classification of certain onomastic units in the “Boburnoma”.

Калим сўзлар: ономастика, ойконим, гидроним, лақаб, тахаллус, Ламгон, Олача, Осойиш, фармойиш.

Ключевые слова: ономастика, ойконим, гидроним, прозвище, кличка, сленг, Оляча, спокойствие, порядок.

Key words: onomastics, oykonim, kidronim, nickname, Lampoon, Olacha, peace, order.

Кириш. Заҳириддин Муҳаммад Бобур атоқли давлат арбоби, саркарда, шу билан бирга, истеъдодли шоир, тарихчи, географ, этнограф, тилшунос, адабиётшунос, мусикашунос, ҳарбшунос, табиатшунос, бир сўз билан айтганда, заковатли қомусий олимдир.

Бобур тилшуносликка доир маҳсус асар ёзмаган бўлса ҳам, лекин унинг ижодий меросида тилшунослик масалалари муҳим ўрин эгаллайди. Буни Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг шоҳ асари “Бобурнома”да кўришимиз мумкин. Бу асари орқали тилшуносликнинг фонетика, лексикология, графика, этимология, лексикография, ономастика соҳаларининг ривожига муносиб улушини қўшган тилшунос олим ҳамдир. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асари номшунослик учун жуда қимматли маълумотлар берувчи кенг қамровли манба ҳисобланади.

Асосий қисм. Ономастика тилдаги атоқли отлар тизимини ўрганувчи соҳа – ўзбек тилшунослигининг жадал ривожланган илмий йўналишларидан бири. Ўзбек ономастикаси бир нечта бўлимдан иборат. Хусусан, “Бобурнома” асарида қуйидаги ономастик бирликлар: антропонимлар (Мир Алишер Навоий, Султон Маҳмуд, Хожа Юсуф,¹ топонимлар (Фарғона, Кошғар, Самарқанд, фитонимлар (ғалла, узум, ношвоти), зоонимлар (оқ кийик, илон, буғу), этнонимлар (қозоқ, мўғул, теонимлар (Масжиди Жавзо), орнитонимлар (уқор, қарқара, кўтон), оронимлар (Барокўх; Мевағул тоғи), гидронимлар (Сайхун дарёси, Арис суви), астионимлар (Андижон, Ўш) ктематонимлар (нози Алишерий, полони Алишерий), геортоним (Туркона расм), дримоним (Ҳашт бихишт) наутонимлар (Осойиш, Фармойиш), мифонимлар (Жамшид, Фаридун, Зардухушт) каби бўлимларига оид бирликлар учрайди. Тилшунос Т.Нафасов таъкидлаганидек, Бобурнинг номшунослик мероси маҳсус тадқиқ этилиши зарур мавзу. Бу мавзу ўзбек, тожик, помир халқлари, афғон ва ҳиндларнинг тарихини изчилроқ, теранроқ ўрганишни тақозо этади, тарихий маълумотларни лисоний далиллар (номлар, исмлар, этнонимлар, апеллятив лексика) асосида муқоясалаб тадқиқ қилишни талаб этади.²

“Бобурнома”нинг луғат таркиби ва ономастик бирликлар ҳақида турлича фикрлар айтилган. Жумладан, М.Ҳошим “Бобурнома”да 1605 нафар шахс, уларнинг ҳаёти ва фаолиятига баҳо ва муносабат, 1151 та жой, 277 та қавм-қабил ва насл-насаб, 414 та ҳайвон ва ўсимликлар, 40 та китоб ва рисола номининг келтирилганлигини ёзган.³ Т.Нафасов 1406 та киши исми, 1100 дан ортиқ жой номи, 70 га яқин этноним,⁴ Ғ.Эшонев подшоҳлардан тортиб, давлат арбоблари, суворийлар, дин

¹ Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётининг айрим масалалари. Андижон, 1993, 58-бет.

² Нафасов Т. Бобур – номшунос. Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётининг айрим масалалари. Андижон, 1993.

³ Ҳошим М. Беш юз йиллик қомус. “Тафаккур”, 2003, 1-сон.

⁴ Нафасов Т. Бобур – номшунос.

арбоблари, шоирлар, деҳқонлардан иборат 1550 га яқин кишининг номи тилга олинган, уларнинг жуда кўпчилигининг шахс сифатидаги фазилатлари, феъл-атвори, яхши ёки ёмон хусусиятларига ўз муносабатини билдирган.¹ Р.Расулов, “Бобурнома”да, тахминан, 15 минг сўздан фойдаланилганини, шу жумладан, географик номлар 1000 дан ортиқлиги таъкидлаган, Р.Расулов эса 1800 дан кўпроқ киши исмлари учрашини таъкидлаган.²

Натижалар ва муҳокамалар. Олима З.Холмонованинг “Бобурнома” лексикаси мазусидаги тадқиқоти давомидаги лингвостатистик таҳлил юқорида қайд этилганлардан фарқли натижани кўрсатган. “Бобурнома”да 14728 та сўз қўлланган. Шундан 4007 таси (асар лексикасининг 27,2%) ни номлар ташкил қилади, жумладан, 1507 та антропоним, 1253 та топоним, 284 та этноним, 175 та зооним, 247 та фитоним, 37 та китоб ва рисола (библионимлар), 4 та кема номи (наутонимлар).³

Бобур “Бобурнома”да ономастик бирликларни шунчаки бадий матн талаби билан эмас, балки тилшунослик нуқтаи назари жиҳатдан ҳам изоҳлаб келтирган. Чунончи, китобда тузилиши, келиб чиқиши билан фарқланувчи, турли тил материали бўлган қатор киши исм-шарифлари учрайди. Яна шуниси эътиборлики, Бобур ўзи тилга олган кишиларнинг тахаллус ва лақабларини ҳам қайд қилган. Бу нарса ўша одам ҳақида тўлиқ тасаввур ҳосил қилибгина қолмай, номшуносликни ҳам бойитади. Мутолаа жараёнида маълум бўлдики, топиб қўйилган, ўринли берилган лақаблар киши исмлариининг ажралмас қисмига айланиб кетган. Асардаги бундай номларни қуйидагича гуруҳлаш мумкин:

1. Амал-мартабани англатувчи номлар: Шоҳ Маҳмуд парвоначи, Саид Қосим эшик оға, Абдулазиз Мирохўр, Вали хизоначи, Муҳаммад Али бахши, Муҳиб Али Қўрчи, Дарвеш Муҳаммад сарбон, Муҳиб Али Халифа бошқалар.

2. Касб-хунарни билдирувчи номлар: Абдулло баковул, Абдулло китобдор, Беҳзод мусавир, Саид Ҳасан ўғлокчи, Шоҳқулий ғижжакий, Шеркули қоровул, Камол шарбатчи, Мустафо тўпчи, Абдулло маснавийғўй, Максуд сувчи, Ҳусайн Удий, Мир Камолиддин муҳаддис, Абул Муҳаммад найзабоз ва бошқалар.

3. Уруғ ва қабила билан боғлиқ бўлган номлар: Рустам туркман, Ҳасан Али жалойир, Иброҳим чигатой, Ислим барлос ва бошқалар.

4. Жойга нисбатан берилган номлар: Гадоё Билол Ҳирий ва бошқалар.

5. Ҳайвон номларига нисбат бериш билан қўйилган номлар: Поянда Муҳаммад қоплон ва бошқалар.

6. Зоти-зурёдини билдирувчи номлар: Шайх Низом авлиё, Шаҳрибону бегим, Бадиуззамон Мирзо, Сухроб Мирзо, Ҳамза Султон ва бошқалар.

7. Феъл-атвори, хусусияти мужассамлашган номлар: Шаҳбоз, Қаландар ва бошқалар.⁴

8. Туғилган куни ёки ҳафта кунини билдирувчи номлар: Чаҳоршанба ва бошқалар.⁵

Бобур маълум лақаб ёки тахаллус билан изоҳланувчи атоқли отлар ҳақида фикр юритар экан, шунчаки маълумот сифатида эмас, балки бундай лақаб ва тахаллусларнинг этимологияси ҳақида ҳам қизиқарли маълумот беради. Масалан, олача лақабининг этимологияси ҳақида ёзади: “Султон Маҳмудхондан кичиги Султон Аҳмадхон бўлиб, Олачахон исми билан машҳур. Олачахон деб аталишининг сабаби шундаки, айтишларича, қалмоқ ва мўғул тилида қотилни “олачи”, дейдилар. Қалмоқларни бир неча марта босиб, кўплаб одамларини қиргани учун “Олачи” дейилавериб, истеъмолда Олача аталиб кетган.”⁶

Бобур қаерга бормасин, у ернинг ўзига хос барча хусусиятларини синчковлик билан кузатади. Жой номларининг нима учун шундай номланганининг илдизларини илмий равишда очишга ҳаракат қилади. Ҳазрати Нух пайғамбарнинг отаси Меҳтар Ломнинг қабри Алишанг туманидадир. Баъзи тарих китобларида Меҳтар Ломни Ламак (Ламкон) деганлар. Бу эл тилини мулоҳаза қилиб кўрсак, баъзи пайт “к” (коф) товуши ўрнига “ғ” (ғайн) талаффуз қиладилар. Шу боисдан бўлса ке-

¹ Эшононов Ғ. “Бобурнома”да комил инсон тимсоли. Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётининг айрим масалалари. Андижон, 1993.

² Расулов Р. Бобур – ўзбек тилининг софлиги учун курашувчи. Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётининг айрим масалалари. Андижон, 1993.

³ Холмонова З. “Бобурнома” лексикаси. Тошкент, “Фан”, 2007.

⁴ Ҳасанова М. “Бобурнома”да киши номларининг ифодаланиши. Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётининг айрим масалалари. Андижон, 1993.

⁵ З.М.Бобур. Бобурнома. “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи, Т., 2018.

⁶ З.М.Бобур. Шу манба.

рак, бу вилоятни Ламғон деганлар.¹ Конибодом, Ҳодарвеш, Шаҳрисабз, Карай, Кашмир, Кониғил, Масжиди муқаттаъ сингари жой номларининг номланиш сабаблари ҳақида ҳам шундай изоҳли маълумотлар беради. Юздан ортиқ топонимларнинг илмий этимологиясини беради. “Бобурнома”-да биргина Афғонистон топонимиясига тегишли юздан зиёд номлар мавжуд. Уларни лисоний фазилятларига, қайси турар жой номи эканлигига кўра қуйидаги типларга ажратиш мумкин:

1. Ойконимлар: Кобул, Ламғонот, Пуршовар, Гулкина, Сунап, Парандий, Парбон.
2. Оронимлар: Шоҳи Кобул тоғи, Қипчоқ тоғи, Хост тоғи.
3. Гидронимлар: Қизил сув, Нилоб, Куруқсой ва бошқалар.

Ҳиндистон воқеалари ҳақида фикр юритар экан, Ҳиндистоннинг хайвон, парранда, ўсимлик номлари, фасл номлари, ўлчов номларини батафсил изоҳлайди. Ўрни билан бошқа тилларда уларнинг қандай номланиши ҳақида чоғиртирма маълумот беради. Хусусан, номларни қуйидагича тематик гуруҳларга бўлади.

Хайвонот номлари: фил, карк, саҳройи, говмиш, нилагов, кўтахпой, гулаҳра.

Парранда номлари: товус, тўти/жанғалий дерлар, шорак, лўча, дуррож, пул-пакор, саҳройи товук, чалсий, шом, бўдана, харчал, туғдоқ, чарз.

Сув ва сув ёқаларида юрадиган қушлар: динг, сорас, маник, лаклак, уқор, улуг бузак, ўрдак.

Сув хайвоноти номлари: шери обий, сенсор, хўки обий, карёл, ҳакка балик.

Наботот номлари: анбар, жоман, камрак, кадхил, бадхал, карунда, панёла, гула, омила, хурмо, норғил.

Гул номлари: жосун, канир, жамбулий.²

Хулоса. Баҳор вилояти чегарасида 4 та йирик кемага от қўйган: “Осойиш”, “Оройиш”, “Гунжойиш”, “Фармойиш”. Барчаси форс тили замирида номланган. Сўнгги саҳифаларда шу номлардаги кемалар ҳаракати, уларда юз берган воқеа-ҳодисалар ҳақида маълумотлар ёзиб қолдирган. Номшунослик тарихи учун бу қайтлов муҳим аҳамиятга эга. Ўтмишда ўзбек халқи фақат кишиларга ва жойларгагина эмас, бошқа нарсаларга ҳам ном қўйган. Бу борада Бобур зикриёти ва “Бобурнома” асари таҳсинга сазовордир.

Xusainova Sharofat Madraimovna (Urganch davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrası magistranti) ANTROPONIMIK INDIKATORLARNING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annatsiya. Ushbu maqolada antroponimik indikatorlar va ularning sotsiolingvistikada tutgan o‘rni, o‘ziga xos xususiyatlari, shu jumladan, rasmiy va norasmiy antroponimik modellar, ularning semantik guruhlari haqida so‘z boradi.

Аннотация. В статье представлена информация об антропонимических показателях, их особенностях и значении в социолингвистике, а также о формальных и неформальных антропонимических моделях и их семантических группах.

Annotation. The article provides information on anthroponymic indicators, their specific features and their importance in sociolinguistics, furthermore, formal and informal anthroponymic models and their semantic groups.

Kalit so‘zlar: antroponimlar, sotsiolingvistika, indikatorlar, semantik guruhlar.

Ключевые слова: антропонимы, социолингвистика, индикаторы, семантические группы.

Key words: anthroponyms, sociolinguistics, indicators, semantic groups.

Onomastika tilshunoslikning murakkab va ko‘p qirrali tarkibiy qismi bo‘lib, u bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, shaxslarga atab qo‘yiladigan nomlar (antropnimlar) sotsiolingvistlar, pragmalingvistlar, lingvokulturologlar, psixolingvistlar e‘tiborini tortib kelmoqda.³

Fanda antropnimlarni o‘rganishda ko‘plab yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning markazida antropnimning xususiyatlariga oid uchta asosiy qarash yotadi. Birinchi nuqtayi nazarning mohiyati shundaki, antropnim mustaqil ma‘nodan mahrum bo‘lib, faqat farqlovchi belgi sifatida xizmat qiladi (J. Sent-Mil, A.Gardiner, B.Rassell, N.D.Arutyunova, E.M.Galkina-Fedoruk va boshqalar).

¹ Шу манба.

² Нурмонов А. Заҳириддин Муҳаммад Бобур – тилшунос олим. Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётининг айрим масалалари. Андижон, 1993.

³ Бондалетов В.Д. Ономастика и социолингвистика. Антропонимика. М., 1970, с. 18.

Antroponim tabiatiga oid ikkinchi qarashga ko'ra, u faqat nutqda (matnda, og'zaki nutqda, kontekstda, jamiyatda, sotsiolektida) ma'no kasb etadi (O.Jespersen, G.Svit, A.V.Superanskaya, S.I.Zinin, M.E.Rut va boshqalar).

Uchinchidan, bir qator tadqiqotchilarning fikricha, antroponimlar boshqa barcha toifadagi so'zlarining ma'nolaridan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatga ega lingvistik ma'noga ega (L.Shcherba, E. Kurilovich, V.Nikonov, Y.Karpenko, L.Shchetinin, M.V.Golomidova).

Shundan kelib chiqib, antroponimlar tilning leksik tizimiga qarashli bo'lib, shu til grammatikasiga bo'ysunadi; u o'zida milliy madaniyat haqidagi ma'lumotlarni saqlaydi, shuningdek, shaxslararo va madaniyatlararo muloqotning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi antroponimik indikatorlarni sotsiolingvistikaning obyekt sifatida ko'rib chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun biz o'z oldimizga bir nechta vazifalarni qo'ydik:

- 1) sotsiolingvistika tushunchasini tahlil qilish;
- 2) antroponimik indikatorlarning sotsiolingvistik xususiyatlarini aniqlash;
- 3) antroponimik indikatorlarning ma'noviy-semantik jihatdan turlarini o'rganish;
- 4) antroponimik indikatorlarni funksional-vazifaviy jihatdan turlarini o'rganish.

Lingvistik ensiklopedik lug'atda "sotsiolingvistika (ijtimoiy tilshunoslik) – tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari doirasida rivojlanadigan va jamiyat bilan bog'liq keng ko'lamlil muammolarni o'rganuvchi ilmiy fan bo'lib, u tilning tabiati, ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta'sir qilish mexanizmi va tilning jamiyat hayotida tutgan o'rnini o'rganadigan yo'nalish" sifatida talqin qilinadi.¹ Gnoseologiya va ilm-fan falsafasi ensiklopediyasida sotsialingvistikaga "tilni ijtimoiy kontekstda o'rganish bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bir qismi" deb ta'rif beriladi.² O'zbek tilining izohli lug'atida berilgan ta'rifga ko'ra, "sotsiolingvistika (lot. socialis – ijtimoiy+lingvistika) – tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta'sir ko'rsatishi hamda tilning jamiyat hayotidagi o'rnini bilan bog'liq ko'plab muammolarni o'rganuvchi ilmiy-nazariy soha".³

Shundan xulosa qilish mumkinki, sotsiolingvistika fani til real ravishda faoliyat yuritadigan va rivojlanadigan tashqi sharoitlar majmuini, ya'ni ma'lum bir tildan foydalanadigan odamlar jamiyatini, ushbu jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, ona tilida so'zlashuvchilarning yoshi, ijtimoiy mavqeyi, darajasidagi farqlari, madaniyati va ta'limi, yashash joyi, shuningdek, muloqot holatiga qarab ularning nutqiy xatti-harakatlarini o'rganadi. Sotsiolingvistika til yoki tillarning faoliyat ko'rsatish mexanizmlarini, ularning jamiyatga xizmat qiluvchi sotsial-kommunikativ tizimlardagi o'zaro ta'sirini ochib beradi.

R.Gudson ta'kidlaganidek, tilshunoslik bilan sotsiolingvistika o'rtasidagi farq shundan iboratki, birinchisi tilning faqat tuzilishini ko'rib chiqadi va u qo'llanilayotgan yoki o'rganiladigan ijtimoiy kontekstlarni e'tibordan chetda qoldiradi (...linguistics differs from sociolinguistics in taking account only of the structure of language, to the exclusion of the social contexts in which it is learned or used...)⁴

Muayyan til belgilari mavjud bo'lgan ijtimoiy kontekstlarga e'tibor bermaslik undagi ma'lumotlarning muhim qismini yo'qolishiga olib keladi. V.D.Bondaletovning fikriga ko'ra, "sotsiolingvistik tadqiqotlarda antroponimlar (shaxs nomlari, ismlar, otasining ismi, familiya, taxalluslar va boshqalar) asosiy material hisoblanadi, chunki sotsiolingvistika odamlar va jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir".⁵

Nutq vaziyatiga va muomaladagi antroponimik indikatorlarning vazifalariga qarab, diskursda nomlarning quyidagi shakllaridan foydalanish mumkin:

- 1) rasmiy (to'liq shakllar);
- 2) norasmiy (neytral norasmiy nomlar, laqablar, taxalluslar).

Rasmiy sharoitda quyidagi antroponimik modellar (yoki antroponimik formulalar) qo'llaniladi:

- 1) ism+otasining ismi (famiyiasiz);
- 2) ism+otasining ismi (+famiyia);
- 3) xonim/janob+famiyia (Rossiya). Mr./Mrs., Ms. (inglizxonasi mamlakatlar);
- 4) ba'zan doktor, professor+famiyia (adressantning ijtimoiy mavqeyini bildirish).

¹ Лингвистический энциклопедический словарь. М., "Советская энциклопедия", 1990, с. 687.

² Энциклопедия эпистемологии и философии науки (электронный ресурс). Словари и энциклопедии на Академике [сайт]. URL: http://epistemology_of_science.academic.ru/763/социоллингвистика

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. S harfi. Madvaliyev tahiri ostida. www.ziyouz.com kutubxonasi.

⁴ Hudson Richard A. Sociolinguistics. Cambridge, UK: Cambridge University Press, 1996, p. 279.

⁵ Бондалетов В.Д. Ономастика и социоллингвистика. Антропонимика. М., 1970, с. 18.

Norasmiy kontekstda ismlarning to'liq shaklidan foydalanish (me'yordan chetga chiqish sifatida), odatda, hissiy bo'yoqdorlikka ega bo'lib, ogohlantirish, tahdid, niyatning jiddiyligi, kinoyani yoki iste'h-zoni bildirishi mumkin.

Antroponimik indikatorlarning sotsiologiyistik jihatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular shaxsning millati, yoshi, jinsi, qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi va identifikatsiyasining o'ziga xos belgisi bo'lib xizmat qiladi. Xususan, antroponimik indikatorlar ma'naviy-semantik jihatdan quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Shaxsning ijtimoiy holatini ko'rsatuvchi indikatorlar.
2. Jinsni ifodalovchi indikatorlar.
3. E'tiqod va ishonchni ifodalovchi indikatorlar.
4. Nasl-nasabni ifodalovchi indikatorlar.

Shaxsning ijtimoiy holatini ko'rsatuvchi indikatorlarga Abdi, Abdu, Begim, Boy, Beka, Bika, Mirza, Poshsha, Qul, To'ra, Sulton, Xon, Xotun, Shoh kabilar kiradi.

Jinsni ifodalovchi indikatorlar, o'z navbatida, 3 ta guruhga, jumladan, erkak jinsini ifodalovchi indikatorlar (Abdi, Abdu, Begim, Bika, Mirza, To'ra, Esh), ayol jinsini ifodalovchi indikatorlar (Xotun, Pari, Oy (Oyim), Nisa, Moh, Jamol, Gul, Beka, Begim, Bibi kabi) va har ikkala jinsni ifodalovchi indikatorlarga (Sulton, Xon, Shoh) bo'linadi.

E'tiqod va ishonchni ifodalovchi indikatorlarga keladigan bo'lsak, tarkibida "islom", "din", "-iddin" (-uddin), "mo'min", "banda" singari so'zlar mavjud nomlarning ko'pchiligi ushbu ishonch, e'tiqodning natijasidir. Masalan, Islom, Islomali, Islombek, Islomberdi, Islomxon, Islomqul, Nurislom; Mo'min, Mo'minali, Mo'minbek, Mo'minjon, Mo'mintoy, Mo'minqul; Bandaqul, Dinmuhammad va boshqalar.

Nasl-nasabni ifodalovchi indikatorlarga Shayx, Oxund, Oxun, Eshon, Mullo, So'fi kabilar kiradi.

Antroponimik indikatorlarni funksional-vazifaviy jihatdan quyidagi turlarga ajratishni maqsadga muvofiq:

a) monofunksional antropoindikatorlar – faqat bir vazifani bajarishga xoslangan indikatorlardir. Jumladan, *gul* indikatorini faqatgina jins ko'rsata oladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: jamol, jon, moh, pari, zot, zoda, sher va boshqalar;

b) polifunksional antropoindikatorlar – bir vazifadan tashqari yana boshqa vazifa bajara olish xususiyatini namoyon qila oladigan indikatorlar guruhini tashkil qiladi. Masalan, *boy* indikatorini shaxsning ijtimoiy holatini ifodalaydi hamda jins ko'rsata oladi. Umuman olganda, quyida keltirilgan ayrim indikatorlarni shu guruhga kiritish mumkin: *boy, bek, beka/bika, eshon, mirza, mulla/mullo, nor, niyoz, oxun, poshsha, qul, qori, sulton, to'ra, xon, xo'ja, xotun, g'ozi, shayx, shoh* va boshqalar.

Antroponimlarning yana bir xarakterli xususiyatlaridan biri, xorijiy va madaniy nomning (ismning) muayyan jamiyat tilining me'yorlariga mos kelishidir. Bunday holda, o'xshash nomlarni transliteratsiya, transkripsiya va transpozitsiya usulida tarjima qilish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *Jacob, James, Jim* ismlari, rus tilida *Яков, Иаков* shaklida, o'zbek tilida esa *Yaqub, Yoqub* shaklida uchraydi. Ingliz tilidagi *Eva*, rus tilidagi *Eva*, o'zbek tilida *Havo* (jon) shaklida uchraydi.

Antroponimik tadqiqotlar ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini ochib beradi, chunki ismlar (nomlar) jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotini, odamlarning munosabatlari, ularning ijtimoiy mavqei, etnik va diniy mansubligi, hududiy taqsimoti, mashhurligi/mashhur emasligi va boshqalar haqidagi ma'lumotlarni aks ettiradi. Individual ism bu xususiyatlarning barchasiga nisbatan ham, ularning faqat ba'zilariga nisbatan ham belgilanishi mumkin. Chet tilidagi va madaniy nomlarni shakily jihatdan almashtirish hollari nomni ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga moslashtirish bilan tavsiflanadi.

**To'raeva Bahor Bahridinovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori; e-mail: bahorturaeva@gmail.com)
ZAMONAVIY ROMANLARDA BADIY MAKON TALQINI**

Annotatsiya. Maqolada jahon va o'zbek adabiyotshunosligida badiiy makon kategoriyasining tadqiqi bo'yicha amalga oshirilgan manbalar tahlilga tortilgan. Badiiy makonning adabiy-estetik kategoriya sifatidagi mazmun-mohiyati, turlari Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlari misolida muhokama qilingan. Badiiy makon tasviri voqealarning mohiyatini va ularning mantiqiy ketma-ketligini ta'minlashi, yozuvchining obyektiv va subyektiv yondashuvi asosida yaratilishi nazariy tahlillar asosida yoritilgan. Tashqi makonning qahramonni o'rab turgan borliq ma'nosini, ichki makon esa ko'chma ma'noda qalb evrilishi va tug'yonlarini, ya'ni daramatik holatni anglatadi. Tashqi va ichki makon dialektikasi asar badiyatining ta'sirchan va hayotiyligini ta'minlaydi.

Аннотация. В статье анализируются источники по изучению категории художественного пространства в мировой и узбекской литературе. Сущность и виды художественного пространства как литературно-эстетической категории рассматриваются на примере романов Ч. Айтматова и Н.Норқобилова. Образ художественного пространства строится на теоретическом анализе, дающем сущность событий и их логическую последовательность, исходя из объективного и субъективного подхода писателя. Внешнее пространство представляет собой существо, которое окружает главного героя, а внутреннее пространство представляет собой преобразование души в переносном смысле, драматическое состояние. Споры внешнего и внутреннего пространства обеспечивают действенность и жизненность произведения искусства.

Annotation. The article analyzes the sources on studying the category of artistic space in the world and Uzbek literature. The essence and types of the artistic space as a literary and aesthetic category are discussed in the example of novels by Ch.Aitmatov and N.Norkobilov. The image of the artistic space is based on theoretical analysis, which provides the essence of the events and their logical sequence, based on the objective and subjective approach of the writer. The outer space represents the being that surrounds the protagonist, and the inner space represents the soul's transformation in a figurative sense, the dramatic state. The debate of external and internal space ensures the effectiveness and vitality of the work of art.

Kalit so'zlar: badiiy asar qurilmasi, badiiy makon turlari, xronotop, ichki va tashqi makon, polifonik roman, makon ramziyligi, osmon, tog', sahro, yo'l makoni.

Ключевые слова: структура произведения, типы художественного пространства, хроно-топ, внутреннее и внешнее пространство, полифонический роман, символ пространства, небо, гора, пустыня, дорожное пространство.

Key words: structure of artwork, types of artistic space, chronotope, indoor and outdoor space, polyphonic novel, the symbol of space, sky, mountain, desert, road space.

Badiiy makon kategoriyasi Yevropa adabiyotshunosligida Nele Bemong, Pieter Borghart, Michael Holquist, Bart Keunen, Roderick Beaton, Michel De Dobbeleer, Gary Saul Morson, Rachel Falconer, Joy Ladin¹ badiiy zamon va makon kategoriyasini adabiy, tarixiy, ijtimoiy, madaniy aspektda tadqiq qilishsa, Maurice Blanchot² badiiy makonning badiiy asar qurilmasidagi o'rni va obraz xususiyatlarini ochishdagi vazifalarini o'rgangan.

Rus adabiyotshunosligida S.N.Zotov, Y.S.Kim, S.V.Sviridov, R.A.Tkacheva, N.Y.Leonova, A.V. Llyudina, A.V.Krisanova, A.S.Chochieva, V.I.Pavlov, S.E.Kozlovskaya, M.A. Berdnikova, O.V. Voronicheva tomonidan tadqiq etilgan.³ R.A.Tkacheva badiiy makonning qahramon badiiy olamini talqin qilish-

¹ Nele Bemong, Pieter Borghart, Michel De Dobbeleer, Kristoffel Demoen, Koen De Temmerman & Bart Keunen (eds.). Bakhtin's theory of the literary chronotope: reflections, applications, perspectives. UPNE, Lebanon, New Hampshire, USAgent, Academia Press, 2010, 227 pp.

² Maurice Blanchot. The Space of Literature. Translated, with an Introduction, by Ann Smock University of Nebraska Press Lincoln. United States of America, 1989, p. 189.

³ Зотов С.Н. Художественное пространство – мир Лермонтова. Дисс. ...д-ра филол.наук, 2001, с. 399; Ким У.С. Художественное пространство в лирике Б.Пастернака. Дисс. ...канд. филол.наук, 2001, с. 165; Свиридов С.В. Структура художественного пространства в поэзии В.Высоцкого. Дисс. ...канд. филол.наук, 2003, с.

dagi adabiy-estetik vazifasi, romantik makonning xarakter ichki dunyosi bilan aloqasi hamda makonlarning o'zaro ta'sirini izohlagan, O.V.Voronicheva tragik va komik aspektidagi badiiy makon kategoriyasini I.S.Turgenev va F.M.Dostoevskiy asarlaridagi xronotopik tuzilmalar misolida o'rgangan, komik va tragik holatlarni mifopoetik, madaniy, tarixiy va adabiy xronotoplar orqali tasvirlashda mualliflarning mahoratini tadqiq etgan. M.A.Berdnikova F.M.Dostoevskiyning «Aka-uka Karamazovlar» romani misolida polifonik romanni yaratishda badiiy makonning janr hosil qiluvchi rolini, shu jumladan, asar badiiy olamini modellashtirish qonuniyatlarini aniqlash adabiyot nazariyasining konseptual apparatini takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratishini ta'kidlaydi. G.Bashlyar makon badiiyati, tashqi va ichki makon dialektikasi, bir-biriga mutanosibli, uy va dunyo, orzular olami, ochiq va yopiq makon xususiyatlarini adabiyotshunoslik, falsafa va psixologiya mezonlari asosida o'rgangan.

O'zbek tilshunosligida S.A.Ikromova tomonidan «Olamning lisoniy manzarasida makon kategoriyasi va milliy o'ziga xoslik» mavzusida nomzodlik ishi himoya qilingan. Tadqiqotchi olamning lisoniy manzarasida inson va makon munosabati, uning tilda voqelanishi, makon maydoniga makon semasi mavjud bo'lgan o'rin-joy otlari bilan bir qatorda, makonga ishora qiluvchi narsa-predmet otlari, makonni ifodalovchi so'z birikmalari va gaplar, hatto makon affiksleri ham mansub bo'lishini, makon kategoriyasi birliklarini funksional-semantik jihatdan, makonda harakatlanish, joylashish va vaziyatga oid munosabatlar asosida subkategoriyalarga ajratgan holda aniqlagan.¹ O'zbek adabiyotshunosligida esa badiiy makon alohida kategoriya sifatida o'rganilmagan.

U.Jo'raqulov Navoiy «Xamsa»sida xronotop poetikasini tadqiq etib, cheksiz koinot xronotopi Navoiy nazdida, zarra ekanini quyidagicha izohlaydi: «Unda aylanayotgan zamon (mushk – tun, kofur – kun) va makon (burjlar, sayyoralar, quyosh, oy)ning naqadar mahobatli va qadimiy, ayni paytda, go'zal ekanini ta'rif etadi. Ammo bularning barchasi Ollohning «sun'iy bisoti» (san'ati)dagi ikki «taxta nard» ekanini eslatar ekan, insonga cheksiz bo'lib tuyuladigan koinot Yaratguvchi oldida kichik bir zarra ekanini ta'kidlaydi. Shu tariqa, Ollohning buyukligi va qudratiga iymon keltirishga chorlaydi. Ayni nuqtada badiiy tasvir obyektini koinot bilan parallel ravishda insonga ko'chadi. Aniqrog'i, tasvir obyektini, bir paytning o'zida, koinot va inson fenomenini bitta kartinada tasvirlashga kirishadi».² Olim muammoga falsafiy nuqtai nazaridan yondashib, xronotopning subyektiv xususiyatini teran ochib bergan.

Yer, koinot, tog', dasht, dengiz, daryo, shahar, qishloq (ochiq makon tasviri); uy, xona, yerto'la, choh, g'or (yopiq makon tasviri) kabi an'anaviy makoniy belgilar azaldan mavjud. Tashqi xronotop, ya'ni tasvirlanayotgan dunyo xronotopi murakkab tuzilishga ega, bu murakkablik badiiy matn doirasidagi fikr-mulohazalarga ta'sir o'tkazadi. Real borliq bilan matnda tasvirlangan borliq o'rtasidagi o'zaro ta'sirni xronotopning asosiy xususiyati sifatida talqin qilish mumkin. «So'z san'atining ramziy tabiatini hisobga olgan holda, aytish mumkinki, adabiy voqelikning zamon-makon koordinatalari aniqlik mezonlariga to'la rioya qilavermaydi. Badiiy makonning shartli tasviri (mifologik va fantastik asarlarda) sujet vaqtining notekis kechishi, tasvirlash nuqtalarida uning kechikishi, ortga chekinish, turli xil voqealar rivojida parallel oqim va boshqalar) tarmoqlangan sujet chiziqlarini ijodkor konsepsiyasiga payvandlanishini ta'minlab, asar badiiy jozibasini, estetik ta'sir kuchini oshiradi».³

234; Ткачева Р.А. Художественное пространство как основа интерпретации художественного мира. Кандидат филологических наук, Дисс. ...канд. филол.наук, 2002, с. 212; Леонова Н.Е. Семантика художественного пространства в произведениях Джона Стейнбека. Дисс. ...канд. филол.наук, 2004, с. 181; Жлюдина А.В. Семантика художественного пространства в романах М.А.Осоргина. Дисс. ...канд. филол.наук, 2012, с. 217; Крысанова А.В. Семантика художественного пространства в лирике М.И.Цветаевой. Дисс. ...канд. филол. наук, 2014, с. 254; Чочиева А.С. Художественное пространство в хакасской поэме второй половины XX в. Дисс. ...канд. филол.наук, 2012, с. 160; Павлов В.И. Формирование «художественного пространства» в европейской живописи XV – XVIII вв. Дисс. ...канд. искусс.наук, 2001, с. 176; Лозловская С.Э. Структура художественного пространства в творчестве Анны Ахматовой. Дисс. ...канд. филол.наук, 2008, с. 175; Бердникова М.А. Жанровая специфика художественного пространства (полифонический роман Ф.М.Достоевского). Дисс. ...канд. филол.наук, 2020, с. 203; Вороничева О.В. Хронотоп приживальщика в произведениях И.С.Тургенева и Ф.М.Достоевского. Дисс. ... канд. филол. наук, 2002, с. 212.

¹ Икрамова С.А. Оламинг лисоний манзарасида макон категорияси ва миллий ўзига хослик. Филол.фан. фалс. д-ри ...дисс. автореф., 2018, 52-бет.

² Жўракулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. Монография, Тошкент, “Турон-икбол” нашриёти, 2017, 61-бет.

³ Литературный энциклопедический словарь/https://literary_encyclopedia.academic.ru/7143

Badiiy makon adabiy-estetik kategoriya sifatida asar voqealari sodir bo'lgan joyni anglatadi. Qahramonlar aynan shu makonda harakatlanadilar: tug'iladilar, yashaydilar hamda vafot etadilar. Yozuvchining ijodiy niyatiga ko'ra, makon va zamon tanlanadi, chunki adabiy asar real hayotning muayyan qisminigina badiiy ifoda etadi. «Inson tafakkurida olam mavjudligi turfa ranglarda ifodalanadi. Ko'plab predmetlar, obyektlar inson idrokida dunyoning murakkab makon tasvirini yaratadi».¹

Badiiy adabiyotda makon ramziyligi alohida e'tiborga loyiq. Yuqori, pastki, bo'shliq, zichlik, yaqinlik, uzoqlik, harakatning turli shakllari (ko'tarilish, tushish, yugurish, uchish, aylanma va boshqalar) hissi bilan bog'liq bo'lgan oddiy makon assotsiatsiyalari badiiy timsollarga alohida joziba, tasviriylik hamda hayotiylik baxsh etadi. Makoniy ramzlardan foydalanish zamon kabi makonning o'zi ham, o'z navbatida, moddiy obyektlar, moddiy va tabiiy muhit orqali ifodalanishiga asoslanadi.² Olimaning nazariy fikrlariga asoslanib, aytish mumkinki, badiiy makon, asosan, binar qarama-qarshilikda ifodalanadi, ya'ni yuqori-past, keng-tor, yopiq makon-ochiq makon, gorizont-al-vertikal uzoq-yaqin, baland-past, chuqur-sayoz va boshqalar.

Badiiy makon tasviri voqealarning mohiyatini va ularning mantiqiy ketma-ketligini ta'minlaydi. Yozuvchining obyektiv va sub'ektiv yondashuvi asosida yaratiladi. Obyektivlik asosida asarda ifoda etgan makon tasviri tabiiy geografik hudud, joyni anglatasa, subyektivlik badiiy makonni qahramon ruhiy olamida ro'y bergan holatlar bilan uyg'unlashtiradi. Zamonaviy romanlarda asosan bu ikki jihat uzviylashgangan holda, asarning tasvir ko'lamini kengaytirgan. Har bir ijodkor o'ziga xos uslubda asar xronotopini yaratadi. Chingiz Aytmatov, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam romanlarida gorizont-al-vertikal makon tutashuvi; O'tkir Hoshimov, Normurod Norqobilov romanlarida gorizont-al makon tasviri mavjud.

Tashqi va ochiq makon o'zining aniq chegarasiga ega emas (dala, dengiz, orol, cho'l, dasht, adir). Tahlil obyekti hisoblangan romanlarda bu makon turlari keng qo'llanilgan. Qahramon ichki makonidagi sarhadsizlik, bag'rikenglikni tasvirlashda yozuvchi mazkur makon turlaridan mohirona foydalangan. Ch. Aytmatovning «Asrga tatigulik kun», «Qiyomat» va N.Norqobilovning har ikki romanida ham dasht, dala, qiru adirlar, orol tasviri qahramon olami bilan uyg'unlikda berilgan. Ikkala adibga xos uslub mushtarakligi shundaki, ijobiy qahramonlari ona tabiat sezimlarini anglaydi, qalban va ruhan uyg'unlikda yashaydi.

O'limi oldidan Kazangapning orol bilan vidolashuvi, Arsen tog' barslari uchun atalgan o'qqa ko'k-sini tutishi, o'g'irlab ketilgan tulpori g'ami va hajrida Qalaybek ko'kka talpinayotgan, mahobatli tosh otni yaratishi, bo'zbo'rini o'z qondoshi birodari deb bilgan Eshqul polvon tabiatning toptalishiga jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatishida inson, tabiat va hayvonot olamining o'zaro murakkab munosabatlari hamda inson va tabiat birligi namoyon bo'ladi. Bu romanlar personajlarining qalbi, his-tuyg'usi, ichki kechinmalari tasvirida tashqi va ichki makon mutanosibligi kuzatiladi. «Asrga tatigulik kun» romanida «sahroning ulug'vorligini o'zining ruhiy holati bilan taqqoslab tenglashtira olishga layoqatli kishilar» irodasini tasvirlaydi: «Bahor paytlari qisqa muddat yashil tusga kirib, so'ng quyosh nurida qovjirab, sarg'ayib qoladigan bepoyon Sario'zak dashtligi Edigeyni gangitib, hangu mang qilib qo'ydi. Orol ko'li atroflarida ham qanchalab cho'l-u biyobonlar bor, birgina Ustyurt yassi tog'ining o'zini aytmayisizmi! Biroq Sario'zak dashtligi singari cheksiz kenglikni umrida birinchi bor ko'rishi edi. Sahroning ulug'vorligini o'zining ruhiy holati bilan taqqoslab tenglashtira olishga layoqatli kishigina kimsasiz huvillab yotgan Sario'zak cho'lida bardosh bera olishi mumkinligini Edigey keyin tushundi. Ha, Sario'zak haqiqatdan ham bepoyon, ammo inson xayoli undan ham keng».³ «Zaminni yelkasida tutib turganlardan biri» bo'lgan Edigey Bo'ronning nafaqat xayol ummoni bepoyon, balki insonparvarligining ham chek-chegarasi yo'q. Ikkiqat xotini boshqorong'i bo'lgani uchun oltin mekreni tutishi, Zarifaga nisbatan samimiy muhabbati, Tansiqboyev tomonidan vatan xoini ayblovi qo'yilgan, tergov davrida vafot etgan Abutulib Quttiboyevning oqlanishi uchun Afanasiy Ivanovich Yelizarovga borib uchrashishi, Sobitjonning qarshiligiga qaramay, Kazangapning vasiyatini bajarish uchun Ona Bayit qabristoniga yo'l olishi, qabriston hududi kosmodrom uchun mo'ljallanganini bilgach, «Ona Bayitni yer bilan yakson qilishlariga yo'l qo'yib bo'l-

¹Философия. Энциклопедический словарь. М., Под редакцией А.А.Ивина. 2004./https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy

²Шутая Н.К. Типология художественного времени и пространства в русском романе XVIII – XIX вв. Дисс. ...д-ра филол.наук, 2007, с. 360.

³Айтматов Ч. Асрга татигулик кун. Муаллифдан. Қиёмат (романлар). Рус тилидан А.Рашидов, И.Фафуров тарж., Сўнг сўз Ф.Саломовники. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989, 64-бет.

maydi! Axir, bu yerda tarix yotibdi»,¹ deya ich-ichidan o'kinishi, iztirobi va sa'y-harakatlarida chin insoniy ulug'vorlik namoyon bo'ladi.

«Dasht-u dalalarda» romanining bosh qahramoni umr bo'yi dashtda cho'ponlik qilgan Eshqul polvonning murakkab ruhiy-psixologik kayfiyati voqealar rivoji mobaynida dinamik tarzda ochib boriladi. Uning sihatgohdagi kunlari naqadar zerikarli o'tayotgani va toqati toq bo'lishiga sabab, birinchidan, kenglikni sog'inishi, ikkinchidan, hamxonasi Sa'dulla (bir paytlar butunlay dashtda qolib ketishiga sabab bo'lgan Farmonovning o'g'li) gap-so'zi va xatti-harakati bilan g'ashini keltirishi edi. Cheksiz dashtda yashagan insonning fe'l-atvorida ham shunday sarhadsizlik namoyon bo'lganidek, Eshqul polvon ziqna, tor, dunyoparast Sa'dullaning so'zlaridan birda fe'li qaytsa, birda shunday odamlar ham borligidan taajjublanadi. Eshqul polvonning sihatgohdagi hayotini yozuvchi shunday tasvirlaydi: «Turli davolash tadbirlari, so'ng oqshomgacha hovlida salanglash, kechki taomdan keyin katta xonadagi televizorga termulish – buning bari juda joniga tekkandi. Nazarida, vaqt to'xtab qolgandek edi».² Qahramonlarning ichki olami orqali tashqi va ochiq makonning mohiyati anglashiladi. Tasvirlanayotgan xarakterlarning psixologiyasi bilan makon tasvirini ijodkorlar mohirona tutashtira olgan.

Ichki va yopiq makon qat'iy belgilangan chegaralarga ega (uy, o'tov, sandiq, quti; majoziy ma'noda ko'ngil). Uy, o'tov – inson hayot yo'lidagi o'ziga xos boshlang'ich nuqta sifatida insonning tug'ilgan, o'zi va uning oilasi yashaydigan joyni anglatadi. Insonning umri mobaynida kindik qoni to'kilgan uyi bilan aloqasi ajralmas bo'ladi. «Asrga tatigulik kun», «Dasht-u dalalarda», «Qoraqayun» romanlaridagi voqealar dasht va sahroda kechgani tufayli o'tov qulay boshpana sifatida keltiriladi: «Oilada odam soni ko'pligida ular birdaniga to'rtta o'tov tikishardi – biri oshxona, biri mehmonxona, ikkitasi yotoqxona bo'lardi. Keyin esa jungjanglar istilosidan so'ng huvillagan uyda yolg'iz o'zi qoldi...».³

«Asrga tatigulik kun» romanida o'tov, nainki yashash uchun boshpana, balki birdamlik ma'nosini ham bildirgan. «Dasht-u dalalarda» romanida «har yili qishgacha, yaxshi yaylov ilinjida, o'tov deganlari yo'q deganda uch bor ko'chirilishi» va «o'tovni ayolning o'zi buzib, o'zi tiklashi»⁴ tasviri orqali Oygul xarakteriga xos nazokat va nafislik ayonlashadi. O'tovni «o'z qo'li, yurak qo'ri bilan chatgan turli xil kashtalar» va To'lanboy dashtdan quvib solgan musavvir yigitdan qolgan surat bilan bezaydi. Ammo «ayolining go'zallikka o'chligi, undan hayajonlana bilishi, go'zal narsalarni qadrlay olishi».⁵ To'lanboyga yoqmaydi. Bu orqali xarakterlararo kontrast yuzaga keladi.

Ichki makon ko'chma ma'noda qalb evrilishi va tug'yonlarini, ya'ni dramatik holatni anglatadi. «Yozuvchilar qahramonlarning ichki dunyosini: ularning ruhi, ongi, xotirasi, tasavvurining makonini o'rganishga jiddiy e'tibor bera boshladilar. Bu ularga, bir tomondan, inson bilan bog'liq falsafiy muammolar mohiyatiga chuqurroq kirib borishga, ikkinchi tomondan, individual zamon-makon chegaralarini sezilarli darajada kengaytirishga imkon berdi.»⁶ Ichki makon hikoyachining, qahramonlarning xarakter qirralarini, ruhiy intilishlarini ochib berish, mualliflar va qahramonlarning makoniy tasavvurlarini uyg'unlashtirish kabi estetik vazifalarni bajaradi. Peyzaj, portret, nutq, ichki monolog, gallusinatiya, tush kabi ruhiy tahlil vositalari orqali ichki makon yaratiladi. Psixologizmning dinamik, analitik va sinkretik prinsiplari orqali ichki makon xususiyatlarini teran idrok qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Dinamik makon doimiy harakat hamda o'zgaruvchan (yo'l, daryo, sharshara) xarakterga ega. Zamonaviy romanlar sujetida «yo'l xronotopi»ni zamon va makonni birlashtiruvchi adabiy unsur sifatida baholash mumkin. Qahramonlarning safarga chiqishi muayyan vaqt oralig'ida kechib, yo'l epik qahramonlar hayotidagi muhim va tub burilishlarni ifodalovchi sujet voqealarini bog'lab turuvchi halqa sifatida yuzaga chiqadi. Yo'l xronotopini yorqin ko'rsatib turuvchi alomatlardan biri asardagi yo'l obrazidir. Yo'l obrazi yana shunisi bilan ham e'tiborliki, u insonning tug'ilib-o'sgan, qadrdon yurtini boshqa makonlar, tevarak-atrof bilan, o'zini boshqa taqdir sohiblari bilan uzviy bog'lab turadi. Uning o'zligiga qaytishi uchun mayoq vazifasini o'taydi. Insonning makonlararo ko'chib yurishi, u boshidan kechirgan sargardonlik, voqea-hodisalar orqali zamon va xronotopni ifodalash o'tmishda ham, hozirda ham ijodkorlar tomonidan qo'llanib kelayotgan eng qulay va keng tarqalgan badiiy shakllardan biridir.

¹ Айтматов Ч. Шу манба. 277-бет.

² Норқобилов Н. Дашту далаларда. Тошкент, «O'zbekiston», 2009, 135 – 136-бетлар.

³ Айтматов Ч. Асрга татигулик кун. Қиёмат. Романлар. Рус тилидан А.Рашидов, И.Фафуров тарж., Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989, 114-бет.

⁴ Норқобилов Н. Дашту далаларда. Роман. Тошкент, 2009, 18-бет.

⁵ Норқобилов Н. Шу манба. 125-бет.

⁶ Темирболат А.Б. Проблема хронотопа в современной прозе. Учебное пособие, Алматы, 2003, с. 11.

Folklardan boshlangan bu an'ana zamonaviy adabiyotda yanada muvaffaqiyatli davom etmoqda. Hatto bunda jahon adabiyotida erishilgan yutuqlarning milliy adabiyotimizda sintezlashtirilganiga guvoh bo'lish mumkin. Mualliflar romanlarda oraliq masofadagi makonlarni, yo'lni atay batafsil tasvirlaydi, bu ijodiy usul voqealarni ishonarliligini ta'minlaydi. Yo'l nafaqat gorizontallik makon, balki ramziy ma'noda hayot yo'lini ham anglatib, ikki xil talqinda beriladi. Birinchidan, inson quvonchi va qayg'usi, yutuqlari va yo'qotishlari bilan bog'liq hayot yo'li: Avdiy va Andrey Krilsovning bolalik va yigitlik (Andrey Krilsovning Filofey sifatidagi keyingi taqdiri, ya'ni o'rta yosh davri), Edigey va Eshqul polvonning yigitlik, o'rta yosh va keksalik davrlari. Badiiy asarlarda yo'l xronotopi insonning yo bir butun hayot yo'lini, yo hayot yo'lining muayyan qismini ifodalab keladi.

Ikkinchidan, qahramonlarning ma'naviy izlanishi hamda individual shakllanishi, zamon va makondan tashqaridagi Haqqa, Ollohga umtilish yo'li: Avdiy va Iso Masih Xudo – Erta, Xudo – Zamondosh haqidagi g'oyalari asosida insoniyatni ezgulikka da'vat etishadi; *xudoga shukr, xudo haqqi, xudo xohlasa* jumalari orqali qahramonlar Xudoning amru irodasiga iymon keltirishadi. Ikkinchi talqinda adiblar ijodiy qahramonlarning pok qalbi va tiynati makonu zamonga sig'maydigan, moddiylik tushunchalari, o'lchamlarini tan olmaydigan javhar sifatida mohirona tasvirlashgan.

Ch.Aytmatov romanlarida tog' obrazi hamdard, sirdosh, boliqning bir qismi tarzida, N.Norqobilov romanlarida tog' qahramon ruhiy holatiga monand tasvirlanib, ichki olamini teran ifodalash imkonini bergan. Xulosa qilib aytganda, badiiy makon tashqi va ichki xronotopning bir nuqtada tutashuvini ta'minlaydi, asarda turli semantik vazifalarni bajaradi. Masalan, osmon, tog', sahro, yo'l makon sifatida ifodalaniishi mumkin, lekin bu makonlar adabiy qahramonning kelajakdagi taqdirida muhim ahamiyatga ega turfa ramziy timsollar sifatida ham qo'llaniladi.

**Kuchkarov Tukhtamurod Olimovich (O'zbekiston Milliy universitetining
Jizzax filiali O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, dotsent),
Tuylanov Baxtiyor Hayitboyevich (o'qituvchi)**
AJDODLAR HAQIDAGI MIFOLOGIK QARASHLARNING RIVOJLANISHI

Annotatsiya. *Maqolada Homiy personajlar obrazining genetik asoslari ajdodlarimiz dunyoqarashi-ning qadimiy qatlamlariga mos tasavvurlardan biri – totemizmga, ya'ni totem-ota, totem-ona haqidagi e'tiqodlarga, otalar arvohiniig madadiga ishonishga asoslangai kult miflariga bog'lanishi yoritilgan.*

Аннотация. *В статье поясняется, что генетическая основа образа покровителя связана с одним из древних представлений мировоззрения наших предков – тотемизмом, а именно представлениями о тотеме-отце, тотеме-матери, культовыми мифами, основанными на вере в поддержку духов предков.*

Annotation. *The article explains that the genetic basis of the image of the patron saint is connected with one of the ancient notions of the worldview of our ancestors – totemism, namely beliefs about the totem-father, totem-mother, cult myths based on belief in the support of ancestral spirits.*

Kalit so'zlar: *o'zga makon, Tukli aziz, Chiltan, yashirin jamiyat, qirq qaroqchi, Hubbi, Malika Zavriyo, Malikayi Dilorom.*

Ключевые слова: *другое место, Тукли азиз, Чилтан, Тайное общество, Сорок разбойников, Муженек, принцесса Завриё, принцесса Дилором.*

Key words: *another place, Tukli aziz, Chiltan, Secret Society, Forty Thieves, Hubby, Princess Zavriyo, Princess Dilorom.*

Xalq dostonlarida tasvirlangan epik qahramon obrazining to'laqonli ishlanishida unga epik raqib sifatida faoliyat ko'rsatadigan personajlar bilan bir qatorda, qahramonga homiy, yordamchi vazifasida qoladigan obrazlar ham muhim badiiy funktsiya bajaradi. Homiy qahramonning tug'ilishidan tortib, uning barcha sarguzashtlarida ishtirok etadi. Unga maslahat beradi, og'ir shart va topshiriqlarni bajarishda, to'siqlarni yengib o'tishda, «o'zga makon»dan biror narsa yoki parini olib kelishda ko'maklashadi.

O'zbek folklorshunosligida epik homiy obrazining mifik asoslari, sujet voqealaridagi o'rni va vazifalari masalasini o'rganishga doir qiziqarli fikrlar bildirilgan.¹

¹Акрамов Ф. Манистик мифология. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 1979, 6-сон; Мадрахимова Н. «Ширин билан Шакар» достони версияларида хомий образи. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 1998, 6-сон, 34–37-

Filologiya fanlari nomzodi N.Madrahimova to'g'ri yozganidek, «xalq dostonlaridagi homiy obrazi asarda tutgan o'rni, qadimiy e'tiqodlarning ifodasi, badiiyatni yuzaga chiqaruvchi omillardan biri sifatida alohida tadqiqot manbai bo'la oladi».¹

Haqiqatam ham, o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining ertak, afsona, doston kabi janrlarida keng ishlangan homiy personajlar o'zining badiiy ifodasi, asarda bajaradigan vazifalari hamda tarixiy asoslariga alohida tipni tashkil etadi. Shuning uchun ham epik janrlarning obrazlar tarkibini tiplarga bo'lib o'rganishda asosiy qahramon talqinining to'laqonli chiqishida ikki guruh personajlar muhim rol o'ynashi e'tiborga olinadi. Shulardan biri yetakchi qahramonga dushmanlik qiluvchi, unga doim qarshilik qiladigan raqib obrazi bo'lsa, ikkinchi toifa obrazlar tipi homiy personajlardan iborat bo'ladi. Raqib personajlarning bosh vazifasi yetakchi personajga qarshilik qilish, yomonlik qilishdan iborat. Homiy personajlar faoliyati esa qahramonga ko'maklashish, uning mushkulini oson qilishga qaratiladi. Shuning uchun ham epik janrlar sujet silsilasida harakat qiladigan obrazlar sistemasini o'rganishda yetakchi personaj bilan raqib personaj munosabatlarini oydinlashtirish qanchalik muhim bo'lsa, qahramon epik tasvirining chizilishida homiy personajlarning o'rnini belgilash ham shunchalik zarur.

Folklorimizdagi homiy personajlar sistemasi o'zbek xalq ijodiyotining qadimiy qatlamiga taalluqligi bilan ham xarakterlanib turadi. Shuning uchun ham homiy personajlarning epik asarlardagi badiiy tasviri chuqurroq tadqiq etilsa, u yoki bu homiy obrazining qadamgi e'tiqodlari bilan aloqadorligiga doir ko'plab ma'lumotlar yuzaga chiqadi. Chunki o'zbek folkloridagi homiy personajlarning aksariyati mifik personajlarni qo'llab-quvvatlovchi xayoliy-afsonaviy pirlar, tangrilar, ma'budlar to'g'risidagi tasavvurlar asosida kelib chiqqan.

Ana shuni e'tiborga olgan holda, o'zbek folklorida tasvirlangan homiy personajlarni shakllanish asoslari va tarixiy evolusiyasi bosqichlariga ko'ra quyidagicha tasnifladik;

1. Homiy obrazining totemistik ko'rinishi. Epik homiylar obrazi o'zining kelib chiqishiga ko'ra, bir necha xil tasavvurlar va e'tiqodlar mahsuli sifatida maydonga chiqqan. Homiy personajlar talqinida eng qadimgi totemistik miflardan tortib, monoteistik qarashlar, ya'ni islom diniga aloqador mifik qarashlarning izlarini ham uchratish mumkin. Epik homiylar obrazining totemistik mif bilan aloqador ko'rinishlari o'zining badiiy ifodasiga ko'ra, ikki toifaga bo'linadi: 1. Jonivor ko'rinishidagi totemistik homiy. 2. Inson ko'rinishidagi totemistik homiy.

Epik homiy obrazining bu ko'rinishiga «Ediga» dostonidagi Tukli aziz obrazini misol qilib keltirishimiz mumkin. Dostonda tasvirlanishicha, Tukli aziz qahramonning otasigina emas, balki uning yaqin maslahatgo'yi, yordamchisi va homiysi vazifasida ham keladi.

Tukli aziz obrazi, aslida, totem-ota haqidagi totemistik mif personajining epik diffuziyasi natijasida paydo bo'lgan. Bu mifik personajning «Tukli aziz» deb atalishi birinchidan, ushbu obraz hamma joyi jun bilan qoplangan mavjudot sifatida tasavvur qilinganligini anglatadi; ikkinchidan, bu mifologik obrazning qadimgi shakli jonivor ko'rinishidagi personaj sifatida tasvirlanganligini bildiradi,

2. Homiy obrazining mifologik ko'rinishi. Xalq dostonlarida qahramonning homiysi sifatida faoliyat ko'rsatadigan mifologik obrazlardan biri chiltonlar bo'lib, bu mifik obraz haqidagi qarashlarning qadimiy asosi animistik tasavvurlar bog'lanadi. Animistik qarashlar inson hayotining eng qadimgi bosqichlariga aloqador bo'lib, uning ildizlari arxaik miflar bilan bog'lanib ketadi. Ezgulik bilan yovuzlik inson hayotining asosini tashkil etganligi sababli ibtidoiy inson hech bir hodisaga befarq qaramagan, ularning zamirida qandaydir ruh yashiringan, deb hisoblagan va ulardan madad kutgan. Shu sababli xalq ijodida chiltonlar, eranlar yoxud har bir kasb-korning piri, Bobo Dehqon, Dovud kabi homiy kuchlar bilan bog'lik miflar yuzaga kelgan.

Xorazm dostonlari tarkibida animizm bilan bog'liq miflar ham anchani tashkil etadi. Ularning orasida chiltonlar bilan bog'liq bo'lganlari, ayniqsa, kengroq tarqalgan. Birorta doston yo'qki, unda chiltonlar ishtirok etmagan bo'lsin. Ayniqsa, «Oshiq» turkumiga kiruvchi dostonlarda ular tez-tez ko'zga tashlanib turadi. Chunki mazkur tipdagi dostonlarda tush motivi asosiy o'rinni egallaydi. Oshiq-ma'shuqlar o'sha tush jarayonida bir-biriga nikoh qilinadi. Albatta, ushbu nikoh jarayonida 40 chilton hozir bo'ladi.

Chilton atamasi forsiydagi «chil» va «tan» so'zlaridan iborat bo'lib, aslida, qirq tan, qirq ruh ma'nosiga egadir. 40 chilton hamisha oshiq'larga hamdam, dastyor, homiy sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

бетлар; Жўраев М. «Алпомиш» достониди мифологик образлар. «Алпомиш» – ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси, Тошкент, 1999, 147–157-бетлар.

¹ Мадрахимова Н. Кўрсатилган мақола. 34 – 35-бетлар.

“Oshiq” turkum dostonlarda qahramonning karomatli tush ko‘rishi, tushida go‘zal qiz, pari bilan ko‘rishishi yoki unga nikohlanishi motivlarida chiltan obrazi ishtirok etadi. Qahramon o‘z yori haqidagi ma’lumotni tushida chiltanlar orqali bilib oladi. Uning o‘z yori bilan nikoh qilinishi ham tushda, chiltanlar tomonidan amalga oshiriladi. Zero, “tush ko‘rishning va tush lavhasining asosi bitta – inson ruhiy dunyosiniig ramzlaridir”.¹

Darhaqiqat, tush inson ruhiyatining uyqu paytidagi aks sadosidir. 40 chiltanlarning o‘zi ruh bo‘lganligi sababli inson ruhi bilan muloqotga kirishadilar. Tushdagi nikoh jarayonida ham ruhlar faoliyat ko‘rsatadi. Inson esa uyg‘onganidan keyin tushidagi voqiyalarni amalga oshirishga kirishadi.

Qahramonning tushida chiltanlar vositasida o‘zining bo‘lajak yori bilan ko‘rishib, so‘zlashishi o‘zbek eposi uchun umumiy bo‘lgan motivlardan biri hisoblanadi. Bu motivii biz, hatto “Alpomish” dostonida ham ko‘ramiz. Bizning fikrimizcha, mazkur motivning qadimgi namunalarida qahramonning chiltanlar bilan bevosita uchrashishi va ularning himiyligidan bahramand bo‘lishi tasvirlangan. Tush bilan aloqador tasvir esa keyinchalik kelib chiqqan.

Dostonlarda tasvirlangan bu lavhada chiltan haqidagi mifologik qarashlari to‘la ifoda etilgan. Ma’lumki, chiltanlar qirq nafar ko‘zga ko‘rinmaydigan ruxlar bo‘lib, oddiy kishilar ko‘ziga ko‘rinmaydilar. Ularning soni hamisha qirq nafar bo‘ladi. Chiltanlar orasida haftan va setanlar alohida ajralib turishadi. Ularning hammasi yaktanga bo‘ysunadilar. Haftanlar dunyoning yetti burchida turib, olamda bo‘layotan sir-asrorlardan xabardor bo‘lib turadlar. Setanlar esa chiltanlar orasidagi eng donishmand uchildir.²

O‘rta Osiyo xalqlari mifologiyasida chiltanlar «g‘oyib eran», «eranlar», «qirq chiltan», «qirq bir chiltan», «chiltan qaroqchi» kabi nomlar bilan ham ataladi. Ayniqsa, chiltanlarning «eranlar» deb nomlanishi Xorazm dostonlarida ko‘p bora uchratiladi.

Chiltan obrazini o‘zbek xalq ertaklaridagi «qirq qaroqchi» badiiy detali bilan qiyoslab tadqiq etgan M.Jo‘rayevning fikricha, chiltan va qirq qaroqchi obrazlari o‘zaro aloqador bo‘lib, «matriarxat tuzumining so‘nggi davrida paydo bo‘lgan erkaklar «yashirin jamiyat»lari haqidagi tasavvurlarni o‘zida mujasamlashtirgan».³

Ma’lumki, ibtidoiy davrdagi bunday «yashirin jamiyatlar» qabila, urug‘larning mifologik tasavvurlari, marosim va udumlarini saqlovchi, rivojlantaruvchi va yoshlarga singdiruvchi muqaddas guruh hisoblangan. Balog‘at yoshiga yetgan yosh o‘g‘il-qizlar ana shunday guruhga mansub bo‘lgan kekxa kishilar davrasida ma’lum muddat yashab, belgilangan sinov marosimi udumlarini bajaranganlar, ulardan ajdodlarining miflari va afsonalarini eshitganlar. «Yashirin jamiyat» azolari yoshlarni qadimgi muqaddas marosimlarda qatnashishga o‘rgatishgan. Mif va marosimlarning mohiyati tushuntirib berilgan. Ushbu tarixiy voqealarning mifologik tasavvurlar doirasida aks ettirilishi natijasida «chiltan» obrazi kelib chiqqan.

Chiltan obrazining sinov marosimlariga aloqadorligini Xorazm etnografiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan olim M.V.Sazonovanning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: «Chiltan haqidagi tasavvurlar o‘smirlarni muayyan yosh-tabaqa bosqichidan navbatdagsiga o‘tkazish vazifasini bajaruvchi initsiatsiya marosimi bilan bog‘liq».⁴

Xorazm dostonlarida Amudaryo bo‘ylarida yashagan aholining mifologik tasavvurlariga aloqador bo‘lgan obrazlar ham homiy vazifasida keladi. Ana shunday mifik obrazlardan biri Hubbidir. Hubbi Xorazm afsonalarida suv muakkili, daryo toshuvini nazorat qilib turadigan xayoliy obraz, mushkul ahvolda qolgan kishilarni qutqaruvchi pir sifatida tasvirlanadi. Hubbi obrazining talqinlari va suv kulti bilan bog‘liq mifologik asosi U.Jumanazarov, M.Jo‘rayev, M.Razzoqovalarning ishlarida o‘rganilgan.⁵

Xorazm vohasining sug‘orish tarixining yirik tadqiqotchisi Y.G‘ulomov keltirgan afsonada hikoya qilishicha, «Faridun va hatto Jamshid podsholik qilmasdan ko‘p vaqtlar ilgari Amudaryoda bir yigit yashagan va bu yigit daryoning hokimi bo‘lgan. Uni ismi «Hubbi» bo‘lgan Hubbi baliq bilan oqvatlangan. U bir qo‘li bilan baliqni ushlab olarkan-da, uni quyoshga uzatar ekan, baliq shu ondayoq qovurilar ekan. U yetti yuz yil davomida Amudaryoda yashagan va bu vaqt ichida hech kayday yovuz jin daryoga

¹ Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. Қарши, 1995, 10-бет.

² Андреев М.С. Чилтаны в среднеазиатских верованиях. В.В.Бартольд. Ташкент, 1927, с. 340 – 342.

³ Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида сеҳрли рақамлар. Тошкент, 1991, 144-бет.

⁴ Сазонова М.В. Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. Л., 1978, с. 89.

⁵ Жуманазаров У. Сувга сигиниш ҳақида айрим қайдлар. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 1990, 4-сон, 54 – 58-бетлар; Жўраев М. Хоразм мифологиясида Хубби култи. “Илм сарчашмалари”, Урганч, 2002, 1-сон, 19–24-бетлар; Яна ўша. Ўзбек мифологиясида Хубби образи. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2002, 2-сон; Раззоқова М. Ўзбек халқ афсоналарида Хубби образи. “Адабиёт гулшани”, Тошкент, 1999, 40–44-бетлар.

yaqinlasha olmagan va hatto u vaqtda chivinlar ham bo'lmagan. Jamshid taxtga o'tirgan vaqtdan boshlab Hubbi dom-daraksiz g'oyib bo'lgan. Uni osmon dengizining malikasi – go'zal qiz o'g'irlab ketgan deb o'ylaydilar. U g'oyib bo'lgandan keyin Amudaryoda Hubbining onasi paydo bo'lgan. Ana shu Hubbining onasi birinchi qayiqni qurgan va xalqni daryoda urishishga o'rgatgan. So'ngra Hubbining onasi butunlay ketib qolgan».¹

Boshqa bir afsonada aytishicha, Hubbi Hakim ota Boqirg'oniyning kenja o'g'li ekan. Katta o'g'il-lari otalarining izidan borib, diniy ilmlar bilan mashg'ul bo'la boshlabdilar. Biroq Hubbixo'ja yoshligida-noq ot minib yurishni, ov qilishni yaxshi ko'radi. Hakim ota Hubbixo'ja darvesh bo'lish o'rniga jangchi bo'ladi deb xavfsirab, ko'p xafa bo'lgan. Ammo uning xavfsirashlari bejiz bo'lib chiqdi. Hubbixo'ja mo'jizalar ko'rsata boshlaydi: suvga botganlarni qutqarar, so'yilgan ho'kizlarga jon qaytarar va hokazolar qillar ekan. Bir kuni Hubbixo'ja o'z joyidan uzoqroq bir daryoga borgan. Hakimota uyda o'tirib, uni uch marta chaqirdi. Birinchi chaqiriqqa u javob qaytargan, ikkinchisini javobsiz qoldirgan, uchinchisida otasi-ning qarshisiga yetib kelgan. U birinchi chaqiriqdayoq uyga qarab yo'l olgani, ikkinchi chaqirishida suvga cho'kkanlarni qutqirish bilan ovora bo'lganligidan javob bera olmaganligini aytgan. Hubbi tomonidan qilingan mo'jizalar otasining g'azabini keltirgan va u Hubbining Xorazmdan chiqib ketishini so'ragan.

Hubbixo'ja otasi bilan vidolashgan va shu ondayoq yerga yotib, ko'zdan g'oyib bo'lgan. Ota-onasi bu mo'jizani ko'rib, hayron qolganlar. Tangri Hakim otaga murojaat qilib, bunday degan; «Uning avlodidan uch yuz oltmishta avliyo chiqar edi, sen bunga to'sqinlik qilding, endi sening bu gunohing yuvilishi uchun qabring ustidan qirq yil mobaynida daryo oqib turishi kerak».²

Hubbiniig sirli ravishda qushga aylanishi va ota-onasining uyini tark etib, g'oyib bo'lishi haqidagi mifik tasavvurlar mangu barhayot tangrilar to'g'risidagi miflar asosida kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin.

3. Homiy obrazining kiyingi ko'rinishi. Epik tafakkurning taraqqiyoti davomida mifologik xarakterga ega bo'lgan homiylik obrazining ayrim funksiyalari real hayotda yashagan ayrim tarixiy shaxslar obraziga singdirilishi hodisasi xalq dostonlarida ham kuzatiladi. Ayniqsa, islom dini g'oyalari targ'ib qilish va ommalashtirish jarayoni bilan bog'liq tarixiy voqealarda bevosita ishtirok etgan kishilar. Xorazm vohasida avliyo sifatida tan olingan va xalq ommasi tomonidan sig'inilgan diniy arboblari, ulamol-lar, olim va shoirlarning nomlari dostonlarda pir sifatida tilga olinadi.

Xorazm dostonlarida, ayniqsa, «Malika Zavriyo», «Malikayi Dilorom» kabi romanik dostonlarda islom dini bilan bog'liq bo'lgan hazrat Ali, Vaysil qiron» Bahouddin Naqshband, Said ota, Norinjon bu-va, Polvon ota, Fotima-Zuhra, Shayx Sharif, Olovxo'ja pir, Piryor vali, Darg'on ota, Zangi bobo, Ervali kabi tarixiy shaxslar nomi ham tilga olinadi. Bu tarixiy shaxslar nomining dostonlarda ifodalanishi avliyolar haqidagi Xorazm agiografik adabiyotlarida bu shaxslarning badiiy obrazlari yaratilganligi sabab bo'lgan. Baxshi sha xalfalar bunday qissa hamda risolalar mazmunidan xabardor bo'lganliklari uchun ularning nomi homiylik qatorida sanaydilar.

Demak, Xorazm dostonlarining obrazlar sistemasi asosida to'rt xil personaj turkumini o'z ichiga oladi. Ular quyidagilar: a) dostonning sujet liniyasida harakat qiladigan asosiy personajlar; b) bosh vazifasi asosiy qahramonga qarshilik ko'rsatish, yomonlik qilishdan iborat bo'lgan raqib personajlar; d) asosiy personajga yordam beruvchi, yo'l ko'rsatuvchi, maslahat beruvchi, sehrli-magik narsalar bilan ta'minlovchi homiy personajlar; e) asosiy personajga nisbatan neytral pozitsiyada turuvchi yordamchi personajlar. Bu tipdagi personajlarning har biri o'zining epik asardagi badiiy o'rni, vazifalari, poetik talqini, tarixiy-genetik asoslari va o'ziga xosligiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Xorazm dostonlarida tasvirlangan homiy personajlar tarkibi o'zining tarixiy asoslariga ko'ra, quyidagi tiplarga bo'linadi: a) totemistik tasavvurlar bilan aloqador homiy personajlar; b) mifologik tasavvurlar bilan bog'liq homiy personajlar; d) monoteistik diniy qarashlar bilan aloqador homiy personajlar.

Homiy personajlar obrazning genetik asoslari ajdodlarimiz dunyoqarashining qadimiy qatlamlariga mos tasavvurlardan biri totemizmga, ya'ni totem-ota, totem-ona haqidagi e'tiqodlarga, otalar arvohi-niig madadiga ishonishga asoslangai kult miflariga bog'lanadi. Epik homiy obrazining tarixiy taraqqiyoti «mifologik tip-epik tip» bosqichlarini o'z boshidan kechirgan.

Totem hamda homiy-ajdodlar haqidagi mifologik qarashlarning rivojlanishi natijasida folklor asar-larida yetakchi qahramonga ko'maklashadigan, uni qo'llab-quvvatlaydigan homiy personaj obrazi shakl-langani.

¹ Фуломов Я. Хоразмнинг суғорлиши тарихи. Тошкент, 1959, 31 – 32-бетлар.

² Фуломов Я. Кўрсатилган асар. 32 – 33-бетлар.

**Сабилова Насиба Эргашевна (филология фанлари доктори (DSc), доцент,
Хоразм ВХТХҚТМОХМ Тилларни ўқитиш методикаси кафедраси мудири)
ЖАНУБИЙ ВА ШИМОЛИЙ ХОРАЗМ ДОСТОНЧИЛИК МАКТАБЛАРИ**

Аннотация. Ушбу мақолада сўз Хоразм достончилик мактаблари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида боради. Достончилик мактабларининг турлича шаклланишига халқнинг этногенетик тарихи ҳам жиддий таъсир этиши, чунки ҳар қандай этник гуруҳ ўзининг қадимий анъаналарини барқарор сақлаши, буни Хоразмдаги достончилик мактабларида яққол кўриш мумкинлиги ҳақида фикрлар билдирилади. Шунингдек, санъатишунос олим Б.Матёкубов ўз рисоласида Бола бахши берган маълумотга асосланиб, Хоразм достончилигини уч мактабга бўлиниши, Хоразм достонлари, бахшичилик мактаблари хусусида фольклоршунос С.Р.Рўзимбоев ҳам кўпгина мулоҳазаларни билдиргани, воҳада иккита достончилик анъанаси мавжуд эканлиги ҳақида илмий-назарий маълумотлар берилган. Мақола Жанубий ва Шимолий Хоразм достончилиги анъаналари таснифи асосида таҳлил қилинди, достончилик мактабларининг ўхшаши ва фарқли томонлари Хоразм достонларидан олинган мисоллар билан исботлаб берилди.

Аннотация. В данной статье речь идёт о школах Хорезмского эпоса и их особенностях. Говорят, что этногенетическая история народа оказывает существенное влияние на формирование различных школ эпической поэзии, поскольку любой этнос сохраняет свои древние традиции, что хорошо видно в эпических школах Хорезма. Также искусствовед Б.Матякубов разделил Хорезмский эпос на три части, основываясь на информации Бола Бахши, фольклорист С.Р.Рузимбаев также прокомментировал Хорезмские эпосы, школы Бахши, а в оазисе существуют две традиции эпической поэзии. Статья анализируется на основе классификации традиций эпической поэзии Южного и Северного Хорезма, на примерах из эпоса Хорезма доказывается сходство и различие эпических школ.

Annotation. In this article we will talk about Khorezm epic schools and their peculiarities. It is said that the ethnogenetic history of the people has a significant impact on the formation of different schools of epic poetry, as any ethnic group preserves its ancient traditions, which can be clearly seen in the epic schools of Khorezm. Also, art critic B.Matyukubov in his pamphlet divided the Khorezm epic into three shops based on the information given by Bola Bakhshi, folklorist S.R.Ruzimbaev also commented on Khorezm epics, Bakhshi schools, and there are two traditions of epic poetry in the oasis. The article is analyzed on the basis of the classification of traditions of epic poetry of South and North Khorezm, the similarities and differences of epic schools are proved by examples taken from Khorezm epics.

Калим сўзлар: достончилик, Хоразм достончилик мактаблари, Жанубий Хоразм достончилик мактаби, Шимолий Хоразм достончилик мактаби, Хоразм достончилиги мактаблари, Юқори мактаб, Ўрта мактаб, Ошоқ (қуйи) мактаб, Хоразм бахшилари, Бола бахши, Ошиқ Ойдин Пир.

Ключевые слова: эпос, Хорезмская эпическая школа, Южно-Хорезмская эпическая школа, Северо-Хорезмская эпическая школа, Хорезмские эпические школы (мастерские), Верхняя школа-мастерская, Средняя школа, Ошюкская (Нижний) школа, бахши Хорезма, Бала Бахши, Ошик Айдын Пир.

Key words: Epic, Khorezm Epic Schools, South Khorezm Epic School, North Khorezm Epic School, Khorezm Epic Stores, Upper Store, Middle Store, Oshoq (Lower) Store, Khorezmian Bakhshies, Bola Bakhshi, Oshiq Aydin Pir.

Достончилик халқимиз маънавиятида асосий ўринлардан бирини эгаллайди. “Уни куйловчи бахшилар нодир маънавий бойликларни мукамаллаштиришда муҳим вазифани амалга оширишади. Улар юксак инсоний фазилатларни ўзида мужассамлаштирган образларни бадий қайта ишлаш орқали асарнинг ғоявий мазмунини яна-да чуқурроқ илдиз отишига замин ҳозирлашади”.¹

Бахшилар ўзларининг юксак хотираси, хонандалик қобилияти, жонли халқ тилининг хассос билимдони сифатида асрлар оша келаётган эпик анъаналарни, бой ва ранг-баранг эпосни авлоддан авлодга етказишда кўприк вазифасини ўтаб келишмоқда. “Ўзбек бахшилари ғоявий йўналишда, эпик репертуарининг ягоналиги, ижро усули ва куй-қўшиқда бир хил анъанага эга бўлсаларда бари бир улар ўзига хос услуб, ижро йўналишлари, репертуар характери билан ўзаро фарқларга эга. Бу ҳодиса достончилик мактабларини келтириб чиқаради”.

¹ Чичеров В.И. Школы сказителей Заонежья. М., “Наука”, 1982, с. 132.

Достончилик мактабларининг турлича шаклланишига халқнинг этногенетик тарихи ҳам жиддий таъсир этади.¹ Чунки ҳар қандай этник гуруҳ ўзининг қадимий анъаналарини барқарор сақлайди. Буни Хоразмдаги достончилик мактабларида яққол кўриш мумкин. Санъатшунос олим Б.Матёкубов ўз рисоласида Бола бахши берган маълумотга асосланиб, Хоразм достончилигини уч дўконга (дўкон – манзил, макон, худуд маъносида) бўлади.

Юқори дўкон. Бу дўкон ўз ичига, шартли равишда, Туркменистоннинг Лебоб вилояти (Чоржўй), Дарғон ота, Питнак туманларини қамраб олади. Бу дўкон бахшиларининг куй йўллари мўътадил бўлиб, дуторларининг ҳажми ҳам Фарғона-Тошкент дуторларига ўхшашлиги билан ажралиб туради. Мазкур дўкондан Хўжаёз бахши, Амин бахши, Мурод бахши, Эшниёз бахши ва бошқалар етишиб чиққан. Унинг марказини шартли равишда Ҳазорасп деб белгилаш мумкин.

Ўрта дўкон ўз ичига Хива, Хонқа, Янгиарик, Урганч, Қўшқўпир, Шовот туманларини бирлаштиради. Унинг марказини, шартли равишда, Хива шаҳри сифатида белгилаш мумкин. Ушбу дўкон бахшиларининг куйлари жўшқин ва ўйноқидир. Уларнинг дутори ҳам юқори ва қуйи дўконларникидан кичикроқдир. Уларга хос яна бир хусусият дуторга буломон ва доирада жўр бўлишадди. Бу дўконнинг вакиллари Эшвой бахши, Матниёз гўржа (Ғарибниёз), Нурмамат чўлоқ ва бошқалардир.

Хуллас, **Ўрта дўкон** Хоразмда асосий достончилик маркази бўлиб, унинг намояндлари сифатида Аваз бола, Нурилла чиғатой, Эрнафас бахши, Матёкуб қори, унинг ўғиллари Ҳасан ва Сайид бахшилар, Бекжон бахши, Абдрим бахши, Усмон бахши (Бола бахшининг бобоси), Бува бахши, Жуманазар бахши ва Бола бахшиларни тилга олиш мумкин.

Ошоқ (қуйи) дўкон – Гурлан, Тошҳовуз, Кўхна Урганч, Хўжайли каби Амударёнинг қуйи оқимидаги худудларни ўз ичига олади. Унинг марказини, шартли равишда, Манғит шаҳри деб белгилаш мумкин. Бу худуд бахшилари, кўпинча, якка дутор жўрлигида достон куйлашади. Дўконнинг ёрқин намояндalarидан бири Ризо бахши бўлиб, у Ферузнинг хос бахшисидир. Шунингдек, Эрназар бахши, Суяв бахши, Отажон бахши ва бошқалар ҳам ўша дўкон услубида достон куйлашган.²

Хоразм достончилиги анъаналарининг илдизлари жуда қадимий ва мураккабдир. Чунки бу ўлкада миграция жараёнлари фаол бўлиб, узоқ давом этган форсий ва туркий халқлар аралашуви натижасида достончилик анъаналари ҳам эволюцияга учраган. Бу жараён XX асргача давом этиб келган. Бу масала махсус тадқиқотларда таҳлил этилган.³ Хоразм достонлари, бахшичилик мактаблари хусусида фольклоршунос С.Р.Рўзимбоев ҳам кўпгина мулоҳазаларни билдирган. Унинг қайд қилишича, воҳада иккита достончилик анъанаси мавжуд:

1. Жанубий Хоразм достончилиги анъаналари.

2. Шимолий Хоразм достончилиги анъанаси.

Биз ишимизда ана шу тасниф асосида фикр юритдик.

Ушбу тасниф муаллифининг айтишича, Ҳазорасп маркази бўлган “юқори дўкон” анъаналари XX аср бошларида Жанубий Хоразм достончилиги анъаналари билан сингишиб кетган.

Дастлаб, Жанубий Хоразм достончилиги анъаналари ҳақида сўз юритадиган бўлсак, ушбу достончиликнинг илдизлари жуда қадимийлиги билан ажралиб туради. XI асрга келиб ўғуз туркларининг эрон тилли аҳоли билан чагишувининг кучайиши тилнинг туркийлашиш жараёнини тезлаштирди, ўзини сарт номи билан атовчи субстрат аҳоли туркий тилли суперстрат билан бирлашиб, янги бир этник гуруҳни шакллантирди. Бу гуруҳ вакиллари ҳозирги ўғуз лаҳжасида гапирувчи ўзбек аҳолисининг энг қадимги авлодлари бўлиб, улар Хоразмнинг жанубий томонига жойлашганлар.⁴ Ўша сабабга кўра, бу худуддаги достончиликда қадимги хоразмийларга хос анъаналарнинг сақланиб қолганлиги, табиий.

X асрлардаёқ бу худудда шаҳарларнинг сони 30 тага етган. Урганчдан кейин Ҳазорасп, Дарғон, Хива шаҳарлари вужудга келган.⁵ Бу шаҳарларда ўтроқ ҳаётнинг барқарорлашуви, шаҳар маданиятининг ўсиши адабиёт ва санъатга ҳам ўз таъсирини ўтказмасдан қолмади. Жанубий Хоразм достончилиги анъанаси асосан ўғуз лаҳжасида гапирувчи аҳоли яшайдиган худудларни қамраб ола-

¹ Рўзимбоев С. Хоразм достончилиги эпик анъаналари. Урганч, “Университет”, 2008, 18-бет.

² Матёкубов Б. Достон наволари. Т., “BUILDING PRINT”, 2009, 23 – 26-бетлар.

³ Рўзимбоев С. Хоразм достонлари. Т., “Фан”, 1985, 22 – 23-бетлар.

⁴ Рўзимбоев С. Хоразм достончилиги эпик анъаналари. Урганч, “Университет”, 2008, 4-бет.

⁵ Жуманиёзов Р. Қадимги Хоразм тарихи. Урганч, “Мураббий”, 1993, 45-бет.

ди. Бунга Амударёнинг чап қирғоғидаги Ҳазорасп, Боғот, Янгиариқ, Хонқа, Урганч, Хива, Қўшқўпир, Туркменистоннинг Тошҳовуз вилоятидаги жанубий туманларни киритиш мумкин.

С.Р.Рўзимбоев бу ҳудудга ўнг қирғоқда жойлашган Тўрткўл ва Эллиққалъа туманларини ҳам киритади. Бироқ айрим тадқиқотларда таъкидланишича, бу ҳудудда, хусусан, машҳур дostonчи Қурбонбой жирoв репертуарида икки тилда куйланган дostonлар ва фақат ўзбекча ёки қорақалпоқча куйланган дostonлар ўзларида қорақалпоқ дostonчилиги анъаналари руҳини бўртдиргани ҳолда, Нурота, Қўрғон, Жанубий Хоразм дostonчилик мактабларига хос анъаналарни ҳам синкретик тарзда мужассам этган фольклор асарлари ҳисобланади.¹ Шу сабабли Тўрткўл, Эллиққалъа туманлари ҳудудида, асосан, ўғуз тилли аҳоли яшаса-да, улардаги дostonчилик анъаналарини маҳсус тадқиқ қилишга тўғри келади.

Жанубий Хоразм дostonчилигига хос асосий хусусиятлар қуйидагича:

а) бахши дотор ва гармон (соз) жўрлигида куйлайди, кейинги пайтларда тор асбоби расм бўлди. Бахшига буломончи, ғижжакчи ва доирачи жўр бўлишади. Насрий матнни бахши ҳикоя қилиб, шеърий парчалар ижросида бахшига доирачи ҳам қўшилади. Албатта, қадимда асосий чолғу асбоби дотор бўлган. Соз (гармон) эса XX асрнинг охири чорагида руслар Хива хонлигини босиб олгандан кейин воҳага кўчиб келган немис меннонитлари томонидан олиб келинган. Уни, дастлаб, Қурбон созчи – Қурбон Исмоилов, Сафо созчи – Сафо Муғаннийлар қўллашган. Кейин бахшилардан Қодир созчи, Жумёз созчилар гармон, буламон, ғижжак жўрлигида дoston ижро қилишган. Бола бахши 1928 йилдан торда куйлай бошлаган, Жанубий Хоразм дoston куйлари шўх ва ўйноқи. Унда мақом уфорилари ҳам ишлатилади. М.Л.Садоков: “Хоразм кўшиқлари латиф, ўзига хос назокатга эга, ритмикаси эса рақсга мойил”, деб ёзганида Жанубий Хоразмга хос куйларни назарда тутган.² Куйларнинг шўх, ритмикага бойлиги бахши ансамблида доира асбоби бўлишини тақозо қилади. Хоразмда оғзаки тарқалган халқ кўшиқлари ҳам дoston куйларига мос келади, в) Бу ҳудудда тарқалган дostonлар асосан китобий характерга эга. Шу сабабли уларда ҳажмий мўъжазлик кўзга ташланади. Ижро вақти 2 – 2,5 соатни ташкил этади.

Вамбери асарига қайд қилинган “Бахши китоби”, асосан, Жанубий Хоразм бахшиларининг қўлида қўлланила бўлиб хизмат қилган. Ёш бахшилар дostonларни қисса-дostonлар орқали ўзлаштирганлар. Албатта, оғзаки репертуар алмашиш анъанаси ҳам давом этган. Дoston ижросида куй-кўшиққа катта эътибор қаратилган. Дoston матнидаги ҳар бир кўшиқ маҳсус куйлар орқали ижро этилган. Жанубий дostonчиликда ишлатиладиган мусиқа куйлари ўзига хослиги билан ажралиб туради. Улар Ширвоний усули деб юритилади. Хоразм дoston номалари (куйлари) ўзининг тугал шакли, очик овозда куйланиши, халқ кўшиқларига яқинлиги, дoston воқеаларига боғлиқлиги, ўзига хос ёрқин услуби билан ажралиб туради. Улар мақом ва ўзга мумтоз куй йўллари каби ўзига хос номланишга ва туркумланишга эга.³

Профессор С.Р.Рўзимбоевнинг Бола бахши берган маълумотларга асосланиб қайд қилишича, қадимда Ширвоний услубида 72 куй (нома) ишлатилган. Ҳозирги даврда ўттиздан ошиқ нома қўлланилади. Дoston номаларининг номланиши турли сабаблар негизида рўёбга чиққан бўлиб, бизга қуйидаги куйлар етиб келган: 1. Бобоҳоним. 2. Галалайлим. 3. Гуландом. 4. Зоринжи. 5. Мунгли зоринжи. 6. Илғор I. 7. Илғор–II. 8. Қирқ минг илғор. 9. Илғор сарпардаси. 10. Мухаммаси ифтор. 11. Мухаммаси дoston. 12. Мухаммаси бахши–I. 13. Мухаммаси бахши–II. 14. Нолиш–III. 15. Така нолиш. 16. Нома боши. 17. Найларман–I. 18. Найларман–II. 19. Оромижон. 20. Раҳмайла. 21. Саргардон. 22. Шо кўчди. 23. Ширвоний–I. 24. Ширвоний II. 25. Ширвоний III. 26. Ширвоний IV. 27. Эшвой. 28. Эшвойи курд. 29. Эшвойи Урганжий. 30. Қора дали. 31. Эроний.

Дostonни бошлашда нома боши (Мухаммаси ифтор) чалинади. Кейин дидактик характердаги Машраб, Махтумкули шеърларидан кўшиқ айтилади.

Дoston ниҳоясида “Оромижон” ва “Бартавул уфориси” ижро этилади. Бу чолғу куйларида сурнай ҳам иштирок этади. Охирида қайроқ ўйини авжга чиқади. Ниҳоят, “Танги сози” куйи чалинади. Шу билан бахшилар чиқиши яқунланади.⁴ Қадимги тўйларда бахшилар хизмат қилишган.

¹ Мадраҳимова Н.Я. “Ширин билан шакар” дostonининг қиёсий-типологияк таҳлили. Номзод. дисс. автореферати, Т., 1996, 18-бет.

² Садоков И.Л. Тысяча осколков золотого саза. М., “Наука”, 1981, с. 164.

³ Матёкубов Б. Дoston наволари. Т., “BUILDING PRINT”, 2009, 41-бет.

⁴ Рўзимбоев С. Хоразм дostonларининг спецификаси, типологияси ва поэтикаси. Докторлик дисс., Т., 1990, 45-бет.

Улар билан бирга масхарабозлар, дорбозчилар ҳам иштирок этишган. Бахшилар танаффуси вақтида масхарабозлар, дорбозлар томоша кўрсатишган. Сўнгра дoston куйлаш давом этган. Ўтган асрнинг 50-йилларигача турли бахши жамоалари воҳанинг шаркидаги Дарғонотадан тортиб токи ғарбидаги Кўхна Урганчгача бўлган худуддаги тўйларда хизмат қилиб, дoston куйлаганлар, томоша кўрсатганлар. Ўша жараёнда ўзбек, туркман, қозоқ, қорақалпоқ бахши-жировлари ўзаро репертуар алмашган. Икки-уч тилда дoston ижро этадиган бахшилар анчани ташкил қилган. Ўз навбатида, айтишув мусобақаси уюштирилган. Голиб бахшиларга от, туя, хўкиз, пўстин каби совринлар тақдим қилишган.

Юқорида қайд қилганимиз – юқори, ўрта ва ошоқ (қуйи) дўкон бахшиларига хос турли мактаблар ўша даврда фаол ишлаб турган. Барча бахши жамоаларида масхарабозлар гуруҳи бўлган. Ўша гуруҳда иштирок қилган манғитлик Юсуф масхарабознинг ўғли Шукрулла Юсуповнинг ёзиб қолдирган хотирасига кўра, унинг отаси Юсуф масхарабоз манғитлик Аҳмад бахши Матназаровнинг гуруҳида иштирокчи бўлган.

Масхарабозларнинг репертуарида машҳур бахшиларнинг дoston айтишини муқаллид усулида намойиш қилиш одати бор эди. Юсуф масхарабоз ўзбек, туркман, қозоқ ва қорақалпоқ тилларида эркин сўзлай олган. Аммо тоталитар тузум даврида сен бошқа миллат тилларини масхаралайсан, деган айб билан уни қамоққа олишади ва талантли ижодкор у ёқдан қайтиб келмайди.

Хоразм бахшилари дoston айтиш жараёнида халойиқни зериктирмаслик учун ҳамиша масхарабозлар жамоасини бирга олиб юришган ва нафас ростлаб олиш пайтларида уларга навбат беришган. Баъзи тўйларда ўзбек ва туркман бахшиларининг айтишув мусобақалари ташкил этилган. Бундай мусобақа-айтишувлар бахшилар пири бўлмиш Ошиқ Ойдин пир қабри жойлашган Вос-Бўстон шаҳрида (Туркманистоннинг Тошховуз вилояти) мунтазам равишда ўтказилган. Бу анъана 1994 йилда тўхтаб қолган. Бу анжуманнинг шиори сифатида “Тўрўғли” туркуми дostonларининг “Хирмондали” шохобчасидан олинган қуйидаги мисралар шиор қилиб олинган эди:

*Бундан борсанг, шаҳри Бўстон бориб ўт,
Ошиқ Ойдин пирдан дуо олиб ўт.*

1994 йилги бахшилар мусобақасида Туркия, Озарбайжон, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон, Ўзбекистон, Қорақалпоғистондан келган бахши-жиров-оқинлар туркман бахшиларига меҳмон бўлиб, ўз санъатларини намойиш қилишган. Байрам-мусобақа икки кун давом этиб, мингдан ошиқ бахши иштирок этган.¹ Ушбу анъаналар халқларимизнинг бахшичилик санъатига нақадар ҳавасманд эканлигидан дарак беради. Ўша анжуманда томошобинлар сони 150 мингдан ошиқ бўлган. Бахшиларга ноёб совғалар берилган, олқишлар айтилган. Ушбу тантаналарда Бола бахши ўз ўғиллари Норбек, Матёқуб ва Етмишбойлар билан биргаликда қатнашиб, охири марта севган дostonларини куйлаган ва сал ўтмай вафот этган. Турли миллат бахшиларининг ўзаро учрашуви, мусобақалашиви, яқиндан танишуви эпик анъаналарнинг ривожланишига таъсир кўрсатиши, табиий.

Хоразм воҳасидаги ўзбек, туркман, қорақалпоқ бахшилари азалдан устоз-шогирдлик анъанасига эга. Шу сабабдан ҳам Суяв бахши уч тилда, Бола бахши ва Қурбонбой жировлар икки тилда дoston куйлаш имкониятини қўлга киритишган. Ушбу ҳолат халқлар дўстлиги, маънавий бирдамлик туйғуларини уйғотишда муҳим роль ўйнаган. Жанубий Хоразм дostonчилигида бахши дутор, гармон, тор воситасида куйлайди. Уларнинг ёнида ҳамиша буламон ва ғижжак жўрлиги сақланади. Шу ўринда Жанубий Хоразм дostonчилигига хос бўлган яна бир анъана хусусида гапиришга тўғри келади. Хива бахшилари, хусусан Бола бахши дoston ижро қилган пайтда насрий қисми ўзи баён қилади. Қўшиққа навбат етганда, унга доирачиси ёки шогирди жўр бўлиб, шеър икки овоз бирикувида ижро этилади.

“Авазхон” достони ижросида барча қўшиқлар ота-бола – Бола бахши ва Норбеклар томонидан биргаликда ижро этилган. Ушбу анъана “Бозиргон” достони ижросида ҳам амалга оширилган. Ушбу ижрода қўшиқлар Бола бахши ва доирачи Солай Ортиқовлар томонидан биргаликда куйланган. Бундай анъана фақатгина жанубий Хоразм бахшилари ижросига хос хусусиятдир. Икки овозда қўшиқ куйлаш тўй даврасида ашуланинг барча тигловчига эшитарли тарзда рўёбга чиқишига ёрдам беради. Аммо бадеҳағўйликни чеклайди. Қўш овозда қўшиқ куйлаш анъанаси дostonлар қўлёзмага кўчирилгандан сўнг мунтазам матн асосида келиб чиққан бўлиши эҳтимолдан холи эмас. Шимолий Хоразм бахшилари ижросида ушбу анъана учрамайди. Шимолий Хоразм бахшила-

¹ Ашык-Айдын – 94. Дашховуз, «Хыял», 1994 (29–30 август), 7 – 8-бетлар.

рининг дoston куйлаш анъаналари илгари ички (бўғиз) товушида амалга оширилган. Буни илгариги фаслларимизда келтирилган Н.Муравьевнинг “они поют хрипким голосом”, деган маълумоти ҳам тасдиқлайди. Уларнинг дoston куйлашдаги ушбу қадимий анъанаси Жанубий дostonчилик таъсирида XX аср бошларида барҳам топган. Бу анъана ўзбекларнинг этногенетик хусусиятига боғлиқ. Ушбу анъанага хос хусусиятлар куйидагича:

1. Бахшилар ўзбек тилининг қипчоқ лаҳжасида сўзлайдилар ва ташқи товушда куйлашади.
2. Бахши дуторда куй чалади. Ёнида буломончи ва ғижжакчи унга жўр бўлади. Доира ишлатилмайди.

3. Ушбу дostonчилик мактаби марказини Манғит шаҳри деб белгилаш мумкин.

Бахши ўз номаларига чалинадиган куйларни эроний йўли деб аташади. Мусикашунос Б. Матёкубов Ширвоний ва эроний мусика йўналишларининг фарқи ҳақида гапириб, асосий алоҳидаликлар услубларнинг мусикий нукталарида, дoston номларининг номланишидан тортиб оҳанг, услуб, куй тузилиши, мусикий чолғуларнинг қўлланилиши ва вазифаларининг белгиланиши каби жиҳатларида намоён бўлади, деб таъкидлайди. Эроний ва ширвоний номлари ҳақида сўз юритиб, бу атамаларнинг келиб чиқишини Хоразмнинг қадим замонларданок Эрон ва Озарбайжон (Ширвон) мамлакатлари орасидаги тарихий маданий алоқаларга боғлайди.

Кекса санъаткорлар билан мулоқотда улар бошқачароқ фикр билдиришади. Мусика ҳеч қачон бошқа мамлакатдан олиб келинмайди. Улар халқ тарихи, менталитети билан боғлиқ ҳолда асрлар оша яшаб келмоқда.

Шимолий дostonчилик анъаналарига алоқадор куйлар куйидагилардир:

1. Нома боши.
2. Бартавул.
3. Берадам.
4. Бешпарда.
5. Ел пасаланди.
6. Илғор–I.
7. Илғор сарпардаси.
8. Кўшим полвон.
9. Кўр қиз.
10. Мухаммаси ифтор.
11. Калта мухаммас.
11. Бош мухаммас.
12. Нолиш мухаммас.
13. Нолиш–I.
14. Нолиш–II.
15. Нолиш сайқали.
16. Ола қайиш.
17. Патак.
18. Сарпарда.
19. Салтиқ.
20. Табриз.
21. Тўрғай.
22. Шокўчди.
23. Шосанам.
24. Эшвой.
25. Эшвойи туркман.
26. Қорадали.
27. Уч тўп.
28. Кўша даст.
28. Кўшим Полвоннинг гажи.
29. Эшвойининг гажи.
30. Галалайлим.
31. Галалайлимнинг гажи.
32. Эронийнинг гажи.
33. Эронийнинг сайқали.
34. Бартавул уфориси.

Шимолий дostonчиликда бирор куй номи айтилиб, ўша куйнинг “гажи” сўзи ишлатилади. Масалан, Эшвой, Эшвойининг гажи. Санъатшунос Отаназар Матёкубовнинг бизга шарҳлашича, бу сўз “каж” сўзининг фонетик ўзгаришга учраган шакли бўлиб, “Куйнинг тескариси” маъносига эга. Шунингдек, Хоразмдаги ҳар иккала дostonчилик мактабларида ишлатиладиган айрим куйлар туркман, озарбайжон ва қорақалпоқ бахшилари томонидан ҳам истифода этилади.

Ўзбек фольклорида дoston жанри ўзининг буюк обида эканлиги, монументаллиги ва кўп қирралилиги билан алоҳида ажралиб туради. Шу сабабли уни фақат профессионал ижрочи-бахшигина куйлай олади. Бахшилар ўзларининг юксак хотираси, хонандалик қобилияти, бурро нутқи, Худо берган иқтидори орқали ушбу маънавий бойликни минг йиллар давомида сайқаллаб авлоддан-авлодларга етказиб келишмоқда. Репертуар, ижрочилик, куй-қўшиқлардаги умумийлик кўзга ташланса-да, ҳудудий яшаш тарзи, турли этногенетик омиллар ўзаро фарқларни, дostonчилик мактабларини вужудга келтиради. Хоразм воҳаси турли этногенетик қатламларнинг чатишувидан иборат аҳолидан иборат бўлганлиги учун ушбу ҳудудда дoston куйлаш анъанаси бир хил эмас. Уларни, асосан, икки анъана атрофида бирлаштириш мумкин. Хоразмнинг жанубий қисмида қадимданок ўзларини сарт тоифасига мансуб деб қаровчи ўғуз шеваси вакилларияшади. Аслида, уларнинг аجدод-авлодлари қадимги хоразмийлар авлоди билан чатишиб кетган. Бу ҳудуд бахшилари ўғуз лаҳжасида гапиришади. Улар дутор, гармон жўрлигида куйлашган, кейинчалик тор асосий асбоб сифатида расмийлашган. Бахши махсус ансамблга эга. Унинг ёнида буломон, доира ва ғижжак каби чолғу асбоблари жўр бўлади. Ушбу мактаб дoston куйлари шўх ва жозибадор, унда мақом ва унинг уфорилари ҳам ўз мужассамини топган. Дostonларнинг аксарияти китобий характерга эга ижро 2–2,5 соатга мўлжалланган. Мусика куйлари махсус номларга эга. Ҳозирча уларнинг 31 таси маълум. Илгари мусика куйлари 70 дан ошиқ бўлган. Бахшилар куйларни Ширвоний деб номлашади.

Хоразм бахшиларининг ҳомий пири Ошиқ Ойдиндир. Воҳа бахшиларининг устозлик-шогирдлик анъаналари байналмилал характерда бўлиб ўзбек, туркман, қорақалпоқ бахшилари ўзаро яқин алоқада бўлиб, кўп тиллилик хусусияти сақланган. Суяв бахши уч тилда, Бола бахши ва Қурбонбой жировлар икки тилда дoston куйлашган. Хоразм бахшилар ансамбли ёнида масҳарабоз ва дорбозлар ҳам иштирок этишган. Бахшилар репертуарида асосан “Тўрўғли” туркуми шохобча-

лари, “Ошиқ” дostonлари асосий ўринни эгаллайди. Уларнинг аксарияти қўлзма қисса-dostonлар орқали ўзлаштирилган. Бироқ оғзаки бадеҳағўйлик ҳам батамом барҳам топмаган. Оғзаки вариантлар халқона иборалар, юмористик лавҳалар, сўз ўйинлари билан бойитилган. Жанубий Хоразмда шоирлик ва бахшиликни бирга қўша олган ижодкорлар ҳам учрайди. Жанубий дostonчиликда яна бир ўзига хос хусусият борки, айрим бахшилар, хусусан, Бола бахши дoston қўшиқларини доирачи ёки шогирдларидан бири билан жўр овозда куйлайди. Шимолий Хоразмда, асосан, XVI асрда кўчиб келган Шайбоний ўзбеклари истиқомат қилишади. Улар қипчоқ лаҳжасида сўзлашади. Бу ҳудуддаги бахшилар дотор жўрлигида куйлашади. Унга буламон ва ғижжак жўр бўлади, доира ишлатилмайди. Улар куйларни эроний деб номлашади. Ушбу ҳудудда ҳам куйлар махсус номларга эга бўлиб 34 тани ташкил этади. Уларнинг бир қисми Ширвоний йўллари билан бир хиллик касб этади.

Шимолий дostonчиликда дostonни башлаш ва ниҳоялаш ҳам алоҳидалик хусусиятларига эга. Бироқ ҳар иккала анъанада ҳам томоша рақс билан ниҳоясига этади. Шимолий дostonчилик вакиллари воҳага кўчиб келгандан сўнг то XX аср бошларигача ички товушда куйлаганлар. Буни 1822 йилда Хивага келган Н.Муравьев кузатишлари ҳам тасдиқлайди. Шу сабабли улар дастлаб кўбиздан фойдаланишган, сўнг дотор жўрлигига ўтишган. Шимолий дostonчиликда бахшиларнинг бадеҳағўйлик санъати анча фаол кўзга ташланади. Ўз навбатида, улар репертуаридаги дostonлар ҳажман анча кенг. Буни Турсун бахши ижросидаги “Ҳурилик ва Ҳамро” дostonининг оғзаки вариантини қўлзма нусха билан таққослаганда яққол кўриш мумкин. Бахши дoston матнига халқ сўзлашув тилига оид кўплаб фразеологик ибораларни, мақол ва маталларни, учирик сўзларни киритган. Айниқса, унинг ички медиал формулалари эътиборга лойиқ.

Шимолий дostonчиликнинг яна бир вакили Сақрак бахши нуткида ушбу хусусият яна-да ёрқинроқ кўринади. Унинг сажъ элементларига эътибор қаратиш, аудитория билан мулоқотда бўлиб, даъват, буйруқ, хитоб, сўроқ тарзида алоқа қилиши дoston воқеаларининг тингловчига тўлақонли етказишда муҳим омиллар бўлиб хизмат қилади. Шимолий дostonчиликдаги ички медиал формулалардан фойдаланиш умумтуркий анъана бўлиб, улар озарбайжон, туркман бахшилари нуткида ҳам мавжуд. Аслида, бу усулнинг тарихини қадимги эпосдан излаш лозим. “Китоби дадам Кўрқуд” эпосида ушбу анъана тўлалигича намоён бўлади. Шимолий ҳудуднинг Тўрткўл, Шаббоз ҳудудларида яшаган айрим бахшиларда яна бир анъана борки, уларда бахшилик ва жиронлик ижроси биргаликда намоён бўлади. Тўрткўллик Қўшақўр ва Қурбонбой жирон, Шаббозда яшаган Мусо бахшилар айна пайтда кўбиз чалиб жиронлик ҳам қилишган. Умуман,хулоса қилиб айтганда, икки анъананинг қоришиқ ҳолда учраши ўзаро таъсир ва репертуар алмашиш натижаси ҳисобланади.

**Равшанова Гулрухбегим Қахрамон қизи (филология фанлари бўйича фалсафа доктори,
Қарши Давлат университети; gulrux.ravshanova@mail.ru)
ҲАЖВИЁТДА ҲАЖВИЙ ТИП ВА ХАРАКТЕРЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ**

***Аннотация.** Ушбу мақолада Абдулла Ориповнинг ҳажвнавислик маҳорати, ҳажвиётдаги ўткир кулгининг шакллари, ҳажвий асарларида инсон маънавияти ва ахлоқ муаммолари тадқиқ этилган. Шу жиҳатдан Абдулла Орипов ҳажвлари таҳлили шуни кўрсатадики, унда, кўпинча, сатирик кулги ва унинг шакллари учрашини кўрамиз. Шоир ҳажвларида кулги ниқоблари бир-бирига уйғунлашадиган киноя, заҳарханда, сарказм, пичинг, фош қилувчи кулги асосий ўринни эгаллаши кўрсатиб берилади ва ҳажвий асарнинг қимматини оширувчи қуроли бўлмиш кулгини ҳосил қилувчи воситалар ўрганилган.*

***Аннотация.** В статье исследуется комедийное мастерство Абдуллы Арипова, формы острого смеха в комедии, человеческая духовность и нравственные проблемы в комедийных произведениях. В этой связи анализ комедий Абдуллы Арипова показывает, что мы часто видим сатирический смех и его формы. В комиксах поэта маски смеха сочетаются с иронией, сарказмом, подачей, разоблачительным смехом, изучаются средства создания смеха, которые являются инструментами, повышающими ценность комического произведения.*

***Annotation.** This article examines Abdulla Aripov's mastery of comedy, forms of sharp laughter in comedy, human spirituality and moral problems in comic works. In this regard, the analysis of Abdulla Aripov's comedies shows that in it we often see satirical laughter and its forms. In the poet's comics, the*

masks of laughter are combined with irony, sarcasm, pitching, exposing laughter, and the means of creating laughter, which are the tools that increase the value of the comic work, are studied.

Калим сўзлар: ҳажввия, санъат, маънавият, ахлоқ муаммолари, кулги, юмор, муболага, сарказм, драма, сатирик кулги, масхара қилувчи кулги, физиологик кулги.

Ключевые слова: юмор, искусство, духовность, моральные проблемы, смех, преувеличение, сарказм, драма, сатирический смех, издевательский смех, физиологический смех.

Key word: humor, art, spirituality, moral issues, laughter, exaggeration, sarcasm, drama, satirical laughter, mocking laughter, physiological laughter.

Ҳажвий шеърларида Абдулла Орипов сатирик образ яратиш сирларини моҳирона эгаллаган ҳажвчи шоир сифатида намоён бўлади. Шоир ҳажвий шеърлятида кишиларнинг шахсияти ва фаолиятидаги айрим камчилик ва нуқсонларни ҳажвий чизгилар, кулгили вазиятлар, рамзий тасвирлар орқали кўрсатиб берилади. “Маймуният”, “Ҳангома”, “Тулки фалсафаси”, “Фил ва чумоли” каби рамзий-ҳажвий шеърлар оригинал даражага чиқа олган.

Абдулла Орипов ҳажвларида, асосан, таъмагир, ифвогар, ўз манфаати йўлида ҳеч нарсадан тоймайдиган, золим кимсаларни ҳажв тиғи остига олиб, уларни масхара қилади, кулги “қамчи”си билан “савалайди”. Уларнинг юзидаги пардани йиртиб ташлаб, уларнинг ботиний дунёси нақадар тубан ва жирканч эканлигини ғоятда усталик билан тасвирлайди.

“Машраб”, “Шоирлар ҳаёти”, “Турғунбой”, “Сафардошлар”, “Ҳангома”, “Учинчи одам” сингари юзлаб ҳажвий шеърлари орқали аниқ шахслар кулги остига олинади. Агар ҳажвий тимсол кулгили бўлмаса, унинг ҳажвиётга алоқаси ҳам бўлмайди. Шу боисдан ҳажвгўй шоир хилма-хил бадиий усуллар, шеърини санъатлардан фойдаланган ҳолда, кулги уйғотувчи бадиий қиёфалар, характерларни яратади. Абдулла Орипов ўзининг ҳажвий услубини яратар экан, аввало, юқорида айтганимиздек, халқ оғзаки бадиий ижодидаги ҳажвнавислик усуллари ўрганди, улардан маънавий озуқа олди. Афанди латибалари, ҳажвий кўшиқлар, лофлардаги кулги уйғотиш тажрибалари шоир учун алоҳида ижодий мактаб бўлиб хизмат қилди:

Лофчининг услуби шундоқдир азал,

Маҳлиё қилади сизни ёлгонга.

Қай қуни бир лофчи дер эди дангал:

–Шапалоқ тортганман Наполеонга.

“Самовий меҳмон, беш донишманд ва фаррош кампир киссаси” асарида бу хусусият ёрқин гавдаланади.

Хабар келди Фан шахрига

Олис жунгли томондан.

Ўтган кеча алланарса

Ёниб тушмиши осмондан.¹

Шоир халқ оғзаки ижоди билан чекланиб қолмай, юқорида айтиб ўтганимиздек, мумтоз адабиётимизда шаклланиб юксак босқичларга кўтарила олган ҳажвнависликни ҳам мукамал эгаллади. Жумладан, Навоий, Завқий, Машраб, Турди каби шоирлар ижодини синчиклаб ўргангани ҳажвий шеърлари ва яратган характерларида яққол кўзга ташланади. Улардаги кулгили қиёфа яратиш усуллари: ҳажвий тимсолнинг ташқи кўринишини бўрттириб тасвирлаш, улардаги ижтимоий иллатларни аёвсиз фош этиш, тасвирий воситалардан ўринли фойдаланишлар ҳам Абдулла Орипов шеърлятидан кенг ўрин олган:

Энагаси алла айтар Маширабга боз-боз:

–Катта бўлсанг, хон бўласан, аллаё алла.

Ўша заҳот эшитилар бешикдан овоз:

–Алдаё алда...²

Шоирлар учун мумтоз адабиётимиз ҳажвгўй шоирларнинг ҳажвий характер яратиш, тасвир усуллари илҳом ҳамда тажриба манбаи бўлиб хизмат қилган. Салафлари ижодига хос заҳарханда, аччиқ танқид, кинояли мазмундор кулги ҳажвий образлар яратишда Абдулла Орипов ҳажвиётда яна-да чуқурлашди ва кескинроқ тус олди. Шоир фақатгина уларнинг анъаналарини давом эттирмай, ҳажвнавис сифатида янги тасвирий усуллар кашфиётчиси сифатида майдонга чиқди.

¹ Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 1-жилд, Тошкент, 2016, 302-бет.

² Д.Курунов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Т., “Akademnashr”, 2013, 85-бет.

Ҳажвий қиёфани чизишда, аввало, унинг портретига алоҳида аҳамият берилади. Кўриниши, хулқ-атвори, нутқи кулгили қилиб берилади. Бунда шоир ўзи ҳажв, фош этмоқчи бўлган шахсни ўрганиб, ҳажв яратиш учун замин бўла оладиган деталларни беради, кулгини қаҳқаҳага айлантириш усулларини қўллайди:

1. Абдулла Орипов ўз ижодида ҳажвий тип ва характерни унинг портрети воситасида фош этади, “Миш-миш” тўртлиги фикримизга мисол бўла олади:

*Унинг миш-мишидан ранжисманг, асло,
Нима бўлса асли-насида бўлган.
Она қорниданоқ ўзи ҳам ҳатто,
Асли миш-миш билан дунёга келган.¹*

Тўртликни ўқиган китобхон кўз олдига ғийбатчи, миш-миш тарқатувчи инсонларнинг портрети намоён бўлади, шоирнинг маҳорати шундаки, миш-миш такрор сўзи орқали портрет чизгиларини аниқ бера олган.

2. Кўп ҳолларда ҳажвий асарларда мураккаб ҳажвий типлар ўзларини ўзлари фош этадилар. Айниқса, Абдулла Орипов услубига хос хусусиятлардан бири шуки, бу хусусият уни бошқа ҳажвчи ижодкорлардан ажратиб туради – кўпчилик ҳажвияларида қаҳрамоннинг нутқи орқали ўзини фош этишдир. “Ҳаж савоби” шеъри Маккаи Мадинага ҳаж зиёратига бориб келган Ҳожи бобо билан мухбир ўртасидаги савол-жавоб асосига қурилади. Диалогнинг ўзиёқ Ҳожи бобонинг мақсади зиёрат эмас, тижорат эканлигини ошкор этади:

Мухбир “кўрганларингизни айтиб беринг, “Қаъбатуллоҳ дарвозаси қандоқ экан?” деб сўраганда Ҳожи бобо:

*Қаъбатуллоҳ жамолига йўқдир тараф,
Аммо-лекин бозори ҳам мақтов талаб.
Харидорлар дурбин борми, деб сўрашар,
Мухбир болам, ҳайрон бўлдим шунга қараб.²*

Кўриниб турибдики, Ҳаж амалини бажариш баҳонасида тижоратни кўзлаб борган Ҳожи бобо ўзининг чиркин қиёфасини гап-сўзлари орқали фош этмоқда. Ҳажга бориб келса-да, қарашлари ўзгаришсиз, ўша-ўша... суҳбат давомида сохта ҳожининг кулгили қиёфаси очиқ-ойдин ошкор бўлади:

*Мадина ҳам шаҳар экан олиҳиммат,
Аёллари юришибди юзда чиммат.
Атлас олиб борган эдим, арзон кетди,
Мухбир болам, у жойларда асал қиммат.*

Ҳаж амали-ю савоблари ҳақидаги саволларга ҳам Ҳожи бобо тижоратни аралаштиради. Мусулмон киши учун ҳаж сафарига чиқиш, амалларини бажариш – катта бахт. Бу бахтни эса баъзи кимсалар нафс йўлида қурбон қиладилар. Ҳожи бобо ҳам нафсига қул бўлган инсонларнинг типик вакили бўлиб, суҳбат жараёнида сатира тиғи орқали унинг асл қиёфаси фош этилади. Шунда ҳам у ўзини ҳақиқий мусулмон киши, ҳаж амалларини бажарган “жаннати” шахс сифатида билади.

Мухбир:

*Мен савобдан гапираман, сиз саводдан,
Ҳожи бобо, аслида, Ҳаж қилдингизми?*

Ҳожи бобо:

*Тайёранинг патталари қўлимдадир,
Гувоҳларим мана ўнгу сўлимдадир.
Бундай макруҳ саволларни ким ўргатди,
Мухбир болам, Ҳаж савоби қўлимдадир.*

Ҳожи бобонинг нима мақсадда Ҳаж сафарига чиққанини мухбир англай олмайди. У савобдан сўз очса, Ҳожи бобо саводдан гапиради. Тазод кулгиси юзага келади. Мухбир унинг Ҳажга бориб келганлигига шубҳа билан қарайди. Ана шу ерда Абдулла Ориповнинг ҳажвнавислик маҳорати яққол кўзга ташланади: Ҳожи бобо тилидан соддагина қилиб унинг комик ҳолати чизилади. Шоир воқеа билан психологик ҳолат ўртасидаги муносабатни тўғри белгилашга ҳаракат қиладди. Инсон Ҳаж амалини нима учун ва ким учун бажаради? Мусулмон киши ва Оллоҳ ўртасида воси-

¹ Абдулла Орипов. 275-бет.

² Д.Қурононов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Шу манба. 154-бет.

тачи бўлиши мумкинми ёки гувоҳлар керакми? Гумроҳ Ҳожи бобо учун чипталар, ҳамроҳлар гувоҳ бўлиши мумкин аммо, Ҳаж амалини бажармагани ва буни ният ҳам қилмаганини ошкор қилиб қўяди, ўзини эса “Ҳаж савоби дилимдадир” деб оқламоқчи бўлади. Шеърни ўқиш жараёнида ўқувчида кулгининг пайдо бўлиши ва сўнггида эса унинг қаҳқаҳага айланиши табиийдек туюлади. Ана шу табиийлик туфайли асар ўзининг ижтимоий қимматини сақлаб қолади ва кулги остига олинган персонаж, қахрамон табиати кенг ва чуқур очиб берилади.

Юқорида кўриб ўтганимиз “Шикоятчи хангомаси” шеърида ҳаётда учрайдиган бир тип – шикоятчи образи тасвирланади. Шикоятчининг ҳеч кимга фойдаси тегмайди, жамиятда бирор фойдали иш қилмайди, лекин жамиятдан жуда катта фойда кўришни истайди. Нафи тегмаганига яраша, зарари ҳам тегмаса эди. Бундан кимсаларнинг иши одамларга халақит бериш, уларнинг қимматли вақтларини ўғирлашдан иборат. Унинг ўзи ҳеч кимга ҳеч нарса беролмайди, маънавий қашшоқ, лекин ҳаммадан фойда кутади, арзимаган ишларни деб катта катта идораларни, одамларни ишдан қўяди, асабини бузади, энг ёмони ўзини ҳақ деб билади, абсурд мақсадни кўзлайди. Шеърдаги вазият ҳаётини заминга эга бўлганлиги боис бизга эриш туюлмайди, шикоятчи устидан киноя билан куламиз. Атрофимизда ана шундай “ити йўқолса”, “товуғи йўқолса” ҳам, идораларни безовта қиладиган нодон кимсалардан ранжиймиз. Шоир уларни шундай фош этади: *“Кимлардир уни деб доим овора, У ҳам чарчамасди, билмасди тиним. Бир кун ўзи келди: –Тез кўринг чора, “Сенинг ақлинг йўқ”, деб айтди хотиним”*.

Жамиятга фойдаси тегмайдиган, тараққиётга ғов бўладиган, ривожланишни бўғадиган шикоятчилар кишини ғазаблантиради, жаҳлини чиқазади, соғлигини кетказади. Шеърни ўқир экансиз, унда атрофингиздаги худди шундай кимсаларни кўргандек бўласиз, сиз уларни танийсиз, уларга нисбатан кучли нафрат пайдо бўлади. Шикоятчининг мураккаб ҳажвий портрет чизикларини кўпайтириш орқали унинг характери яратилиб, тип даражасига кўтарилади.”

Тип – маълум ижтимоий гуруҳдаги кишиларга хос характерли хусусиятларни акс эттирувчи индивидуаллаштирилган шахс образи”¹ эканлигидан келиб чиқадиган бўлсак, ҳаётимизда учрайдиган жоҳил, шикоятбозликдан бошқасини билмайдиган, маънавийсиз кишиларга хос характерли хусусиятларни индивидуаллаштириб, тип даражасига кўтара олганки, бунда ҳажв ижодкорга муҳим курол бўлиб хизмат қила олган.

Шоирнинг “Кўлланма” шеърида “амалдор ука” поэтик образи яратилган.

*Бир кун ҳасрат қилди амалдор укам,
Деди: не қиларим билолмай қолдим.
Агар танбеҳ берсанг – кимгадир алам,
Талтайиб кетади мақталган ходим.
Мен дедим: Ўйлаб айт, ҳар бир сўзингни,
Турфа андишани бир четга ташла,
Койисанг – энг аввал койи ўзингни,
Мақтовни ҳам аввал ўзингдан бошла.*²

Аслида, шеър юмор – энгил ҳазил билан ёзилганга ўхшаса-да, ушбу шеърда бошлиқ ва ходимлар, хусусан, улар ўртасидаги ўзаро муомала-муносабатдаги қусурлар ва камчиликлар кўзга ташланади ва ҳажвга олинади. Бунда юқорида таъкидлаганимиздек, ҳам бошлиқ, ҳам ходимлар образлари акс эттирилган бўлиб, шоир гўёки “пичоқни аввал ўзингга ур, оғримаса ўзгага” демоқчи бўлаётгандек. Аристотель таъкидлаганидек: “Ҳазил-мутойибани ҳис этиш – масхарабозлик ва еВ-войилик (одамови) ўртасидаги хислат. Бу ҳазил, мазах борасида кўринади. Масхарабоз ҳамманинг устидан, ҳар нарсага кулаверади. Одамови, тунд, кўрс одам эса ҳеч нарсага ҳеч қачон кулмайди (ҳазилни тушунмайди), ўзининг устидан ҳам кулишларини ёқтирмайди. Булар ўрталигида эса ҳазилни тушунадиган, ҳис этадиган одам туради. Бундай одам бўлар-бўлмасга кулавермайди (маъноли ҳазилга кулади), тунд, кўрс, ёввойифеъл ҳам эмас. Ҳазил, юмор ҳиссини икки маънода тушуниш керак: ҳазилни тушунадиган одам бошқаларга ҳам ҳазил қилади, ўзи ҳам бошқаларнинг ҳазилини, қочиримларини кўтаради”³.

Шу нуқтаи назардан қараганда, шоирнинг “Сафардошлар” шеъри ҳам ҳазил шеърлари сирасига киради. Унда сафар чоғидаги ҳамроҳлар образлари гавдалантирилади:

¹ Адабиётшунослик терминлари луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1967, 224-бет.

² Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Тошкент, Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат..., 298-бет.

³ Arastu. Axloqi kabir. Toshkent, 2018, 141-бет.

*Асло бойлар билан чиқма сафарга,
Агар зиқна бўлса, шарманда қилар,
Ўрта ҳол зот билан кезсанг агарда,
У ўлик – тиригин бўйнингга илар.
Камбағал ҳамроҳ-чи, бошлайди фириб,
Сездирмас борми ё йўқлигини у.
Йиқилса йиқилар силласи қуриб,
Айтмайди очми ё тўқлигини у.¹*

Бу шеър ҳажв кулгиси билан суғорилган шеър бўлиб, унда уч тоифа инсонлар образлари акс этган. Дарҳақиқат, “мусофир бўлмагунча мусулмон бўлмайсан” деб бежизга айтмаган доно халқимиз. Инсон мусофир бўлганда, сафарга чиққан, қийналган вақтларда ўзининг асл қиёфасини намоён қилади. Бежизга бойга зиқна сифати берилган эмас, зеро, доно халқимиз “каттиқ ерда сув турар” деб “бой”ларга муносиб таърифни берган. “Ўрта ҳол зот”га эса барча ташвишларини бировнинг бўйнига илиш, бошқаларга юк бўлишни одат қилиб олганлиги қаттиқ танқид остига олинади. Камбағал поэтик образи эса йиқилиб қолар даражада бўлса-да, очми-тўқми ҳамроҳига ортиқча ғафғо бўлмаслиги хусусида сўз боради. Булар реал ҳаётини воқеликдан олинган поэтик образлардир. Айниқса, камбағалнинг ҳолатини шоир кулгили тасвирлайди: “*Йиқилса йиқилар силласи қуриб, Айтмайди очми ё тўқлигини у*”.

Ҳажвдан қандай қилиб тўғри фойдаланишни биладиган ҳажвчи тингловчилар эътиборини осонликча эгаллайди, одамларни ўзига қаратади; дўстлик, ишонч, ҳиссий яқинлик муҳитини яратади, кулгининг одамлар учун тушунарли бўлишини таъминлайди. Ушбу таъсирни инсоннинг кулгига бўлган эҳтиёжи – инсониятнинг абадий зарурати сифатида изоҳлаш мумкин. Кулги руҳий саломатликнинг кўрсаткичидир, қийинчиликларни енгишга ёрдам беради. Шеърда камбағал одамнинг бировга оғирлиги тушмаслигини ҳолати юмористик кулгига сабаб бўлса, бой ва ўрта ҳол устидан чиқарилган кулги сатирага айланади.

Шоирнинг, шунингдек, “Икки шоир” деган ҳазил шеъри бўлиб, унда бугунги кундаги айрим “шоир”ларнинг характерли хусусиятлари акс эттирилган:

*Бир шоир арз этди иккинчисига,
–Дўстим, шоирликдан энди воз кечгум!
Қанча интилмайин халқнинг ичига,
Шеъримни ўқимас, ўқимас ҳеч ким.²*

Ушбу шеърда шоир ўзини шоирликка даъво қилувчи “шоир”ларнинг ўзларига баҳо беришларини ҳажвга қориб тасвирлайди ва икки шоирнинг характер-хусусиятини очиб бериш учун “дўстим”, “жўра” каби сўзлашув нутқида кўп қўлланадиган сўзлардан фойдаланиб, улар орасидаги ўхшашликни очиб беради, шу билан бирга, уларни ўз нутқи орқали истеъдодсизлигини фош қилдиради. Бу ҳажвда “фош қилиш санъати” деб аталади.

Шеърда бир-бирдан истеъдодсиз, шундай бўлса-да, шеър ёзишни қанда қилмайдиган шоирлар ҳажв остига олинади. Бири иккинчисига арз қилиб, шоирликдан энди буткул воз кечишини айтади, зеро, қанчалик ижод қилмасин, ашъорлар битмасин унинг шеърларини ҳеч ким ўқимаслигини дан нолийди. Иккинчи шоир эса ўзининг бу аҳволини хийла эртароқ англаб етган:

*Иккинчиси уни юпатиб деди:
–Олдинроқ кетибман мен сендан кўра,
Халқ-ку ўқимасди мени ҳам, энди
Ўзим ҳам ўқимай қўйганман, жўра.*

Савиясиз, маънан қашшоқ шеърларнинг умри нақадар қисқа бўлишини шоир ушбу шеъри орқали исботлаб беради. Шеърда ҳам ҳаётдан бегоналашган, савиясиз шеърларини мухлислари туғул ўзлари ҳам ўқимай қўйган, ғоявий бўш, маза-матрасиз шеърлар ёзган шоирлар устидан кулинади.

Истеъдодсиз шоирларга нисбатан бу шеър ўқувчиларда кулги ва шу орқали киноя уйғотиб, ҳажвни юзага келтиради, шу билан бирга талантсиз, уқувсиз ижодкорларнинг ҳажвий характери яратилади.

¹ Ўша китоб. 318-бет.

² Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001, 335-бет.

Ҳаётимиздаги, жамиятимиз учун номуносиб бўлган иккиюзламачи, қаллоб, мунофиқ, хоин, ахлоқи бузуқ кишилар ҳажвий асарларнинг асосий тасвир объекти бўлиб хизмат қилади. Ҳажвчи ижодкор яратган ҳажвий тип ўз индивидуал хусусиятлари, ўз тақдири, урф-одати, шахсиятига эга бўлган шахсдир. Умумлаштириш характернинг моҳиятини чуқурлаштиради, уни бутун борлиги билан намоён этади.

Атамуродова Феруза Ташмуротовна (Қарши Давлат университети катта ўқитувчиси)
ЖОН ГОЛСУОРСИННИНГ “ФОРСАЙТЛАР ҲАҚИДА САГА” АСАРИНИНГ ЭПИК
ТУРКУМГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

***Аннотация.** Мақолада буюк инглиз адиби Джон Голсуорсининг “Форсайтлар ҳақида сага” асарининг жанр хусусиятлари ва типологик ўзига хослиги очиб берилган.*

***Аннотация.** В статье раскрываются жанровые особенности и типологические особенности «Саги о Форсайтах» великого английского писателя Джона Голсуорси.*

***Annotation.** The article reveals the genre features and typological specificity of the great English writer John Galsworthy’s “Saga about Forsytes”.*

***Калим сўзлар:** роман эпопея, трилогия, интерлюдия, жанр, эпик туркум, тарихийлик тамойили, даврийлик, солнома, яхлитлик.*

***Ключевые слова:** роман-эпопея, трилогия, интерлюдия, жанр, эпическая категория, историческая тенденция, периодичность, календарь, цельность.*

***Key words:** epic novel, trilogy, genre, epic category, historical tendency, periodic, calendar, wholeness.*

Инглиз адабиётида эпик туркумга тааллуқли бўлган асарлар орасида Жон Голсуорсининг “Форсайтлар ҳақида сага”си алоҳида ўрин тутди. Ушбу эпик туркумнинг муҳим аҳамияти яна шу билан белгиланадики, унда ўша давр инглиз адабиётига оид бирор-бир асарда учрамайдиган эпопеягина хос хусусиятлар мавжуд. “Сага”да роман-эпопеянинг ўзига хос жанр хусусиятлари замонлар алмашинувининг, буржуазия синфи тақдирининг теран ва кўламли тасвирлангани замирида намоён бўлди.

“Сагалар”нинг жанр хусусиятларидаги ўзига хослиги нафақат Голсуорсининг инглиз адабиётидаги анъанавий оила романи ёки оила солномаси доирасидан чиққанида, балки у қирқ йил мобайнидаги синфлар ва бутун мамлакат тақдирини қамраб олган асар яратганида, қолаверса, бу асарда эпик туркум жанрига хос типологик хусусиятлар янги тарзда намоён бўлганида: уларда адабиётда олдин мавжуд бўлганидан фарқли туркумлашнинг бошқача тамойили, манзара-кўринишлар, хроникалик ва кўпқатламлилиқ мазмуни ўзгача акс этади.

“Форсайтлар ҳақида сага”нинг эпик асарлар мажмуи экани, аввало, тарихийлик тамойили, Англияда буржуазия синфи тарихи тасвирлангани билан белгиланади. Ушбу, бир қарашда, услубига кўра, анъанавий асарда, XX аср адабиёти учун хос бўлган, бадиий вақтни қўллашдаги ўзгача рувчанлик кўзга ташланади. Бутун туркумда бадиий вақтнинг ўзига хос жиҳати ижтимоий вақт билан белгиланади, ижтимоий вақт эса буржуазия синфининг, унинг тарихининг турли босқичларидаги, ҳаёт маромига боғлиқ ходиса сифатида англашилади. Биринчи трилогия (“Сага”) ҳаракат вақти 1886–1920-йиллар; иккинчи трилогиянинг (“замонавий комедия”) ҳаракат вақти 1922 – 1926 йиллар.¹ “Сага”га вақтнинг узоқ қисми – ўттиз беш йил қамраб олинган; “замонавий комедия”га – фақат беш йил олинган. Биринчи ва иккинчи трилогиялар олалиги тарихий чегара, у бевосита “Сага”лар сюжетига кирмаган – Биринчи жаҳон уруши ва Октябрь инқилоби. Бу чегара, инглиз буржуазияси тақдири ва психологиясини белгилаб, асарнинг бадиий тўқимасида кўзга ташланмай иштирок этади.

“Форсайтлар ҳақида сага”да ҳам, XX асрда яратилган бир қатор бошқа эпик туркумлардаги каби, инсон тарихий жараёнларда, даврий ўзгаришлар замирида тасвирланади. Асарнинг эпик характери шундаки, кўплаб индивидуал шахсий тақдирлар синфлар, миллатлар, мамлакатларнинг тарихий ҳаракатлари жараёнида очилади.

Яқуний кўринишда форсайт туркуми ўз таркибига олтига роман ва тўртта новелла-интерлюдияни жамлади. “Форсайтлар ҳақида сага” учта романдан иборат: “Мулқдор” (1906), “Сиртмоқда”

¹ Cunliff J. English Literature in the Twentieth Century. N.Y., 1967, p. 172.

(1920), “Гаровга берилади” (1921) ва иккита интерлюдия: “Форсайтнинг охирги ёзи” (1918), “Уйғониш” (1920). “Замонавий комедия” ҳамда учта романдан: “Оқ маймун” (1924), “Кумуш қошиқ” (1926), “Хайрлашув қўшиғи” (1928) ва иккита интерлюдия: “Идиллия” (1927), “Учрашув” (1927)-дан таркиб топган. Бу туркум романлар ва новеллалар ягона мавзу билан боғланган.

Д.Г.Жантиева Форсайтлар ҳақидаги туркумни роман-эпопея сифатида тавсифлашга қарши чиқиб, А.В.Чичерин билан бу масалада баҳслашди. Д.Г.Жантиева ёзади: “...солнома муаллифи “ўз халқини бутунича тушунишини” кўрсатмайди. У асарида халққа ажратган ролни, А.В.Чичерин айтганидек, “ёрдамчи” деб атаб бўлмайди. Халққа тарихни ҳаракатга келтирадиган куч сифатида қараш Голсуорсига тамоман бегона. Туркумдаги зиддият айнан шу билан изоҳланади. Қимматли жиҳати шундаки, бу зиддият Форсайтлар синфи инқирози ҳақидаги муаллиф фикрларига соя солмаган”.¹

А.М.Гаврилук ўзининг монографиясида шундай таъкидлайди: “...тарихий вақт... Форсайтлар ҳақидаги трилогияда иштирок этади” ва бу “форсайтлар туркумини роман-эпопея жанрига тааллуқли дейишга асос беради”; “Голсуорси Англия тарихининг XIX аср охири – XX аср бошидаги бир оила ҳаёти тасвири орқали анъанавий оила солномаси жанрини роман-эпопея жанригача кенгайтиради”.²

А.В.Чичерин “Форсайтлар туркуми яхлитлиги” мақоласида “Форсайтлар ҳақида сага” энг қатъий, энг тўла, образли, ғоявий яхлитликка эгаллигини қайд этади: “Бу қисмлардан бириккан, бўлинмайдиган ва юксак даражадаги батартиб бутунлик”,³ деб баҳолайди. “Сага”да – мавзу бардавом; марказий персонаж ва оила образи асар бошидан охиригача ўтади. Бу “олти қисмдан таркиб топган яхлит бир асар, бир романга жамланган романлар туркуми. Бу бир роман одатдаги ижтимоий-психологик роман доирасига сиғмайди, ўз ичига авлодлар алмашинувини, Англия тарихидан тўрт ўнйилликни қамраб олади, ҳукмрон синфнинг халқ оммаси тақдирига нисбатан муносабатидagi инқирози ҳақида ҳикоя қилади, асосий образларни ҳаётдаги саъй-ҳаракатлари орқали ривожланишини ва турфа хил ижтимоий муҳитдаги ўзаро мураккаб муносабатларини кўрсатади. Бундай турдаги роман айнан роман-эпопеядир”.⁴

“Форсайтлар ҳақида сага”да жанрга оид икки категория – эпик туркум ва роман-эпопея мос тушади, уйғунлашади. Бироқ, ҳатто бу жойда ҳам жанрга оид категориялар бир-бирига айнан ўхшаш эмас. Бу асарда эпик туркумнинг шундай хусусиятлари кўзга ташланадики, улар роман-эпопея учун умуман зарур эмас. А.В.Чичерин форсайтлар туркумида кўшимча “интерлюдия”, новелла ва романларнинг пайдо бўлишини шундай тушунтиради: “Мавзуларнинг муттасил ортиб, кўпайиб, кенгайиб бориш роман-эпопеялар учун хос хусусият”.⁵ Бироқ бу хусусият айнан эпик туркум учун хос, роман-эпопея учун эмас. Роман-эпопеяда ҳаёт оқимининг тасвири хотимага эга бўлмайди, шунга қарамай унинг сюжетида миллий-тарихий аҳамиятга молик улкан воқеанинг тўла-тўқис очилиши билан белгиланадиган яқун, яхлитлик бор; айни пайтда эпик туркум ҳаётнинг янги манзаралари, янги фактлар, қахрамонлар ҳаётида юз берган янги воқеалар, яъни муҳим умуммиллий аҳамиятга молик кескин бурилишлар билан боғланган бўлиши шарт бўлмаган материаллар билан тўлдирилган ва давом эттирилган бўлиши мумкин.

“Сага”да романлар ва интерлюдияларнинг кетма-кет келиши ҳам даврийлик қонунларига бўйсундирилган. Жамиятдаги ва Форсайтлар оиласидаги курашнинг ижтимоий тифиз манзаралари тасвиридан кейин мулкдорлар дунёсига қаратилган, ҳаётнинг бирламчи асоси ҳақидаги интермедия келади. Унда ҳаётдан шундай такрорланмас қувончли ва қайғули дамлар борлиги, бундай лаҳзалар ҳаётнинг юксак қадрият экани, инсон ва табиат гўзаллиги, юксак қимматга эга маънавий ҳаёт ҳақида: умрнинг сўнгги сониялари (“Форсайтнинг сўнгги ёзи”), ҳаёт гўзаллигини кашф этишнинг чинакам қувончи (“Уйғониш”), муҳаббатнинг шоирона туйғуси туғилиши (“Идиллия”), қисқа учрашувлар ҳаяжони (“Учрашув”) тўғрисида ҳикоя қилинади.

Интерлюдиялар – ёзувчининг туркум асарлар доирасида инсонпарварлик идеалини мужасамлаштирган ўзига жанр шакли. Роман ва интерлюдия ҳам контраст – кўзга ташланмайдиган бадий фарқ тамойили бўйича кетма-кет келади. Улар бир-бирини тўлдиради ва ўрни билан бир-

¹ Жантиева Д.Г. Английский роман XX века. 1918 – 1939, с. 201.

² Гаврилук А.М. Стиль форсайтского цикла Джона Голсуорси. Львов, 1977, с. 156 – 157, 161.

³ Чичерин А.В. Идеи и стиль. О природе поэтического слова. М., 1958, с. 394.

⁴ Ўша ерда. 356-бет.

⁵ Чичерин А.В. Идеи и стиль. О природе поэтического слова. М., 1958, с. 357.

бирига зид туради, “яқинлашиш-ортга қайтиш” тамойилига кўра, ўзаро боғланади. Бу Голсуорси кўзда тутган ўша мувозанатни ва ҳаётнинг турли томонларини такрор кўрсатишнинг бадиий ғояси руҳида. “Туркум доирасида бурама чизиқ бўйлаб ҳаракат: кўтарилиш ва тушиш, мисоли тўлқиндек бостириб келиш ва ортга қайтиш... туркум ва бу абадий ритм ёки мувозанат – бу инсон ақли ва инсоний туйғу қабул қилиши мумкин бўлган бирдан-бир тимсоллардир”.¹ Булар барчаси Голсуорси учун санъаткорона нигоҳга хос хусусият саналади.

Голсуорси Форсайтлар мавзусини бир неча жанр шаклларида – ҳикояда, драмада ва романда ривожлантиради. Форсайтлар “Форсайтни кутқариш” (1901) ҳикоясида, “Форсайт биржасида” ҳикоялар тўпламида (1930) кўринади. Бу тўпламга: “Вақтнинг беқарор кум зарралари, 1821 – 1860”, “Тимоти ҳалокат ёқасида, 1851”, “Товус ноласи, 1883”, “Тўрт нафар Форсайт, 1890”, “Сомс ва Англия, 1914–1918” ва бошқалар кирган. Шунингдек, “Форсайтлар, Пендайслар ва бошқалар” (1935) номли ҳикоялар тўплами ҳам нашр этилган. “Маданиятчилар” (1901) драмасида Жорж Форсайт оиласидаги, хусусий мулк муносабатлари оқибатида юзага келган жанжал тасвирланади. Бу пьесада “Мулкдор” романи мавзусининг ҳамиртуруши бор эди.²

Туркумлашнинг янги шакллари билан бир қаторда, “Форсайтлар ҳақида сагада” воқеаларнинг кўламли тасвири тамойили ҳам ўзига хос тарзда намоён бўлади. Бундай манзарали кенг тасвирлар ҳали инглиз романи тарихида кузатилмаган эди. “Сага”дан олдинги инглиз ёзувчилари яратган эпик туркумларда воқеалар Англия ҳудудида бўлиб ўтарди. Голсуорси воқеаларни Америкага ҳам, Жанубий Африкага ҳам олиб ўтади. У Форсайтлар сулоласи тарихини, даврлар алмашинуви босқичидаги қирқ йиллик Англия тарихини кўрсатади. Шу муносабат билан, солномачилик тамойили ҳам янгича намоён бўлади. Муаллиф томонидан келтирилган тарихий хронологияга мослаштирилади. Даврнинг асосий тарихий фактлари оила солномасининг асосий босқичларини белгилашда мўлжал вазифасини ўтайди. Туркумнинг кўшланлиги ҳам ўзига хос тарзда намоён бўлади. Бир неча сюжет чизиқлари, кўп сонли иштирокчи қиёфалар эпик туркумлар муаллифлари бўлган Голсуорсининг ўтмишдошлариникига қараганда ўзаро яқин боғланган. Ёзувчи Форсайт тўдаси тарихини гавдалантиради, бироқ бу оила доирасида у кўшлаб фаол шахсларнинг мураккаб ва турлича муносабатларини кўрсатади.

Хулоса қилиб айтганда, “Форсайтлар ҳақида сага”да буржуазия жамиятининг ижтимоий инқирози мавзуси давом эттирилган. Голсуорсининг трилогиясида инглиз халқи ҳаёти, жамиятдаги ўзгаришлар тасвирининг умумий манзараларига уйғунлашиб кетади, юз бераётган воқеалар ижтимоий картинани ҳар жиҳатдан тўлдирди. “Форсайтлар ҳақида сага”³ хилма-хиллик ва яхлитлик тамойилларининг мукамал бирикувиға, ташқи ва ички структураларнинг маҳорат билан ўзаро боғлиқлигиға асосланган асар, даврлар алмашинуви пайтидаги инглиз жамияти ҳаёти ҳақида кўп томонлама тасвирларни берадиган, фавкулудда эстетик серқирралиги билан ажралиб турадиган асарки, у эпик туркум жанрининг ўзига хос намунаси сифатида юзага келди, унда роман-эпопея жанрининг хос хусусиятлари ёрқин намоён бўлди.

¹ Galsworthy John. Glimpses and Reflections. L., 1937, p. 281.

² Дьяконова Н. Джон Голсуорси. Л.– М., 1960, с. 16.

³ Бу ўринда икки трилогия – “Форсайтлар ҳақида сага” ва “Замонавий комедия” номи сифатида.

**Yulbarsova Xurshida Abdullajonovna (Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrasida dotsenti v.b.)
ZAMONAVIY TA‘LIMDA “IJTIMOIY KOMPETENSIYA” TUSHUNCHASI VA MOHIYATI**

***Annotatsiya.** Maqolada kompetentlilik, kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya tushunchalari mohiyati va mazmuni sotsiologik va pedagogik jihatdan o‘rganilgan. Shuningdek, ijtimoiy kompetensiya tushunchasining mazmuni xorijiy va mahalliy olimlar ishlarini o‘rganish orqali nazariy va metodologik yondashuvlar yordamida izohlangan.*

***Аннотация.** В статье исследуется сущность и содержание понятий компетенции, компетентности, социальной компетентности с социолого-педагогической точки зрения. Также раскрывается содержание понятия социальной компетентности с использованием теоретико-методологических подходов на основе изучения работ зарубежных и отечественных ученых.*

***Annotation.** The article examines the essence and content of the concepts of social competence from a sociological and pedagogical point of view. The content of the concept of social competence is also revealed using theoretical and methodological approaches based on the study of the works of foreign and domestic scientists.*

***Kalit so‘zlar:** kompetentlilik, kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, asosiy kompetensiyalar, ijtimoiylashuv, ijtimoiy mobillik.*

***Ключевые слова:** компетентность, компетенция, социальная компетенция, ключевые компетенции, социализация, социальная мобильность.*

***Key words:** competence, competency, social competence, key competences, socialization, social mobility.*

Kirish. Respublikamizda bo‘lajak mutaxassislar, o‘qituvchilarning ijtimoiy kompetensiyalari va malakalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatga, pedagogik faoliyatga taktik va strategik yo‘nalganlikni tarbiyalash, affiliatsiya motivi asosida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga ustuvor yo‘nalish sifatida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ta‘lim amaliyoti integrativ yondashuv asosida bo‘lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish omillari va mezonlarini aniqlashtirish, konseptual modeli va amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida “Ta‘lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish” kabi muhim vazifalar belgilandi.¹ Bu esa integrativ yondashuv asosida bo‘lajak sotsiologlarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish mexanizmini takomillashtirishni talab etadi. Shu bilan birga, ta‘lim sifatini oshirish zarurati siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muhitdagi o‘zgarishlar jarayonlarining tezlashishi, yangi global muammolar va axloqiy ziddiyatlarning paydo bo‘lishi bilan bevosita bog‘liq.

Ta‘lim tizimini o‘zgartirish zaruriyati XX–XXI asrlar bo‘lag‘asida paydo bo‘ldi. Aynan shu davrda ta‘limdagi inqirozdan chiqishning yangi g‘oyalarini izlash boshlandi. Shu bilan birga, talabalarning ta‘lim natijasini baholashning “tayyorlik”, “o‘qimishlilik”, “umumiy madaniyat”, “tarbiyalilik” tushunchalaridan “kompetentlilik” va “kompetensiya” tushunchalariga yo‘naltirish kuzatilmoqda.

Metodologiya. Bugungi kunda “kompetensiya”, “kompetentlilik” tushunchalari ta‘limda yangilik emas, ular 20 yildan ortiq vaqt davomida o‘rganilib kelmoqda. Bundan tashqari, ushbu tushunchalar me‘yoriy hujjatlarda mustahkamlangan bo‘lib, ular ma‘lum ma‘no va qiymatga ega. Ta‘lim sohasida “kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalari birinchi marta XX asrning 60-yillarida Amerikada paydo bo‘lib, kompetensiya (lot. competentia – tegishli, oid, aloqador, mos, muvofiq kelish) ma‘lum sohaga oid bilim, malaka va ko‘nikmalar, tajribani anglatadi.

1959-yilda amerikalik sotsiolog R.Uayt birinchilardan bo‘lib “kompetentlik” atamasini kiritib, uni shaxsning atrof-muhit bilan samarali o‘zaro ta‘sir sifatida ifodaladi.² Shunday qilib, R.Uayt, uni amalga oshirish uchun shaxs yuqori motivatsiyaga asoslanib, ishda sezilarli natijalar uchun zarur bo‘lgan individuallik xususiyatlarini namoyon qilishini tasvirlab berdi.

¹ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/31/strategiya/>

²White R.W. Motivation reconsidered: the concept of competence. “Psychological Review”, 1959, №66, p. 297–333.

Keyinroq, 1965-yilda N.Xomskiy til nazariyasiga “kompetentlik” tushunchasini qo‘lladi va uni “ona tilida ma’lum, asosan, lingvistik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qobiliyat”, deb ta’riflaydi.¹ N.Xomskiy o‘z asarlarida “kompetentlik” tushunchasini shaxsning so‘zlash va tinglash malakasi va tajribasi bilan bog‘laydi.

1984-yilda ingliz olimi D.Raven o‘z asarlarida “zamonaviy jamiyatdagi kompetensiya” tushunchasiga ta’rif berib, bunda u “kompetentlik” atamasini avvalgilari qaranganda kengroq izohlashni taklif qildi. Muallif “kompetentlik”ni “ko‘p sonli tarkibiy qismlardan tashkil topgan, ularning ko‘plari bir-biridan nisbatan mustaqil bo‘lgan, ba’zi komponentlar kognitiv sohaga, boshqalari esa hissiy sohaga tegishli bo‘lgan hodisa” deb hisoblaydi, bu komponentlar bir-birlarini samarali xulq-atvorning tarkibiy qismlari sifatida o‘rnini bosishi mumkin”.²

D.Raven “kompetentlik”ni ijtimoiy ahamiyatga ega sohadagi hayotiy muvaffaqiyat deb ta’riflaydi. Bu yerda muallif ushbu ta’rifning tasnifiga chuqur kirib boradi va 37 turdagi kompetensiyalarni taqdim etadi. U o‘z faoliyatini “motivatsiyalangan qobiliyatlar” bilan taqqoslaydi.

Shunday qilib, “kompetentlik” atamasi “tayyorlik”, “mas’uliyat”, “ishonch”, “qat’iyatlilik” kabi yangi tarkibiy ta’riflar bilan to’ldiriladi.³ Bu atamaning ijtimoiy ahamiyati muallif tomonidan aniqlangan kompetensiya turlari orasida namoyon bo’ladi.

Ushbu davrdagi tadqiqotchilarning ishlarini tahlil qilish kompetensiyaning murakkab integrativ xususiyatini ko‘rsatadi. Bu yerda “kompetentlik” tushunchasi turlicha, bir tomondan, professionallik sinonimi sifatida, ikkinchi tomondan, uning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Bu davrda kasb-hunar ta’limi kontekstida kommunikativ va ijtimoiy-psixologik kompetensiyaning nazariy jihatlarini faol anglash mumkin.

1996-yilda J.Delor XXI asr uchun ta’lim bo‘yicha xalqaro komissiya hisobotida “Ta’lim: yashirin xazina” dokladida ta’limning asosini tashkil etuvchi to’rtta ustunni ko‘rsatdi: “Bilishni o‘rganish, bajarishni o‘rganish, birga yashashni o‘rganish, yashashni o‘rganish”.⁴ Shunday qilib, J.Delor, aslida, asosiy global kompetensiyalarni belgilab berdi.

Ushbu bosqichda kompetensiyalar doirasi belgilab qo‘yilgan, ular allaqachon hamma tomonidan ta’limning istalgan natijasi sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Shu bilan birga, Yevropa Kengashi dasturi bo‘yicha Bernda bo‘lib o‘tgan simpoziumda ta’lim sohasidagi islohotlarda talabalar muvaffaqiyatli ishlashlari uchun ham, keyingi oliy ta’lim olishlari uchun ham egallashlari kerak bo‘lgan asosiy kompetensiyalarni aniqlash zarurligi masalasi ko‘tarilgan.

Psixolog I.A.Zimnyayaning nuqtayi nazariga ko‘ra, kompetentlikni “insonning ijtimoiy va kasbiy hayotining bilimga asoslangan, intellektual va shaxsiy shartli tajribasi”, deb ta’riflaydi va kompetensiya bu shaxsning kompetentligida namoyon bo‘ladigan qandaydir ichki, potensial, yashirin bilimlar, g‘oyalari, qadriyatlar tizimidir”. Muallif o‘z mulohazalarida ushbu atamalarning asosini tashkil etuvchi ijtimoiy komponentga e’tibor qaratadi.

Shubhasiz, bu davrdagi “kompetentlik” va “kompetensiya” atamaları tadqiqotchilar tomonidan zamonaviy jamiyatda shaxs ijtimoiy hayotining adekvat namoyon bo‘lishining ta’rifi sifatida qaraladi. Ular o‘zaro ta’sir, muloqotning xususiyatlarini, shuningdek, insonning jamiyatdagi sharoitlarga moslashish istagini aks ettiradi. Shuni ham ta’kidlab o‘tamizki, ushbu vaqt oralig‘ida “kompetentlik” va “kompetensiya” atamaları ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ajratilib, aniqlashtirila boshladi.

Zamonaviy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari ta’riflari har qanday tasniflash nuqtayi nazaridan, tobora ko‘proq ko‘rib chiqilmoqda. Kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, madaniyatlararo kompetensiya va boshqalarning ta’riflari mavjud. Ushbu atamalarda mualliflar ma’lum bir komponent tarkibini kiritadilar, yetakchi komponentlarni ajratib ko‘rsatadilar.

Bu davrdagi xorijlik tadqiqotchilarning ishlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik olimlar “kompetentlik” va “kompetensiya” atamalarini har qanday faoliyat sohasida, hayotning mazmun-mohiyatini anglash, bilim va ko‘nikmalarni egallash, bilish va tushunish, bilimlardan to‘g‘ri foydalanish qobiliyati

¹ Хомский Н. Язык и мышление. М., 1972, с. 122.

² Dj.Raven. Assessing Emotional Intelligence Competencies. Washigton, 2004, 168 p.

³ Shu manba.

⁴ Делор Ж. Образование: сокрытое сокровище. Основные положения доклада Международной комиссии по образованию для XXI века. Париж, 1996, с. 35 – 37.

bilan bog'laydilar. Shaxsning bilim, ko'nikma, xulq-atvor xususiyatlari, uning qadriyat yo'nalishlari, motivlari esa bu atamalar tarkibining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, fanda sinonimik ma'noda qo'llanadigan "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalarini o'zaro farqlash lozim. Ushbu tushunchalar o'zbek pedagogik maktabi uchun yangilik emas, biroq shunga qaramay, ularni turlicha tushunish kerakligiga e'tibor qaratish kerak.

N.Sh.Turdiyev, Y.M.Asadov, S.N.Akbarova, D.Sh.Temirovlarning "kompetentlilik", "kompetensiya" tushunchalari tavsiflarida quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- bilimlar majmuyining amalda qo'llanilishi;
- shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlarini;
- amaliy faoliyatga tayyorgarlik o'lchovi;
- muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati;
- shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi;
- faollashgan (amaliyotga tatbiq etilgan) o'quv, bilim, tajribalar majmuyi;
- shaxsning maqsadli yo'naltirilgan emotsional iroda kuchi».¹

Shunday qilib, "kompetensiya" – o'z ichiga shaxsga oid o'zaro bog'liq sifatning barchasini, ya'ni kompetensiyalar va faoliyat usullarini qamrab oladi, ularning predmet va jarayonlarning ma'lum kategoriyalariga aloqasi, insonning ularga nisbatan sifatli va sermahsul faoliyati uchun alohida ehtiyoj bor:

– "kompetentlilik" shaxs tomonidan o'ziga xos kompetensiyaga egalik qilish faoliyatiga oid ma'noli muloqotni anglatadi.

Shuningdek, har qanday soha mutaxassisi faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri bo'lgan ma'naviy-axloqiy, kasbiy kompetensiya tamoyiliga ham rioya qilishi kerak. Bo'lajak sotsiologning kasbiy kompetentligi bir qator o'ziga xos tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular orasida samarali va foydali faoliyatni ta'minlashda ijtimoiy kompetentlilik alohida o'rin tutadi. Shunday qilib, ma'lum sohada kompetentli bo'lgan mutaxassis, sohaga oid masalalarda o'z harakatlarini samarali qo'llash bilan asosli mulohaza yuritishi uchun mos ravishdagi kompetensiyalarni ham egallagan bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda, professional kompetentlilik deganda, individual-psixologik struktura ham tushuniladi, u bilim, kasbiy tajriba va mutaxassisning ijtimoiy tayyorligini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy kompetensiyalar tadqiqotda tobora ommalashib bormoqda. Bu zaruriyat quyidagilar bilan belgilanadi:

– qadriyatlarni shakllantirish orqali o'tadigan bozor sohasidagi sotsializatsiya: yosh avlodda asosiy ijtimoiy ko'nikmalarni, iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlar sohasidagi amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'z farovonligi va jamiyat holati uchun javobgarlik;

– giyohvandlik, uysizlik, jinoyatchilikning o'sishi va boshqalar bilan bog'liq salbiy ijtimoiy muammolarni hal qilish;

– ijtimoiy va iqtisodiy rollarning tez o'zgarishiga tayyor bo'lishdan iborat bo'lgan ijtimoiy mobillikni ta'minlash.

Boshqacha aytganda, insonning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish zamonaviy jamiyatda zaruriyatga aylandi.

Dastlab, ijtimoiy kompetensiyaga qiziqish nutq kommunikatsiyasi nazariyasi, boshqaruv sotsiologiyasi va ijtimoiy psixologiyada paydo bo'ldi. XIX asr oxirida kasb-hunar ta'limida ijtimoiy-psixologik kompetensiya tushunchasi paydo bo'ldi. Keyinchalik, I.A.Zimnyaya o'z tadqiqotida barcha kompetensiyalar, o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy (so'zning keng ma'nosida) "...chunki ular jamiyatda rivojlangan, shakllangan, o'z mazmuniga ko'ra, ijtimoiydir, shu jamiyatda ikkalasi ham paydo bo'ladi va faoliyat ko'rsatadi", deb yozgan.

Adabiyotda ijtimoiy kompetensiya tushunchasi birinchi marta A.P.Vemoshkin va S.Z.Goncharovlarning maqolasida ishlatilgan.² Mualliflar ijtimoiy kompetensiyani ijtimoiy institutlarning maqsad va vazifalari, ijtimoiy o'zaro ta'sir qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, me'yorlar va munosabatlardan xabardorlik sifatida talqin qiladi.

¹ Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. T., T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, 2015, 8-bet.

² Гончаров С.З. Социальная компетентность личности: сущность, структура, критерии и значение. "Образование и наука", 2004, № 2, с. 3 – 19.

Bu davrni ijtimoiy kompetensiyaning yaqqol rivojlanishi, tuzilmaning shakllanishi va uning asosiy funksiyalari bilan qayd etish mumkin. Demak, ijtimoiy pedagogikaga oid atamalar lug'atida quyidagi ta'rifni ko'rish mumkin: "Ijtimoiy kompetensiya – bu shaxsga jamiyat hayotining me'yor va qoidalarini yetarli darajada bajarish imkonini beradigan ijtimoiy mahorat (burch)", deb ta'riflanadi.

Uslubiy atamalar va tushunchalarning yangi lug'atida: "Ijtimoiy kompetensiya – bu boshqa kishilar bilan kommunikativ munosabatlarga kirishish qobiliyati, bu ehtiyojlar, motivlar, kelajakdagi aloqa shiriklariga, shuningdek, o'z shaxsiga nisbatan ma'lum munosabat bilan belgilanadigan – hurmat. Kommunikativ munosabatlarga kirish qobiliyati kishidan ijtimoiy vaziyatda harakat qilish va uni boshqarish qobiliyatini talab qiladi", deb keltirilgan.

Psixologik lug'atda: "Ijtimoiy kompetensiya – bu ma'lum bir shaxsning ma'lum bir jamiyat tomonidan taqdim etilgan sharoit va imkoniyatlarga muvofiqligi", deb ta'rif berilgan.

Shunday qilib, taqdim etilgan ta'riflarda aniq ko'rinib turibdiki, ijtimoiy kompetensiya atamasi turli sohalarida ko'rib chiqilishiga (psixologiya, sotsiologiya, metodologiya) qaramay, jamiyatdagi kishilarning hayoti va munosabatlari bilan bog'liq sohadagi xabardorlik, bilim va amaliy ko'nikmalar sifatida belgilanishi mumkin. Aytish mumkinki, ijtimoiy kompetensiya shaxsning integrativ xususiyati sifatida tushunilishi kerak.

Shunday ekan, ijtimoiy kompetensiyalar – bu ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadigan bilim, ma'laka, ko'nikma va qobiliyatlarni o'z ichiga oluvchi va o'quvchilarga nafaqat moslashish, balki integratsiyalashuvga ham imkon beradigan, jamiyat, ijtimoiy muhit bilan samarali hamkorlik qilish, ijtimoiy muhitdagi muammolarni samarali hal qilishdagi integral shaxsiy ta'lim.

Tadqiqodchi V.A.Zaxarevich ijtimoiy kompetensiyalari "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi bo'yicha bakalavriat talabalarini tayyorlash kontekstida ko'rib chiqadi. Bunda muallif ijtimoiy kompetensiyalarni kasbiy va shaxsiy xususiyatlar majmuyi, shu jumladan, nazariy (pedagogik va psixologik) bilimlar tizimi, Maktabgacha ta'limning ta'lim standarti, davlatning maqsad va vazifalarini samarali hal qilish uchun zarur bo'lgan intellektual o'qituvchining kasbiy standarti talablariga muvofiq mehnat funksiyalarini amalga oshirishga hissa qo'shadigan universal, amaliy ko'nikmalar va muloqot qobiliyatlari, bolalar, ota-onalar, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar tizimi, deb tushuntiradi.¹

V.A.Vorobyevaning tadqiqotlarida "ijtimoiy kompetensiya" atamasi tanlangan toifadagi kishilar uchun ham spetsifikatsiyaga ega "...Pedagogik ta'lim" ("Til ta'limi: xorijiy tillar") yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan bo'lajak magistrantlarning ijtimoiy kompetensiyasi. Bu pedagogik, uslubiy, ilmiy tadqiqot, boshqaruv, dizayn va madaniy-ma'rifiy kabi professional faoliyatning yetakchi sohalarida eng muhim kasbiy vazifalarni hal qilish uchun chet tili ta'limi subyektlari bilan samarali ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish qobiliyatidir.²

"Ijtimoiy kompetensiya" atamasi so'nggi yillarda yanada individual xususiyatga ega bo'ldi. Ushbu ta'rifda aniqroq tavsiflash maqsadida o'ziga xos xususiyatlar paydo bo'ladi.

Mualliflar ijtimoiy kompetensiyalarni umumiy tarzda ko'rib chiqadigan ko'plab asarlari ham mavjud. Shunday qilib, A.V.Strelkova o'z ishida ijtimoiy kompetensiyani "...shaxsning vaziyatga adekvat munosabati va harakatlarining maqsadga muvofiqligi asosida jamiyatdagi o'zaro munosabatlarning eng samarali jarayoniga erishish uchun muayyan xatti-harakatlar modelini mustaqil ravishda tanlash qobiliyati, deb tushuntiradi.³

Natijalar. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadqiqotchilar "ijtimoiy kompetensiya" atamasiga yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay, ular o'z asarlarida uni quyidagicha ta'riflaydilar:

- o'zaro munosabatlarning ijtimoiy normalari haqidagi bilimlar tizimi sifatida;
- ijtimoiy voqelikni real idrok etish va turli ijtimoiy vaziyatlarda ijtimoiy o'zaro ta'sir o'tkazish qobiliyati;
- shaxsning ijtimoiy faolligi darajasi;
- ijobiy dinamika yoki ijobiy natija bilan muayyan sharoitlarda tegishli ijtimoiy maqsadlarga erishish;

¹ Захаревич В.А. Педагогические условия формирования социальных компетенций студентов бакалавриата в процессе педагогической практики. Автореф. дис. ...канд. пед. наук, Владикавказ, 2015, с. 21.

² Воробьева В.А. Формирование социальной компетенции будущих магистров педагогического образования в процессе обучения иноязычному общению. Автореф. дис. ...кан. пед. наук, Курск, 2015, с. 23.

³ Стрелкова А.В. Формирование социальных компетенций старших подростков методом кейсов. Автореф. дис. ...канд. пед. наук, М., 2016, с. 23.

- ijobiy natijalarga erishish uchun ijtimoiy muhit resurslari va shaxsiy salohiyatdan foydalanish qobiliyati;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijodiy faoliyat, fuqarolik burchini bajarish, oilani yaratish va boshqalarga ehtiyoj va tayyorlik;
- atrofdagi voqelikning har qanday ijtimoiy sharoitlariga moslashish va qabul qilish qobiliyati kabi-lar.

Xulosa. Inson ijtimoiy mavjudot bo‘lib, doimo tashqi olam bilan turli xil munosabatlar doirasida bo‘ladi. Bu shaxsdan tegishli kompetensiyalarga (ya‘ni, bilim, ko‘nikma, qobiliyat, shuningdek, boshqa ijtimoiy subyektlar bilan munosabatda bo‘lish qobiliyati) ega bo‘lishini talab qiladi. Shunga ko‘ra, atrofdagi dunyodagi munosabatlar soni muvaffaqiyatli o‘zaro ta‘sir qilish uchun zarur bo‘lgan vakolatlar sonini belgilaydi, ular shaxsning umumiy malaka darajasini tashkil qiladi.

Ijtimoiy kompetensiya to‘g‘risidagi qarashlarni tahlil qilish bizga shaxsiy va jamoat manfaatlarini, jamiyat bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida adekvat xulq-atvorni, kommunikativ bilimlarni, sotsializatsiya muvaffaqiyatini, ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini, ijtimoiy qobiliyatlarni bilishni standart va nostandart vaziyatlarda konstruktiv xatti-harakatlar usullarini qo‘llay bilishni nazarda tutadi. Ijtimoiy kompetensiya shaxsni ijtimoiylashtirishning yetakchi omili ekanligini tushunish muhimdir, bu har bir shaxsning ijtimoiy kompetensiyasini to‘g‘ri shakllantirish va rivojlantirish zarurligini anglatadi. Bu esa bo‘lajak sotsiologning zamonaviy jamiyatda yuqori talabni beradigan muhim shartlari hisoblanadi. Shunday ekan, ijtimoiy kompetensiyalar–bu ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadigan bilim, malaka, ko‘nikma va qobiliyatlarni o‘z ichiga oluvchi va o‘quvchilarga nafaqat moslashish, balki integratsiyalashuvga ham imkon beradigan, jamiyat, ijtimoiy muhit bilan samarali hamkorlik qilish, ijtimoiy muhitdagi muammolarni samarali hal qilishdagi integral shaxsiy ta‘limdir.

**Sabirova Zeba Baxramovna (O‘zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti
katta o‘qituvchisi; e-mail: zebisobibek@gmail.com)
TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH**

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarga ingliz tilini o‘rgatishda til materiallarini birgalikda o‘rganish samaradorligi hamda talabalar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari va tanlangan usullarning samaradorligi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Аннотация. В данной статье представлена информация об эффективности совместного изучения языковых материалов при обучении английскому языку студентов физического воспитания с ограниченными возможностями, а также показаны результаты исследований, проведенных студентами, и эффективность выбранных методик.

Annotation. This article was presented about the effectiveness of the joint study of language materials in the teaching of English to students of physical education with disabilities, which also shows the results of research conducted by students and the effectiveness of the selected methods.

Kalit so‘zlar: til materiallari, nogironlik, tinglab tushunish, gapirish, yozish, o‘qish.

Ключевые слова: языковые материалы, инвалидность, аудирование, говорение, письмо, чтение.

Key words: language materials, disabilities, listening, speaking, writing, reading.

Kirish. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni kuzatish natijasida shunga amin bo‘lish mumkinki, imkoniyati cheklangan talabalarning salomatligini mustahkamlash bilan birga, xorijiy (ingliz) tillarni o‘rgatishni rivojlantirish yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamda ommaviylashtirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Respublikamizda oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishga, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy rehabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta‘minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning PQ-5114-sonli qaroriga ko‘ra, yurtimizda jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarga sport bilan shug‘ullanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta‘minlash va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida:

1. Quyidagilar paralimpiya harakatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilanilishi na-

zarda tutilgan:

◆ jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarga sport bilan shug'ullanish uchun shart-sharoitlarni kengaytirish hamda ular o'rtasida sport bilan shug'ullanuvchilar qamrovini yanada oshirish;

◆ barcha turdagi sport ta'lim muassasalarida jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sport bo'limlarini bosqichma-bosqich tashkil etish hamda iqtidorga ega bo'lgan jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarni tanlab olish, ularni sport turlariga yo'naltirish, tayyorlash hamda oliy sport mahoratiga erishishini ta'minlovchi uzluksiz yagona kompleks tizimni joriy etish;

◆ rivojlantirilayotgan (mavjud), yangi tashkil etilayotgan va kelajakda yangi tashkil etilishi rejalashtirilgan paralimpiya sport turlarini har tomonlama rivojlantirish va ommalashtirish;

◆ paralimpiya sport turlari bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yaratish hamda ilmiy tadqiqotlar olib borish;

◆ jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatda munosib o'rin egallashlarini rag'batlantirish, jismoniy va ijtimoiy moslashuvi integratsiyasini dasturiy-uslubiy ta'minlash, kasbiy rehabilitatsiya va kadrlar tayyorlash;

◆ sport ta'lim muassasalarida (shu jumladan, oliy ta'lim muassasalarida) faoliyat yuritayotgan paralimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislarning mehnatiga haq to'lash va rag'batlantirish tizimini kuchaytirish;

◆ jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar o'rtasida maxsus ta'lim muassasalarida hamda mahallalarda sport musobaqalarini muntazam ravishda o'tkazish;

◆ barcha turdagi sport ta'lim muassasalarida jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning sport bilan shug'ullanishlari uchun zamonaviy moddiy-texnik bazani shakllantirish ko'zda tutilgan bo'lib, hozirgi kunda, hammamizga ma'lumki, sport bilan xorijiy tillarni aynan ingliz tilini uyg'unlashtirish dolzarb muammoligicha qolib ketmoqda. Chunki ingliz tilini o'rganish hozirgi zamon talabi. Bu nafaqat jismonan sog'lomlarga, balki jismoniy imkoniyati cheklanganlarga ham til materiallarini o'rgatib, ko'nikmalar hosil qilish, o'z mutaxassisligiga oid terminlarni ingliz tilida bilishi, albatta, jahon arenalarida o'zbek paralimpiya chempionlarimiz ingliz tilida ravon o'z fikrini bayon qilishi bu bizning oliy maqsadimizdir.¹

Xorijiy tillarni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.05.2021-yildagi PQ-5117-sonli qaroriga muvofiq, xorijiy tillarni o'rganishni va ommoviyalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar, shuningdek, bu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida qarorning 7-bandiga asosan, o'quvchilarning asosiy til ko'nikmalarini (tinglab tushunish, o'qish va gapirish, yozish) rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu jumladan, oliy ta'lim muassasalarining xorijiy tillar kafedralarini birlashtirish orqali o'quvchilarning xorijiy tillarni chuqur o'rgaishini tashki etish;

◆ o'quvchilarni xorijiy tillarga o'qitish va ularning bilimlarini baholashning xalqaro tan olingan uslublarini (imkoniyati cheklangan talabalarda til ko'nikmalarini hosil qilish) joriy qilish, shu jumladan, ta'lim jarayonida masofaviy va boshqa zamonaviy ta'lim shakllarini keng qo'llash hamda boshqa fanlarni xorijiy tilda o'qitish;

◆ o'quvchilarning kamida ikkita xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish orqali ularning dunyoqarashi kengayish salohiyatini oshirish hamda mehnat bozorida raqobatbardoshligi oshirishilishini ta'minlash.²

Shu maqsadda Jismoniy tarbiya va sport univeristetida imkoniyati cheklangan talabalarga xorijiy tillarni o'zlashtirish uchun quydagilarni asoslaymiz:

◆ til materiallaridan imkoniyati cheklangan talabalar nazalogiyasi bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish;

◆ ko'rish qobilyatida nuksoni bor talabalarda tinglab tushunish (listening) gapirish (speaking) til ko'nikmasini shakllantirish;

◆ eshitish qobilyatida nuqsoni bor talabalarda o'qish (reading), yozish (writing) ko'nikmasini shakllantirish.

Hozirgi kunda hammamizga ma'lumki, sport bilan xorijiy tillarni, aynan ingliz tilini uyg'unlashtirish (optimallashtirish) dolzarb muammoligicha qolib ketmoqda. Chunki ingliz tilini o'rganish hozirgi zamon talabi. Bu nafaqat jismonan sog'lomlarga, balki jismoniy imkoniyati cheklanganlarga ham til materiallarini o'rgatib, ko'nikmalar hosil qilish, o'z mutaxassislikka oid terminlarni ingliz tilida bilishi, albat-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 18.05.2021 йилдаги ПҚ-5114-сонли қарори.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 19.05.2021 йилдаги ПҚ-5117-сонли қарори.

ta, jahon arenalarida o'zbek paralimpia chempionlarini ingliz tilida ravon o'z fikrini bayon qilishi bu bizning oliy maqsadimizdir.

Keng qamrovli ilmiy-uslubiy ishlarni o'rganishimiz natijasida imkoniyati cheklangan talabalarning mashg'ulot jarayonida nazologiyalari bo'yicha ingliz tilini o'qitish usullarini qo'lash mexanizmlari to'g'risida deyarli ma'lumotlar mavjud emas. Ta'kidlash joizki, imkoniyati cheklangan talabalarning mashg'ulot jarayoniga aynan to'g'ri keladigan sport turlari bo'yicha atamalar va tinglab tushunish (listening), o'qish (reading), yozish (writing) hamda gapirishni (speaking) o'rgatish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarning yo'qligi ishning tanlangan yo'nalishi dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi: jismoniy tarbiya yo'nalishlariga muvofiq jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlari talabalarining kasbiy malakasini shakllantirishning innovatsion shaxsiy va kasbiy yo'naltirilgan texnologiyasini nazariy jihatdan ishlab chiqish va eksperimental asoslash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, jismoniy tarbiya oliy o'quv yurti talabalarini chet tilini professional yo'naltirilgan matnlarni tushunishga o'rgatish samaradorligini oshirish texnologiyasi dars yo'nalishini hisobga olgan holda, mashg'ulotlar mazmunini rejalashtirish asosida amalga oshiriladi. talabalar tomonidan tanlangan innovatsion, umuman, qabul qilingan didaktik vositalar va uslubiy metodlarni tayyorlash va birlashtirish nazariy jihatdan ishlab chiqilgan va eksperimental sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati jismoniy madaniyat oliy o'quv yurti talabalarining chet tili kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyasining ilmiy va eksperimental jihatdan asoslangan uslubiy va tashkiliy qoidalari bilan belgilanadi, bu mavjud tushunchalarni sezilarli darajada to'ldiradi va kengaytiradi. adaptiv jismoniy madaniyat sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va usullari.¹

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'quv jarayonida shaxsiy va kasbiy yo'naltirilgan innovatsion texnologiyani tatbiq etish jismoniy tarbiya oliy o'quv yurti talabalariga ingliz tilidagi asl matnlarni anglash yo'nalishi bo'yicha tushunishga o'rgatish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. tanlangan mashg'ulot, ta'lim motivatsiyasini faollashtiradi. Dissertatsiya materiallari, muallif tomonidan ingliz tilida jismoniy reabilitatsiya qilishning turli masalalari bo'yicha matnlar va maxsus professional atamalarning inglizcha-ruscha lug'ati bilan ishlab chiqilgan darslik, jismoniy madaniyat universitetlarida sinf darslarida va talabalarning mustaqil ishlarida foydalanish maqsadga muvofiqdir.²

Olingan natijalarning ishonchliligi va asosliliigi nazariy-uslubiy baza, dissertatsiya ishining maqsad va vazifalariga mos zamonaviy tadqiqot usullari, eksperimental ma'lumotlarning etarli miqdori, o'rganilayotgan talabalarning vakillik namunasi va statistik ma'lumotlarning to'g'riligi bilan ta'minlanadi. Haqiqiy materialni qayta ishlash.

Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish. Pedagogik eksperiment boshlanishida 50 nafar talaba o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 68,8 foizi chet tilini o'rganishda kompyuter texnologiyalaridan (mobil ilova) foydalanishga ijobiy munosabatda bo'lgan, 31,4 foizi esa javob berishga qiynalgan. 19,6% esa salbiy javob bergan. Shuni ta'kidlash kerakki, o'quv jarayonida mobil ilovadan foydalanishga salbiy munosabatda bo'lgan talabalar yuqori kasbiy malakaga ega bo'lish uchun o'zlarining shaxsiy ichki motivatsiyasini etarli darajada ifoda etmaydilar. Ularning asosiy maqsadi oliy ma'lumotli diplom olishdir. Mobil ilovadan foydalanishga ijobiy munosabatda bo'lgan 20 respondent orasida shaxsiy motivlarga qarab uchta guruhni ajratish mumkinligi aniqlandi:

1) shaxsiy kompyuterdan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lgan, qoida tariqasida, faqat o'yin dasturlari bilan qiziqadigan talabalar – 48,4%;

2) shaxsiy kompyuterni yaxshi biladigan, internetda ma'lumot izlashga, blok yaratishga yo'naltirilgan, ijodiy o'quv faoliyatiga sozlangan talabalar – 31,6%;

3) kompyuterdan ishonchli foydalanadigan, mobil ilova yordamida chet tilini yuqori darajada bilishga intilayotgan talabalar – 16,4%. Ular uchun mobil ilova moslashuvchan jismoniy tarbiya sohasida kasbiy kompetensiya va martaba o'sishini oshirish vositasidir.

Ma'lumki, chet tilini bilish darajasi, ko'p jihatdan, talabalarining chet tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini belgilaydi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'lig'i holatida jismoniy madaniyat – "Moslashuvchan jismoniy tarbiya" yo'nalishi" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan 76 nafar talabaning

¹ Бабушкин Г.Д. Самообразование студентов в системе подготовки специалистов по физической культуре и спорту. "Теория и практика физической культуры", 1987, № 8, с. 6 – 7.

² Багновская П.Е. Краткий англо-русский словарь профессиональных терминов: учебное пособие для студентов вузов физической культуры. Смоленск, "Принт-экспресс", 2012, с. 4 – 5.

so'rovnomaga savollariga bergan javoblari ma'lum bir taxminiy jihatdan chet tilini tavsiflash imkonini beradi. Respondentlarning tayyorgarligi:

- o'rta umumiy ta'lim yoki kasb-hunar ta'limi muassasasini tamomlaganligi to'g'risidagi guvohnomada 13,1 foizi "a'lo", 64,4 foizi "yaxshi", 22,5 foizi "qoniqarli" bahoga;
- chet el matnini (gazeta, jurnal maqolalari, badiiy adabiyot) tarjima qilishda qiynaladiganlar 21,2%, lug'at bilan tarjima qila oladilar – 73,6%, lug'atsiz – 5,2%.

Aniqlovchi pedagogik eksperimentning boshida va yakuniy bosqichida 25 nafar talaba har tomonlama imtihondan o'tkazildi. Pedagogik eksperimentni aniqlashning boshida talabalarning Jismoniy tarbiya va sport univertitetiga davlat jismoniy tarbiya, Sport va turizm akademiyasiga o'qishga kirganlarida chet tilini bilish darajasini subyektiv baholash bo'yicha ma'lumotlar olindi. Natijada talabalarning atigi 35,7 foizi mavjud lug'atni kundalik chet tilidagi muloqot uchun yetarli deb baholashi va 16 foizi chet tilini bilishni tanlangan sohada muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun tegishli talablar deb bilishi aniqlandi. "Moslashuvchan jismoniy tarbiya" treningi.¹ O'quvchilarning aksariyati (77,3%) chet tilidagi matn mazmunini lug'at yordamida tushuna oladi, 16,7 foizi esa lug'at yordamida tarjima qilganda matn mazmunini yetarlicha tushunmaydi.

Ushbu fikrga ko'ra, ta'lim jarayoni samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri bu o'quvchilarning shaxsiyati, xususan, chet tilini bilish darajasi, chet tilini o'rganish motivlari, o'qitish vositalari va metodik usullariga munosabatidir.

Ma'lumki, chet tilini bilish darajasi, ko'p jihatdan, talabalarning chet tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini belgilaydi. 5610500 – Sport faoliyati (adaptiv jismoniy tarbiya va sport) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan 76 nafar talabaning so'rovnomaga bergan javoblari (3-ilova) ma'lum bo'lgan taxminiy jihatdan tavsiflash imkonini beradi. Respondentlarning chet tiliga tayyorligi:

- ♦ o'rta umumiy ta'lim yoki kasb-hunar ta'limi muassasasini tamomlaganligi to'g'risidagi guvohnomada 13,1 foizi "a'lo", 64,4 foizi "yaxshi", 22,5 foizi "qoniqarli" bahoga;
- ♦ chet el matnini (gazeta, jurnal maqolalari, badiiy adabiyot) tarjima qilishda qiynaladiganlar 21,2%, lug'at bilan tarjima qila oladilar – 73,6%, lug'atsiz – 5,2%.

1-jadval


Talabalar tomonidan chet tilini bilish darajasini subyektiv baholash (aniqlash pedagogik eksperimentning boshlanishi)

Savol	Javob variantlari		
Universitetga kirishdan oldin xorijiy til bo'yicha bilimingizni qanday baholaysiz?	Lug'at yordamida muloqot qila olaman –	Lug'at va mavjud bilimlarim bilan muloqot qila olaman, 36,7 %	O'qihni bilaman va lug'at bilan tarjima qila olaman, 63,3%
Adaptiv jismoniy tarbiya va sport sohasi doirasida xorijiy til bo'yicha bilimingiz yetarlimi?	Ha, 15%	Yo'q, 51,7%	Qiyinchiliklarga duch kelaman, 33,3%
Xorijiy nashrlarni o'qib, tushuna olasizmi?	Lug'atsiz mazmunini tushuna olaman, 5%	Lug'at bilan ishlashim zarur, 78,3%	Matn mazmunini tushunishim qiyin, 16,7%

Aniqlovchi pedagogik eksperimentning boshida va yakuniy bosqichida 19 nafar talaba har tomonlama imtihondan o'tkazildi. Pedagogik eksperimentni aniqlashning boshida talabalarning Smolensk davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm akademiyasiga o'qishga kirganlarida chet tilini bilish darajasini subyektiv baholash bo'yicha ma'lumotlar olindi. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, talabalarning atigi 36,7 foizi mavjud lug'atni kundalik chet tillari bilan muloqot qilish uchun yetarli deb baholaydilar va 15 foizi chet tilini bilishlarini tanlangan sohada muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun tegishli talablar deb bilishadi. "Jismoniy rehabilitatsiya" treningi. O'quvchilarning aksariyati (78,3%) xorijiy matn mazmunini lug'at yordamida tushuna oladi, 16,7 foizi esa lug'at yordamida tarjima qilganda matn mazmunini yetarlicha tushunmaydi.

Pedagogik eksperimentni aniqlashning boshida respondentlarning chet tilini o'qitishning turli vositalari va usullariga nisbatan afzalliklari to'g'risidagi ma'lumotlar 2- va 3-rasmlarda keltirilgan.


¹ Аминов Н. А. Психодиагностика педагогических способностей. Протесты. Н.А.Аминов, Н.А.Морозова, А.Л.Смятских. М., Центр проблем качества подготовки специалистов, 1994, с. 221.



2-rasm. O'quv qurollarini tanlashda talabalarning afzalliklari (aniqlovchi pedagogik eksperimentning boshlanishi).

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, respondentlarning aksariyati bosma o'quv adabiyotlari (darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar, test topshiriqlari) va faqat (15,7%) kompyuter texnologiyalari (kompyuter dasturlarini o'qitish va boshqarish, internet)ni afzal ko'radi.

Anketaga berilgan javoblar (1-ilova) shuni ko'rsatadiki, respondentlarning aksariyati o'qituvchi o'quv materialini taqdim etadigan sinfdagi darslarni yaxshi ko'radi, respondentlarning sezilarli darajada kamroq qismi mustaqil ravishda chet tilini o'rganishni, o'quv va monitoring dasturlarini yoki internet (3-rasm).



O'qituvchi tomonidan o'quv materialini to'plash E chet tilini mustaqil o'rganish testlarni bajarish B o'qitish va nazorat qilish NQ-3rasm. Chet tilini o'qitish usullarini tanlashda talabalarning afzalliklari (aniqlovchi pedagogik eksperimentning boshlanishi).

Bir qator mualliflar ta'kidlaganidek, oliy o'quv yurtlarida o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan talabalarning o'z maqsadlariga erishish uchun motivatsiyasiga bog'liq, ya'ni motivatsiyadan. O'quvchilarning ta'lim motivatsiyasi ularning shaxsiy xususiyatlariga va da'volar xususiyatiga, o'quv jarayonini tashkil etish va texnologiyasiga bog'liq. O'rganish motivatsiyasining bir necha turlarini ajratish mumkin: 1) ijobiy xarakterga ega bo'lgan motivatsiya; 2) shartli ravishda salbiy deb atash mumkin bo'lgan motivatsiya. Ijobiy ta'lim motivatsiyasi shaxs uchun muhim bo'lgan ijtimoiy intilishlar yoki tor shaxsiy motivlar (oliy ma'lumot diplomini olish, kasbiy martaba, shaxsiy farovonlik) bilan belgilanadi. Talaba o'zining yomon o'quv faoliyati natijasida ziddiyatli vaziyat yuzaga kelishi mumkinligini tushunsa, ijobiy o'quv motivatsiyasini rivojlantirish imkoniyati mavjud.

**Қаршиева Дилафруз Суюновна (Тошкент Давлат Педагогика университети
Амалий психология кафедраси доценти в.б., психология фанлари бўйича PhD)**

КАСБИЙ СТРЕСС ВА ЭМОЦИОНАЛ СЎНИШ СИНДРОМИНИНГ ДЕТЕРМИНАНТЛАРИ

Аннотация. Мазкур мақолада педагогик фаолиятдаги касбий стресснинг психологик хусусиятлари таҳлил қилинган. Педагогик фаолият ўзининг эмоциоген таъсирларга бойлиги билан ажралиб туради. Шу билан бир қаторда, касбий стресс ва унинг эмоционал сўниш синдроми билан боғлиқлик жиҳатлари эмпирик жиҳатдан ёритиб берилган.

Аннотация. В данной статье анализируются психологические особенности профессионального стресса в педагогической деятельности. Педагогическая деятельность характеризует-

ся множеством эмоциональных воздействий. В связи с этим эмпирически проанализированы аспекты профессионального стресса и его взаимосвязь с эмоциональным выгоранием.

Annotation. This article analyzes the psychological features of occupational stress in pedagogical activity. Pedagogical activity is characterized by a wealth of emotional effects. Alternatively, aspects of occupational stress and its association with emotional burnout have been empirically illuminated.

Калим сўзлар: шахс, стресс, касбий стресс, эмоционал сўниш синдроми, педагогик фаолият.

Ключевые слова: личность, стресс, профессиональный стресс, эмоциональное выгорание, педагогическая деятельность.

Key words: person, stress, professional stress, the emotional burnout syndrome, pedagogical activity.

Педагог шахси касбий нуқтаи назардан олганда, толерант типга мансубдир, улар касбий фаолияти давомида интенсив эмоционал инсоний муносабатлар билан кўп тўқнаш келадилар, ота-она, ўқувчилар, ҳамкасблар билан ишлаш давомида турли ўзига хос психологик тўсиқларни енгиб ўтишда ўзларидаги эмпатия ҳиссини камроқ даражада намоён қилишга ҳаракат қилмасалар, бундай типдаги “мулоқотга тўлалик” педагоглардаги эмоционал зўриқишларнинг кучайишига сабаб бўлади. Касбий фаолиятдаги зўриқишлар педагогларнинг шахсий ҳаётида ҳам ўз аксини топмай қолмайди. Чунки ҳозирги кунда педагогик фаолият билан шуғулланадиганларнинг аксарияти ўз фарзанди тарбиясига алоҳида вақт ажрата олмай қоляптилар. Натижада фарзанди олдида айбдорлик ҳиссининг ортиши, тарбия масаласида ўзини нўноқ ҳис қилиш, ўзига ва атрофдагиларга йўналтирилган агрессиянинг ортиши кузатилмоқда. Педагоглардаги мана шу ўзидан қониқмаслик ҳисси унда эмоционал сўниш синдромига мойилликнинг ортишига сабаб бўлиб қолмоқда.

Ҳозирги кунда “сўниш” деган тушунча кенг қўлланилмоқда. Психик сўниш деганда, ижтимоий соҳадаги касбларда намоён бўлувчи жисмоний, эмоционал, ақлий зўриқиш ҳолати тушунилади. К.Маслач ва С.Е.Жексонларнинг таъкидлашича, психик сўниш деганда ижтимоий соҳанинг касбий доирасида намоён бўлувчи жисмоний эмоционал, ақлий зўриқиш, сўниш назарда тутилади ва унинг қуйидаги учта компоненти мавжуд: эмоционал сўниш, деперсонализация, касбий мотивациянинг сўниши. Эмоционал сўниш эса таъсир этилаётган стрессоген вазиятларга нисбатан эмоционал жавоб қайтаришнинг тўлиқ ёки қисман чекланиши бўлиб, шахснинг психологик ҳимоя механизми ҳисобланади.

Эмоционал сўниш – бу ҳиссий, кўпинча, касбий хулқ-атвор стереотипи. “Сўниш” қисман функционал стереотипдир, чунки у одамга энергия ресурслари миқдорини белгилаш ва тежамкорлик билан сарфлаш имконини беради. Шу билан бирга, дисфункционал оқибатларни ҳам келтириб чиқариши ҳам мумкин. “Психологик сўниш” шундай вазиятларда, яъни касбий фаолиятни амалга ошириш ва касбий фаолият субъекти билан муносабатларга салбий таъсир кўрсатганда вужудга келиши мумкин.

Эмоционал сўниш синдроми америкалик психиатр Герберт Фрейденберг томонидан 1974 йилда киритилган. Унинг фикрича, эмоционал сўниш синдроми ҳиссий зўриқиш натижасида келиб чиқиб, шахснинг шахслараро муносабатлар соҳасига ўз таъсирини ўтказди. Эмоционал сўниш синдроми кўп ҳолларда “одам-одам” типдаги касб эгаларида учрайди. “Халқаро касалликлар классификацияси-11”га кўра, инсонлар соғлиқни сақлаш тизими ходимларига энг кўп сурункали тушкунлик ҳолати сифатида мурожаат қилишади.

Эмоционал сўниш синдромининг клиник белгилари:

1. Ҳамкасбларга нисбатан дегуманизация ва уларга салбий муносабат.
2. Касбий ҳолатидан қониқмаслик.
3. Деперсонализация ва шахсий ҳаётдаги муаммолар вужудга келтириш.
4. Турли хилдаги психосоматик касалликлар.
5. Когнитив соҳадаги бузилишлар.
6. Эмоционал зўриқиш.¹

Биз педагоглардаги касбий стресс ва эмоционал сўниш даражасини аниқлаш мақсадида сигналувчиларда Д.Фонтаннинг “Касбий стресс даражасини аниқлаш шкаласи” ва В.В.Бойко томонидан таклиф этилган “Эмоционал сўниш даражаси” методикаларини ўтказдик. Мазкур методика-

¹ Короленко Ц.П. Психофизиология человека в экстремальных условиях. Л., “Медицина”, 1978, с. 272.

лардан олинган педагоглардаги касбий стресс даржаси ва эмоционал сўниш синдроми орасидаги боғлиқликнинг ўзига хос томонлари билан танишиб чиқамиз.

1-жадвал

Педагогларда касбий стресс ва эмоционал сўниш синдроми орасидаги боғлиқлик

Шкалалар	Иш стажи	Психоэмоционал ҳолсизланиш	Деперсонализация	Касбий мотивациянинг пасайиши
Касбий стресснинг юқори даражаси	5 йилгача	0,195	0,189	-0,056
	10 йилгача	-0,019	0,059	-0,041
	15 йилгача	0,356*	0,329*	0,078
	15 йилдан юқори	0,346**	0,332**	0,164
Касбий стресснинг ўрта даражаси	5 йилгача	0,245	0,132	0,064
	10 йилгача	0,051	0,054	0,045
	15 йилгача	0,152	0,156	0,157
	15 йилдан юқори	0,278**	0,313**	0,106
Касбий стресснинг паст даражаси	5 йилгача	-0,342*	-0,236	-0,003
	10 йилгача	0,172	0,126	0,010
	15 йилгача	-0,259	0,267	-0,188
	15 йилдан юқори	-0,282**	-0,327**	-0,126

Изох: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,001$.

Касбий стресснинг юқори даражаси 15 йилгача педагогик стажга эга педагогларда психоэмоционал ҳолсизланиш ($r=0,356$; $p \leq 0,05$), деперсонализация ($r=0,329$; $p \leq 0,05$), 15 йилдан ортиқ ишлаганларда эса психоэмоционал ҳолсизланиш ($r=0,346$; $p \leq 0,001$), деперсонализация ($r=0,332$; $p \leq 0,001$) билан ижобий статистик аҳамиятли корреляцияга эга эканлиги аниқланди. Касбий стресснинг ўрта даражаси 15 йилдан ортиқ ишлаганларда психоэмоционал ҳолсизланиш ($r=0,278$; $p \leq 0,001$), деперсонализация ($r=0,313$; $p \leq 0,001$) билан статистик аҳамиятли равишда боғлиқ эканлиги кузатилди. Касбий стресснинг паст даражаси 5 йилгача иш стажига эга бўлганларда психоэмоционал ҳолсизланиш ($r=-0,342$; $p \leq 0,05$), 15 йилдан ортиқ иш стажига эга бўлганларда эса психоэмоционал ҳолсизланиш ($r=-0,282$; $p \leq 0,001$), деперсонализация ($r=-0,327$; $p \leq 0,001$) орасида тескари статистик алоқа аниқланди.

Психоэмоционал ҳолсизланиш ва касбий стресснинг даражалари орасидаги ижобий корреляциянинг мавжудлиги педагоглардаги ҳиссий жисмоний энергетик ресурсларнинг камайиши, ҳолдан тойиши ҳолатлари билан кузатилади. Агар синалувчиларимизнинг натижаларига қарайдиган бўлсак, касбий стресснинг юқори ва ўрта даражалари, асосан, 15 йилгача ва ундан ортиқ педагогик стажга эга бўлганларда намоён бўлган. Бу ҳолат педагогларда хавотирланиш, сурункали чарчаш, атрофдагиларга нисбатан депрессия, асабийлашиш, шахснинг иммун ва асаб тизимидаги кучсизлик, психосоматик касалликларга мойилликнинг ортиши, бифарқлик ва совуққонликда намоён бўлади.

К.Чернешнинг таъкидлашича, психоэмоционал ҳолсизланиш психик сўнишнинг биринчи босқичи бўлиб, бунда касбий талаб ва шахснинг ички имкониятлари орасидаги мувозанат бузилганда юзага келади.¹ Бундай ҳолатларда касбий фаолиятдаги бир хиллик шахсда стресс ҳолатини юзага келтиради. Умуман, инсонда стресснинг намоён бўлишидан аввал кучли хавотир кузатилади. Бу жараёнда инсон организмида асаб тизими таъсирида адреналин ва норадреналин моддаси миқдори кўпайиб кетади. Натижада инсон организмида кортизол ва альдостерон гормонларининг (булар стресс гормонлари деб ҳам аталади) ажралиб чиқиши ҳам кучайиб, шахсда қаршилик кўрсатиш реакциялари пайдо бўлади. Организмда мазкур ҳолатнинг узоқ давом этиши эса адаптация энергия танқислигини чақиради ҳамда организм ўз захирасидаги витамин ва минералларни организмдаги чарчокни бартараф этиш учун сафарбар эта бошлайди. Мазкур ҳолатнинг сурункали давом этиши эса инсон организмида психоэмоционал ҳолсизликни келтириб чиқариб, турли психосоматик касалликларга сабаб бўлади. Шу боисдан ҳам психоэмоционал ҳолсизлик ва касбий

¹ Китаев-Смык Л.А. Организм и стресс: стресс жизни и стресс смерти. СПб., “Питер”, 2012, с. 234 – 238.

стресс орасида ҳамиша ижобий аҳамиятли корреляция кузатилган. Касбий стресснинг паст даражаси 5 йилгача иш стажига эга бўлган мутахассисларнинг кўрсаткичларида психоэмоционал ҳолисизланиш билан тескари корреляцияга эга. Бу ҳолат ёш мутахассиснинг жисмонан соғлом, ёшга оид психофизиологик функцияларнинг фаолиятини барқарор эканлигини англатади. Худди шундай ҳолат айрим 15 йилдан ортиқ ишлаганларда ҳам кузатилган. Бунинг асосий сабаби эса педагогларда ўз жисмоний, руҳий саломатлигига нисбатан соғлом психоэмоционал муносабатни шаклландиришдан далолат беради.

Педагоглардаги деперсонализация ва касбий стресснинг юқори ҳамда ўрта даражалари билан 15 йил ва ундан ортиқ ишлаган ходимларнинг натижаларида боғлиқ чиққан. Деперсонализация педагоглардаги ижтимоий дезадаптациянинг ўзига хос шакли ҳисобланади. Бунда шахслараро муносабатларга киришиш камаяди ва хавотирланиш даражаси ортади.

Деперсонализация латинча сўздан олинган бўлиб, “шахснинг йўқлиги” деб таржима қилинади. Деперсонализация – бу шахснинг ўзини-ўзи идрок қилиш жараёнини бузилиши, ички бегоналашуви. Деперсонализация психик бузилишлар натижасида келиб чиқади. Респондентларимизда касбий стресснинг юқори ва ўрта даражалари намоён бўлаётганларининг натижаларини деперсонализация билан ижобий аҳамиятли корреляция берганлигининг боиси, шахсидаги сурункали стрессоген вазиятлар унинг ўз-ўзини бошқариш даражасига ўз таъсирини ўтказиши ва натижада педагогларда шахсий “Мен”нинг қадри пасайиб, ишга, атрофдагиларга, ҳатто педагогларнинг ўзига нисбатан совуққонлик юзага келади. Демак, деперсонализация сурункали касбий стресснинг натижасидир десак бўлади. Деперсонализация кўрсаткичининг касбий стресснинг паст даражаси билан тескари алоқани бериши (15 йилдан ортиқ иш стажига эга синалувчиларда) юқорида айтганларимизни яна бир бора исботлайди.

Касбий мотивациянинг пасайиши ва касбий стресс даражалари орасида корреляцион боғлиқлик аниқланмади. Аслида, касбий мотивациянинг пасайиши шахснинг ўз касбий фаолиятидан қониқмаслиги, ўзига паст баҳо бериши касбий компетентлигининг пастлигини англатади. Шахсий кузатувларимиз натижасида кўп ҳолларда касбий стресс “меҳнат фаолиятини моддий ва маънавий рағбатлантиришнинг етарли эмаслиги” оқибатида келиб чиқади, деб ҳисоблар эдик. Чунки педагоглардаги касбий мотивация ўз касбдан қониқиш ҳиссини пайдо қилса, у, албатта, стресс факторларга чидамли бўлади. Бироқ синалувчиларимизда мазкур икки ўзгарувчи орасида корреляцион алоқадорлик аниқланмади, буни И.А.Зимняя ажратиб кўрсатган шахсидаги касбий мотивациянинг компетенция даражаларини шаклландириш билан боғлаш мумкин:¹

–атрофдагиларга йўналганлик компетенцияси билан боғлиқ кадрятлар: яшаш тарзи, маданияти, педагогнинг асосий вазифасини англаши, педагог касбининг ижтимоий аҳамиятини тушуниши ва болаларни севиши;

–фуқаролик компетенцияси: ўз фаолияти учун масъулиятни ҳис қилиши, қарор қабул қилишдаги мустақиллиги, оптимизм, ўзига ишонч ва ўз-ўзига адекват баҳо;

–фаолият компетенцияси: ўз педагогик фаолиятини бошқара олиши ва лойиҳалай олиши.

Key words: *physical culture, student, science, research, topic, cognition, activity, prediction, experiment, theory, analysis, problem, pedagogical-psychological thinking, method.*

O'zbekiston Respublikasining oxirgi o'n yilligida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'sishida ulkan ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, ta'lim sohasini xorijiy tajribalar hamda zamonaviy yondashuvlar asosida uning sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qator mutaxassislar tomonidan turli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib, o'z sohasining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmonida "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan..." tizimni yaratish belgilangan bo'lib, uning mazmunida yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish hamda yuqori malakali mutaxassislar tomonidan talabalarga ilmiy yo'nalish sohasini o'rgatish orqali kelgusida yuksak kasbiy komponentga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalashni taqozo etadi.

Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishida talabalarni mutaxassislik bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga e'tiborni oshirish asosiy maqsad bu sohadagi ilmiy nazariyalarni boyitish, milliy va madaniyat boyliklariga ongli munosabatda bo'lish va tarixiy an'analar asosida jismoniy tarbiya tizimini ilmiy tadqiq qilish vositasida uning mazmunini boyitishdan iborat.

Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda jismoniy madaniyat ta'limining asosiy bosqichlaridan biri sifatida e'tirof etilib, u talabalarning tadqiqotchilik faoliyati aniq yo'nalishlariga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan va tizimli yondashuvlarga ega bo'lgan mexanizm hisoblanadi.

Biz tomonimizdan olib borilayotgan tadqiqotimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishining asosiy tayanch tushunchalarini quyidagicha izohlash maqsadga muvofiq deb hisobladik:

◆ Ilm – arab tilidan olingan bo‘lib, o‘qish, o‘rganish hamda hayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmuyi.¹

◆ Ilmiy mavzu – ilmiy tadqiqot talab etadigan, ma’lum sohaning dolzarb muammosi yechimiga qaratilgan ilmiy xarakterdagi vazifa.²

◆ Ilmiy tadqiqot – yangi bilimlarni ishlab chiqarish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga obyektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos.³

◆ Ilmiy bilish – oddiy bilishlardan farq qilib, u borliqdagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini, uning mohiyatini bilish.⁴

◆ Ilmiy faoliyat – obyektlar, hodisa (jarayonlar)ning xususiyatlari, o‘ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o‘rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlardan iborat.⁵

◆ Ilmiy bashorat, o‘z mohiyatiga ko‘ra, bir qancha turlarga bo‘linadi. Bularga dinamik va statistik qonuniyatlarga tayanib aytiladigan ilmiy bashoratlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin.⁶ Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida keyingi besh yoki o‘n yillikda bo‘lishi mumkin bo‘lgan jarayonlar.

Ilmiy tadqiqotning hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlash lozim. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog‘langan ikki qism – tajriba va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalaridan fanning o‘zidagina emas, balki ko‘pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham keng foydalaniladi.⁷

Yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish, ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish muammosi Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham keng yoritilgan bo‘lib, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida mamlakatimiz ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini takomillastirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat-e’tiborni yanada oshirish, o‘quvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish belgilangan.⁸ Bu borada Forobiy “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr yuritadi. Uning ta’kidlashicha, avval, bilish lozim bo‘lgan ilm o‘rganiladi – bu olam asoslari haqidagi ilm. Uni o‘rgatgach, tabiiy ilmlarni o‘rganish lozimligini uqdiradi.⁹

Darhaqiqat, boshqa fanlarda bo‘lgani kabi, jismoniy madaniyat ta’limi sohasida ham avval talabalarga kelgusi kasbiy faoliyatlarida yoshlarga o‘rgatiladigan asosiy fanlarning ham nazariy, ham amaliy tomondan bilimlar majmuyi berib boriladi. Shuningdek, ular ongida shakllangan ma’lum bir g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishlari uchun uning ilmiy tomonlari o‘rgatiladi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda, deb biladi. Ilmlarni egallashda shaxsda intilish qiziqish va muhit bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Bilim olishda tushunib o‘rganish, ilmiy tadqiqotchining ilmiy poklikka rioya etishiga alohida e’tibor beradi, jamiyat ravnaqi ma’-

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд, Т., ЎЭМ давлат илмий нашриёти, 2002, 704-бет.

² Рахимов Б.Х. Талаба-ёшларни илмий тадқиқот ишларига йўналтиришнинг ижтимоий-педагогик асослари. Дисс.пед.док., Тошкент, 2009, 21-бет.

³ Шу манба.

⁴ <https://fayllar.org/ilmiy-bilish-nima.html>

⁵ <https://advice.uz/uz/document/2349>

⁶ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ilmiy-bashorat-uz/>

⁷ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд, Т., ЎЭМ давлат илмий нашриёти, 2002, 704-бет.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги ПФ-6108-сонли “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони.

⁹ Хошимов К., С.Очил. Ўзбек педагогик антологияси. Т., “Ўқитувчи”, 1995, I жилд, 464-бет.

rifatning rivojiga bog‘liq, degan g‘oyani ilgari suradi. U fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o‘rganishga da‘vat etadi.¹

Bundan ko‘rinib turibdiki, shaxs o‘zi istagan sohani tanlashi va bu sohadagi barcha bilimlar majmuyini egallashi lozimligini bildiradi. Bizning jismoniy madaniyat sohasida tahsil oladigan talabalarning aksariyati shu sohaning yetuk mutaxassisi sifatida faoliyat olib borishlari uchun emas, balki boshqa soha vakili bo‘lish uchun tahsil oladilar. Buning ildizidagi asosiy muammo esa talabalarni, dastlab, jismoniy madaniyat ta‘lim yo‘nalishiga qabul qilingan va o‘quv mashg‘ulotlarini boshlagan kunidan ularga o‘qitiladigan fanlar va uning ilmiy jihatlarini mutaxassislar tomonidan to‘liq yetkazib berolmasliklari bilan izohlanadi.

Abu Ali ibn Sinoning “Tayr” qissasi. “Falsafiy qissalar” kitobida keltirilishicha, kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma‘rifatni egallashga da‘vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib, avlodlarga yetkazish kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo‘rqmasligi zarur, deydi.

A. Avloniy ilm egallash haqida fikr yuritarkan: “Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir. Agar aqlning qo‘li nafsingni jilovini ushlasa, seni yomon yo‘llarga kirmoqdan saqlar. Har narsa ko‘p bo‘lsa, bahosi arzon bo‘lur, ammo aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko‘paysa, shuncha qimmatbaho bo‘lur”, deb ta‘kidlaydi.²

U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u yoshlarni ilm sir-larini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm, agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo‘lida qo‘llanmasa, u o‘likdir.³

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish joizki, jismoniy madaniyat ta‘lim yo‘nalishida tahsil oladigan yoshlarni ilm o‘rganishga chorlash Sharq mutafakkirlari asarlari mazmunining yetakchi g‘oyalaridan biri hisoblangan. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlariga maqsadli jalb etish har bir jarayonda ongli, ijtimoiy faol ishtirokchisi sifatida o‘zini to‘laqonli namoyon etishiga zamin yaratadi. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish samaradorligi talaba tafakkuri darajasiga bog‘liq bo‘lib, tafakkur ilmiy asoslangan, mustaqil, mantiqiy bo‘lmog‘i lozim.

Tafakkurning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berishning yo‘l-yo‘riqlarini pedagog olim E.Z. Usmonova quyidagicha ko‘rsatgan:

- muammoning yuzaga kelishi va fikriy vazifaning shakllanishi;
- vazifa javobini izlash va uni topish;
- ushbu topilgan javobni subyektiv yangilikning ochilishi sifatida idrok etish;
- erishilgan javobning to‘g‘riligini isbotlash, uni boshqa kishiga asoslab berish, tushintirish.⁴

Jismoniy madaniyat ta‘lim yo‘nalishi talabalarining tafakkurini rivojlantirish, bilishga intilish, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish uchun omil hisoblanadi. Bu esa talabalarning pedagogik-psixologik imkoniyatlari boshqa yoshdagilarga nisbatan ko‘proq ekanini, olamni bilishga ishtiyoq kuchliligini bildiradi. Shuning uchun ham talabalarning shaxs sifatida shakllanishida asosiy bosqich bo‘lib xizmat qiladi.

Talaba shaxsining rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatiga ega. “Bu, eng avvalo, ularda o‘zini takomillashtirish istagining kuchayishi va o‘qishga bo‘lgan qiziqishining o‘sishi bilan xarakterlanadi”.⁵ Talabalik davrining eng muhim xususiyatlaridan biri mustaqil fikr yuritishga intilishning rivojlanishidir. Shuning uchun ham bu davrda faqat nazariy bilim bermasdan, turli amaliy vaziyatlarga munosabat bildirishni shakllantirish, ko‘proq izlanish, ijodiy yondashuv, tavakkur rivojiga e‘tibor qaratish lozim.

Jismoniy madaniyat ta‘limida tahsil oluvchi talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun ularda motivatsion maqsadlarni tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Motivatsion maqsad tadqiqot faoliyati uchun talabalar qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonining mustaqil tarkibiy qismi bo‘lib, talabaning shakllanishida tizimni tashkil etuvchi bo‘g‘in sifatida tadqiqot faoliyati predmetini tushunish bilan bog‘liq hisoblanadi.

¹ Рахимов Б.Х. Талаба-ёшларни илмий тадқиқот ишларига йўналтиришнинг ижтимоий-педагогик асослари. Дисс.пед.док., Тошкент, 2009, 24-бет.

² Абдуллаев Ю. Жаҳон олий мактаби: қиёсий таҳлил. Т., 2001, 288-бет.

³ Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. Т., “Ўқитувчи”, 1992, 22 – 23-бетлар.

⁴ Усмонова Э.З. Ўқувчиларда мустақил тафаккурни қандай шакллантириш мумкин? Т., Педагогика ва психология илмий-оммабоп нашри, 2000, 36-бет.

⁵ Фридман Л.М., Кулагина И.Ю. Психологический справочник учителя. М., “Просвещение”, 1991, с. 288.

Shuningdek, kasbiy kompetensiyani shakllantirish omili sifatida tadqiqot qobiliyati va tadqiqot tajribasini rivojlantirish bo'yicha obyektiv ravishda qo'yilgan maqsadni talaba kasbiy o'zini-o'zi anglash bilan uzviy bog'liq bo'lgan o'rganishning shaxsiy muhim maqsadi sifatida qabul qilishi va uni o'tashi kerak. Vazifa turli xil vositalar yordamida tashqi maqsadlarni talabaning o'qitishning jarayonini maksimal darajada faollashtirish bilan belgilanadi. Ushbu holatning natijasida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatiga qiziqishini shakllantirish, uning kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish rolini belgilash hamda anglash orqali ularning talaba shaxsiyati uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Avazova Mohinur Tohirovna (Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi)
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA DIDAKTIK JARAYONLARNI TASHKIL QILISH

***Annotatsiya.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik jarayonlarni tashkil qilishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy mohiyati tatqiq etilgan.*

***Аннотация.** Статья посвящена вопросам теоретической значимости использования инновационных технологий в организации дидактических процессов в дошкольных учреждениях.*

***Annotation.** The theoretical significance of the use of innovative technologies in the organization of didactic processes in preschool organizations.*

***Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, ta'lim-tarbiya, didaktik jarayon, "Ilk qadam", "Davlat talabarlari", pedagogik mahorat, pedagogik tajriba.*

***Ключевые слова:** дошкольное образование, обучение, дидактический процесс, "Первая ступень", "Государственные требования", педагогическое мастерство, педагогический стаж.*

***Key words:** preschool education, education, didactic process, "First step", "State requirements", pedagogical skills, pedagogical experience.*

Barcha sohalarida bo'lgani kabi, bugun mamlakatimizda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan maktabgacha ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, 2017-yil 30-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 3305-sonli qarorini imzolandi.¹

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 3032-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-avgustdagi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshirilmoqda.²

Ta'lim-tarbiyaviy ishning mazmuni metod va usullari hamda uni tashkil etish turlari, bolalar xulq-atvorini tarbiyalash mazmuni, ularda madaniy-gigiyenik malakalarni shakllantirish, bolalar mehnati va o'yinlariga rahbarlik usullari, bolaning bo'sh vaqti, ko'ngil ochar daqiqalarni tashkil etish, shuningdek, ota-onalar bilan ishlash turlari rejalashtirilishi lozim. Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo'llanilmasa, rivojlanish to'xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi.

Bugun har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifatli yo'lga qo'yilishi orqali biz kelgusida har taraflama taraqqiy etgan o'z fikri va tafakkuriga ega, dunyoning istalgan burchidagi tengdoshi bilan bemalol har sohada bahslashga oladigan yoshlarni tarbiyalashga erishishimiz mumkin. Buning uchun esa bolani o'z iqtidori va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilishga erishishimiz darkor. Aynan maktabgacha yosh davri bolalarda ota-onaga hurmat, do'stlik, insonparvarlik kabi qadriyatlarni shakllantirish, jamoa ichida o'zini boshqarish, mehnatparvar, halollik, rosto'ylik kabi qadriyatlarni shakllantirish, guruh ichida o'z menida mustahkam tura bilish, o'z xatti-harakatlarini ongli boshqarishni nazorat qilish, o'qishga ta'lim olishga qiziqishini uyg'otish, topshi-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 3305-sonli qarori.

² O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tayyorlash haqida"gi 3032-sonli buyrug'i. 5-bet.

riqlarni mustaqil bajarishga bilmaganlarini va o'zini qiziqtirgan narsalar to'g'risida savol berishga shakllantiradigan davr hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini o'quv-tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uning yechimini to'g'ri hal qila bilish, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish, qiyinchiliklarning to'g'ri yechimini topishga yo'naltirish lozim.¹

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar rivojlanadilar va ta'lim-tarbiya oladilar. Ularning sog'ligi mustahkamlanadi, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini hosil qiladi. Ularda mehnatga muhabbat uyg'onadi. Kattalarga hurmat, vatanparvarlik tuyg'ulari tarbiyalanadi. Bolalar maktab ta'limi uchun tayyorgarlik ko'radilar.

Bola bilimining rivojlanganligi uning jamiyat va tabiatdagi voqea-hodisalarni tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, hodisalarni to'g'ri nomlashi bilan aniqlanadi. Bola o'z fikrlarini ifoda eta bilishi kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko'rgazmali materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak. 6–7 yoshli bola oiladan tashqarida ham o'zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko'nikmalari o'z tengdoshlari bilan munosabatlar o'rnatishiga yordam beradi.

Bola mustaqil kiyinishni, ovqat yeyishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o'rganishi kerak. Bola kattalar mehnatining muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e'tibor bilan vaqtida bajarishi lozim.

O'qitishning har bir bo'limiga doir mashg'ulotlarni rejalashtirishda bilimlarni egallashning asosiy bosqichlari hisobga olinadi. Rejada bilimlar mazmunining takrorlanish ularni sekin-asta murakkablashtirish nazarda tutiladi. Istalgan bo'limga doir mashg'ulotlarni rejalashtirishda mazkur bo'lim bilan bog'langan asosiy ta'lim-tarbiyaviy masalalardan tashqari, dasturning boshqa bo'limlaridan ayrim masalalarni kiritish kerak. Mashg'ulotlarni bunday yaxlitlash ularning rivojlantiruvchi samarasini oshiradi.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, qattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo'lish odatlarini singdiradi. Ularda yaxshilik, haqiqatgo'ylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, qattalarning mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Azal-azaldan bolalar o'yin faoliyati orqali bir-biri bilan muloqotga kirishish, shu bilan birga, nutq ko'nikmalarining shakllanishi ham e'tirof qilinadi.

Didaktik o'yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga kerakligi bilan tanishtiribgina qolmay, balki shu narsalarning shakli, rangi, katta-kichikligi, fazoda tutgan o'rni haqida ham tanishtiradi

Maktabga tayyorlov guruhda didaktik o'yinlar hamma yosh guruhlaridagi kabi alohida o'rin tutadi va bu guruhda didaktik o'yinlar orqali quyidagi ta'lim-tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi: bolalarda didaktik o'yinlarga qiziqish uyg'otish, har bir narsani bilishga havas, kuzatuvchanlik, diqqat-e'tibor, ziyaraklik, aqliy vazifalarni mustaqil hal qilish malakasini tarbiyalash. Ularga narsalarni turkumlarga bo'lishda yordamlashuvchi o'yinlarni, doimo, musiqaning bar xil turlarini, shashka, sakrovchi bilyulkalarni jumboq o'yinlar, og'zaki o'yinlar ("Dengiz to'lqinlanmoqda", "Qora va oq"), ranglarni va ulardagi nozik ayirmalarni bir-biridan farqlashni o'rgatadigan o'yinlar o'tkaziladi. O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasi sifatida qaraladi. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi bolaning kundalik hayotida rang-baranglik kuzatiladi.²

O'ynayotgan bolani kuzatib, uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin. O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o'rin tutadi. Ko'pincha, o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini. Bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi.

Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg'ulotdagiga nisbatan murakkab masalani hal qilishi mumkin. Bu ta'lim butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak degan gap emas.

¹ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Toshkent, 2018.

² Axmedova X., G.Musulmonqulova. Bolangiz maktabga tayyormi? "Ma'rifat-madatkor", 2000, 44-bet.

Ta'lim turli usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yinda aqliy rivojlanish bilan birga axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O'yin jarayonida yuz bergan kechinmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin bolada yaxshi hislarni, ulug'vor orzular va intilishlarni, qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi uzviy bog'liqlik katta. Maktabgacha yoshdagi bolalar va maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'limining tarbiyalanuvchilari bilan olib boriladigan pedagogik jarayonlar ham, o'z navbatida, tarbiyachilardan kreativlikni talab qiladi. Aynan maktabgacha tayyorlov guruhlarida olib boriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari bilim olishga bo'lgan ehtiyojni yanada rivojlantirish bilan birga, ularda shaxslik sifatlarini shakllantirish, qobiliyatni yuzaga chiqarish, qiziqishlarini, shaxsiy-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ta'limga innovatsiyalarni kiritish, o'qitish metodikasini yanada takomillashtirishni taqozo qiladi.¹

Bolalarga bilim berishda ta'lim metodlari va ularni tanlash materialning mazmuniga, bolalarning yoshiga va tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Agar tarbiyachining oldida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni buyumlar, hayvonlar, qushlar bilan tanishtirish vazifasi tursa, ularni ko'zdan kechirish, kuzatish yoki tegishli suratlar, diafilmlardan foydalanish eng maqsadga muvofiq metodlardan biridir. Agar bolalar hayvonni bilsalar-u, lekin uning haqidagi tasavvurlarini aniqlash talab etilganda suratdan foydalanish maqsadga muvofiqdir; agar hayvonlarning xatti-harakati to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirish zarur bo'lsa, badiiy asarlardan foydalanish mumkin. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oddiydan murakkabga qarab o'qitilib boradi. Mahoratli tarbiyachi o'z ustida ishlab, yangiliklardan baxobar bo'lib, ilg'or ish tajribalarini o'qib o'rgansa, bolalar bilan o'tiladigan barcha mashg'ulotlari qiziqarli bo'ladi va ijobiy natijalarga erishadi.

Rasulova Zilola Durdimurotovna (Buxoro davlat universiteti

Texnologik ta'lim kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD); e-mail: zdrasulova@mail.ru)

DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB, TALABALARNING DARS DAN TASHQARI MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Maqolada oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining darsdan tashqari mustaqil ishlarini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish masalalari yoritilgan. Talabalarni faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalari keltirilgan. Talabalarning mutaxassislik fanlaridan mustaqil faoliyati jarayonida ijodiy rivojlanganlik darajasini avtomatik aniqlash va obyektiv baholashga doir dasturiy ta'lim vositalari ishlab chiqilgan.*

***Annotatsiya.** В статье рассматривается организация внеаудиторной самостоятельной работы студентов технологического образования в высших учебных заведениях на основе современных технологий. Представлены такие дидактические функции, как активизация учащихся и развитие у них навыков самостоятельного мышления. В процессе самостоятельной деятельности студентов по специальности разработаны программные средства обучения для автоматического определения и объективной оценки уровня творческого развития.*

***Annotation.** The article deals with the organization of extracurricular independent work of students of technological education in higher education institutions on the basis of modern technologies. Didactic functions such as activating students and developing their independent thinking skills are presented. In the process of independent activity of students in the field of specialization, software training tools for automatic determination and objective assessment of the level of creative development have been developed.*

***Kalit so'zlar:** zamonaviy axborot-aloqa tizimlari, mustaqil ta'lim, dasturiy ta'lim vositalari, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, innovatsion ta'lim, individual faollik, kreativlik, mobil dastur.*

***Ключевые слова:** современные информационно-коммуникационные системы, самостоятельное обучение, программные средства обучения, самостоятельное мышление, творческое*

¹ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tayyorlash haqida"gi 3032-sonli buyrug'i.

мышление, инновационное обучение, индивидуальная активность, креативность, мобильное приложение.

Key words: *modern information and communication systems, independent learning, software learning tools, independent thinking, creative thinking, innovative learning, individual activism, creativity, mobile application.*

Kirish. Bugungi kunda intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Ilm fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-aloqa tizimlari, vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta’lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasi qo‘yilmoqda.

Asosiy qism. Noan’anaviy ta’lim – talabalarni o‘z kasbiga qiziqtiruvchi, bilim doiralari kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalarni bajaradi.¹

Tajribalarda ta’kidlanganidek, agar mashg‘ulot odatdagi faqat tinglab o‘tirishga asoslangan usulda o‘tkazilganda, talabalar axborotning ko‘pi bilan 20 foizini o‘zlashtirgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilganda esa bu ko‘rsatkich 80–90 foizgacha oshganligi tasdiqlangan. Noan’anaviy ta’limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo‘ladi va mustaqil – ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi negizida bo‘lajak kasbiy faoliyatga oid boshlang‘ich ko‘nikmalar shakllantirilib, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni amaliyot bilan bevosita bog‘lab olib borishni ta’minlaydi.² Shuning uchun ham u rivojlantiruvchi o‘qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Talabalar darsdan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etishda ham o‘qituvchilarning tashabbuskorligi, mahorati muhim hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan dasturiy ta’lim vositalari, innovatsion texnologiyalar bugungi kun ta’limining istiqboli hisoblanadi. Shunday ekan, innovatsion ta’lim muhitini yaratish, o‘quv jarayonlarini raqamlashtirish bilan bog‘liqdir.³

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini talabalar tashabbusi va ijodiy faoliyatini tashkil etib bo‘lmaydi. Shuning uchun mustaqil ish o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Kasbiy ko‘nikmalar mustaqil faoliyat orqali tajriba orttirish bilan aniq shakllanadi. Talabalar mustaqil ishi bilim olish qobiliyatini rivojlantiradigan, talabaning o‘zini-o‘zi rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantiradigan tarzda qurilishi kerak. Bu, ayniqsa, ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishi sharoitida, mutaxassis ta’lim muassasasini tugatgandan so‘ng, o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan shug‘ullanishi kerak bo‘lganda, turli adabiy manbalarni mustaqil o‘rganish orqali o‘z bilim darajasini oshirishga to‘g‘ri keladi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham iqtisodiy-ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, shu jumladan, ta’lim sohasiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish eng ustuvor vazifa qilib belgilangan.⁴ Ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirishda talabalar darsda va darsdan tashqari mustaqil ishlarini masofadan tashkil etish talabalarida mustaqillikni, individual faollikni, tashabbuskorlikni, kreativ fikrlash kabi intellektual salohiyatlarini namoyish etishda yordam beradi.

Tadqiqotlardan shuni kuzatish mumkinki, talabalarni mustaqil ijodiy rivojlantirish masalasi bugungi kunda pedagog kadrlar tayyorlash tizimining dolzarb muammolaridan biri sifatida o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, amaldagi mavjud holati, o‘quv-metodik ta’minot va moddiy-texnik baza bugungi kunning innovatsion talablari darajasida shakllantirilmagan.

Oliy ta’lim muassasalarida “Texnologik ta’lim” yo‘nalishida o‘qitiladigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan to‘garaklar tashkil qilish va platformalar, ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda, talabalarining bo‘sh vaqtlarini unumli, sermazmun o‘tkazish, nafaqat fanga bo‘lgan, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini ham yanada orttiradi.⁵

¹ Xodjaye B.X. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo‘llari. T., TDPU, 2008, 65-bet.

² Parpiyev A., Marahimov A., Hamdamov R., Begimqulov U., Bekmuradov M., Tayloqov N. Elektron universitet. Masofaviy ta’lim texnologiyalari. Oliy ta’lim muassasalari uchun. O‘zME davlat ilmiy nashriyoti. T., 2008, 196-bet.

³ Razzoqov Sh.I., Yo‘ldoshev Sh.S., Ibragimov U.M. Kompyuter grafikasi. T., «Noshir» nashriyoti, 2013, 349-bet.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 29.12.2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

⁵ Rasulova Z.D. Talabalarining kreativligini rivojlantirishda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (texnologik ta’lim yo‘nalishi misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Diss., 2021, 126-bet.

Bunday mustaqil o'quv jarayonlarini amalga oshirishda darsdan tashqari ishlar (to'garak) ishlarni tashkil etish bundan mustasno. Darsdan tashqari ishlarning maqsadi, talabalarda dunyoqarashni to'g'ri shakllantirishda va tarbiyaviy-axloqiy kamol topishida zamin yaratadi, ularda mehnatsevarlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, iroda, intizom, aniqlik, faollik, maqsadga muvofiqlik, mustaqil fikrlash kabi qimmatli fazilatlarni shakllantiradi.

Quyida talabalarning darsdan tashqari mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil etishga doir ishlab chiqilgan "Kreativ pedagog" nomli to'garak ishidan lavhalar keltirilgan.



Ushbu to'garak ishi talabalarni ehtiyojini hisobga olgan holda, ijtimoiy tarmoqlar orqali tashkil etilgan bo'lib, o'qituvchi tomonidan fan doirasida talabalarga yetarlicha bilim, ko'nikmaga ega bo'lishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bunda talabalar mobil telefonidan ham unumli foydalanadi bema'lol tarmoqqa ulanib, o'qituvchi bilan muloqotni amalga oshirish mumkin.

Bunda dasturiy ta'lim vositalari alohida o'rin egallaydi. Dasturiy ta'lim vositalarining psixologik va fiziologik jihatdan samaradorligi, birinchidan, talabalarning o'quv materiallarini o'zlashtirishi, tarbiyalanganlik va intellektual rivojlanganligi, ishchanlik ko'rsatkichlari, motivatsion barqarorlik darajalari bilan belgilanadi. Ikkinchidan, o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, o'qitish konsepsiyalari, pedagogik texnologiyalari va ta'lim vositalaridan ratsional foydalanish ko'rsatkichlari, o'qituvchining mehnat faoliyatiga nisbatan barqaror motivatsiyasi, ish qobiliyati bilan belgilanadi.

Pedagogik dasturiy vositalar ishlab chiqishda qo'llaniladigan dasturiy ta'lim vositalar tizimining bir-biri bilan bog'liq bo'lishi uchun pedagogik dasturiy vositalar yaratilgan dasturlashtirilgan ta'minotga ega bo'lishi shart.¹

Shu o'rinda, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy faoliyatiga oid kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan dasturiy ta'limdan foydalanilgan holda darsdan tashqari ishlarini tashkil etish va ularni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini oshirish maqsadida amaliyotga joriy etilgan.

Talabalarni o'qitish jarayonida, kreativlikni rivojlanganlik darajasini avtomatik aniqlash va obyektiv baholashga, dasturiy ta'lim vositalardan amalda nazorat qilish imkonini beruvchi mezonlar va ko'rsatkichlar tanlanib, baholash vositalari sifatida foydalanilgan hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilganligi, nazariy materiallarni o'zlashtirish amaliy mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo'lib, o'qitishning elektron-dasturiy va metodik ta'minoti bo'yicha dasturlashtirilgan elektron didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi.²

¹ Muslimov N.A. Elektron darslik yaratish metodik tamoyillari va texnologiyalari. Infocom.uz, 2004, 62 – 66-betlar.

² Jo'rayev A.R. Dasturlashtirilgan ta'lim vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Diss., T., 2019, 144-bet.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim jarayonining muammolarini bartaraf etishda, fanlarning mobil dasturlarini ishlab chiqish, ulardan samarali foydalanishni tashkil qilish, talabalarning kasbiy faoliyatidagi ijodiy fikrlashiga oid texnologik bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Bundan tashqari, talabalarining motivatsiyasi va o'z-o'zini tashkil etishini rivojlantirishga yordam beradi va ularning o'zini namoyon qilishi, o'zini hurmat qilishi, maqsadni aniqlashi, rejalashtirishi, nazorat qilish va o'zini o'zi boshqarish operatsiyalarini tartibga solishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

O'z tajribalarini ijodiy nuqtayi nazardan yanada mustahkamlash va real amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko'nikmalarni innovatsion bilimlar asosida rivojlantirish maqsadida dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning takomillashtirilgan metodikasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilingan.

Bo'lajak mutaxassislarni mustaqil rivojlantirishdagi bilimlari nazariy mashg'ulotlarda, ko'nikmalar amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida, malakalar esa mustaqil ta'lim jarayoni va amaliy faoliyatda egalangani. Shuning uchun ijodiy bilimlarni rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlar ta'lim jarayonining muhim dars shakllaridan biri bo'lib, talabalar o'quv topshiriqlari majmuasini o'qituvchi rahbarligida bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlarining maqsadi – talabalar o'quv predmetining ilmiy-texnik asoslarini amaliy jarayonda o'zlashtiradilar, ijodiy faoliyat orqali ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar, texnik vositalar yordamida zamonaviy metodlar bilan amaliy ish bajaradilar, darsdan tashqari ishlar esa aynan talabalarning mustaqil ko'nikmalarini shakllantiradi.

Nazariy tushuncha berishda o'qituvchi kirish yo'riqnomasida faqatgina topshiriq maqsadini aytib o'tadi, keyin bosqichma-bosqich uni bajarishga qo'yilgan talablarini tushuntiradi. Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va uni bajarish metodlarini amaliy ko'rsatma asosida talabalar mustaqil mobil dasturdan foydalangan holda o'rganishlari mumkin. Bunday shakldagi dars jarayoni yaxshi o'zlashtirmagan talabalarga alohida vaqt ajratish va yordam berishga imkon tug'iladi, ishning to'g'ri bajarilayotganligini, talabalarning qanchalik tushunganliklarini kuzatish mumkin. Mobil dasturda ham amaliy ishlarni bajarish uchun metodik ko'rsatmalar ishlab chiqiladi, masalan, ishning maqsadi, ishni bajarishga oid kerakli nazariy ma'lumotlar, natijalarga qo'yiladigan talablar, topshiriqlar. Talabalar kiyim detallari konstruktsiya chizmasini ishlab chiqishda, amaliy ishlarni bajarish uchun metodik tavsiyanomalar va kompyuter dasturlaridan foydalanadilar.


Zamonaviy dizaynda kompyuter dasturlari muhim o'rinni egallaydi, chunki u innovatsion texnologiyaning rivojlanishi nuqtayi nazaridan, eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Kompyuter dasturlari mustaqil yo'nalishga asoslanib, ma'lumot bilan vizual ishlashga asoslangan (kompyuter grafikasi, WEB-sahifalar).

Ammo, kompyuter modellashtirishning istiqboli ajabli bo'lsa ham, dizaynda yangi modellarni yaratganda dizaynning roli kamaymaydi. Kompyuter hech qachon dizaynning o'rnini bosmaydi, u ijodkorni qo'lida faqat moslama sifatida qoladi (qalam yoki mo'yqalam kabi), loyihalashning ba'zi bosqichlarini tezlashtirib va yengillashtirib. Eng muhimi, kompyuter grafikasi dizaynning mohiyatini va ma'no qiymatini asoslaydigan yangi g'oyalar va tamoyillarni yarata olmaydi. Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalar darsdan tashqari mustaqil ishlarini tashkil qilish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimidagi eng muhim metodik muammo bo'lib, bu sohadagi vazifalarning samarali yechimi, oliy ta'lim tizimidagi o'qitish jarayonini innovatsion talablar va kompetentlikka asoslangan ta'lim sharoitida amalga oshirish bilan belgilanadi.

“Texnologiya fanini o'qitish metodikasi” fanidan yaratilgan mobil dastur. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi fanining mobil dasturi “Blended learning” (aralash ta'lim) innovatsion texnologiyasidan foydalanib, ishlab chiqilgan. “Blended learning” (aralash ta'lim) innovatsion texnologiyasi, an'anaviy ta'lim bilan masofaviy ta'limni birlashtiradi. Ushbu mobil dastur talabalarni, shuningdek, fanni mustaqil o'rganuvchilar uchun auditoriyada berilgan ta'limni yanada mustahkamlash, o'z ustida ishlashni osonlashtirish, o'zining reytingini belgilash, xohlagan paytida shaxsiy mobil telefoni yoki cho'ntak kompyuterlaridan foydalangan holda, 80–90% o'zlashtirish natijasiga erishish imkonini beradi.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunning globallashtirish jarayonida insonlarning mobil telefonlardan foydalanish ko'rsatkichlari kundan kunga ortib bormoqda. Obyektiv hayotimizning statistik tahlillariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, barcha yoshdagilar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida mobil telefondan huda-behuda samarasiz foydalanishini kuzatish mumkin.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi fani mobil dasturidan lavha



Yuqoridagi nazariy asoslardan kelib chiqqan holda, talaba-yoshlarning bo'sh vaqtlarida ta'limning asosiy komponentlarini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish maqsadida "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" fanining mobil dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, foydalanuvchi (talaba) dasturni o'zining shaxsiy mobil telefoniga, o'rnatadi, dars va darsdan tashqari mustaqil ta'lim jarayonlarida, ya'ni bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish maqsadida, masalan, avtobus va metro bekatlarida, ko'chada zarur bo'lgan hollarda bemaol foydalanishga mo'ljallangan.

Mobil dastur ilovasining bosh sahifasida dasturdan foydalanishning dastlabki holati keltirilgan bo'lib, "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" fanining ma'ruza mashg'ulotlari keltirilgan. Dasturning kirish qismida barcha kontentlar keltirilgan. Ma'ruza mashg'ulotiga kirish, mashg'ulotni rejalar asosida ketma-ketlikda o'rganish bosqichlari izohlangan.

Mobil telefonga o'rnatilgan dasturga kirganda, dasturning bosh oynasi namoyon bo'ladi. "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" fani mobil dasturi quyidagi kontentlardan tashkil topgan. Bosh sahifa, dastur haqida ma'lumot, mundarija, ma'ruza mashg'ulotlari, glossariy, testlar banki, adabiyotlar ro'yxati, mualliflar haqida ma'lumot.

Dastur o'zining oson o'qilishi, tushunarligi, barcha kerakli ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirganligi, o'rgatuvchi va nazorat testlarining har bir mavzusiga alohida tuzilganligi, barcha android qurilmalar uchun mo'ljallanganligi bilan boshqa mobil ilovalardan ajralib turadi. 5112100-Texnologik ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi umumkasbiy fanlar blokidagi "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" fanidan talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatini takomillashtirish va innovatsion kasbiy faoliyatidagi kreativligini rivojlantirish maqsadida fanning mobil dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilinib, talabalar va soha mutaxassislariga foydalanish tavsiya qilingan.¹

Darsdan tashqari mustaqil ishlar – olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli hisoblanadi. Mustaqil faoliyat muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qiladi, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil ish turlari bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqiladi.

¹ Rasulova Z.D. Talabalarning kreativligini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (texnologik ta'lim yo'nalishi misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Diss. 2021, 126-bet.

Texnologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarni sinfdan tashqari mustaqil bilim olishga qiziqtirish ularda ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan kasbkorlik sifatlarini kamol toptirishga chorlovchi muhim omil bo'la oladi. Sinfdan tashqari mustaqil ish faollik xususiyatiga ega bo'lganligi sababli, uning tarkibida faoliyatga xos bo'lgan tarkibiy qismlarni ajratish mumkin:

- ◆motivatsion aloqalar, aniq vazifani belgilash;
- ◆amalga oshirish usulini tanlash, bog'lanishni bajarish, nazorat qilish;
- ◆axborot yig'ish va qayta ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Talabalar mustaqil ta'lim olishga qiziqish uyg'otuvchi kuch, motiv sabablarga bog'liq holda, ular o'z oldilariga mustaqil ta'lim mazmunini tashkil etuvchi maqsad va vazifalarni belgilab oladilar. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Darsdan tashqari faoliyat olib borishda muhim hisoblangan siyosiy mustaqil ta'lim, zamonaviy voqelik va ularga bo'lgan munosabat.

2. Tanlagan yo'nalishi bo'yicha faoliyat olib borish, talabaning individual ta'lim olishlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan tayyorgarlik davridagi kasbiy mustaqil ta'lim.

3. O'quv fanlarini yanada chuqurroq o'rganishga, shaxsiy-hayotiy rejalari, shaxsiy qiziqish asosida yo'naltirilgan mustaqil ta'lim.

4. O'z iste'dodini va sevimli mashg'ulotlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan mustaqil ta'lim.

5. O'z xarakterini tarbiyalashga qaratilgan mustaqil ta'lim.

Xulosa. Darsdan tashqari mustaqil faoliyat talaba shaxsining rivojlanishida asosiy omil bo'lib, uning kelgusi faoliyatida mustaqil ishlay olish xususiyatlarini tavsiflovchi bo'lib xizmat qiladi. Darsdan tashqari ishlarning mazmuni mehnat xarakteriga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir etib, mustaqil faoliyat uchun imkoniyat topa olishiga bog'liq bo'ladi. Mustaqil faoliyat talabaning kelgusi faoliyati davomida o'z yo'lini belgilashning vositasi bo'lib, talaba o'z imkoniyatlarini baholay olishiga sabab bo'ladi.

Sinfdan tashqari mustaqil ishlar talabalar bilimlarini o'zlashtirishning faol usullariga yo'naltirishni, talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishni, ularning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, uzluksiz o'qitishdan individuallashtirilgan tayyorgarlikka o'tishni nazarda tutadi. Talabalarining mustaqil ishi ularning o'zini-o'zi rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantiradigan tarzda qurilishi kerak.

Abdirahmonov Lazizbek (UrDU)

BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARIDA O'Z-O'ZINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONINI SHAKLLANTIRISH

Annatsiya. Ushbu maqolada jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining pedagogik amaliyot davrida kasbiy-pedagogik mahoratini oshirishda mustaqil ta'lim va o'z-o'zini takomillashtirish faoliyat turlari, yo'nalishlari va shakllari keltirib o'tilgan. Spuningdek, amaliyotchi talabalar mutaxassislik fanlaridan tashqari, yana qanday bilim malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligi tahlil qilingan.

Аннотация. В статье приведены формы, направления и виды деятельности по самосовершенствованию и самостоятельной работе в повышении профессионально-педагогического опыта во время педагогической практики. А также, проанализированы те навыки и знания, которые студенты должны получить во время педпрактики помимо специальных дисциплин.

Annotation. The article illustrates types, aspects and forms of self-education and activities of self-improvement of the students of Physical Culture direction during the pedagogical practice in the development of professional-pedagogical skill. Moreover, the necessity for knowledge, experience and skills besides specialty disciplines of students has also been analyzed.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, malaka, ko'nikma, bilim, o'z-o'zini takomillashtirish, kasbiy amaliyot.

Ключевые слова: самостоятельная работа, опыт, навыки, знание, самосовершенствование, профессиональная практика.

Key words: Independent education, training, skills, knowledge, self-improvement, professional practice.

So'nggi o'n yillikda Respublikamizda va mintaqada ro'y berayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi o'zgarishlar bo'lg'usi mutaxassislarga yuqori talablarni qo'yish imkoniyatini ber-

moqda. Hozirgi zamonaviy mutaxassis yetuk kasbiy mahoratga ega bo'lishi bilan birga, yuqori ma'naviyatli, madaniy, intellektual bilimi doirasi jihatidan bilim malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Hozirgi kundagi ilmiy izlanishlar tahlili shu ko'rsatadiki, inson necha yoshga kirishidan qat'iy nazar, o'qish va o'rganishdan to'xtamasligi va buning uchun barcha imkoniyatlari mavjudligi tasdiqlangan. Bo'lajak pedagoglarni ularning qiziqishlaridan kelib chiqib, mustaqil ravishda o'qishga, axborotlarni tahlil qilish o'z-o'zini takomillashtirishga, qanday o'rgatish mumkin (eski bosma yozuvli va og'zaki metodlardan tortib, hozirgi zamonaviy informatsion vositalargacha), ularga mos keladigan qanday o'qish muhitini yaratish lozim va o'z-o'zini takomillashtirish faoliyati bilan uzluksiz ta'limni rivojlantirish mumkin – bularning hammasi kasbiy tayyorgarlik jarayonida turli xil shakl va iboralarda uchraydigan murakkab savollardir.

Mustaqil ta'lim va o'z-o'zini takomillashtirish oxirgi yigirma yil ichida pedagogikaning markaziy muammolaridan biriga aylandi. Ushbu muammo bo'yicha turli xil xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar, hatto xalqaro jurnallar tashkil qilingan.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari raqobatbardosh oliy malakali mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi sifatiga ta'sir etuvchi omillarning ko'plab muammolarini hal qilish zarurati tug'ilmogda. Davlat ta'lim standartlari va mehnat bozorining konyunkturasi oliy malakali mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan sifat talablari mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi. Bu o'z-o'zidan oliy ta'lim muassasalarida ta'lim mazmunini shakllantirishga yangicha yondashuvlarning ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning huquqlari hamda mas'uliyatini demokratlashtirish va kengaytirishda, o'quv dasturlari mazmunini belgilashda, oliy ta'limga talaba sifatida qabul qilinganidan to oliy ta'lim muassasasi diplomini olishdan keyingi kasbiy ta'limning barcha bosqichlarida izchillikning mavjud bo'lishida namoyon bo'lmoqda.

Kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanib borishi bitiruvchilardan o'z bilimi va saviyasini yanada takomillashtirishni, izlanuvchanlik va fikrlash qobiliyatini yuksaltirishni, fan, texnika va texnologiyalarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalana olishni talab qilmoqda. Bugun har bir davlat organi, korxonalar, muassasa yoki tashkilot rahbarlari xodim bilan ish bo'yicha shartnoma tuzishdan oldin uning ma'naviy-ahloqiy, siyosiy, huquqiy bilimlarini tekshirib ko'rish va tanlov asosida ishga qabul qilishi odatiy holga aylandi. Albatta, bu o'rinda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda sog'lom raqobat muhitini tashkil etilganligi muhim ahamiyatga ega. Aynan shu sababli, talabalarda mustaqil ishlash, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning yana bir zaruriy sharti mazkur holat bilan bevosita bog'liqdir.

Ta'lim tizimida mustaqil ishlar o'quv jarayonini tashkil etishning etakchi shakllaridan biri hisoblanadi. Aynan mustaqil ishlash davomida insonda mustaqil fikrlash, qo'yilgan maqsadga erishish, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish hislatlari shakllanadi. Shuningdek, o'z ustida ishlash natijasida talabada yangi bilimlarni qabul qilish, tizimga solish, ularni mustahkamlash jarayoni kechadi. Talabaning mustaqil ta'lim olishi unda o'z-o'zini tarbiyalash va bilimni rivojlantirishga bo'lgan ichki intilishni shakllantiradi, uni aniq maqsadga yo'naltiradi hamda ijodiy faoliyatini yuksaltiradi.

Amaliyotdan ham ma'lum bo'lyaptiki, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha nazariy bilimlarning yetishmasligi ta'lim-tarbiya samaradorligini pasaytiradi, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga qiziqishni kamaytiradi, talabalarda muntazam ravishda mustaqil ta'lim olishi va o'z-o'zini takomillashtirish, o'zini ustida shug'ullanishga ijobiy munosabatni singdirishga xalal beradi, o'quv jarayonining mustaqil ta'lim va o'z-o'zini takomillashtirish jarayoniga moslasha borishiga to'sqinlik qiladi.

Adabiyotlarni tahlillari natijalari asosida zamonaviy jismoniy madaniyat o'qituvchisi hozirgi zamon talablariga javob berishi uchun qanday bilim malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

- mustaqil fikrli;
- tashabbuskor;
- ma'suliyatli;
- har tomonlama tirishqoq;
- muammolarni mustaqil ko'rib yecha oladigan;
- hamma vaqt o'qish va o'rganish qobiliyatiga ega bo'lgan;
- jamoada ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi;
- jismonan yetuk va sog'lom turmush tarziga rioya qilishi.

Har bir talabaning o'quv-ijodiy faoliyatidagi muvafaqqiyati, avvalo, uning o'zini-o'zi boshqarish xususiyatiga bog'liq. Shaxsni aniq maqsad sari intilishi ohir-oqibat uni ongli ravishda mavjud intellektual va irodaviy kuch-g'ayratini, bilim, ko'nikma va malakasini mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etishga sa-

farbar etadi. Talaba o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini qo'llash orqali umume'tirof etilgan g'oyalarni tahlil qilib, yangi g'oyalarni ilgari surish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mustaqil fikrlash qobiliyati talabada umum qabul qilingan g'oyalar ortidan ko'r-ko'rona ergashmasdan, o'z nuqtayi nazariga ega bo'lish, uni himoya qila olish, boshqalarning fikrini tanqidiy tahlil qilish va baholash kabi fazilatlarni shakllantiradi.¹

Mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishda, o'quv-tarbiya jarayonining ahamiyatini oshirishda talabalarning mustaqil ishlari muhim o'rin egallaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday o'quv faoliyati tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nikmalar shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi tushuniladi.²

Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik amaliyotda kasbiy-pedagogik mahoratini oshirish va uni takomillashtirish uchun quyidagi mustaqil ta'lim olishi va o'z-o'zini takomillashtirish yo'nalishlarni belgilab oldik:

- kasbiy (o'quv fani);
- psixolog-pedagogik (o'quvchi va ota-onalarga yo'naltirilgan);
- psixologik (imij, muloqat, ta'sir etish madaniyati, liderlik qobiliyati);
- metodik (pedagogik texnologiyalar, o'qitishning shakli, metod va usullari);
- chet tillari;
- siyosiy;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalari;
- sog'lom turmush tarzi;
- ilmiy tadqiqot;
- qiziqish va xobbi;

Oliy o'quv yurtidagi mustaqil ta'limning foydali tomonlaridan biri shundaki, talaba o'quv dasturi va darsliklaridan tashqaridagi kasbi va ixtisosligiga aloqador bo'lgan bilimlarni ham izlab topishga, tajriba-sinovlar o'tkazgan holda yanada boyitishga erishadi. Bu, o'z navbatida, tashabbuskor, bunyodkor va ijodkor kadrlarning shakllanishiga turtki bo'ladi.

Mustaqil tahsilning vazifalari: shaxsning intellektual imkoniyatlarini yangilash, ularning g'oyaviy-nazariy saviyasini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirish kabilarni ichiga oladi.³

Mustaqil ta'lim talabalar o'rtasida ijobiy ma'nodagi raqobatni keltirib chiqaradi. Bir-biridan ibrat olgan holda o'zlarining aqlini, kuchini, vaqtini foydali faoliyat bilan shug'ullanishga yo'naltiradilar. Turli xil sport musobaqalari, tanlovlarga tayyorgarlik ko'rish, fan olimpiadalarida ishtirok etish va g'olib bo'lishga intilish, ilmiy-ijodiy ko'rgazmalarda qatnashish orqali talaba iste'dodining noma'lum qirralari ochiladi. Talabaning o'ziga, aqli va qobiliyatiga bo'lgan ishonchi ortadi.

Mustaqil ta'lim yoshlarning shaxs sifatida kamol topishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Unda xarakter xususiyatlarining barqarorlashuvi, ayniqsa, irodaviy sifatning mustahkamlanishi, o'z-o'zini boshqarish kabi fazilatlarning takomillashuvi ro'y beradi. Atrof-muhitdagi narsa va hodisalarga befarq bo'lmaslik, ularni to'g'ri baholay olish, o'zlarining mustaqil fikrlarini bildirish va dalillashga odatlanadilar.⁴

Pedagogika amaliyotida tadqiqotning quyidagi so'rov usullari keng qo'llaniladi: suhbat, intervyu olish va so'rovnomanidan foydalanish. So'rovnomaning to'g'ri tuzilishi, savollarning savodxonlik bilan, oqilona tayyorlanganligi, umuman, so'rovnomaning mazmundorligi ko'p jihatdan so'rovnomalar asosida fikr olish jarayonining samaradorligini belgilaydi.⁵

Amaliyotchi-talabalarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligiga bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi o'z-o'zini takomillashtirish jarayonini tashkil qiluvchi faoliyat turlari:

- muayyan bir teleko'rsatuvni tizimli tamosha qilish;
- davriy biron-bir pedagogik nashrni o'qish;
- metodik, pedagogik va jismoniy tarbiya va sportga ta'luqli adabiyot o'qish;

¹Ibragimov A.A. Tinglovchilarning mustaqil bilim olishi ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida. "Zamonaviy ta'lim", 2015, 12-son, 45-bet.

²N.N.Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, o'quv qo'llanma, 2006, 20-bet.

³Shu manba.

⁴Boltayeva M., Dadamirzayev F. Mustaqil ta'limni shakllantirishning metodologik asoslari. "Ta'lim muammolari", 2008, 1-son, 78 – 79-betlar.

⁵F.A.Kerimov. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Toshkent, "Zar qalam", 2004, 50-bet.

-internetdan pedagogika, psixologiya, pedagogik texnologiya va fanga doir ma'lumotlarni umumlashtirish;

–axborot kommunikatsion texnologiyalarini o'rganish;

–seminarlar, konferensiyalar, terninglar va amaliyotchi-talabalar darslarida qatnashish;

–bahs-munozara, majlis, amaliyotchi-talabalar bilan tajriba almashish;

–ochiq darslar o'tkazish;

–sinfdan va darsdan tashqari mashg'ulotlar tashkil qilish;

–jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi fani bo'yicha noan'anaviy, yechilishi qiyin bo'lgan masala, test, krossvord va boshqa vazifalarni yechish.

Shuni qayd etib o'tish zarurki, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifatiga ta'sir etuvchi kasbiy va psixologik-pedagogik omillarni o'rganib, tadqiq qilish va joriy etish talabalarni o'qitish jarayoni tartibli va optimal darajada samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlash borasida kasbiy va psixologik-pedagogik omillarni o'rganishda quyidagi nazariy-metodologik tadqiqot usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi:

–faoliyat nazariyasining psixologik-pedagogik konsepsiyasida konkretlashtirib berilgan tizimli va shaxsiy-faoliyatli yondashuvlarning umumilmiy qoidalari va tamoyillari;

–faoliyat nazariyasi, kasbiy o'z-o'zining taqdiri (maqsadi)ni belgilash nazariyasi, rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi, shaxsning kasbiy yo'naltirilganlik nazariyasi, pedagogik tadqiqotlar nazariyasi va metodikasi bo'yicha ishlarni olib borish.

Oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlash borasida amalga oshiriladigan bu chora-tadbirlar natijasida olinadigan ma'lumotlarning ishonchligini metodologik tamoyillar va metodlarning o'rganiladigan muammolar maqsadi hamda vazifalariga mos kelishi, olingan ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, o'rganish natijasida olingan ma'lumotlardan pedagogik amaliyotdan foydalanish bilan ta'minlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugun mamlakatimizda ta'lim tizimidagi islohotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar rejasini bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, ta'lim tizimida ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish, turli metodlar va usullarni qo'llash orqali talabalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, pirovard natijada esa ularni yetuk malakali kadr qilib tayyorlash bugungi kunning asosiy talabidir. Bunday vaziyatda ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatni to'g'ri tashkil etish g'oyat muhimdir. Demak, ta'lim samaradorligini ta'minlash pedagog o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. SHU bilan birga zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan asosiy maqsad ham mustaqil, o'z fikriga ega bo'lgan, yuksak ma'naviyatli shaxsni yetishtirishdan iboratdir. Zero, inson mustaqil intellektual va ma'naviy faoliyatdagina kamol topadi va shakllanadi.

Aliyev Iskandar Bahramovich (O'zMU, p.f.n., dotsent),

Masharipov Ravqat Madraximovich (UrDU o'qituvchisi)

KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI SPORTCHI-TALABALARDA VESTIBULOSOMATIK TURG'UNLIKNI OSHIRISH AFZALLIGI

Annotsatsiya. Maqolada kurash bilan shug'ullanuvchi sportchi-talabalarda vestibulosomatik turg'unlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili yoritilgan. Aniqlandiki, o'naqay kurashchilar boshni va tanani chap tomonga aylantirish ta'sirida o'z muvozanatini nisbatan uzoqroq vaqt saqlay olishi, lekin o'ng tomonga aylantirishda muvozanatni barvaqt yo'qotilishi yuz bergan ekan. Bosh va tanani yo'qotilishi yuz berar ekan. Bosh va tanani chap tomonga ham, o'ng tomonga ham uzoqroq vaqt aylantirish ta'sirida muvozanatni saqlay olish texnik mahoratni kuchaytirishi mumkin.

Аннотация. В статье произведен анализ результатов исследования уровня проявления вестибулосоматической устойчивости у спортсменов, занимающихся национальной борьбой кураши. Установлено, что у правосторонних курашистов при вращательных движениях головы и тела вправо сохранение равновесия тела более значительно, чем при вращении их влево. А у левосторонних курашистов наоборот. Предполагается, что устойчивое сохранение равновесия тела при вращениях как вправо, так и влево, может заметно улучшить техническое мастерство.

Annotation. The article analyzes the results of the study of the level of manifestation of vestibulosomatic stability in athletes involved in national kurash wrestling. It was found that right-sided kurashists

with rotational movements of the head and body to the right, maintaining the balance of the body is more significant than when rotating them to the right. And the left-handed kurashists have the opposite. It is assumed that maintaining a stable balance of the body during rotations both to the right and to the left can significantly improve technical skill.

Kalit soʻzlar: kurash, vestibulosomatik turgʻunlik, muvozanat saqlash, oʻnaqay, charapaqay, aylanma harakat.

Ключевые слова: борьба, вестибулосоматический застой, сохранение равновесия, приседания, правша, левша, круговые движения.

Key words: kurash, vestibulosomatic stagnation, balance, onaqay, charapaqay, circular motion.

Keyingi yillarda asrlar davomida mardlik, bagʻrikenglik, oliyjanoblik va halollikning timsoli sifatida eʼzozlanib kelingan, oʻzbek xalqining tarixiy merosi “Kurash” milliy sport turini qayta tiklashga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Davlatimizning bevosita qoʻllab-quvvatlashi natijasida kurash xalqaro sport turi sifatida keng eʼtirof etildi, “kurash”, “halol”, “taʼzim”, “toʻxta” va “yonbosh” kabi atamalar esa xalqaro sport lugʻati tarkibidan mustahkam oʻrin egalladi.

1998-yil 6-sentabrda taʼsis etilgan Kurash xalqaro assotsiatsiyasi bugungi kunda sayyoramizning beshta qitʼasidagi 129 ta milliy federatsiyani birlashtirgan.

2010-yilda Kurash xalqaro assotsiatsiyasi Olimpiya oʻyinlari dasturiga kiritish uchun buyurtma berishda muhim talab hisoblangan Jahon dopingga qarshi agentligining eʼtirofiga sazovor boʻldi.

2017-yil 20-sentabrda Ashxobod shahrida boʻlib oʻtgan Osiyo Olimpiya kengashining 36-Bosh asambleyasida “Kurash” milliy sport turi tarixda ilk bor XVIII yozgi Osiyo oʻyinlari dasturiga rasman kiritildi.

Kurash xalqaro assotsiatsiyasi va Oʻzbekiston Respublikasi kurashni xalqaro sport musobaqalari va turnirlari dasturlariga, kelgusida esa Olimpiya oʻyinlari dasturiga ham kiritish boʻyicha faol tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Kurash bilan shugʻullanuvchi talabalarni tayyorlash tizimini takomillashtirish oʻquv-mashgʻulot jarayonini tashkil qilish va mazmuniga, musobaqa faoliyatini rivojlanishi anʼanalari bilan mos ravishdagi maxsus tayyorgarlik vositalarini tanlashga yangi metodik yondashuvlarni izlab topishni talab qiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi. Kurash boʻyicha oʻtkaziladigan musobaqalarda bellashuv taqdiri ustuvor jihatdan nisbatan qisqa vaqt davom etsa-da, kurashchi oʻta taʼsirli vestibulosomatik yuklamalarni oʻzlashtirishi zarur boʻladi. Boshqacha qilib aytganda, kurashchi musobaqa davomida oʻz raqibi yengi va yoqasidan ushlagan holda, turli tomonlarga aylanish, raqibni koʻtarib, oʻng yoki chap tomonlarga burilish, hatto koʻpincha, aylanish elementlarini koʻp martalab bajarishga toʻgʻri keladi. Bunday vaziyat va holatlarda uning oʻzi ham, raqibi ham aylanish bilan bogʻliq shiddatli yuklamalarga duchor keladi. Ularning qaysi birida oʻng va chap tomonlarga “yuksiz va yuk bilan” aylanish qobiliyati yuksak rivojlangan boʻlsa, ana shunisi hujumni ham, himoyani ham samarali amalga oshirishi mumkin boʻladi. Oʻzga sport turlarida oʻtkazilgan ayrim tadqiqot natijalari qayd etilgan fikrni tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi maxsus ishlab chiqilgan funksional testlar yordamida kurash bilan shugʻullanuvchi talabalarda aylanma harakatlar taʼsirida muvozanat saqlash imkoniyatini oʻrganishga bagʻishlangan.

Tadqiqotning natijalari va muxokamasi. Tajriba natijalaridan maʼlum boʻldiki, kurashchi musobaqa davomida oʻz raqibi yengi va yoqasidan ushlagan holda, turli tomonlarga aylanish, raqibni koʻtarib, oʻng yoki chap tomonlarga burilish, hatto koʻpincha aylanish elementlarini koʻp martalab bajarishga toʻgʻri keladi. Ushbu funktsiya quyidagi funksional testlar asosida oʻtkazildi:

1. Diametri 1 m aylana chiziq ichida kurashchi holatida turib, oʻng tomonga maksimal marta aylanish: aylanish soni va vaqti aniqlanadi.
2. Shu test, faqat chap tomonga aylanish asosida qoʻllaniladi.
3. Oyoqlarni jipslashtirgan holatda tik turib, koʻzni yumib, boshni oʻng tomonga aylantirish: vaqt aniqlanadi.
4. Shu test, faqat chap tomonga boshni aylantirish asosida qoʻllaniladi.

Kurashda oʻta muhim aksariyat vaziyatlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlgan vestibulosomatik harakatlar yoki boshqacha qilib aytganda, tanani va boshni tezkor shiddatda aylanma harakatlantirish taʼsirida muvozanat saqlash qobiliyati ham tadqiqotda ishtirok etgan kurashchilarda oʻta sust shakllanganligi diqqatni tortadi. Jumladan diametri 1 m aylana chiziq ichida tanani oʻz oʻqi atrofida oʻng va chap tomon-

larga aylantirish ta'sirida (1- va 2-testlar) muvozanat saqlash vaqti ham, soni ham juda kam ko'rsatkichlar bilan qayd etildi.¹

Jadval

O'naqay va chapaqay kurashchilarda vestibulosomatik ko'rsatkichlarning shakllanganlik darajasi

$$\bar{X} \pm \delta_j$$

Funksional testlar	O'naqaylar	Chapaqaylar
Vestibuloxronometrik testlar:		
1 test – diametri 1 m aylana chiziq ichida kurashchi holatida turib, o'ng tomonga o'rtacha tezlikda aylanish:		
– soni (marta);	3,90±0,08	4,71±0,13
– vaqti (sek.).	5,42±0,12	7,63±0,24
2-test – shu test, faqat chap tomonga aylanib bajariladi:		
– soni (marta);	3,72±0,09	3,43±0,07
– vaqti (sek.).	5,64±0,14	4,95±0,11
3-test – tik turgan holatda oyoqlarni zich jiplashtirish, ko'zni yumib, o'ng tomonga boshni aylantirish ta'sirida muvozanat saqlash (sek.)	4,58±0,63	6,74±0,87
4-test – shu test, faqat boshni chap tomonga aylantirish asosida bajariladi (sek.)	6,54±0,94	5,14±0,72

Ma'lumki, o'naqay odamlar (kurashchilar ham) tabiatan chap tomonga oson buriladi va aylanadi, o'ng tomonga aylanish ular uchun o'ta noqulay hisoblanadi. Chapaqaylar esa, aksincha. Tadqiqotimizda ishtirok etgan o'naqay kurashchilarda aylana chiziq ichida o'ng tomonga aylinsh soni o'rtacha 3,90±0,08 marta bilan ifodalangan bo'lsa, bu ko'rsatkichni namoyish etish vaqti 5,42±0,12 sek.ni tashkil etdi. Chapaqay kurashchilarda esa ushbu ko'rsatkichlar muvofiq ravishda 4,71±0,13 marta va 7,63±0,24 sek. bilan ifodalandi. Ko'rinib turibdiki, aylanish vaqti o'naqay kurashchilarda ham, chapaqay kurashchilarda ham 2 test bo'yicha 4,95 sek.dan 7,63 sek.gacha miqdorni tashkil etgan bo'lsa, aylanish soni 3,43 martadan 4,71 marta bilan ifodalandi, xolos. Demak, barcha kurashchilar o'naqay yoki chapaqay bo'lishidan qat'iy nazar, o'ng tomonga ham, chap tomonga ham har sekundda, hatto bir marta aylana olmaganlar.²

3-test bo'yicha – “Tik turgan holatda oyoqlarni zich jiplashtirib, ko'zni yumib, o'ng tomonga boshni aylantirish ta'sirida muvozanat saqlash” o'naqay kurashchilarda 4,58±0,63 sek.ni, chapaqay kurashchilarda 6,74±0,87 sek.ni tashkil etdi. Shu testni (4 test), boshni chap tomonga aylantirib bajarish davomida muvozanatni saqlash vaqti o'naqay kurashchilarda 6,54±0,94 sek.ga teng bo'lgan bo'lsa, chapaqay kurashchilarda bu ko'rsatkich 5,14±0,72 sek.ni tashkil etdi.³

Demak, 1- va 2-test natijalaridan ham, 3- va 4-test natijalari ham shuni tasdiqlaydiki, o'naqay kurashchilar uchun tana va boshni chap tomonga aylantirish qulay hamda oson ekan, chapaqay kurashchilar uchun, aksincha, ular noqulay tomonga (o'naqaylar o'ng tomonga, chapaqaylar chap tomonga) tana va boshni aylantirish ta'sirida o'z muvozanatini yaxshi saqlay olmas ekanlar.

Xulosa. Yuqorida qayd etilgan natijalar tahlilidan aniqlandiki, tadqiqotda ishtirok etgan kurashchilarda statik muvozanatni saqlash o'ng va chap tomonlarga aylanma dinamik harakatlar ta'sirida tana muvozanatini saqlash imkoniyati o'ta zaif rivojlanganligidan darak beradi. O'ta muhim joyi shundaki, mazkur kurashchilar uchun oddiy holatda ham, kurashchi holatida ham noqulay tomonga tana va boshni aylantirish statik muvozanatning tezda barbod bo'lishiga (izdan chiqishiga) olib kelar ekan. Ehtimol qilindiki, noqulay tomonga bosh va tanani aylantirish funksiyasini maxsus mashqlar yordamida muntazam shakllantirib borish muvozanat saqlash jarayonini boshqaruvchi markaz-vestibulyar analizatorining funksional imkoniyatini oshirish bilan bir qatorda, kurashchilarda hujum usullarini o'ng tomondan ham, chap tomondan ham bir xil mahorat bilan ijro etish imkoniyatini yaratadi.

¹Исроилов Ш.Х., Пулатов Ф.А. Возможности симметричного развития право- и левосторонних двигательных функций у детей 7–10 лет в ходе эксперимента. «Известия» Тульского государственного университета. Физ-ра, Тула, 2014, с. 21 – 29.

² Казилов М.М. Пути оптимизации технико-тактических действий борца в связи с меняющейся устойчивостью позы противника. Автореф. дисс. ...канд.пед.наук, М., 1970, 16 с.

³ Пулатов А.А. Явление укачивания при занятиях волейболом и его влияние на результативность подач. В сб. статей международного конкурса «Лучшая научная статья – 2017». «Наука и прсвещение», Пенза, Россия, с. 215 – 218.

Matkarimov Azamat Farhod o'g'li (Urganch davlat universiteti stajor tadqiqotchi;
e-mail: azamat.m@urdu.uz)

TEKNOLOGIYA DARSLARIDA TALABALARNING ESTETIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada “transformativ faoliyat” tushunchasining ishchi ta’rifi keltirilgan. Texnologiya mashg’ulotlarida transformativ faoliyatni tashkil etish tamoyillari asosida talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirish taklif etiladi. Talabalarda estetik didni shakllantirishga qaratilgan transformatsion faoliyatni tashkil etish misollari aniqlangan tamoyillarga muvofiq keltirilgan.

Аннотация. В статье сформулировано рабочее определение понятия «преобразовательная деятельность». На уроках технологии предлагаются принципы преобразовательной деятельности. Приведены примеры организации преобразовательной деятельности, направленной на формирование у учащихся эстетического вкуса в соответствии с установленными принципами.

Annotation. The article formulates a working definition of the concept of “transformative activity”. Principles of transformational activity are suggested in technology classes. Examples of the organization of transformational activities aimed at the formation of aesthetic taste in students are given in accordance with the established principles.

Kalit so‘zlar: transformativ faoliyat, transformativ faoliyatni tashkil etish tamoyillari, estetik tarbiya, estetik did, talaba, texnologiya, dars, o‘qitish texnologiyasi.

Ключевые слова: преобразовательная деятельность, принципы организации преобразовательной деятельности, эстетическое воспитание, эстетический вкус, ученик, технология, урок, технология обучения.

Key words: transformative activity, principles of organization of transformative activity, aesthetic education, aesthetic taste, student, technology, lesson, teaching technology.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma’naviy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning zamonaviy bosqichi shaxs shakllanishida erkinlikni ta’minlashning yangi qirralari ochib berilayotganligi bilan tavsiflanadi.

Talaba shaxsining kasbiy bilim olishdagi yo‘nalishni ixtiyoriy tanlashi uchun sharoit yaratishda, avvalo, uni erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish muammosi hal etilishi lozim bo‘ladi.

Jahon pedagogika nazariyasida erkin fikrlovchi, mustaqil shaxsni shakllantirishning umumiy asoslari keng miqyosda tadqiq qilingan va ko‘plab natijalar qo‘lga kiritilgan. Zamonaviy ta’lim sharoitida estetik tarbiya insonning estetik fazilatlarini shakllantirish vositalaridan biri sifatida muhim o‘rin egallab kelmoqda.

Estetik tarbiya–shaxsiy qadriyat yo‘nalishini ta’minlashi, atrof-muhitga estetik munosabatni shakllantirishi bilan muhim. Kundalik faoliyatda go‘zallikni yaratish va hayotni yaxshi tomonga o‘zgartirish, ya’ni bu zamonaviy ta’limda estetik tarbiyaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Talabalarning estetik qobiliyatlarini rivojlantirishga asosiy ta’sir uni transformatsion faoliyatga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Transformatsion faoliyat – bu atrofda duniyoni shaxs ongida shakllangan ichki idealga muvofiq o‘zgartirish uchun materiallar, ma’lumotlar, energiyani o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat. Talabalarda bu faoliyatni texnologiya mashg’ulotlarida, ya’ni amaliy darslarda o‘qitish jarayonida tashkil etish mumkin. Buning natijasida, bir tomondan, estetik xususiyatga ega foydali va go‘zal narsalar yaratilsa, ikkinchi tomondan, talabalarda estetik did shakllanadi. Estetik didni shakllantirish transformativ faoliyatni tashkil etishning o‘ziga xos tamoyillari asosida amalga oshirilishi mumkin, ular orasida biz quyidagilarni ajratib ko‘rsatishni taklif qilamiz: bilimlarni birlashtirish prinsipi, ijodiy faoliyat prinsipi, mustaqillik prinsipi, iste’molchiga yo‘naltirilganlik prinsipi. Keling, ularni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Bilimlarni birlashtirish prinsipi. Bu tamoyil fanning turli sohalaridan bilimlarni obyektiv ravishda amalga oshirilgan integratsiyalashuvi bilan bog‘liq. U talabalar tomonidan umumiy va estetik madaniyatni rivojlantirishning global muammolari tizimidagi umumiy ilmiy, texnologik, pedagogik va boshqa masalalarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro bog‘liqligini ochib berish orqali amalga oshiriladi. Talabalarning boshqa o‘quv fanlarini (masalan, mahsulot tayyorlash texnologiyasi, buyumlarni badiiy loyihalash, informatika va boshqalar) o‘rganishda olgan bilimlari texnologiya amaliy mashg’ulotlarda transformativ faoliyatda qo‘llaniladi. Shu bilan birga, atrofda voqelikka estetik munosabat eng jadal shakllanadi, talabalarning estetik fazilatlarini rivojlanadi. Mahsulot tayyorlash texnologiyasi amaliy mashg’ulotlarda “Ish kiyimi

tikish” loyihasi doirasida “Fartukni modellashtirish” texnologiyasi amaliy mashg‘ulotning fanlararo mazmuniga misol keltiramiz.¹

Darsning maqsadi: fartukning eskizini chizish. Talabalar quyidagi ketma-ketlikda ishlaydi.

1-bosqich. Fartukning eskizini qurish. Har bir talabaning o‘zi fartukning modelini aniqlaydi va uning eskizini tuzadi.

2-bosqich. Fartukning rangini tanlash. Talabalar fartuk rangini maqsadiga qarab tanlaydilar.

3-bosqich. Fartuk uchun gazlama tanlash. Talabalar turli xil gazlamalardan fartuk modeli rangiga mos keladiganini tanlash taklif qilinadi.

Har bir bosqichda talabalar o‘z tanlovlarini tushuntirishlari kerak. Ish tugagandan so‘ng, eskizlar o‘qituvchiga baholash uchun taqdim etiladi.

Ijodiy faoliyat prinsipi. Talabalarga estetik tarbiya berish va ularning estetik qobiliyatlarini rivojlantirishda ijodiy faoliyat jarayonida shakllanadigan estetik did markaziy o‘rinni egallaydi. Keyin u barcha transformativ faoliyatni belgilash va boshqarish, uning intensivligi va sifatiga ta‘sir qilishni boshlaydi. Shuning uchun ham texnologiya fanini o‘qitishda talabalarda estetik didni shakllantirish alohida ahamiyatga ega, chunki texnologiya darslarida turli xil transformativ faoliyatni o‘z ichiga oladi, ularning asosiy maqsadlaridan biri talabalarning estetik ideallariga mos ravishda atrof-dagi dunyoni o‘zgartirishdir.

Estetika va ijodkorlar ishida, model, mebel eskizlarini ishlab chiquvchi dizayner va hokazolarda mavjud. Ijodiy faoliyatning barcha shakllari estetika qonunlariga bo‘ysunadi, ularsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Estetik asoslarni bilish. Masalan, 6-sinfda “Uy-ro‘zg‘or asoslari” bo‘limini o‘rganish, uning davomida ustaxonaga yoki xalq amaliy san‘ati muzeyiga ekskursiya o‘tkazish mumkin. Talabalar xalq amaliy san‘ati turlari, mahsulot namunalari (asosan, xalq amaliy san‘atining ko‘proq namunalari Qo‘qon, Qarshi, Buxoro, Shahrisabz, Xiva shaharlarida rivoj topgan) bilan tanishadilar. Jahonga mashhur bo‘lgan buyuk olim va mutafakkirlar Aristotel, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nosir Xisrav, Nizomiy Ganjaviy, Muslihiddin Sa‘diy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Bedil, Bobur kabilar kishilik madaniyati taraqqiyotining rivoji uchun o‘zlarining ilmiy-badiiy estetik madaniyati va ijodlari bilan katta hissa qo‘shganlar.

7-sinfda Servis xizmati yo‘nalishida “Pazandachilik asoslari” “Sabzavotlar”, “Xom va qaynatilgan sabzavotlardan tayyorlangan salatlar”. Talabalarni amaliy mashg‘ulotlarda salat tayyorlash mavzusida bezashni taklif qilish mumkin (sabzavot va mevalarni figurali kesish, idishlarni bezash uchun ishlatiladi). Talabalar ijodkorligi o‘quv jarayonini faollashtiradi.

T.N.Shamalo va A.P.Usolvevning ta‘kidlashicha, ijodiy jarayonda o‘z-o‘zini o‘rganish va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati rivojlanadi, talabalarning subyektivligi shakllanadi, bu nafaqat faoliyatda, balki mustaqillikda, qiyinchiliklarni yengish qobiliyatida ham namoyon bo‘ladi.²

Mustaqillik tamoyili. Talabalarning estetik didini samarali shakllantirish talabalarning atrof-dagi dunyo obyektlari va hodisalariga munosabati xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan mustaqillik tamoyili asosida amalga oshirilishi mumkin. Talabalar bu hodisalarni o‘z ongida aks ettiribgina qolmay, ularni o‘rganadi, estetik tomondan tahlil qiladi, estetik qiymatini belgilaydi va buning uchun atrof-muhitni baholashga o‘z munosabati, o‘z pozitsiyasi bo‘lishi kerak.

Biroq V.A.Krutetskiyning ta‘kidlashicha, estetik madaniyat yetarli darajada rivojlanmagan va tashqi tomondan nosog‘lom ta‘sirga ega bo‘lgan estetik mulohazalar mustaqilligiga intilish ba‘zan katta yoshdagi talabalarda noto‘g‘ri, yetuk bo‘lmagan estetik g‘oyalarni shakllantirishga kirishishiga olib keladi. Boshqa tomondan, talabalarda xos bo‘lgan tanqidiy fikrlash, mustaqillik va o‘zini-o‘zi tasdiqlashga intilish, o‘z shaxsiyatini o‘zini namoyon qilish, estetik madaniyat va mulohazalarga ega bo‘lish zarurati o‘ziga xos bo‘lishga, ularni aylantirishga intilishda ifodalanadi.³ Shu sababli estetik tarbiyaga yetarlicha e‘tibor berilmasa, talabalarda yomon xulq-atvor paydo bo‘lishi mumkin.

Iste‘molchiga yo‘naltirilganlik prinsipi. Mahsulotga bo‘lgan talab bevosita uning sifatiga bog‘liq bo‘lib, uning muhim ko‘rsatkichi mahsulotning estetik xususiyatlari hisoblanadi. Chiroyli va yoqimli narsalarni iste‘mol qilishdan hissiy qoniqish tufayli mahsulotning estetik ehtiyojlarni qondirish qobiliyati

¹ O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi respublika ta‘lim markazi. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent, 2017.

² Shamalo T. N. Maktab o‘quvchilarining subyektiv faoliyatini rivojlantirish diagnostikasi. T.N.Shamalo, A.P. Usolvev. “Ta‘lim va fan”, 2010, 6-son.

³ Krutetskiy V.A. Maktab o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash psixologiyasi. O‘qituvchilar va sinf o‘qituvchilari uchun kitob. M., “Ta‘lim”, 1976, 303-bet.

uning estetik qiymatini belgilaydi. Tovarlarni estetik baholashning o'ziga xos xususiyati shundaki, go'zalik tushunchasi nafaqat tashqi ko'rinishning jozibadorligi (uning geometrik shakli, rangi, naqshlari) bilan bog'liq bo'lib, balki u insonlarning ehtiyojlarini to'liq qondirish qobiliyati bilan aloqador. Boshqacha aytganda, mahsulotning go'zalligi uning iste'mol qiymati bilan chambarchas bog'liq.

Obyektlar (mahsulotlar)ni ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqaruvchining talablarini hisobga olish juda muhimdir. "Texnologiya" amaliy mashg'ulotlarida estetik tarbiya vazifalarini jamiyatni yanada rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari bilan bog'lash yosh avlodning estetik rivojlanishining ahamiyatini oshiradi.

Mijozlarga e'tibor qaratish tamoyilini amalga oshirish misolini 8-sinfda "Dizayn haqida tushuncha" mavzusidagi texnologiya darsida topish mumkin.¹ O'qituvchi dizaynning asosiy qoidalarini (dizayn obyekti, interyer dizayni tarixi, rejalashtirishning umumiy tamoyillari, yorug'lik va rang, interyer komponentlari, pardozlash materiallari va jihozlari, muhim binolarning ichki dizayn xususiyatlari, maqsadiga qarab ichki bezatish va boshqalarni) o'rganadi). Ushbu materialni o'rganib chiqqandan so'ng, talabalar besh bosqichdan iborat ijodiy loyiha o'yinini bajarishga taklif qilinadi.

1. Binolarning tartibini loyihalash.
2. Xonaning uslubini tanlash.
3. Mebelni tanlash va joylashtirish.
4. Yoritish moslamalarini tanlash va joylashtirish.
5. Ichki loyihani mijozga yetkazib berish (qisqa).

Pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi uch o'lchamli modelda kvartiraning ichki dizaynini yakunlashdir. Har bir talabaga rol beriladi – "dizayner" yoki "Mijoz". "Buyurtmachi"ning vazifasi xonaning tartibini, ichki makon uslubini, mebelni joylashtirishni, yoritish moslamalarini tanlash va joylashtirishni aniqlashdan iborat.

"Dizayner"ning vazifasi quyidagicha: "mijoz" bilan birgalikda u xonaning kelajakdagi ichki qismini tashkil etadigan eng qiziqarli g'oyalar va dizaynlarni aniqlaydi. "Dizayner" tomonidan interyerni ishlab chiqishda turli xil materiallardan foydalanish mumkin (mato, devor qog'ozi, va boshqalar). Ichki reja birinchi yig'ilishda "mijoz" bilan muhokama qilinadi, so'ngra "dizayner" ishni bosqichma-bosqich amalga oshiradi va ichki loyihani "mijoz"ga xonaning tayyor ichki qismining qisqacha tavsifi bilan yetkazib berish bilan yakunlanadi. .

Tanlangan tamoyillarni hisobga olish talabalarning transformatsion faoliyatini tashkil etish, estetik didni shakllantirish imkonini beradi, bu esa kelajakda talabalarning mustaqil faoliyatini belgilaydi.

Allaberganova Muyassar Rimberganovna (TATU Urganch filiali assistent o'qituvchisi; amuyassar83@gmail.com),

Kamilova Saboxat Qavuljonovna (TATU Urganch filiali stajyor o'qituvchisi; kamilovasaboxat55@gmail.com),

Oloberganova Muyassar Davlatboy qizi (TATU Urganch filiali talabasi; oloberganovamuyassar@gmail.com),

Ravshanqulov Abbas Ravshanqul o'g'li (TATU Urganch filiali talabasi; ravshanqulovabbos3@gmail.com)

COURSELAB DASTURI ASOSIDA MULTIMEDIALI ELEKTRON TA'LIM RESURSI YARATISH USLUBIYOTI

Annotatsiya. Ushbu maqolada "LATEXga kirish" fanidan mustaqil ta'limni elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda o'zlashtirish haqida materiallar berilgan. "LATEXga kirish" fanidan "Matematik formulalar bilan ishlash" mavzusi misolida Courselab dasturi asosida multimedial elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyasi ham ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье представлены материалы по изучению самостоятельного обучения по предмету "Введение в LATEX" с использованием электронных образовательных ресурсов. Также разработана технология создания мультимедийных электронных учебных ресурсов на примере программы Courselab по теме «Работа с математическими формулами» в LATEX.

Annotation. This article presents materials on the study of independent learning in the subject "Introduction to LATEX" using electronic educational resources. Also, a technology for creating multimedia

¹ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi respublika ta'lim markazi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, Toshkent, 2017.

electronic educational resources was developed using the example of the Courselab program on the topic "Working with mathematical formulas" in LATEX.

Kalit so'zlar: *elektron ta'lim resurslari, courselab, multimedia, kreativlik, innovatsiya.*

Ключевые слова: *электронные образовательные ресурсы, courselab, мультимедиа, креативность, инновация.*

Key words: *electronic educational resources, courselab, multimedia, creativity, innovation.*

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi oliy ta'lim hamda akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlarda ta'lim olayotgan talabachilar oldiga shu rivojlanishga mos bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlarini taqozo qilmoqda.

Talaba-yoshlarga texnika va texnologiyalarning yangi yutuqlarini o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilish uchun ularni o'qitish usullarini tubdan yangi pog'onaga ko'tarish zarurati davr talabi bo'lib qolmoqda. Bu muhim vazifani hal etishda kundalik turmushda jadal sur'atlar bilan kirib kelayotgan zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar, elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish muhim rol o'ynashi muqarrardir.

Dars jarayonining samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Shunday ekan, axborot texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish uchun elektron ta'lim resurslari kreativ va innovatsion sifatlarga ega bo'lmog'i lozim. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etmasdan ta'lim tizimini taraqqiy ettirib bo'lmaydi.

Bugungi kunda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda multimediali elektron ta'lim resurslari ishlab chiqarishga qaratilmoqda. Oliy ta'limda fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan elektron ta'lim resurslarning interaktivligi, multimedia manbalariga boyligiga asosiy e'tiborni qaratish kerak.

Elektron o'quv resurslari – davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan talablar asosida axborot texnologiyalari yordamida ishlab chiqilgan va joriy qilingan elektron ko'rinishdagi o'quv-metodik manbalar, didaktik vositalar va materiallar, mezonlarini o'z ichiga oladi. Elektron ta'lim resurslari yordamida darslarni tashkil etish jarayoni, bunda talabalarning olayotgan bilimlarini nafaqat eshitish, balki ko'rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g'oya va mazmunini chuqur anglab etishlariga samarali yordam beradi. Elektron ta'lim resursi yaratishda hozirgi kunga kelib, erkin va ochiq kodli dasturiy mahsulotlardan foydalanilmoqda. Ulardan biri CourseLab mualliflik dasturiy mahsulotidir.

CourseLab – bu foydalanuvchi uchun qulay dasturiy vosita bo'lib, e-learning texnologiyalar qatoriga kiradi. Bu dastur internet tizimida, masofaviy ta'lim tizimlarida va har qanday axborot saqlash vositalarida ishlatish uchun mo'ljallangan interaktiv ta'lim resurslari tayyorlash uchun mo'ljallangan kuchli va ishlatish oson bo'lgan dasturiy vositadir.

Hozirgi vaqtda CourseLab dasturining turli versiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, jumladan, CourseLab 2.7 va CourseLab 3.1 versiyalari keng qo'llaniladi.

CourseLab dasturining asosiy imkoniyatlari quyidagicha:

◆WYSIWYG tizimida ko'rish va natijalarni olish mumkin bo'lgan ta'lim resurslarini yaratish va tahrir qilish;

◆elektron o'quv resursi tayyorlovchidan HTML yoki boshqa dasturlash tillarini bilishni talab qilmaydi;

◆obyektiv yondashish har qanday murakkablikdagi ta'lim materiallarini yaratish imkonini beradi;

◆murakkab mavzularni tushunishda qulay ta'lim materiallarini yaratish imkonini beradi;

◆testlarni avtomatik yaratish mexanizmiga egaligi;

◆ochiq obyektiv interfeys obyekt va shablonlar kutubxonasi va foydalanuvchi yaratgan kutubxonalarini osonlikcha kengaytirish imkonini beradi;

◆obyektlarni animatsiyasi ko'rinishda namoyish etilishi;

◆elektron o'quv kurslariga har qanday Rich-medianing har qanday turini – Macromedia Flash, Shockwave, Java va videoformatdagi fayllarni joylashtirish imkonini beradi;

◆musiqalar va turli ovozlarni joylashtirish va sinxronlashning oson mexanizmlariga ega;

◆Microsoft Power Point formatidagi taqdimotlarni o'quv materialiga joylashtirish imkoniyati.¹

¹ Гончаров А.В., Еремина А.В. Создание тестов в редакторе электронных учебных курсов Course Lab. Владимир, ВГГУ, 2009, 23 с.

CourseLab dasturi yordamida yaratilgan o'quv resurslari ishlatilish turiga qarab, elektron ta'lim ta'limning AICC LMS, SCORM 1.2 va SCORM 2004 (SCORM 1.3) standartlarga mos keladi.


CourseLab dasturida elektron multimediali o'quv resursini ishlab chiqishda ko'pgina imkoniyatlar mavjud, masalan, dasturdagi turli xil shablonlardan foydalanishi yoki o'ziga moslab, yangi dizayn yaratishi mumkin.

“Matematik formulalar bilan ishlash” mavzusida elektron multimediali ta'lim resursi ishlab chiqishda zamonaviy dizayn ko'rinishida, mavzuni o'zlashtirishda talabalar oson va tez tushunishi uchun ta'lim resursi sodda va qiziqarli tarzda ishlab chiqildi:



1-rasm. Elektron ta'lim resursini ishga tushirish oynasi.

“Matematik formulalar bilan ishlash” mavzusining multimediali elektron resursini yaratishda ma'lumotlar tarkibi quyidagicha tuzib olindi:



2-rasm. Elektron ta'lim resursi mundarijasi oynasi.

Elektron ta'lim resursiga “Matematik formulalar bilan ishlash” mavzusiga oid ma'ruzalar, video materiallar bilan tanishadi. Amaliy mashg'ulot uchun mashqlar qismida talabalar mavzuga oid topshiriqlarni bajaradi. Nazorat testi qismida mavzu bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlaydilar. Foydalanilgan adabiyotlar bo'limida mamlakatimizda va xorijda chop qilingan adabiyotlar, internet manbalari qismida mavzuga doir havolalar joylashtirilgan.



3-rasm. Mavzuni mustahkamlash yuzasidan test savollari muloqot oynasi.

Yaratilgan test savollari CourseLabda bor bo‘lgan barcha test turlarini o‘z ichiga oladi:

- ◆Multiple choice (bir tanlovli javob);
- ◆Multiple select (ko‘p tanlovli javob);
- ◆Ordered items (javoblarni to‘g‘ri ketma ketlikda joylashtirish);
- ◆Numerical fill-in-blank (sonli ifodani kiritish);
- ◆Matching pairs (juftliklarni to‘g‘ri tanlash).¹



4-rasm. Test natijasi muloqot oynasi.

Yaratilgan multimediali elektron ta‘lim resursi oliy ta‘lim moodle platformasiga joylandi. Talabalar elektron resursdan foydalanish uchun kompyuter, telefon, planshetlari orqali moodle platformasi yordamida kiradi. CourseLab dasturida ishlab chiqilgan multimediali elektron ta‘lim resursdan foydalanadi.

Xulosa. Hozirgi taraqqiyotning jadal suratlarda rivojlanish sharoitida o‘qituvchi innovatsion uslublardan foydalangan holda, dars o‘tishi zarurati tug‘ildi. Innovatsion usulda dars berishning turlaridan

¹ Руководство пользователя CourseLab 2-http://www.courselab.ru/db/courselab/290EFF248EE00_2B7C3257186003A18E2/doc.html

biri elektron multimediali ta'lim resursi yordamida ta'lim berishdir. Ayniqsa, "Latexga kirish" faniga oid mavzularni elektron multimediali ta'lim resursi asosida ta'lim berish o'z samarasini beradi. Buning uchun elektron ta'lim resurslarini yaratuvchi maxsus dasturlardan foydalanish kerak.

Xulosa qilib aytganda, mavjud barcha fanlarni CourseLab dasturidan foydalangan holda, nafaqat o'quv mashqlari, balki testlar yaratish, multimediali ma'ruzalar yaratishda foydalanilsa, ta'lim samaradorligining oshishiga olib keladi.

Ibraximov Sanjar Urunbayevich (O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: sanjar.ibraximov@mail.ru)
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK SPORT MURABBIYLARINI SPORTCHILAR GURUHIDAGI ZIDDIYATLARNI BARTARAF ETISHGA KASBIY PEDAGOGIK TAYYORLASH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida bo'lajak sport murabbiylarini sportchilar guruhidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga kasbiy pedagogik tayyorlashlar haqida fikr yuritilgan bo'lib, pedagogik jarayonda ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan o'ziga xos jihatlar bayon etilgan.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается профессионально-педагогическая подготовка будущих спортивных тренеров к преодолению конфликтов в коллективе спортсменов на основе акмеологического подхода, а также описываются конкретные аспекты, направленные на преодоление конфликтов в педагогическом процессе.*

***Annotation.** This article discusses the professional and pedagogical training of future sports coaches to overcome conflicts in a team of athletes based on the acmeological approach, and also describes specific aspects aimed at overcoming conflicts in the pedagogical process.*

***Kalit so'zlar:** akmeologik yondashuv, kasbiy pedagogika, loyihalash, pedagogik ziddiyatlar, kasbiy mahorat, ziddiyat tushunchasi, sport akmeologiyasi.*

***Ключевые слова:** акмеологический подход, профессиональная педагогика, проектирование, педагогические противоречия, профессиональное мастерство, понятие противоречия, спортивная акмеология.*

***Key words:** acmeological approach, professional pedagogy, designing, pedagogical contradictions, professional skills, concept of contradiction, sports acmeology.*

Akmeologiya shaxsning imkoniyatlarini o'rganuvchi va ro'yobga chiqaruvchi soha bo'lib, asosan, kasbiy mahorat bilan bog'liq holda talqin etiladi. Shaxs, uning faoliyat subyekti sifatidagi o'rni, o'z faoliyatida yuksaklikka erishishi, kasbiy faoliyatning turli bosqichlarida rivojlanishi akmeologik yondashuv doirasida o'rganiladi.

Jimoni tarbiya akmeologiyasi predmetlararo xarakterga ega bo'lib, pedagogika fanning nisbatan yangi tarmog'i hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport akmeologiyasi sport murabbiylarining sportchilar bilan o'zaro munosabati va kasbiy yetuklik darajasini o'rganadi. Sport murabbiylarining sportchilar bilan amalga oshiradigan ijodiy faoliyatini rivojlantirish asoslari va yo'nalishlari ham sport akmeologiyasi doirasida ilmiy jihatdan asoslanadi. Shu jumladan, sportchilar orasidagi turli ziddiyatlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va qarama-qarshiliklarning oldini olish va bartaraf etish sport murabbiylarining kasbiy yetukligiga bog'liq. Bunday kasbiy yetuklikka erishish jarayoni akmeologik yondashuv asosida tashkil etilishi lozim. Shunga ko'ra, jimoni tarbiya va sport akmeologiyasi o'zining aniq maqsadiga ega.

Ma'lumki, kasbiy pedagogik faoliyatni egallash jarayoni shaxsning muntazam tarzda rivojlanishini taqozo etadi. Kasbiy faoliyatni takomillashtirish jarayoni ilmiy asosda tashkil etilgandagini kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Bo'lajak mutaxassisning o'z-o'zini rivojlantirishi oliy pedagogik ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Aynan akmeologiya bo'lajak sport murabbiylarini kasbiy rivojlantirish shart-sharoitlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Shu maqsadda jismoniy tarbiya va sport akmeologiyasi o'zining aniq vazifalariga ega bo'lishi lozim.

Sport akmeologiyasi fani o'qib o'zlashtirish jarayoni bo'lajak sport murabbiylaridan quyidagi bilimlarni egallash talab etiladi:

- zamonaviy O'zbekiston jamiyati sport murabbiylari oldiga qo'yayotgan kasbiy talablarni;
- sport yo'nalishidagi pedagogik faoliyatning o'ziga xos jihatlarini;
- sport pedagogikasining asoslarini.

Ushbu bilimlarni o'zlashtirish natijasida bo'lajak sport murabbiylari quyidagi ishlarni amalga oshira olishlari kerak:

- o'zlarining pedagogik layoqatlarini rivojlantira olishlari;
- murabbiylik kasbini egallashlariga to'sqinlik qiladigan jihatlarni bilishlari va bartaraf eta olishlari;
- kasbiy rivojlanishlariga to'sqinlik qiladigan sabablarni bilishlari va uni tahlil qila olishlari;
- o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik vositalar va meodlarni tanlay olishlari;
- sportchi o'quvchilar va talabalar orasidagi ziddiyatlarni bilishlari va ularni tahlil qila olishlari;
- sportchilar orasida vujudga keladigan ziddiyatlarni asl sabablarini o'rganishlari va ularni bartaraf etish metodikasini o'zlashtirishlari.

Bo'lajak sport murabbiylari akmeologik yondashuv asosida o'z-o'zini rivojlantirish sohasidagi pedagogik qarashlarni har tomonlama chuqur o'rganishlari zarur. Mazkur yondashuvlar ko'plab mutaxassis-larning ishlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, B.Ma'murov,¹ N.V.Kuzmina,² B.G.Ananyev³ kabilar shular jumlasidandir.

Sport akmeologiyasi turlicha tasniflarga ega. Jumladan:

- akmeologiya – sport murabbiylarini tayyorlash sharoitlari, omillari, stimullarini o'rganuvchi soha;
- sport murabbiylarini tayyorlash jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan, ularni o'z-o'zini rivojlantirishning ijodiy imkoniyatlarini o'rganuvchi soha.

Bo'lajak pedagoglarning o'z kasbiy rivojlanishida yuksaklik sari harakat qilishini ta'minlash maqsadida ularning ijodkorlik, yaratuvchanlik quvvatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan mada-niyat, adabiyot, san'at, fan va texnika yutuqlarini o'z ichiga olgan bilimlar taqdim etiladi.

Mavjud nazariy yondashuvlarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya va sport akmeologiyasi O'zbekiston pedagogika fani uchun shakllanish va rivojlanish bosqichiga kirgan yangi yo'nalish hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport akmeologiyasi o'zining muayyan yo'nalishlariga ega bo'lib, ularni tasniflash zaruriyati mavjud. Jismoniy tarbiya va sport akmeologiyasi pedagogika fanining mustaqil yo'nalishi sifatida an'anaviy, fundamental va amaliy yo'nalishlarga ega.

Jismoniy tarbiya va sport akmeologiyasining obyekt bo'lajak sport murabbiylari, sport sohasida fa-oliyat ko'rsatadigan pedagoglar va sportchilar va jismoniy tarbiya va sport faoliyatini boshqaruvchi mu-taxassilarni o'z ichiga qamrab oladi. Ularning o'ziga xos jihati kasbiy yetuklikka intilish va o'z sohasida mahoratning yuksak cho'qqisiga erishishni nazarda tutganligi bilan belgilanadi. Akmeologiya yosh jihat-dan yetuklikka intiluvchi shaxslar bilan bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi. Akmeologiya kasbiy mahorat va mahsuldor ijodiy faoliyatga erishish yo'lidir. Fundamentallik esa bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mah-o-rat va mahsuldor ijodiy faoliyatning ilmiy asoslarini o'zlashtirishni angalatadi.

Jismoniy tarbiya va sport akmeologiyasi bo'lajak sport murabbiylarining kasbiy mahorati va mah-suldor ijodiy faoliyati orasidagi aloqadorlikni o'rganishni nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda, yaratuv-chilik faoliyatida yuqori darajalarga erishishga to'sqinlik qiladigan omillar ham akmeologiya doirasida o'rganiladi. Akmeologiyada yaratuvchilik yetakchi tushuncha hisoblanadi. Yaratuvchilik bo'lajak murab-biyning qarorlar qabul qilishi va sportchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlashida yangi im-koniyatlarni kashf etishiga ko'maklashadi. Bo'lajak murabbiyning bilimlari bilan bir qatorda, amaliy taj-ribasi ham yaratuvchilik ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Sport murabbiylarining yaratuv-chilik ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik jarayonni korreksiyalash va takomillashtirishni talab qi-ladi.

Sport akmeologiyasining asoslari:

- bo'lajak murabbiyning kasbiy faoliyati;
- o'z-o'zini mustaqil rivojlantirish va korreksiyalash layoqati;
- bo'lajak murabbiyning professionalizmi;
- o'z-o'zini mustaqil boshqarish jarayoni.

¹Ma'murov B.B. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash. Mono-grafiya, Toshkent, "Fan va texnologiya", 2017, 121-bet.

² Кузьмина Н.В. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования. М., ИЦПКС, 2001, с. 144.

³ Ананьев Б.Г. Индивидуальное развитие человека и константность восприятия. М., издательство "Просве-щение", 1968, с. 336.

Jismoniy tarbiya sport akmeologiyasida faoliyat pedagogik tadqiqotning asosiy predmeti hisoblanadi. Faoliyat muammosini ilmiy jihatdan tadqiq qilgan mutaxassis A.N.Leontyevdir.¹

Shaxsning yaratuvchilik faoliyati tushunchasi S.L.Rubinshteynning qarashlarida o'z ifodasini topgan bo'lib,² uning asosini o'yin, o'rganish, mehnat tashkil etadi. B.G.Ananyevning ta'biricha,³ bilish, anglash, muloqot, mehnat yaratuvchilik faoliyatining asosini tashkil etadi.

Akmeologiyaning asosini o'z-o'zini rivojlantirish va korreksiyalash tashkil etadi. Talabalarning o'z-o'zlarini rivojlantirishlari va korreksiyalashlari bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish natijasida to'plangan tajribaning mahsuli hisoblanadi. Talabalar o'z xatti-harakatlari va o'zlari yaratgan ijod mahsuliga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'ladilar.

Professionallik mutaxassisning barqaror faoliyati mahsulidir. Mahoratdan farqli tarzda, professionalizm kasbiy ta'lim jarayonida shakllanadi. Mahorat esa shaxsiy tajribaning ortishi natija tarkib topadi. Bunda bo'lajak mutaxassis kuzatish, izlanishlar, mashqlar bajarish va o'z yo'lini ishlash natijasida kasbiy mahoratga ega bo'ladi. Bo'lajak mutaxassis o'zining mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish natijasida kasbiy yuksaklikka erishadi.

O'z-o'zini boshqarish ham akmeologiyada muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini boshqarish hayotiy faoliyatning turli bosqichlarida ma'naviy, jismoniy, kasbiy yuksalish natijasida shakllanadi. Kasbiy rivojlanishning dastlabki bosqichidan eng yuqori cho'qqisiga erishgunga qadar bo'lajak mutaxassislar uchun o'z-o'zini boshqarish zarur hisoblanadi. O'z faoliyatini qayta tashkil etish kasbiy rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishni anglatadi.

Taniqli mutaxassis A.A.Bodalev akmeologiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirgan.⁴ Aga bolalardan maktabgacha va maktab yosh davridan boshlab, u yoki bu kasbga nisbatan qat'iy nuqtayi nazar shakllangan bo'lsa, oliy ta'lim jarayonida barqaror kasbiy qiziqishlar va mayllar vujudga keladi. Akmeologiya hodisasining ilmiy talqini shuni ko'rsatadiki, har bir shaxsning kasbiy qiziqishlari va mayllari o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Kasbiy mahorat va kasbiy yetuklikni egallash jarayoni ilmiy asosda tashkil etilishi lozim. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy rivojlanish jarayonin bilan shaxsiy rivojlanishi o'zaro uyg'in tarzda amalga oshadi. Kasbiy faoliyat sifatini aniqlash jamoaviy faoliyat natijasi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchilar jamoasi, sportchilar jamoasi, murabbiylar jamoasi nazarda tutiladi.

Bo'lajak sport murabbiylarini kasbiy mahoratning yuksak cho'qqisiga erishishini ta'minlash borasida ko'p qirrali ilmiy izlanishlarni amalga oshirish taqozo etilmoqda. Bunda mutaxassisning dastlabki bilimlarni egallash jarayonidan boshlab, kasbiy mahoratning yuksak cho'qqisiga erishguniga qadar amalga oshiriladigan rivojlanish jarayoni, uning bosqichlari qamrab olinadi.

Bo'lajak mutaxassislarning umumiy va xususiy rivojlanish metodologiyasini ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega. Bunday yondashuvni amalga oshirmasdan turib, yetuk mutaxassisning shakllanishiga ko'maklashadigan turli jarayonlarni integratsiyalash mumkin emas. Bunday yondashuv natijasida bo'lajak mutaxassisning ijodiy imkoniyatlari namoyon bo'lishi ta'minlanadi. Bo'lajak mutaxassislarning ijodiy quvvatlari bilan bir qatorda, yashirin imkoniyatlaridan ham samarali foydalanish talab qilinadi. Talabalarining o'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari muayyan modellar, chizmalar yordamida amalga oshadi.

Bo'lajak mutaxassis ijodiy imkoniyatlari namoyon bo'lishining asosiy elementlari:

–shaxsning individual jihatlari, jumladan, jinsi, yoshi, salomatligi kabilar;

–ijodiy topshiriqlarni bajarishda shaxsning mahsuldor faoliyati darajalari: yuksak, yuqori, yetarli, o'rtacha, o'rtachadan past;

–o'z-o'zini axborot bilan ta'minlashning integrativ sxemasi: rolli hamkorlik, ijodiy topshiriqlarni yechishda qayta aloqaning tahlili;

–mahsuldor yechimlarning psixologik jihatlari: ijodiy topshiriqlar, munosabatlar tizimi, qadriyatlar, moslashuv, yo'nalganlik, motivatsiya;

–layoqatlilik, kompetentlik, kognitivlik, emotsionallik, shaxsning irodaviy xususiyatlari;

¹ Леонтьев А.Н. Категория деятельности в современной психологии. “Вопросы психологии”, 1979, № 3, с. 11–15.

² Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание. Человек и мир. СПб., “Питер”, 2003, с. 508.

³ Ананьев Б.Г. Индивидуальное развитие человека и константность восприятия. М., издательство “Просвещение”, 1968, с. 336.

⁴ Бодалев А.А. Акмеология и современные проблемы воспитания. “Акмеология”, 2005, №1, с. 22 – 28.

–shu bilan bir qatorda, bo‘lajak pedagoglarda quyidagi ko‘nikmalarni ham shakllantirish nazarda tutiladi: loyihalash, konstruksiyalash, kommunikativlik, tashkilotchilik;

–bo‘lajak mutaxassislarining shakllanishiga bir qator holatlar ta’sir ko‘rsatadi. Bu, birinchi navbatda, atrof-muhitning ta’siri hisoblanadi. Bular jumlasiga kasbiy va nokasbiy ta’sirlar, oilaviy muhit ta’sirini kiritish mumkin;

–ijtimoiy ta’sirlar: bo‘lajak mutaxassisga berilgan baho, uni rag‘batlantirish hamda jamiyatdagi ijtimoiy roli;

–bo‘lajak mutaxassisning o‘z faoliyatini qayta qurishga psixologik jihatdan tayyorligi, bunda ijodiy topshiriqlarni yechishning yangi usullarini izlash, o‘z-o‘zini baholash, intuitsiyaga moyillik nazarda tutiladi;

–bo‘lajak mutaxassilarning ijodiy topshiriqlarni yechish motivatsiyasini rivojlantirish, ularning kasbiy mahorat cho‘qqisini egallashlarida muhim ahamiyatga ega. Bunda bo‘lajak sport murabbiylarining axloqiy me‘yorlarga amal qilishlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Bo‘lajak sport murabbiylarida ijodiy imkoniyatlarning vujudga kelishi loyihalash faoliyatining samarali shakllanishi, ushbu jarayonda fikrlash usullarining muvaffaqiyatli bajarishlarini ta’minlashga sharoit yaratadi. Loyihalash ko‘nikmalarini egallash muayyan vaqt mobaynida bo‘lajak sport murabbiylarining bilim, ko‘nikma, malakalari va shaxslararo munosabat tajribasini ijodiy o‘zlashtirishlari hamda pedagogga xos shaxsiy sifatlarni egallashlari uchun qulay sharoit yaratiladi.

Mazkur maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni o‘quv materiallarini tanlash va loyihalash, mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayonida bo‘lajak sport murabbiylari va professor-o‘qituvchilarning hamkorlikda bajaradigan harakatlarini rejalashtirish, talabalarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi: o‘quv jarayonini rejalashtirish, o‘quv dasturlari, ishchi dasturlarga bog‘liq holda, o‘quv materiallari va mashg‘ulotlar mazmunini tanlash. Shuningdek o‘quv materiallari izchilligini belgilash, o‘quv dasturi bilan bog‘liq holda har bir darsda o‘tiladigan materiallarni rejalashtirishni nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda, o‘quv materiallari bilan bog‘liq holda talabalar jamoasi va ular kelajakda faoliyat ko‘rsatadigan sportchilar jamoasining ahloqiy tarbiyaga oid vazifalari oydinlashtiriladi.

**Mamatqulova Nilufar Fayzullaqulovna (O‘zDJTU o‘qituvchisi; e-mail: mamatkulovanilu@mail.ru)
TILGA IXTISOSLASHTIRILGAN OTM TALABALARINING XORIJIY TIL LEKSIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MASHQ VA TOPSHIRIQLAR
TIPOLOGIYASI**

Аннотация. Ushbu maqola tilga ixtisoslashtirilgan OTM talabalarining xorijiy til leksik kompetensiyalarini rivojlantirishda mashq va topshiriqlar tipologiyasini muhokama qiladi. Shuningdek, maqola xorijiy til leksik kompetensiyalarini rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning samaradorligi haqida ma’lumotni o‘z ichiga qamrab oladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается типология упражнений и заданий в развитии иноязычных лексических компетенций студентов языковых профильных вузов. В статье также представлена информация об эффективности лично-ориентированного подхода в развитии иноязычных лексических компетенций.

Annotation. This article discusses the typology of exercises and assignments in the development of foreign language lexical competencies of language-specialized university students. The article also provides information on the effectiveness of a learner-centered approach in developing foreign language lexical competencies.

Kalit so‘zlar: shakllantiruvchi mashqlar, kommunikativ va kompetensiyaviy mashqlar, leksik kompetensiya, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.

Ключевые слова: формирующие упражнения, коммуникативные и компетентностные упражнения, лексическая компетентность, лично-ориентированный подход.

Key words: formative exercises, communicative and competency exercises, lexical competence, learner-centered approach.

Mashqlar ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan, til o‘rganishda ham. Qaysi turdagi dars bo‘lmasin har qanday dars tarkibining asosiy qismi mashq bo‘lib qoladi. Ma’lum turlarga bo‘linadigan va turli xil tasniflarda umumlashtiriladigan mashqlar orqali ta’lim amalga oshiriladi. Yetarlicha

samarali mashqlardan foydalanilmaslik yoki effektiv mashqlarning yetishmasligi oqibatida o'qituvchi ko'zlagan maqsadiga erisha olmasligi mumkin.


Mashq deganda ma'lum bir faoliyatni egallashga qaratilgan yoki shu faoliyatni o'quv situatsiyalarida takomillashtirishga qaratilgan alohida yoki ketma-ket bajariladigan operatsiyalar yoki harakatlar tushuniladi.¹

Mashqlar tizimi deganda chet tilidagi ko'nikmani rivojlantirish va malakani takomillashtirish uchun kerakli miqdor va ketma-ketlikda bajariladigan mashqlarning turi va ko'rinishlari tushuniladi.²

Mashqlar tipologiyasi deganda mashqlarni muhim belgilariga ko'ra tasniflash tushuniladi. Asosiy tasniflash xususiyatlari – mashqlarning nutqiy faoliyatga tayyorlash (tayyorgarlik yoki til mashqlari) va nutq faoliyatida (nutq va muloqot mashqlari) ishtirokini ta'minlashga qaratilganligidadir.

Soha mutaxassislari mashqlarni bir nechta yondashuvlar orqali tasniflagan.³

(1-rasmga qarang)



1-rasm. Mashqlar tizimini tasniflashdagi yondashuvlar.

Chet tilini o'qitishda mashqlar tizimidagi muhim jihatlardan yana biri – bu o'quv vazifasida (mashqda) kommunikativ yo'nalishning mavjudligi mezon. Ushbu komponent mavjud yoki yo'qligiga qarab, barcha o'quv vazifalarini ikki turga bo'lish mumkin: nokommunikativ va kommunikativ.⁴

O'zbek olimlaridan J.Jalolov, T.Sattorov, A.Soyuzarov va boshqa tilshunoslar mashqlarni tipologiyasi bo'yicha uch turga ajratdi va ularni quyidagicha nomlagan:

- ♦shakllantiruvchi;
- ♦rivojlantiruvchi;
- ♦takomillashtiruvchi.

¹ <https://uz.denometr.com/docs/768/index-33785-1.html?page=3> murojaat sanasi 12.02.2020

² Мурадқасимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабалар кўникма ва малакаларини баҳолаш хусусиятлари. Дис... пед.фан. бўйича фалсафа доктори, Тошкент, 2019, 80-бет.

³ Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. М., Рус.яз., 1989, с. 276; Рахманов И.В. Обучение устной речи на иностранном языке. М., 1980, с. 160; Комков И.Ф. Задачи и упражнения по методике преподавания иностранных языков. Минск, 1986, с. 208.

⁴ Шатилов Ф.С. Методика обучения немецкому языку в средней школе. Учебное пособие для студентов педагогических институтов, 2-е изд., дораб., М., "Просвещение", 1986, с. 223; Е.А.Маслыко, П.К.Бабинская, А.Ф.Будько, С.И.Петрова. Настольная книга преподавателя иностранного языка. Справ. пособие, 9-е изд., стереотип., Минск, 2004, с. 530.


K.D.Ushinskiyga ko‘ra, mashqlarning yutug‘i ularning tizimlilikidadir va mashqlar maqsadli va o‘ziga xos ketma-ketlikda tashkil etilgan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, mashqlarning bajarilish usuli va yo‘li shakllantirilgan bo‘lishi muhimdir. Biroq bir mashq ta’limda kutilgan natijani bermasligi mumkin, shuning uchun ham mashqlar tizimlarga bo‘linadi.¹

Mashqlarning yana boshqa tizimi V.A.Buhbinder tomonidan tavsiya qilingan. Ular ma’lumot beruvchi (til birliklari haqidagi bilimlarni tushunish va aniqlash), operatsion (til birliklarining ishlatilishi va nutq avtomatizmlarini shakllantirish va rivojlantirish. Ushbu turdagi mashqlar til birliklari yordamida nutqni tashkil etishda operatsion mexanizmlarini o‘rgatish uchun ishlatiladi) va motivatsion (og‘zaki va yozma nutqning haqiqiy vaziyat va holatarida ma’lumot uzatish va qabul qilishda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish yoki takomillashtirishdir. Bu turdagi mashqlar rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi) mashqlardir.²

Tadqiqotchi K.Sh.Muradkasimova mashqlarning olimlar tomonidan ikkiga bo‘linishining bir qancha holatlarini tahlil qilib o‘tadi. M.S.Ilin o‘z tadqiqotida mashqlarni ikki turga til va nutq mashqlariga ajratadi. Unga ko‘ra til o‘rganuvchilar, avval, tilga oid mashqlarni bajarib, ko‘nikma hosil bo‘lganidan keyin, amaliyotda qo‘llashadi. A.A.Miroyubov (tayyorlovchi va nutqiy), E.P.Shubin (analitik va sintetik), I.D.Salitra (birlamchi va nutqiy), V.L.Salkin (tayyorlovchi va kommunikativ), A.D.Klimentinko (tayyorlovchi va shaxsiy-nutqiy) mashqlar tipologiyasi.³

A.A.Leontev talabalarda mustaqil o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish uchun o‘quv jarayonini muammoli vaziyatlar tizimiga va ta’limning tarkibini, ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan vositalar tizimiga o‘zgartirish zarur deb ta’kidlagan.

Tadqiqotimiz davomida tilga ixtisoslashtirilgan OTMLlarda til aspektlari amaliyoti, kommunikativ leksika moduli mashg‘ulotlarida talabalar leksik kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, evrestik va produktiv faoliyatli texnologiyalarning o‘zaro uyg‘unligini o‘z ichiga olgan va ijtimoiy-madaniy mavzular doirasida gapirish, o‘qib va tinglab tushunish, yozish kabi ko‘nikmalar orqali bajariladigan, soha mutaxassislari tavsiya qilgan bir qator mashqlar tizimi birlashtirilib (shakllantiruvchi (J.Jalolov), kommunikativ (F.S.Shatilov, V.L.Salkin) va kompetensiyaviy) lingvodidaktik-leksik topshiriqlar tizimi ishlab chiqdik (2-rasmga qarang).



2-rasm. Amaliyotga joriy qilinishi tavsiya qilinadigan lingvodidaktik-leksik topshiriqlar tizimi.

Amaliyotga joriy qilinishi tavsiya qilinadigan lingvodidaktik-leksik topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda chet tilini o‘qitishdagi umumdidaktik va metodik tamoyillardan shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyili, kommunikativ yo‘naltirilganlik tamoyili, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ-kognitiv yo‘naltirilganlik tamoyili, faollik, ongliklik, ko‘rgazmalilik tamoyillarini asos qilib oldik.

¹ Мурадқосимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабалар кўникма ва малакаларини баҳолаш хусусиятлари. Дис... пед.фан. бўйича фалсафа доктори, Тошкент, 2019, 80-бет.

² Бухбиндер В.А. и др. Очерки методики обучения устной речи на иностранных языках. Киев, 1980, с. 247.

³ Мурадқосимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабалар кўникма ва малакаларини баҳолаш хусусиятлари. Дис... пед.фан. бўйича фалсафа доктори, Тошкент, 2019, 81-бет.

Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili eng asosiy tamoyillardan bo'lib xizmat qildi. Unga asosan, talaba mustaqil harakat qila oladigan, o'qituvchiga qaram bo'lmagan holda, o'z ta'lim jarayonini tashkil eta oladigan, erkin fikrlovchi shaxs sifatida qaraladi. Shu bilan bir qatorda, talabalarda birgalikda ishlash sharoiti yaratiladi, bir-birlariga o'rgatishadi va bilganlarini bir-birlari bilan bo'lishishadi. Bu o'qituvchilarni vakolatlari yoki mas'uliyatlaridan mahrum qilmaydi, aksincha, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvli ta'limni talabning xohish va imkoniyatlariga moslashtirib, til o'rganishda samarali hisoblanadigan ta'lim turi va o'qitish shakli bilan integrallashgan holda, interfaol til o'rganish muhitini yaratishni talab qiladi. Talabalar doimiy o'z bilimlari haqidagi ma'lumotdan habardor bo'lishadi va o'rganish jarayonida mas'uliyatni o'z zimmlariga olish imkoni mavjud. Ushbu mashqlar tizimini ishlab chiqish mobaynida umumiy mavzudan maxsus toraytirilgan mavzular talabalardan so'rovnomma olinib, ular ishtirokida tanlab olindi va amaliyotda qo'llab, yaxshi natijalarga erishildi. Mashqlar induktiv usulda, ya'ni talabalarga yangi mavzuni o'zlari kashf qilish imkonini beradi, qoidalarni o'rganib so'ngra misollarga o'tish o'rniga misollar bilan tanishib, qoidani ishlab chiqishga harakat qiladilar. Shuningdek, yangi so'zlarni boshqa til ko'nikmalari bilan birgalikda, kontekst ichida o'zlashtiradilar va bilgan ma'lumotlarini bir birlari bilan bo'lishadilar.

Onglilik tamoyilida talaba bajarayotgan topshirig'ini ongli ravishda, ya'ni maqsadini tushungan holda amalga oshirishi kerak bo'ladi. Faollik tamoyili o'qituvchining talaba faoliyatini boshqarish, nutqiy faolligiga sharoit yaratishda ishning turli shakllaridan (jamoaviy, juft va kichik guruhlarda) foydalanishga yo'naltirilgan.

Quyida ikkinchi kurs bakalavriyat talabalari uchun ishlab chiqilgan mashqlardan taqdim etamiz. Masalan, umumiy mavzu atrof-muhit, toraytirilgan mavzular atrof-muhitning ifloslanishi, Orol dengizi inqirozi va hokazolar. Quyidagi mashqlar ta'lim mavzusiga oid fe'lli birikmalarni (education related phrasal verbs), xorijda ta'lim olish (studying abroad), mavzularini o'rganishga mo'ljallangan. I va II mashqlar shakllantiruvchi mashqlar turiga kirib, talabalarga mavzuga tegishli bo'lgan yangi so'zlar haqida dastlabki bilimlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

I. Match the phrasal verbs with their meanings.

As you have already been a student, you have a lot to do but you should not (1) **fall behind** _____ and (2) **keep up** _____ with your group mates. You have to (3) **turn in/hand in** _____ your assignments on time, (4) **look up** _____ new piece of information, (5) **take in** _____ new facts, (6) **catch on** _____ course material and (7) **read up on** _____ some topics and so on, so (8) **being into** _____ English would help you. Today we are discussing some English phrasal verbs such as (9) **speak up** _____ be into, read up on and more. Learn them carefully, (10) **go over** _____ frequently, don't (11) **mix up** _____ and do not (12) **drop out** _____ before learning.

- ◆speak louder;
- ◆be actively interested in something;
- ◆check something carefully; review;
- ◆confuse two things or people;
- ◆give your finished work to a teacher;
- ◆leaving school without finishing your studies;
- ◆make less progress than other people;
- ◆stay at the same level as;
- ◆to absorb new facts and information;
- ◆to find a piece of information in a book, internet, etc;
- ◆to research the topic;
- ◆to understand.

Birinchi mashqda talaba taxmin qilib, oldindan bilgan bilimlariga tayanib, fe'lli birikmalarning mos keladigan ma'nolarini topadi. Talabalar bu mashqni yakka holda, juft bo'lib yoki kichik jamoa bo'lib bajarishi mumkin. Fe'lli birikmalar (phrasal verbs) kontekst ichida berilgan.

II topshiriq esa I mashqdan xulosa qilgan holda, yana bir bor talabaga so'zlarning ma'nolarini kashf qilib, o'rganish imkonini beradi.

II. Replace underlined verbs with the phrasal verbs from the box.

be into, catch on, drop out, fall behind, go over, hand in /turn in, keep up with, look up, mix up, read up on, speak up, take in

1. Can you review these instructions again? I'm still a little confused.
2. Can you search the definition of this word for me?

3. I better research and learn on this material before I present it tomorrow.
4. I was behind with my schoolwork when I had the flu.
5. I had to submit the paper late because of my grandfather's funeral.
6. I know it is a lot to absorb everything at once, so let me know if you have any questions.
7. I'm going back to school because I always regretted leaving of college.
8. I'm sorry I'm late; I must have confused the time for our meeting.
9. My leg was hurt, but I was able to progress at the same level with the rest of the team during our run.

10. She is really interested in folk music. She listens to it every day.
11. Thanks for explaining that concept to me – I think I comprehend now.
12. What's that you're saying? Say it louder!

III mashqda talabalarga yangi soʻzlar taqdimoti va mavzuga oid maʼlumotlar misollar bilan keltirilgan. Bu esa input boʻlib xizmat qiladi.

IV mashq kommunikativ mashqlar tizimiga misol boʻlib, talabalarni mulohaza yuritishga va tanqidiy fikrlashga chorlaydi, shu bilan birga, kontekstda maʼnolarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

IV. Would your parents be pleased or not if they were aware of the following?

Write yes for pleased, NO for not pleased.

1. You have been helping a group mate who has fallen behind the course.
2. You fell behind in your studies because you missed some classes.
3. Last week you handed in your assignment late.
4. You have read up on some information for the class project.
5. You could hardly take in everything what your teacher said last lesson.
6. You took in course material successfully last term.
7. You have kept up with the rest of the class.
8. You have been into studies already.

Har bir dars ishlanmasidan keyin oʻzini-oʻzi baholash cheklisti (self-assessment checklist) berilgan boʻlib, talaba mavzuni darsda yoki darsdan tashqarida mustaqil ravishda qanchalik oʻzlashtirganini baholaydi. Bu esa talabaga oʻz oʻrganish jarayonidan xabardor boʻlib turish imkonini beradi. Boʻsh qolgan qatorlarni talaba mavzuni oʻzlashtirishidan kelib chiqib, davom ettiradi.

Yuqorida keltirilgan mashqlar (dars ishlanmalari)ni tahlil qilsak, mashqlar kommunikativ usulda, yaʼni talabalar mavzuni bir-birlari bilan muhokama qilib, mavzuga oid bilgan maʼlumotlarini bir-biri bilan boʻlishib, oʻzlari mavzuni ochishga va tushunishga harakat qiladilar. Shu bilan bir qatorda, oʻqituvchiga qaram boʻlmasdan, darsdan tashqari holatlarda ham mashq qila olish imkoniyatiga egadirlar va talabalarida tanqidiy fikrlay olish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, soʻzlarni kontekstda foydalanib, maʼnolarini oʻrganish imkoniyati mavjud boʻladi. Har bir mavzu muhokamasidan soʻng, talabalar vocabulary self-assessment checklist orqali oʻz bilimini oʻzlari baholaydilar, shu tariqa, har bir darsda nechta soʻzni oʻrganib, oʻzlashtirganliklaridan muntazam xabardor boʻlib turadilar.

Xulosa qilsak, dars jarayonini shaxsga yoʻnaltirish, yaʼni talabalar qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish ingliz tilini oʻqitishda asosiy oʻrinlarda turadi, ularda tilni oʻrganish uchun motivatsiyalarini oshiradi. Iloji boricha, mavzular tanloviga ham talabalarni jalb qilish dars jarayonini samaraliroq amalga oshirish imkonini beradi. Bundan kelib chiqib, shunday fikr olgʻa suriladiki, bir kursda oʻqitishning maqsadi, vositalari, oʻrganish surʼati shunday shakllantirilishi kerakki, natijada oʻsha kursda talabalar oʻz xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, oʻz usullaridan foydalanib, har xil tezlikda til oʻrganishlari va oʻzlashtirishlari kerak boʻladi. Bundan tashqari, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim talabaning xohish va imkoniyatlariga moslashtirilib, til oʻrganishda samarali hisoblanadigan taʼlim turi va oʻqitish shakli bilan integrallashgan holda, interfaol til oʻrganish muhitini yaratishni talab qiladi.

**Tursunqulov Elmurod Azzamqulovich, Turakulov Ibroxim Ravshanovich,
Baxtiyorova Maftuna Baxtiyorovna (Samarqand davlat universiteti)**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasini boshqarishda innovatsion texnologiyalari vositasida boshqaruv tizimini tatbiq qilish xususiyatlari oʻrganilgan, shuningdek, boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan xulosalar ishlab chiqilgan.*

Аннотация. В данной статье изучены особенности внедрения системы управления средствами инновационных технологий в управлении сферой физической культуры и спорта, а также разработаны выводы, направленные на совершенствование системы управления.

Annotation. This article explores the features of managing the management of physical culture and sports through the use of information technology and has developed conclusions aimed at improving the management system.

Kalit soʻzlar: taʼlim jarayonining jismoniy va taʼlim tizimi, jismoniy-tarbiya tizimida axborot texnologiyalari, boshqaruv tizimi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, boshqarish funksiyasi.

Ключевые слова: физическая и образовательная система учебного процесса, информационные технологии в системе физического воспитания, социально-экономические условия системы управления, функции управления.

Key words: physical and educational systems of the educational process, informational technologies in physical training system, management function of socio-economic conditions.

Dunyoda sport shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda, boshqaruv faoliyati «Jismoniy tarbiya va sport» tizimining har bir tarkibiy boʻlinmasida muhim yoʻnalish hisoblanadi.


Nafaqat butun tizimning faoliyat yuritishi, balki uning kelgusi rivojlanishi ham qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari toʻgʻriligiga, ularning tezkorligiga, oʻz vaqtida qabul qilinishiga bogʻliq. Shu tufayli nazariy tadqiqot oldiga yangi axborot texnologiyalari qoʻllanilgan holda, quyidagi yoʻnalishlarda boshqaruv faoliyati muammolarini oʻrganish masalalari qoʻyildi:

Zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalaridagi oʻzgarishlar surʼati va xususiyati jahon hamjamiyati ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy sifatlari va uni jadallashtirish yoʻnalishlaridan hisoblanadi. Respublikamizning bugungi sharoitlariga nisbatan izohlaganda, ushbu oʻzgarishlar jismoniy tarbiya va sport sohasini boshqarishning ushbu ijtimoiy tizimni jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga yaqinlashtirish asosida yanada rivojlantirishga koʻmaklashadigan hamda birinchi oʻringa olib chiqish manbayi hisoblanadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda puxta yoʻlga qoʻyilgan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini boshqaruv tizimi alohida ahamiyatga ega boʻladi. Jismoniy tarbiya va sport sohasi kabi murakkab tizimlar va jarayonlar tadqiqoti boshqaruv tizimini shakllantirish va uning tarkibiy qismlarini ajratib koʻrsatish bilan chambarchas bogʻliq.

Zamonaviy tushunchalarga koʻra, boshqaruv tizimi umumiy koʻrinishda bevosita va teskari bogʻlanish kanallari boʻyicha oʻzaro hamkorlik qiladigan boshqarish obyektini oʻz ichiga oladi. Bundan tashqari, maʼlumki, boshqarish jarayonida boshqariladigan obyektga boshqaruvchi va oʻrin toʻldiruvchi taʼsirlar koʻrsatiladi, ushbu taʼsir natijasi esa «chiqish» koʻrsatkichlari boʻyicha baholanadi. Bunda boshqaruvchi taʼsirlar «chiqish» koʻrsatkichlariga birlashtiriladi.

Shunday qilib, boshqaruv tizimi ikkita tizim – boshqarish obyektini va boshqaruvchi tizim jamlanmasi sifatida baholanishi mumkin (1-rasm).

1-rasm. Boshqaruv sxemasi.



1-rasmda boshqaruvchi tizim boshqarish obyektiga oʻzini qanday tutishi kerakligi toʻgʻrisida axborot (boshqaruvchi qarorlar)ni boshqaruvchi signallar uzatish orqali taʼsir koʻrsatishi ifodalangan. Qayd etamizki, boshqarish maqsadiga erishishni taʼminlaydigan qarorlarni ishlab chiqish uchun boshqaruvchi tizim tashqi muhit holati va boshqarish obyektini holati toʻgʻrisida axborotga ega boʻlishi kerak. Bunday axborotni uzatish kanali «teskari bogʻlanish» deb nomlanadi. Boshqarish umumiy mexanizmi shundan iborat.

Boshqarish deyilganda, boshqarish obyektiga aniq maqsadga qaratilgan taʼsir koʻrsatish jarayoni tushunilib, u taʼsir natijasida muayyan funksiyalarni bajaradi. Maxsus adabiyotlarida boshqarish muayyan obyekt, sifatida qaralib, tizim yoki jarayon holatining maqsadga erishishga olib boradigan har qanday oʻzgarishi sifatida talqin etiladi.

Boshqarish fani fanlar integratsiyasi davrining o'ziga xos fani hisoblanadi. U oqilona tashkil qilishni nazarda tutadi, shu tufayli boshqarish fani rolli fikrlashni engillashtirish va optimal qarorlar qabul qilishdan iborat.¹

Qayd etilishicha, sport sohasini ijtimoiy boshqarishning hozirgi holati tavsifi quyidagi masalalar oldindan izohlanishini talab etadi:

- ijtimoiy boshqarish, jumladan, sport sohasini boshqarish mohiyatining tavsifi;
- ijtimoiy boshqarish tuzilishi va funksiyalari tavsifi;
- sport sohasini ijtimoiy boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.

Jismoniy tarbiya va sport inson faoliyatining barqaror sohasi sifatida ijtimoiy hayot sohasiga tegishlidir. Ijtimoiy boshqarish mohiyatini qayd etib, shunday yozadi: ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning mislsiz ko'lami iqtisodiy, ijtimoiy, aholi sog'lig'i yomonlashishi kabi muammolarni paydo qildi. Shu tufayli ijtimoiy boshqarish samaradorligini oshirish ahamiyati va unga bo'lgan talab kuchayib bormoqda.²

Biz nazariy tadqiqot o'tkazish orqali shuni tasdiqladiki, sport sohasini boshqarish mohiyati belgilangan maqsadga erishish jarayonida uning tuzilishi va faoliyatini tartibga solish bo'yicha tashkiliy ta'sir ko'rsatishdan iborat. Tuzilish deyilganda tizim qismlari tarkibi va ular o'rtasidagi muayyan qonuniy tartib tushuniladi:

- a) jismoniy tarbiya va sportni boshqarish: tashkil etish va ta'sis qilish subyekti;
- b) boshqarish obyekti (boshqariladigan tizim);
- d) vazifalar – farmonlar, qonunlar, qarorlar va h.k.;
- e) boshqarish obyektiga boshqaruvchi ta'sir (dasturlar);
- f) boshqarish obyekti faoliyati to'g'risida teskari axborot.

Sport sohasini boshqaruv tizimi faoliyati quyidagi tizimlar ta'sirini o'z ichiga oladi:

a) umumiy funksiyalar: rejalashtirish, tashkillashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va tuzatish, axborot bilan ishlash;

b) maxsus funksiyalar deyilganda, sport sohasini boshqarish asosiy shakllari: jamiyat-davlat, qo'mita va muassasa; ijtimoiy; aralash (ijtimoiy-davlat), o'z-o'zini boshqarish organlari tushuniladi. Bunda Respublika, viloyatlararo, tumanlararo va mahalliy darajalar sport harakatini boshqarishning yetakchi darajalari hisoblanadi.

Shunday qilib, biz sport sohasini boshqarish tahliliga tizim nuqtayi nazaridan yondashishi uni murakkab tizim sifatida ifodaladik, bunda ijtimoiy boshqarish yaxlit va muntazamlilik xususiyatiga ega ekanligini aniqlandi. Ko'plab olimlar tizimli yondashuvni aksariyat holatlar, shu jumladan, ijtimoiy voqea-hodisalarni tadqiq etishdagi eng muhim usullardan biri sifatida baholaydilar. Har bir murakkab voqea-hodisa turli tomonlardan ko'rib chiqilishi mumkin. Aynan ushbu muhim talab tizimli yondashuvning asosini tashkil etishi, bunda obyektning barcha ehtimoliy tarkibiy qismlari o'zaro uyg'un munosabatlari hisobga olingan holda, u tomonidan, umuman, bilim o'zlashtirish amalga oshirilishi kerak.

Tizimli tadqiqotning boshlang'ich punkti – tarkibiy qismlari alohida emas, balki dialektik birlikda o'rganiladigan obyektini yaxlit, shu bilan birga, har tomonlama tadqiq qilishga yo'nalishdan iborat. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati hamda jismoniy tarbiya va sport boshqarish tizimli yondashuv, fikrimizcha, yetarli darajada tatbiq etilmagan. Bevosita amaliyot bilan bog'liq ishlardan qayd etish kerak, ushbu ishlarda tizimli yondashuv yetarlicha keng taqdim etilgan.

Umuman, sport amaliyotida ushbu yondashuvni, hatto «badiiy gimnastikachi qadamini tadqiq etishning tizimli-tuzilmali tamoyili»da ishlatishgacha ushbu yondashuvni qo'llashga intilish kuzatiladi. Ayrim mualliflar tizimli yondashuvni mashq nazariyasida uslub, usul ishlarning samaradorligini yanada takomillashtirishning asosi deb hisoblashadi. Sportchilarning mashqida tiklash vositalaridan tizimli foydalanish bo'yicha ishlar, shuningdek, jismoniy tarbiya va sportni o'rganishda tizimli yondashuv bo'yicha nazariy manbalar paydo bo'ldi.

Yaqin kelajakda jismoniy tarbiya va sport singari ko'p funksiyali hodisalarni o'rganishda tizimli yondashuv o'z o'rnini topadi deb taxmin qilish mumkin. Bu sohada tadqiqotlar ko'lami juda keng bo'lishi mumkin. Ilgari tadqiq etilgan hosilalar va ularning mazmuni: «jismoniy tarbiya tizimi», «jismoniy tarbiya me'yoriy baholar tizimi», «jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash tizimi», «jismoniy

¹ V.V.Mixalev. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi axborot texnologiyalari. Toshkent, 1998, 110-bet.

² K.D.Yarashev. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. Toshkent, 1998, 66-bet.

tarbiya va sportni boshqarish» kabilarning rivojlanish modellari yanada batafsil tizimli tahlildan o'tkazilishi lozim.

Shunday qilib, jamiyatdagi hodisalarga nisbatan tizimli yondashuv dialektik usulning shakllaridan biridir. Uning bu mohiyati muayyan tizimni ajratib olish va tadqiq etishda ifodalanadi.

Rahbarning faoliyati «maqsad», «vosita», «natija» kabi mezonlarning muayyan o'zaro munosabati bilan tavsiflanishini ko'rsatadi. Bunday holat real voqelik bilan belgilanadi, chunki rahbar qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun (o'zining nuqtai nazaridan) zarur vositalar yordamida tizim (boshqaruv obyekti)ni faoliyat natijasining aniq shakliga o'tkazadigan kuch sifatida boshqaruv obyektiga faol ta'sir etishga murojaat qiladi.

Ammo faoliyat natijalari har doim ham qo'yilgan maqsadga olib kelavermaydi. Haqiqatda, mavjud va bo'lishi lozim voqelikning farqi ham mavjud boshqaruv tizimini, ham boshqaruv qarorlarini qayta ko'rib chiqishga undaydi, oqibatda natijaning maqsadga va maqsadga etishga yo'naltirilgan faoliyat jarayoniga nisbatini tadqiq etish zarurati yuzaga keladi.


Demak, boshqaruv g'oyasini amalda ro'yobga chiqarish uchun, birinchi navbatda, boshqarilayotgan obyektning tuzilmasi hamda uni bir holatdan ikkinchisiga o'tishi qonuniyatlari to'g'risida aniq tasavvur zarur. Ushbu talab qay darajada qondirilganiga boshqaruv nazariyasining ilmiy aniqligi, to'g'riligi, tushunchalar apparatining mazmuniy qat'iyligi, nihoyat, amaliy jihatdan samaradorligi bog'liqdir. Axborotni tizim va tashqi muhit o'rtasida uzluksiz harakati boshqaruv jarayonlarining eng muhim belgilaridan biridir. Tizimning tarkibiy komponentlari, qismlari o'rtasida ham axborot almashuvi yuz beradi, shuning oqibatida ular o'zaro ta'sirga kirishadilar va tizimning yaxlitligi saqlanadi.

Yillik statistik hisobot ko'rinishidagi hujjat moddiy raqam tashuvchi vosita, ko'rib chiqilayotgan tizimda ham, tashkiliy tizimlarning barcha turlarida ham ma'lumot tashuvchi vosita hisoblanadi. U tizimga solish obyekti holatini aks ettiradigan dastlabki holatni hisobga olish asosida tuzilishi aniqlandi.

- me'yoriy hujjatlarni to'plashni tashkillashtirish tizimi;
- hisobotlarni tahliliy o'rganish uchun moddiy baza va taalluqli ishlov ta'minoti;
- turli darajadagi tashkilotlarning axborotga bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq jamlanma hisobotlar, nashrga oid ma'lumotlar tizimi;
- tashkilot, uning iste'molchilarini ma'lumotlar bilan ta'minlash tizimi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sport sohasini rejali obyekt sifatida tizimli tahlil qilish, uning barcha tarkibiy qismlarida asosiy tizim tashkil etuvchi xususiyatlarni va eng muhimi ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish, jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi statistik hisobot ma'lumotlar mazmunini aniqlash uchun dastlabki omil bo'lib, ularning sifat ko'rsatkichlarini rejalashtirish, hisobga olinishi kerak.

Innovatsion tizimni loyihalash bosqichlari ma'lumotlar bazasi va bankini tashkil etishdan iborat ekanligi aniqlandi.



Ma'lumotlar bazasini loyihalashda dastlabki hisobot mantiqiy modeli ishlab chiqildi:

– tadqiq qilish sifatida tanlangan predmetli sohani o'rganish, ya'ni soha tizimi va holatini boshqarish.

– real sport sohasi tizimi, holati va ularning tashkiliy holatini tahlil qilish;


– mintaqaviy mazmunini, ularning tarkibi va turdosh sport turlari bilan bog‘liqliklari ishlab chiqildi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi tizimining axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish istemolchini ma‘lumotlarni bilan taminlanishini tashkillashtirish (2-rasm).

Oldimizda turgan vazifalarni izchillik bilan hal etish jarayonida predmetli sohaning ma‘lumotlar bazasida mavjud bo‘lishi hamda foydalanuvchining talablari va maqsadlari bajarilishini ta‘minlaydigan ma‘lumotlar tarkibi va mazmunini aniqlashga erishildi. Aniqlanishicha, ma‘lumotlar bazasi o‘ziga xos, soha shart-sharoitlarini hisobga oladigan va modulli tuzilishga ega targ‘ibotlardan iborat avtomatlashtirilgan tizimni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchiga yanada tushunarli bulish uchun ushbu tushunchalarga izoh berib o‘tamiz. «Model» so‘zi har qanday voqelikning shakliga ta‘rif berish uchun ishlatiladi; «modul» so‘zi mazmuniga ta‘rif berish uchun qo‘llaniladi. Ushbulardan kelib chiqib, namoyish qilinayotgan rasmdan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Modellarning tagida keltirilgan modullar harakatdagi tizimning to‘liq mazmunini anglatishi zarur, bizning holatimizda modullar pastki qatorda majmua shaklida keltirilgan, bu esa rejalashtirish va ba‘zi bir o‘zgartirish kiritish imkonini beradi. 1-rasmda har bir modulning batafsil tavsifi ochib berilgan.



Axborot-kommunikatsiya nazariyasi, jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kommunikatsiya masalalari ko‘rib chiqilgan. Ushbu ishlardan kelib chiqadigan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarga axborot xizmatini ko‘rsatishni takomillash tirishning turli muammolari bo‘yicha ilmiy tekshirish ishlarini doimo o‘tkazish talab qilinadi;

– ko‘rib chiqilayotgan faoliyat sohasida axborot oqimlarini o‘rganish o‘ta muhim muammo hisoblanadi. Ushbu faktlarni bilish va ulardan foydalanish jismoniy tarbiya va sport sohasida axborot xizmati ko‘rsatishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkonini beradi;

– jismoniy tarbiya va sport bo'yicha ilmiy-texnik axborotni to'plash, saqlash, tartibga solish va qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan maxsus axborot-qidiruv tizimini yaratish;

– jismoniy tarbiya xodimlarini axborotning ilmiy asoslari bilan kengroq tanishtirish zarur. Xulosa qilib boshqaruvning mohiyati pirovard quyidagilardan iborat deyish mumkin:

- ◆ tizimning va uni o'rab turgan muhitning holati to'g'risida axborotni to'plash zarur;
- ◆ ushbu axborotni aloqa kanallari bo'ylab qayta ishlash manziliga jo'natish;
- ◆ boshqaruv buyruqlarini shakllantirish maqsadida axborotni qayta ishlanishini amalga oshirish;
- ◆ boshqaruv buyruqlarini amalga oshirish, ya'ni tarkibida buyruq bo'lgan axborotni ijroiya organ-

lariga uzatish;

- ◆ tegishli harakatlarni va nazoratni amalga oshirish.

Shunday qilib, boshqaruvni tashkillashtirish, boshqarilayotgan tizimning holati to'g'risidagi axborotning ham miqdoriy, ham sifatiy tasiflarini, uning mazmuni va mohiyatini bilishni talab qiladi, bu esa ham biologik, ham ijtimoiy tusdagi o'ta murakkab tizimlarni boshqarishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi holatning berilgan holat bilan mos kelmasligi boshqaruv tizimiga berilgan yo'nalish faoliyat yuritishi uchun tizimni qayta qurishga olib keladi.

**Рузметова Новваль Вахабджановна (Соискатель института педагогических инноваций,
переподготовки и повышения квалификации руководящих и педагогических кадров
профессионального образования, д.ф.п.н (PhD); e-mail:novval_r@mail.ru)
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ
БУДУЩИХ ЮРИСТОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

***Аннотация.** Мақолада юридик техникум талабаларида инглиз тилини ўқитиши жараёнида ҳуқуқий маданиятни шакллантириши масалалари кўриб чиқилган. Инглиз тили ёрдамида ҳуқуқий маданиятни муваффақиятли шакллантириши муаллиф учун ушбу мақолада келтирилган ташкилий-педагогик шарт-шароитлар зарур деб ҳисоблайди.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы формирования правовой культуры у студентов юридических техникумов в процессе изучения английского языка. Для успешного формирования правовой культуры посредством английского языка необходимы организационно-педагогические условия, которые приведены в данной статье.*

***Annotation.** The article deals with the formation of legal culture among students of legal technical schools in the process of learning English. In order to reach the successful formation of legal culture through the English language, organizational and pedagogical conditions given in this article are necessary,.*

***Калим сўзлар:** ҳуқуқий маданият, ҳуқуқий онг, педагогик шарт-шароитлар, мотивация, жиҳатлар.*

***Ключевые слова:** правовая культура, правовое сознание, педагогические условия, мотивация, признаки.*

***Key words:** legal culture, legal consciousness, pedagogical conditions, motivation, signs.*

Изменения, происходящие в нашем обществе за последние несколько лет, значительно повысили требования, предъявляемые к будущим специалистам юридического профиля. Интеграция Узбекистана в мировое правовое пространство правовой культуры, необходимость взаимопонимания и сотрудничества в правовых вопросах с различными странами мира, высокая потребность в межкультурной коммуникации, обеспечение национальной правовой безопасности Узбекистана, – все это инициирует появление в системе средне-специального юридического образования специалистов с развитой правовой культурой.

Так, в достижении этих задач большую роль сыграл Указ Президента Республики Узбекистан «О коренном совершенствовании системы повышения правосознания и правовой культуры в обществе» УП-5618 от 9 января 2019 года, Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию правового юридического образования и науки в республике Узбекистан» УП-5987 от 20 апреля 2020 года, Постановление Президента «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республики Узбекистан» ПП-5117 от 19 мая 2021 года. В свою очередь для при-

дания большей действенности государственных мер в области повышения правовой культуры необходимы научно-теоретические исследования.

Важнейшим качеством любого специалиста является его способность к эффективному, психологически полноценному иноязычному профессиональному общению. Это требует развития у студентов языковой компетенции, под которой понимается умение пользоваться лингвистической системой в целях профессионального общения в соответствии с ситуацией.

Таким образом, радикальные трансформационные процессы в сфере международных отношений, расширение международного сотрудничества в рамках экономической и политической глобализации, изменение требований, предъявляемых к выпускникам юридических техникумов с позиций повышения качества владения английским языком, устанавливают новые приоритеты в организации профессионально направленной подготовки юриста в условиях средне-специальной школы средствами английского языка.

Для удачного формирования правовой культуры студентов юридических техникумов в процессе изучения английского языка нужно квалифицировать совокупность условий, которые станут помогать данному процессу и наиболее гарантировать повышение качества обучения их профессиональной подготовки. Так, Л.С.Выготский утверждал, что надо «заранее создавать условия, необходимые для развития соответствующих психических качеств, хотя они еще «не созрели» для самостоятельного функционирования».¹

Для того чтобы обосновать педагогические условия, которые будут способствовать формированию правовой культуры, необходимо уточнить, что мы под ними понимаем. В научной литературе встречаются различные точки зрения. Под педагогическим условием Н.М.Борытко понимает внешнее обстоятельство, оказывающее существенное влияние на протекание педагогического процесса, в той или иной мере сознательного сконструированного педагогом, предполагающего достижение определенного результата.²

В.И.Андреев считает, что педагогические условия представляют собой результат «целенаправленного отбора, конструирования и применения элементов содержания, методов (приемов), а также организационных форм обучения для достижения ... целей».³

В ходе данного исследования нами выявлена совокупность педагогических условий, обеспечивающих формирование правовой культуры студента юридического техникума в процессе изучения английского языка. В совокупности педагогических условий можно выделить четыре группы: основные, смысловые, организационно-методические, дополнительные.

Ключевые педагогические условия, обеспечивающие эффективность формирования правовой культуры студентов юридических техникумов, включают в себя: содержание организационных форм, методов и приемов англоязычной подготовки в соответствии с реальными требованиями в их будущей профессиональной деятельности в сфере социальных и межнациональных контактов; применение интерактивных технологий обучения; индивидуализацию процесса формирования основ правовой культуры; положительный эмоциональный фон практико-ориентированной лингвистической подготовки студентов; педагогический мониторинг личностного роста студента в овладении основами правовой культуры в процессе изучения английского языка и др. В качестве педагогических условий, обеспечивающих эффективность формирования правовой культуры студентов в процессе изучения иностранного языка, как показало исследование, выступают следующие:

1. Основная группа: формирование мотивации студентов, создающей у них обостренный интерес к пониманию правовой культуры в процессе изучения английского языка. Мотивация – понимание и обоснование деятельности студента. Студенту не следует просто выполнять деятельность, а он должен мысленно мотивировать ее, устанавливать близкие и дальние цели, намечать перспективы, связывать задачи деятельности с задачами личностного роста и развития. Учитель помогает студенту, используя методы психодиагностики, тестирования и другие формы изучения личности студента; структура образовательного процесса на основе рефлексии и саморегуляции.

¹ Выготский Л.С. Развитие высших психических функций. М., изд-во АПН РСФСР, 1960, с. 155.

² Борытко Н.М. В пространстве воспитательной деятельности. Волгоград, «Перемена», 2001, с. 20.

³ Андреев В.И. Педагогика. Учебный курс для творческого саморазвития. 2-е изд., Казань, Центр инновационных технологий, 2000, с. 124.

Рефлексия – проектирование и сдерживание определенного образа. Способность к пониманию внутреннего мира, осмысление мира и развитие своего отношения к правовой культуре. Формированию саморегуляции способствует организация образовательного процесса на основе деятельности студентов; развитие средств и условий для самовыражения студента. Самовыражение – стремление к принятию своей природы «Я» окружающим миром. Этот подход осуществляется через осуществление «состояния успеха» для каждого студента. Задача учителя – найти духовный потенциал студента, поддержать его, приобрести решительность, авторитетность и чувство собственного достоинства; обеспечить условия для познания творчества. Познание творчества – определение системы жизненных смыслов, вплоть до сути жизни. Познание роли правовой культуры в системе жизненных смыслов.

Listening comprehension, silent reading approaches, annotating or doing other sorts of written work, using a dictionary or grammar reference (where all students do the same work), and using a dictionary or grammatical reference are all advised for frontal work (when all students do the same work). When the teacher needs to illustrate rational work techniques to his students, he refers to it. On the one hand, the group work arrangement (three to five students per group) allows for more flexibility. The success of such work is determined on how well the teacher knows his students, their talents, and how effectively he can divide them into groups and identify in each one a trustworthy expert. A paired type of work should be used to teach dialogic speaking. Question-and-answer activities, training in generating dialogic units according to the model, composing dialogues according to a given circumstance, and learning dialogue can all be done in pairs. The effectiveness of this activity is determined by the teacher's attention distribution, monitoring of task completion, and providing support to those who require it. The age of students, their level of general development and language training, their level of education and degree of training, as well as the educational material and learning environments, are all determining variables in the selection of methodological methods in the educational process. As a result, teaching technology should assist in how to take into account the above aspects in order to successfully assimilate educational information and build skills and capacities in the target language. Teaching languages with a focus on communication is a good idea. The communicative method (approach) first appeared in the 1970s of the twentieth century. Its main purpose is to teach someone how to communicate, namely how to make their speech understandable to others. First and foremost, the communicative technique (approach) in language instruction is intended to educate students how to travel freely in a foreign language environment as well as how to respond appropriately in a variety of linguistic circumstances. Thus, the communicative approach of teaching entails the potential of dialogue between the student and the teacher, and is aimed at removing the student's fear of communication first and foremost, as well as maximizing the student's immersion in the language learning process. This can be accomplished by instructing a person in so-called natural settings. As a result, if we wish to educate someone to converse in a foreign language, we must do so in communicative conditions. This means that our learning should be organized in such a way that it resembles the communication process in terms of its major traits and features. This is the essence of communication.²

What is the communication process? In some partnerships, there is a need to make contact. In partnerships, the communicants' needs are recognized, and as a result, it becomes the driving force behind their actions. Perceptual communication occurs when people perceive each other visually, instinctively or otherwise; interactive communication occurs when people interact with one other; and informa-

¹ Hewings M. and T.Dudley-Evans. 1996. *Evaluation and Course Design in EAP*. Herfordshire, UK: Prentice Hall Mcmillan, p. 256 – 305.

²Richards J.&Rodgers T. (2001). *Approaches and methods in language teaching* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press, p. 197.

tional communication occurs when people exchange thoughts, ideas, interests, sentiments, or spiritual values. You can communicate in all three methods, or only one of them at a time, but this communication should be meaningful and motivated in any case. Speaking and listening, as well as paralinguistics (gestures, facial expressions) and praxemics, are used to achieve the purpose of oral communication (movement, postures). Each communicating gets new knowledge, new thoughts, new intentions, etc. as a result of the impact on each other, i.e. interprets (interprets) the acquired information. As a result, the interpretation of information is always the end outcome of communication. The communicants' relationships change as a result of interpretation, and they are once again motivated to communicate until the need is met or contact is halted for some external reason. A person's essential activity is maintained thanks to communication; without communication, human individuality would be impossible to exist.¹

Interactive learning technology is a method of organizing learning events in which all participants are always engaged in active engagement. This is cooperative learning, in which the learner and the teacher are both learning subjects. It efficiently contributes to the development of skills and talents by fostering a cooperative and interactive environment. During interactive learning, students draw on their own and other people's social experiences as they work together to solve problems, resolve disagreements, discover common ground, and make compromises.

To sum up, the collaborative activity of students in the process of cognition and mastery of educational material implies that each student contributes his or her own unique contribution to the process, that knowledge, ideas, ways of activity, and values are exchanged. And it all takes place in a spirit of goodwill and mutual support. Interactive forms increase learning motivation, improve understanding of complicated interpersonal relationships, and aid in the research of individual behavior traits. Traditional means of learning do not allow you to attain a wide range of learning goals as effectively as interactive forms can. There are numerous interactive learning methods available. Each teacher can come up with unique ways to work with the students on their own. When interactive methods are used, the student becomes a full participant in the perceiving process, and his own experience becomes the primary source of educational knowledge. The teacher does not provide ready-made knowledge, but rather encourages students to conduct their own research. Mutual comprehension, interaction, and mutual enrichment are all benefits of interactive learning.

¹ Nunan D. (1987). Communicative language teaching: Making it work. *ELT Journal*, 41(2), p. 136 – 145.

To'rayeva Umida Shuxratovna (Termiz davlat universiteti doktoranti; umidahope943@gmail.com)
SEMANTIK USUL BILAN YASALGAN YURIDIK TERMINLAR

Annotatsiya. Maqolada huquqshunoslikga oid terminlarning o'zbek va ingliz tilida shakllanishi semantik jihatdan tadqiq qilingan, qiyoslanayotgan tillardagi huquqshunoslikga oid tub terminlarining yasalishi va ma'no xususiyatlarida mavjud farqli belgilar misollar yordamida yoritib berilgan. Xususan, yuridik terminlarni tavsiflash, tillararo tahlil qilish va terminlarni tarjima qilish xususiyatlarini aniqlash dunyo tilshunoslari oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Аннотация. В статье семантически исследуется образование юридических терминов в узбекском и английском языках, на примерах иллюстрируется образование и семантические особенности исходных юридических терминов в сравниваемых языках. В частности, описание юридических терминов, интерлингвистический анализ и выявление особенностей перевода является одной из важных задач, стоящих перед лингвистами всего мира.

Annotation. The article semantically studies the formation of legal terms in Uzbek and English, illustrates the formation and semantic features of the original legal terms in the compared languages with examples. In particular, the description of legal terms, interlinguistic analysis and identification of translation features is one of the important tasks facing linguists around the world.

Kalit so'zlar: terminologik maydon, umumadabiy til, tub so'zlar, yasama so'zlar, semantik usul.

Ключевые слова: терминологическое поле, просторечие, корневые слова, искусственные слова, семантический прием.

Key words: terminological field, common language, root words, artificial words, semantic method.

Kirish. Davr barcha ziyolilar qatori huquqshunoslar va tilshunoslar oldiga ham yangi vazifalar qo'ydi. Bu vazifalarni amalga oshirishni lo'nda qilib, bir tomondan, yaratilayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarning jahon andozalari darajasida bo'lishi hamda milliy mentalitetimiz va manfaatimizni himoya qilishi, ikkinchi tomondan, ularning davlat tilida mukammal yaratilgan bo'lishi, ham qonuniy, ham til jihatdan hech bir e'tirozlarga o'rin qoldirmasligi tarzida tushunish to'g'ri bo'ladi.

“O'zbekiston qonunlarining til xususiyatlarini ilmiy o'rganish, ularni sayqal toptirish imkoniyatlarini yoritish, milliy qonun chiligimiz yaratilishi jarayonining istiq bolini tahlil etish kun tartibidagi dolzarb masalalardan biridir” deb yozadi tilshunos olim Nasrullo Jumanxo'ja.¹

Qonun matnida aniqlikni ta'minlovchi eng muhim element aynan terminlardir. Bu haqida huquqshunos V.M.Kogan “Qonun matnining faqat terminlardangina tashkil topishi – eng yuksak orzudir, bunga huquq doimo intiladi, lekin huquqshunoslik fani va maqsadining murakkabligidan bu yuksak orzuga erishib bo'lmaydi”, deb yozadi.²

Asosiy qism. Terminologiya ustida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarimizdan bo'lgan A.V. Superanskaya bu hodisani quyidagicha izohlaydi: “Umumadabiy tilga xos bo'lgan so'zning ilmiy tushunchani ifodalash maqsadida terminlar qatoriga qo'shilishi – terminologizatsiyadir”.³

Ch.S.Abdullayeva umumadabiy tilga xos bo'lgan so'zni terminlar qatoriga qo'shishni asosiy shartlaridan biri sifatida uning ko'p ma'noli bo'lishi kerakligini alohida e'tirof etadi.⁴ Bu jarayonda so'z o'z harakat doirasini semantik jihatdan yanada kengaytiradi va shu sababdan ma'lum bir terminologik tizimning a'zosiga aylanadi.

Terminlarga bir qator belgi xususiyatlar xos bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

a) muayyan terminologiya doirasida bir ma'noli bo'lishi;

b) termin nominativ vazifani bajargani tufayli uning ma'nosi aniq, unga emotsionallik, ta'sirchanlik yoki modallik kabi xislatlar xos emas. Shu tufayli terminning ma'nosi kontekstga bog'liq bo'lmaydi;

¹ Nasrullo Жуманхўжа. Қонун тили мезонлари. Т., “Муҳаррир”, 2010, 3-бет.

² Коган В.М. К вопросу о формализации отрасли права. “Вопросы кибернетики и права”. М., “Наука”, 1967, с. 100 – 114.

³ Суперанская А.В. Общая терминология. Вопросы теории. М., “Наука”, 1989, с. 245.

⁴ Абдуллаева Ч.С. Русско-узбекские параллели в современной экономической терминологии. Автореф. дис. ...канд. филол. наук, Ташкент, 2000, с. 22.

d) termin stilistik jihatdan neytraldir, ya'ni u terminologik tizimdan tashqarida o'z neytralligini yo'qotadi;

e) termin tizimli xarakterga ega, ya'ni muayyan terminologiyani tashkil etuvchi terminlar leksik va grammatik jihatdan bir-birlari bilan uzviy aloqada bo'ladilar.

Huquqshunoslik terminologiyasi umumadabiy til leksik qatlamining ajralmas qismi bo'lishi bilan bir vaqtda, o'ziga xos morfologik va semantik xususiyatlarga ega bo'lgan mustaqil tizimdir.

E.I.Xanpira bu boradagi qarashlarini quyidagicha izohlaydi: "Oddiy so'zlashuv nutqiga xos so'zga maxsus yoki ilmiy mazmun berilishidir"¹

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, turli xil tilshunoslar tomonidan turli xil belgilariga ko'ra terminlarni tasniflash bo'yicha turli xil qarashlar mavjud.

Bir qator tadqiqotlarda terminlarning semantik usul bilan yasashida so'z ma'nosining metaforik, metonimik o'zgarishi, shuningdek, ma'noning torayishi va kengayishi kabi holatlarga guvoh bo'lsak-da, shuni alohida ta'kidlash joizki, ingliz va o'zbek tillarida yuridik terminlarning semantik usulda yasalishi jarayonida so'z ma'nosi torayishi kuzatilmadi. Ingliz tilida rasmiy hujjatlarda eng keng tarqalgan yuridik tub terminlar qatoriga quyidagilarni kiritamiz:

Terminologized simple words of native origin in English		
Terms	European Dictionary of Selected Legal Terms	Longman dictionary
<i>bench</i>	place where judges or magistrates sit in court	1. a long seat for two or more people, usually made of wood: <i>a park bench</i>
<i>body</i>	1. the whole of a person or animal 2. an organization or group of people who work together 3. a large group or amount	the whole physical structure of a human or an animal: <i>The human body is a complex structure.</i>
<i>bond</i>	1. a contract document promising to repay money borrowed by a company or by the government 2. a contract document promising to repay money borrowed by a person	something that forms a connection between people or groups, such as a feeling of friendship or shared ideas and experiences: <i>the bond that links us.</i>
<i>draft</i>	1. an order for money to be paid by a bank 2. the first rough plan of a document which has not been finished	a rough written version of something that is not yet in its final form: <i>This is only the first draft of my speech.</i>
<i>gift</i>	to give comment: <i>A gift is irrevocable.</i>	a thing that you give to somebody, especially on a special occasion.
<i>house</i>	one of the two parts of the British Parliament (the House of Commons and the House of Lords)	a building for people to live in, usually for one family.

Yuqoridagi misollarda tub yuridik terminlarning umumadabiy tilda qo'llanilganda ma'no o'zgarishlari misollar yordamida yoritib berilgan.

Misol tariqasida *loss* so'zini oladigan bo'lsak, bu termin sifatida huquqshunoslik lug'atlarida "the car was written off as a dead loss, a total loss", ya'ni "mahinani yaroqsiz deb e'tirof etish va hisobdan chiqartirish" (example: the car was so badly damaged that the insurers said it had no value) ma'nosida qo'llanilgani berilgan bo'lsa, bu umumadabiy so'z sifatida qo'llanilganda "yo'qotish, biror narsadan mahrum bo'lish" (example: I want to report the loss of a package) ma'nosida qo'llanilishi misollar yordamida yoritib berilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, terminga aylanayotgan umumadabiy tildagi so'zlar faqatgina muayyan terminologik maydondagina termin bo'lib kela oladi. Terminologik maydondan tashqarida ular terminlik xususiyatlarini yo'qotadi. Masalan, *bench* so'zi *skameyka*, *xarak* ma'nolarini bildiradi. Bu so'z yuridik terminologik maydonda *sudya*, *hakam* yoki *sud zalidagi sudya uchun ajratilgan o'rin* degan ma'noni ifodalaydi:

His lawyer turned to address the bench (Sudya ma'nosida).

There was cheering from the Opposition benches (Sud zalidagi sudya uchun ajratilgan o'rin ma'nosida).

¹ Ханпира Э.И. О терминах и терминологии. "Русский язык в национальной школе", М., 1985, № 4, с. 26.

Umumiste'molda bo'lgan ma'lum bir so'zlarning semantik doirasi kengayishi natijasida ular ma'lum vaqtdan so'ng terminologik tizimga ham kirib boradi. O'zbek tilida misol tariqasida keltirilgan bo'lsak, *guvoh* leksemasi shu tariqa yuridik terminologiyasiga kirib kelgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zning 3 xil ma'nosi keltiriladi.

1. Bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rgan yoki ularning haqiqatdan ham bo'lganligini tasdiqlash uchun shu ish bo'lgan joyga maxsus chaqirilgan kishi, shohid.

2. Yuridik sud yoki tergovdagi ish yuzasidan o'z bilganlarini aytib berish uchun sudga chaqirilgan kishi.

3. Voqea-hodisa, fikr, holatning to'g'riligini tasdiqlovchi narsa, dalil.

Bundan ko'rinadiki, *guvoh* so'zining ikkinchi va uchinchi ma'nolari bugungi kunda yuridik termin sifatida keng qo'llanilmoqda. Bunda umumiste'moldagi so'z ma'nosining kengayishi natijasida yuridik terminologiyaga kirib kelgan.

Ta'kidlash joizki, shu so'zning o'zi, keyinchalik, *guvohlantirish*, *guvohnoma*, *guvohlik* kabi boshqa yuridik terminlarning shakllanishiga xizmat qilgan.

Xulosa. Turli tillarda terminologik sistemalarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish uchun terminlarning qaysi usullarda shakllanishini o'rganish talab etiladi. Terminologiya sohasida olib borilgan izlanishlardan ma'lum bo'ladiki, terminlarning shakllanishi umumadabiy so'zlarning shakllanishi bilan deyarli bir xil. Umumadabiy tilda yangi so'zlar yasalishi asosida jamiyatdagi barcha kishilarning o'zaro aloqasini ta'minlash zaruriyati yotsa, terminlar yasalishi asosida esa ma'lum bir sohaga oid tushunchalarni ifodalash zaruriyati yotadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ingliz tilida qonunga oid terminlarni o'rganishdan maqsad talabalarning kasbga doir lug'at boyligini oshirish hamda ularni ingliz tilida qonunga oid matnlar bilan ishlash malakasini shakllantirishdan iborat.

Safarov Firuz Sulaymonovich (Buxoro davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida doktoranti, f.f.n., dotsent; e-mail: 1sfs2012@mail.ru)

ADABIY TIL TUSHUNCHASI VA ADABIY TILNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada adabiy til tushunchasi, adabiy tilning belgilari va shakllanish bosqichlari bayon qilinadi. Unda adabiy til tushunchasining mazmuni tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinishi, adabiy til tarixiy-madaniy hodisa bo'lib, asrlar davomida shakllanishi, adabiy tilning farqlovchi belgilari: polivalentlik, ishlov berilganlik darajasi, tanlash va qoidalashtirishning qat'iyligi turli adabiy tildagina emas, ayni bir til tarixining turli davrida ham bir xil bo'lmasligi mumkinligi ko'rsatib beriladi.*

Аннотация. *В данной статье описывается понятие литературного языка, признаки литературного языка и этапы его формирования. В статье разъясняется, что существуют различные трактовки лингвистов понятия литературного языка, литературный язык является исторической категорией, формирующийся на протяжении веков, дифференциальные признаки литературного языка: поливалентность, степень обработанности, строгость отбора и регламентации могут быть неодинаковыми не только в разных литературных языках, но и в разные периоды истории одного и того же языка.*

Annotation. *This article describes the concept of the literary language, the features of the literary language and the stages of its formation. The article explains that there are different interpretations of the concept of literary language by linguists, the literary language is a historical category that has been formed over the centuries, the differential features of the literary language: polyvalence, degree of processing, selection and regulation can be different not only in different literary languages, but also in different periods of the history of the same language.*

Kalit so'zlar: *adabiy til, xalq adabiy tili, milliy adabiy til, badiiy adabiyot tili, polivalentlik, ishlov berilganlik, tanlanganlik, qoidalashtirilganlik.*

Ключевые слова: *литературный язык, народный литературный язык, национальный литературный язык, язык художественной литературы, поливалентность, обработанность, регламентация, отбор.*

Key words: *literary language, folk literary language, national literary language, language of fiction, polyvalence, processing, regulation, selection.*

Har bir millat tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida shu millatning birlashishi va iqtisodiy-madaniy rivojlanishini ta'minlovchi vosita sifatida adabiy tilga ehtiyoj tug'iladi. "Til ijtimoiy-ruhiy hodisa (yoki ruhiy-ijtimoiy xilqat¹) bo'lib, adabiy til uning tarixiy-madaniy ko'rinishidir".² "Har qanday adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanib, shu sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi. Rivojlangan adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo'lishi mumkin emas".³

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida adabiy til tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: Adabiy til – muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli.⁴

Tilshunoslikda adabiy til tushunchasi turlicha talqin qilingan. Sho'ro germanisti M.M.Guxman adabiy til deganda og'zaki yoki yozma ko'rinishda qo'llanishidan qat'iy nazar, har qanday tilning ishlov berilgan shaklini tushunadi.⁵ Tilning "ishlov berilgan shakli" degan ta'rif mazkur til birliklari majmuasidan ozmi ko'pmi anglangan sifatiiy mezonlar asosida tanlash va shu bilan bog'liq ko'proq yoki kamroq darajada qoidalashtirilganlikni taqozo qiladi. Boshqacha aytganda, adabiy til hududiy dialektlar, kundalik so'zlashuv koyni (shevalararo til)ning har xil turlari va so'zlashuv tili bilan bir qatorda, tilning mavjudlik shakllaridan biri sifatida qaraladi. Shuning uchun adabiy tilning farqlovchi belgilari, avvalo, uning tilning mavjudlik shakllari tizimida tutgan o'rni orqali aniqlanadi, bu belgilar shu boshqa shakllarga qarama-qarshi qo'yish orqali ochiladi.⁶ Olimning fikricha, tilning mavjudlik shakllari faqat yuqorida tilga olingan belgilar (ishlov berilgan shakl – ishlov berilmagan shakl, ongli ravishda tanlashning mavjudligi – mavjud emasligi) asosida emas, ijtimoiy sohalar (davlat boshqaruvi va ish yuritish, fan, matbuot, maktab, turmush, san'at sohasi va h.k.)da qo'llanish bilan ham farqlanadi.⁷

Mazkur tadqiqotchi adabiy tilning farqlovchi belgilarini aniqlashda adabiy tilning tarixiy kategoriya ekanligini e'tiborga olish zarurligini ta'kidlaydi, chunki "ishlov berilganlik darajasi, tanlash va qoidalashtirishning qat'iyligi turli adabiy tildagina emas, ayni bir til tarixining turli davrida ham bir xil bo'lmasligi mumkin. Turli tilda va bir til tarixining turli davrida tilning alohida mavjudlik shakllarining u yoki bu muloqot sohasiga taqsimlanishi va birlashtirilishi ham bir xil emas, o'z navbatida, adabiy tilning ko'p yoki kam funksional yuki ham shu bilan bog'liq⁸.

M.M.Guxman "adabiy til" termini ikki ma'noda qo'llanishi mumkinligini aytadi: badiiy adabiyot tili va tilning ishlov berilgan shakli ma'nosida. "Biroq bu ikki tushuncha, aslo, bir xil emas. Adabiy til, bir tomondan, "badiiy adabiyot tili" tushunchasidan kengroq, chunki adabiy til o'z ichiga faqat badiiy adabiyot tilini emas, publitsistika, fan va davlat boshqaruvi tili, rasmiy til va og'zaki so'zga chiqish tili, so'zlashuv nutqi va h.k.ni ham oladi, boshqa tomondan, badiiy adabiyot tili adabiy tildan kengroq tushuncha, chunki badiiy asarga sheva, shahar yarim shevasi elementlari, jargonizmlar kiritilgan bo'lishi mumkin."⁹

M.M.Guxman adabiy til terminini qo'llaydigan tilshunoslar uning mazmunini belgilashga hamfikr emasligini qayd qiladi. Masalan, B.V.Tomashevskiy va A.V.Isachenko adabiy til hozirgi kun nuqtayi nazaridan, shakllangan millatlar davridagina vujudga keladi deb hisoblaydi. B.V.Tomashevskiy bu haqida shunday deb yozadi: "Hozirgi ma'nodagi adabiy til milliy til mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Ya'ni uning tarixiy sharti millatning mavjud bo'lishidir, har holda, bu termin milliy til doirasida maxsus va yetarli darajada aniq mazmunga ega bo'ladi".¹⁰ Shu fikrni mufassalroq tarzda A.V.Isachenko rivojlantiradi. Har qanday adabiy tilning zaruriy belgilari: 1) polivalentlik, ya'ni millat hayotining barcha sohasiga xizmat qilish; 2) me'yoriylilik; 3) jamoaning barcha a'zosi uchun umummajburiylik va shu bilan bog'liq ravishda sheva variantlariga yo'l qo'yilmasligi; 4) uslubiy tarmoqlanganlik deb qarab A.V.Isachenko bu belgilar faqat milliy tillarga xos ekan, adabiy til millat vujudga kelishidan oldingi davrda mavjud bo'lishi mumkin

¹ Зикриллаев Ф. Рух ва тил. Тошкент, "Фан", 2018, 48-бет.

² Зикриллаев Ф. Истиқлол ва адабий тил. Тошкент, "Фан", 2004, 8-бет.

³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. I жилд, Тошкент, "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2000, 125-бет.

⁴ Шу манба. 124 – 125-бетлар.

⁵ Гухман М. М. Литературный язык. Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. Москва, "Наука", 1970, с. 502.

⁶ Гухман М.М. То же произвед., с. 502.

⁷ Гухман М.М. Shu manba.

⁸ Гухман М.М. Shu manba.

⁹ Гухман М. М. Shu manba, с. 504.

¹⁰ Томашевский Б.В. Язык и литература. В сб.: "Вопросы литературоведения". Москва, 1951, с. 177 – 179.

emas deb hisoblaydi.¹ M.M.Guxman A.V.Isachenkoning bu fikriga qo'shilmaydi. Chunki A.V.Isachenko tomonidan sanab o'tilgan farqlovchi belgilar chindanam millat davridagi adabiy tillarda aniq namoyon bo'ladi biroq har qanday adabiy tilda ham bu belgilarning butun majmui mavjud bo'lmaydi, zero, ayrim farqlovchi belgilar muayyan tillar tarixida faqat asta-sekin shakllanadi, buning ustiga ayni bir davrda shakllanmaydi.

Bundan tashqari, bu adabiy tillarning rivojlanishini tushunish uchun juda muhim, ularning ayrim farqlovchi belgilarining shakllanishi juda notekis kechadi. Masalan nemis tili XVII asrning oxiri – XVIII asrning boshidayoq polivalent bo'lgan, hududiy variativlik va umummajburiy me'yorning yo'qligi, ayniqsa, talaffuzda barqaror ravishda saqlanib qolavergan, xususan, talaffuzning mahalliy xususiyati hatto Gyote va Shillerning she'rlarida ham aks etgan, bu zamondoshlari tomonidan sira ham me'yorning buzilishi deb qaralmagan.²

Buning ustiga, polivalentlik va umummajburiylik hamma yerda ham hozirgi milliy tillarga xos emas: arab mamlakatlari va Italiyada adabiy til hozirgi davrda ham polivalent xususiyatga ega emas. Arab mamlakatlarida adabiy tilning qo'llanish doirasi shu bilan cheklanganki, adabiy til kundalik muloqotda faqat oilada emas, ishda ham qo'llanmaydi, uning o'rniga mahalliy oraliq til (adabiy til va sheva qorishmasi) ishlatiladi. Ayni paytda, hududiy shakllar adabiy til sohasi bo'lgan radio, televideniya, teatr, kinoga ham kirib borgan. Chexoslovakiyada chex adabiy tili faqat yozma emas, og'zaki shaklda ham qo'llanilishiga qaramay, turmushdagina emas, ijtimoiy amaliyot sohasida ham kundalik so'zlashuv tili keng qo'llaniladi. Italiyada esa adabiy tilning og'zaki shaklida mahalliy sheva ta'siri kuchli, adabiy tilning yozma ko'rinishi esa ko'p holda sun'iy hodisa sifatida qaraladi.³

M.M.Guxmanning fikricha, adabiy tilning o'zgarimas va doimiy, uni tilning boshqa mavjudlik shakllari orasida doim ajratib turadigan va uning o'ziga xosligini hammasidan ko'ra to'liq ifodalaydigan xususiyati tilning ishlov berilganligi hamda u bilan bog'liq tanlanganlik va nisbiy qoidaviylik (reglamentatsiya)dir.⁴ Biroq bu belgilar adabiy tilning faqat milliy til sifatida qo'llangan davriga xos emas. Shuning uchun tilning ishlov berilgan shaklining turli davrdagi ko'rinishini keskin qarama-qarshi qo'yishga asos yo'q.⁵

Akademik V.V.Vinogradov masalaga boshqacha nuqtayi nazardan yondashganligidan, og'zaki she'riyatni adabiy tilning og'zaki ko'rinish deb hisoblamaydi.⁶ Professor M.M.Guxmanning fikricha, qadimgi xalqlarning epik she'riyati, jumladan, Gomer dostonlari, O'rta Osiyo xalqlari eposi, olmon shpilman, minnezingerlarining ijodi muayyan mezonlarga asoslangan so'z tanlash va qoidaviylik (reglamentatsiya)ka ega bo'lgan ishlov berilgan tilning yuksak namunasi bo'lib, bunday asarlarni adabiy tilning og'zaki ko'rinishi deb hisoblash zarur.⁷ Shunga ko'ra, M.M.Guxman tomonidan adabiy tilning ikki bosqich va ikki xil ko'rinishi borligi e'tirof etiladi: xalq adabiy tili va millatning adabiy tili (milliy adabiy til).

Yuqorida aytilganidek, adabiy til tarixiy hodisa bo'lib, asrlar davomida shakllanadi. Adabiy til jamiyat tarixining muayyan davrida siyosiy, madaniy ehtiyoj tufayli vujudga keladi. A.A.Reformatskiy feodalizm davridagi tillar haqida so'z yuritarkan, bu davrda turli qabila shevalaridan dialektlar tashkil topganini yozadi.⁸ "Biroq so'zlashuv tili sifatida xizmat qiladigan dialektlar bilan birga davlat ehtiyojlari uchun xizmat qiladigan yana qandaydir shevalardan baland turadigan tilga zarurat tug'ildi. Bu cherkov va cherkov targ'iboti, umumiy qonun chiqarish, fan, adabiyot, umuman, savodlilik va kitobxonlik bilan bog'liq barcha ehtiyojlar uchun zarur edi".⁹

Ammo feodalizmning dastlabki davrida xalqlarning adabiy tili milliy til asosida shakllanmagan. "G'arb va Sharq xalqlari adabiy tili rivojlanishining umumiy qonuniyatlari orasida feodalizmning milliy adabiy tillar shakllanishidan oldingi davriga xos muhim bir qonuniyat ko'zga tashlanadi, bu yozma adabiy til sifatida o'z tilidan emas, begona tildan foydalanishdir. Bu davrda adabiy til va xalq chegarasi bir-

¹ Исаченко А.В. К вопросу о периодизации истории русского языка. Вопросы теории и истории языка (сборник в честь проф. Б.А.Ларина). Ленинград, 1963, с. 149 – 158.

² Гухман М.М. Shu manba.

³ Гухман М.М. Shu manba.

⁴ Гухман М.М. Shu manba.

⁵ Гухман М.М. Shu manba.

⁶ Виноградов В.В. Основные проблемы изучения образования древнерусского литературного языка. Москва, 1958, с. 39.

⁷ Гухман М.М. Shu manba. 507 с.

⁸ Реформатский А.А. Введение в языковедение. Москва, "Просвещение", 1967, с. 505.

⁹ Реформатский А.А. То же, с. 507.

biriga mos tushmaydi. Eroniy va turkiy xalqlarda uzoq vaqt davomida mumtoz arab tili; yapon va koreyslarda mumtoz xitoy tili; german va g'arbiy slavyan xalqlarida lotin tili; janubiy va sharqiy slavyanlarda eski slavyan, qadimgi bolgar tili xizmat qilgan".¹ Bu davrda xalqlarning o'z tili asosida shakllangan adabiy tili, ya'ni xalq adabiy tili folklor namunalarida og'zaki ko'rinishda mavjud bo'lgan.

Adabiy til shakllanishining keyingi bosqichi milliy adabiy tilning vujudga kelishidir. Milliy tillarning shakllanishi jarayonida tilning mavjudlik shakllari tuzilishida sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bu o'zgarishlarning umumiy yo'nalishi shu xalqning asosiy, hamma tomonidan tan olingan aloqa shakli sifatida yagona ko'p vazifali me'yorlashtirilgan adabiy tilning shakllanishi bilan bog'liq. Rivojlangan milliy tillar vujudga kelgan davrda adabiy tilning bu turi asta-sekin tilning boshqa mavjudlik shakllarini siqib chiqaradi, ularning ijtimoiy ahamiyatini pasaytiradi va umummilliy normaning ifodachisi, milliy til mavjudligining oliy shakliga, lisoniy aloqaning universal vositasiga aylanadi.²

Millat vujudga kelgan davrdagina adabiy til unda hali millat vujudga kelishidan oldingi davrda, mavjud bo'lgan imkoniyatlar – ko'pvalentlik va uslubiy xilma-xillik, tanlanganlik va nisbiy qoidaviylik, dialektlardan yuqori turish xususiyatini to'liq ro'yobga chiqaradi: ko'pvalentlik rivojlanib tilning mulototning barcha sohasida qo'llanishiga aylanadi, uslublar tizimi bundan buyon adabiy so'zlashuv uslubini ham o'z ichiga oladi, tanlanganlik va nisbiy qoidaviylik kodifikatsiyalangan me'yorlar tizimiga aylanadi, shevalardan yuqori turish xususiyati yagona, hududiy bog'lanmagan me'yorning umummajburiyligi shaklini oladi. Shunga ko'ra, milliy adabiy til adabiy tilning eng rivojlangan ko'rinishidir.³ Turli xalqning milliy adabiy tili jamiyatda turli mavqeyini egallagan.

Uzoq davom etgan yozma an'anaga ega bo'lgan xalqlarda milliy adabiy til belgilarining hosil bo'lishi hali millat vujudga kelishidan oldin sodir bo'la boshlagan. Yangi sifatga ega bo'lishning dastlabki bosqichi ushbu xalq adabiy tilining yagona va yaxlit adabiy til mavqeyini egallashi bo'ldi. Bu jarayon ikki yo'nalishda kechdi. Birinchisi – yozma adabiy tilning begona til (G'arbiy Yevropa mamlakatlarida lotin tili, Rossiya, Serbiya, Bolgariyada eski slavyan tili, Chexoslovakiyada lotin va nemis tili, Norvegiyada dat tili asosidagi yozma adabiy til) asosida ekanligidan iborat zo'ravonlikni yengib o'tishi, shuningdek, o'z eski yozma tilini siqib chiqarish (Xitoy, Yaponiya, Armaniston, Gruziya, Tojikiston, O'zbekiston, qisman Arab sharqi mamlakatlarida shunday bo'ldi). Ikkinchi yo'nalishi – hududiy xilma-xillikni bartaraf etish, bu avval adabiy tilning o'zining kitobiy yozma shakliga, so'ng xalq so'zlashuv shakllariga taalluqli bo'ldi. Ikkala jarayon ham milliy o'zlikni anglashning uyg'onishi bilan bog'liq.⁴

Milliy tillar tarixining turli davrida adabiy tilning universal aloqa vositasi mavqeyini egallash darajasi turlicha, adabiy tilning bu turining shakllanish sur'ati esa turli millat tarixida bir xil emas.⁵ Bir tomondan, Norvegiyadagi, boshqa tomondan, arab mamlakatlaridagi tilga oid vaziyatni ko'rib chiqish, hatto rivojlangan milliy madaniyat sharoitida ham adabiy til milliy adabiy tilning tipologik tavsifiga kiritilgan farqlovchi belgilar majmuyiga ega bo'lmasligi mumkinligini ko'rsatadi. Norvegiyada yagona umummajburiy adabiy til yo'q; qator me'yorlashtiruvchi qarorlar, ularni yaqinlashtirish uchun bir necha marta o'tkazilgan imlo islohotlariga qaramay, ikki adabiy tilning mavjudligi davom etmoqda. Arab mamlakatlarida arab tilining ikki funksional turi borligi haqida gapirishga to'g'ri keladi, binobarin, polivalentlik kabi belgini arab tiliga nisbatan qo'llab bo'lmaydi.⁶

Milliy adabiy tilning polivalentligi uning davlat boshqaruvi, ish yuritish sohasida, ba'zan esa fan va universitet ta'limi sohasida qo'llanmasligi tufayli buzilganda andozadagi sxemaning boshqacha ko'rinishlari yuzaga keladi. Bunday holat etnik tarkibi turlicha bo'lgan davlatlarda saqlanib qoladi. Bunday davlatlarga bir nechta adabiy til mavjud bo'lib, ulardan faqat bittasi milliy adabiy til ijtimoiy vazifalarining butun majmuiga ega bo'ladi.⁷ Jumladan, Indoneziyada bir nechta adabiy til amalda bo'lib, ularda gazeta va jurnallar chiqariladi, sud jarayonlari, maktab ta'limi olib boriladi. Biroq umumdavlat tili faqat indonez tili hisoblanadi. Shunday qilib, adabiy til qo'llanadigan ijtimoiy sohalarda o'ziga xos ikki tillilik vujudga keladi, chunki adabiy tilning vazifalari ikkita turli adabiy tilga taqsimlab qo'yilgan.⁸

¹ Энциклопедический словарь юного филолога. Москва, "Педагогика", 1984, с. 156.

² Гухман М.М. Shu manba. 532 с.

³ Гухман М.М. Shu manba. 533 – 534 с.

⁴ Гухман М.М. Shu manba. 534-бет.

⁵ Гухман М.М. Shu manba. 532-бет.

⁶ Гухман М.М. Shu manba. 538-бет.

⁷ Гухман М.М. Shu manba. 539 – 540-бетлар.

⁸ Гухман М.М. Shu manba. 540-бет.

Hindistonda bundan ham murakkab vaziyat vujudga kelgan. Hindistonning inglizlar tomonidan bosib olinishidan oldin bu yerda qadimiy yozma me'yorlashtirilgan adabiy til – sanskritdan tashqari, bir nechta mahalliy adabiy til bo'lgan. Uzoq davom etgan ingliz hukmronligi davrida davlat idoralari, ish yuritish, savdo, iqtisod, maktab va universitet tili ingliz tili bo'lib qolgan. Yagona umumiy davlat tili vazifasini begona til bajargan, mahalliy tirik adabiy tillarning qo'llanishi sohasi esa o'ta cheklanib qolgan. Hindiston aholisining aksariyati ingliz tilini bilmaydi. Unda aholining ikki foizga yaqini erkin gaplashadi.¹

Shuning uchun ingliz tilini almashtirish zarurligi XX asr boshidayoq anglab yetiladi va milliy ozodlik harakatining asosiy shiorlaridan biriga aylanadi.²

Biroq chet el hukmronligi ag'darib tashlanganidan keyin ham turli adabiy tillarning "huquqi", ya'ni ularning ijtimoiy vazifasi masalasi ilgarigi keskinligini saqlab qoladi. Hindiston Konstitutsiyasida 14 ta eng muhim adabiy til teng huquqli deb tan olingan bo'lsa-da, umumdavlat tili vazifalari ingliz tili o'rniga hindi tiliga beriladi (1965-yildan). Biroq bu qaror turli shtatda qattiq qarshilikka uchraydi, chunki unda boshqa tillarda gaplashuvchi aholining huquqi kamsitilgan deb qaraydilar. Ammo Hindiston kabi ko'p tili davlatda qandaydir umumiy va yagona til juda zarur bo'lganidan hindi tiliga qarshi bo'lganlar yana ingliz tiliga murojaat qiladi: ingliz tili shu munosabat bilan, ikkinchi rasmiy til mavqeyini saqlab qoladi. Bunday vaziyatda "to'la huquqli" milliy til – hindi birdan-bir adabiy til sifatiga ega emas, chunki uning raqobatchilari, bir tomondan, boshqa mahalliy adabiy tillar bo'lsa, boshqa tomondan, begona adabiy til – ingliz tili bo'lib qolgan.³

M.M.Guxman milliy adabiy til bilan bog'liq yana bir holatni tafsiflaydi: "Milliy adabiy til, o'z nomidan ko'rinib turganidek, ushbu adabiy tilning, albatta, ushbu millat bilan bog'liqlikni taqozo qiladi. Biroq adabiy tillar va bu tillarning egasi bo'lgan xalqlarning murakkab rivojlanishi jarayonida ikki millatda bitta adabiy tilning mavjudligi: nemis tilining Germaniya va Avstriyada, ingliz tilining Angliya va Amerikada, ispan tilining Ispaniya va Janubiy Amerikada, portugal tilining Portugaliya va Braziliyada adabiy til vazifasini bajarishi alohida hodisani tashkil etadi".⁴

Xulosa sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

1. Til ijtimoiy-ruhiy hodisa (ruhiy-ijtimoiy xilqat) bo'lib, adabiy til uning tarixiy-madaniy ko'rinishidir. Adabiy til – muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli.

2. Adabiy til termini ikki ma'noda qo'llanishi mumkin: badiiy adabiyot tili va tilning ishlov berilgan shakli ma'nosida. Biroq bu ikki tushuncha, aslo, bir xil emas. Adabiy til, bir tomondan, "badiiy adabiyot tili" tushunchasidan kengroq chunki adabiy til o'z ichiga faqat badiiy adabiyot tilini emas, publitsistika, fan va davlat boshqaruvi tili, rasmiy til va og'zaki so'zga chiqish tili, so'zlashuv nutqi va h.k.ni ham oladi, boshqa tomondan, badiiy adabiyot tili adabiy tildan kengroq tushuncha, chunki badiiy asarga sheva, shahar yarim shevasi elementlari, jargonizmlar kiritilgan bo'lishi mumkin.

3. Adabiy til tarixiy hodisa bo'lib, asrlar davomida shakllanadi. Tarixiy rivojlanish davriga ko'ra, adabiy tilning ikki bosqich va ikki xil ko'rinishi mavjud: xalq adabiy tili va millatning adabiy tili (milliy adabiy til).

4. Adabiy tilning o'zgarmas va doimiy, uni tilning boshqa mavjudlik shakllari orasida doim ajratib turadigan va uning o'ziga xosligini hammasidan ko'ra to'liq ifodalaydigan belgisi uchta: ishlov berilganlik, tanlanganlik va nisbiy qoidaviylik (reglamentatsiya). Biroq bu belgilar adabiy tilning faqat milliy til sifatida qo'llangan davriga xos emas. Shuning uchun tilning ishlov berilgan shaklining turli davrdagi ko'rinishini keskin qarama-qarshi qo'yishga asos yo'q.

5. G'arb va Sharq xalqlari adabiy tili rivojlanishining umumiy qonuniyatlari orasida feodalizmning milliy adabiy tillar shakllanishidan oldingi davriga xos muhim bir qonuniyat ko'zga tashlanadi, bu yozma adabiy til sifatida o'z tilidan emas, begona tildan foydalanishdir. Bu davrda xalqlarning o'z tili asosida shakllangan adabiy tili, ya'ni xalq adabiy tili folklor namunalarida og'zaki ko'rinishda mavjud bo'lgan.

6. Adabiy til shakllanishining keyingi bosqichi milliy adabiy tilning vujudga kelishidir. Rivojlangan milliy tillar vujudga kelgan davrda adabiy tilning bu turi asta-sekin tilning boshqa mavjudlik shaklla-

¹ Гухман М.М. Shu manba.

² Гухман М.М. Shu manba.

³ Гухман М.М. Shu manba.

⁴ Гухман М.М. То же произвед., с. 541.

rini siqib chiqaradi, ularning ijtimoiy ahamiyatini pasaytiradi va umummilliy normaning ifodachisi, milliy til mavjudligining oliy shakliga, lisoniy aloqaning universal vositasiga aylanadi.

7. Turli mamlakatdagi tilga oid vaziyatni ko'rib chiqish, hatto rivojlangan milliy madaniyat sharoitida ham adabiy til milliy adabiy tilning tipologik tavsifiga kiritilgan farqlovchi belgilar majmuiga ega bo'lmasligi mumkinligini ko'rsatadi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi: 1) bir davlatda ikki adabiy tilning mavjudligi (Norvegiya); 2) tilning ikki funksional turi borligi, shu sababli adabiy til polivalentligining cheklanganligi (Arab sharqi davlatlari); 3) bir nechta adabiy til mavjud bo'lib, ulardan faqat bittasi milliy adabiy til ijtimoiy vazifalarining butun majmuyiga ega bo'lishi (Indoneziya); 4) milliy adabiy til bilan birga, begona tilning rasmiy til sifatida qo'llanishi (Hindiston).

8. Adabiy tillar va bu tillarning egasi bo'lgan xalqlarning murakkab rivojlanishi jarayonida ikki millatda bitta adabiy til mavjud bo'lishi ham mumkin.

Karimov Islombek (Farg'ona davlat universiteti tayanch doktranti)
ALISHER NAVOIYNING "MAHBUB UL-QULUB" ASARIDA SINONIM SO'ZLARINING
QO'LLANISHI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari leksikasida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlaridan sinonim so'zlarning qo'llanishi haqida fikrlar izohlangan. "Mahbub ul-qulub"dagi sinonimlar qatori ikkiga ajratildi: 1. Leksik-semantik sinonimlar. 2. Funksional-semantik sinonimlar. Maqolada o'zbek tili sinonimiyasining barcha ko'rinishlari o'z ifodasini topgan. Asar tilidagi sinonimik paradigmalar fikrni teran anglatish, uslubni muvofiq tarzda shakllantirish imkonini yaratganligi, asar tilidagi sinonimik qatorlar miqdor va sifat jihatdan o'zaro farqlanishi izohlangan. Tadqiqotda so'zlarning o'z ma'nolari bilan sinonimik munosabatda bo'lishi leksik-semantik sinonim, funksional ma'nolari bilan sinonimik munosabatga kirishuvi funksional-semantik sinonim termini bilan yuritilganligi yoritib berilgan.*

***Аннотация.** В данной статье разъясняется употребление синонимов в лексиконе великого мыслителя Алишера Навои "Махбуб уль-кулуб" с точки зрения формы и значения. Ряд синонимов в "Махбуб уль-кулуб" делится на два: 1. Лексико-семантические синонимы. 2. Функционально-смысловые синонимы. В статье рассматриваются все аспекты синонимии узбекского языка. Объясняется, что синонимические парадигмы в языке произведения позволяют выразить мысль глубже, соответственно сформировать стиль, синонимические линии в языке произведения различаются по количеству и качеству. В исследовании подчеркивается, что синонимическая связь слов с их значениями именуется лексико-семантической синонимией, а синонимическая связь с функциональными значениями – функционально-семантической синонимией.*

***Annotation.** This article describes the historical – ethno-classification of the lexicon of the great thinker Alisher Navoi's work "Mahbub ul-qulub": ideas about the lexicon of its own layer. "Mahbub ul-qulub" reflects the lexical features of the Uzbek language in the period of ancient Turkic language, Old Turkic language, Old Uzbek literary language and the relation of Turkic words to the ancient Turkic language. The relation of Turkic words to modern Uzbek literary language reached. It is explained that the synonymous paradigms in the language of the work allow to express the idea in depth, to form the style accordingly, the synonymous lines in the language of the work differ in quantity and quality. The study highlights that the synonymous relationship of words with their meanings is referred to as the lexical-semantic synonym and the synonymous relationship with functional meanings is referred to as the functional-semantic synonym.*

***Kalit so'zlar:** sinonim, paradigma, semema, sema, semantika, struktura.*

***Ключевые слова:** синоним, парадигма, семема, сема, семантика, структура.*

***Key words:** synonym, paradigm, sememe, seme, semantics, structure.*

"Mahbub ul-qulub" leksikasining o'ziga xosligini ta'minlovchi lingvistik omillardan biri omonimlar, sinonimik paradigma, antonimlarning maqsadga muvofiq qo'llanishidir. Asar tilining uslubiy o'ziga xosligini ta'minlashda sinonimik paradigmalar muhim o'rin tutadi.

Asar tilida voqelik ifodasi davomida turli so'zlardan, mazmuni batafsil, teran ifodalashda ma'no nozikliklari bilan farqlanuvchi leksik paradigmadan foydalanilgan. Navoiy idroki teran, mulohazakor, sinchkov inson bo'lgan. U so'zlarning ma'no bo'yoqdorligini chuqur anglagan. Muayyan ma'noni ifodalashda sinonimlardan mohirona foydalangan.

Asar tilidagi sinonimik paradigmlar fikrni teran anglatish, uslubni muvofiq tarzda shakllantirish imkonini yaratgan. Asar tilidagi sinonimik qatorlar miqdor va sifat jihatdan o'zaro farqlanadi.

Sinonimik paradigmani hosil qiluvchi har bir semema semalari miqdori va ifoda darajasi bilan farqlanadi. Sinonimiya tilning leksik, frazeologik, grammatik sathlarida kuzatiladi. O'zbek tilining keng ifoda imkoniyatlariga ega ekanligi Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy hamda zamonaviy rus va o'zbek tilshunoslari tomonidan e'tirof etilgan. Navoiy sinonimlarning mohiyatini, ma'no ifodalashdagi nozik farqlarini, badiiy ahamiyatini ilmiy asosda izohlab bergan. O'zbek tilining keng ifoda imkoniyatini ta'minlovchi sinonimlar taraqqiyotini diaxronik planda kuzatish, sinonimlarning tushuncha, fikrni yoritishdagi ahamiyatini belgilashda tarixiy, badiiy asarlar tili muhim o'rin tutadi. Ma'lum davrda yaratilgan yozma yodgorliklar shu davr umumxalq tili leksikasiga oid asosiy jihatlarni aks ettiradi.

XV–XVI asrlar o'zbek adabiy tili leksikasining ko'p ma'nolilik, ma'nodoshlik xususiyatlarini ifodalashda "Mahbub ul-qulub" nodir manba hisoblanadi. Asarda o'zbek tili sinonimiyasining barcha ko'rinishlari o'z ifodasini topgan. Navoiy uchun sinonimlardan foydalanish o'z-o'zicha qimmatga ega bo'lgan maqsad emas, balki u avlodlarga yetkazmoqchi bo'lgan mazmunni to'la, aniq va go'zal ifodalash vositasi edi. "Mahbub ul-qulub"da til boyligi bosh maqsadlarni yuzaga chiqarish yo'lida bir vosita bo'lib xizmat qilgan".¹

"Mahbub ul-qulub"dagi quyidagi sinonimik qatorlar ishtirok etgan: ayb - qusur - nuqson; anva' - muxtalif - har rang - har jins; muhosara - qabal; ov - shikor; osmon - ko'k; ot - ism - nom; sovuq - sard; tabib - hakim; tana - badan - jism - vujud; til - zabon - lafz; un - ovoz - tovush; uruq - xesh; farmon - hukm; cherik - qo'shun - sipoh - lashkar; chin - rost; yayoq - piyoda.²

"Mahbub ul-qulub"da turkiy va o'zlashgan qatlamga oid so'zlar o'zaro sinonimik qatorni hosil qilgan. Turkiy so'z+turkiy so'z: asru - ko'p; yog'iy - yov; ushoq - kichik; yoshun - biq; ilik - qo'l - al; turkiy so'z+forsiy so'z: yel - bod; boshliq - sardor; yafroq - barg; yig'och - daraxt; oshliq - g'alla - don; tup - tuz - hamvor; ko'k - osmon; sovuq - sard; turkiy so'z+arabiy so'z: kengash - maslahat - mashvarat; isitma - harorat; ko'mak - madad (imrod); qabal - muhosara; ona - volida; ko'pincha - aksar; yarash - sulh; turkiy +mo'g'ul: on qol - burang'ar; sol qol - javong'ar; turkiy+mo'g'ul+arab: on qol - burang'ar - maymana; sol qol - juvang'ar - maysara.

Asar tilida faqat o'zlashma so'zlar o'rtasidagi sinonimik paradigmlar ham kuzatildi: forsch+arabcha: nishon - alomat; xizmatkor - mulozim; namoyon - oshkora - zohir; oyin - rasm - odat - dastur; poytaxt - dorul xilofa; mozor - qabr (maqbara); shoh - podshoh - sulton - malik; pushaymon - taassuf - nadomat.

Asar leksikasidagi sinonimik paradigmlar ikki so'zdan (so'l - chap); uch so'zdan (yoruq - charog'on - ravshan); to'rt so'zdan (qo'shun - cherik - sipoh - lashkar); besh so'zdan (qiyin - dushvor - shoqq - mutaazzir - mushkul); olti so'zdan (yog'iy - dushman - a'do - muxolif - g'anim - yov); yetti so'zdan (oxir - avoxir - oyoq - oqibat - poyon - intiho - muntahi - itmom); sakkiz so'zdan (chuchuk - shirin - laziz - laz-zatlik - choshniliq - mazalik - xushmaza - xushta'm); to'qqiz so'zdan (emgak - mashaqqat - azob - ranj - suubat - taab - mehnat - zahmat - riyozat); o'n so'zdan (yuru - o'tlan - yuzlan - ilg'a - bor - azimat qil - tebra - uza - ravon bo'l - mutavajjih bo'l); o'n bir so'zdan (ko'p - qalin - g'alaba - bisyor - kulliy - farovon - vofir - base - beg'oyat - behad - asru); o'n ikki so'zdan (niyat - maqsad - g'araz - maqsud - doiya - muddao - murod - dag'dag'a - orzu - ishtiyoq - umid - kom) iborat. Bulardan uch-besh so'zdan tarkib topgan sinonimik paradigmlar ko'p miqdorni tashkil etadi.

"Mahbub ul-qulub"dagi sinonimlar leksik-semantik jihatdan ikki guruhga ajratilgan: 1. Atash va vazifa semalari bir xil, ifoda semalari har xil bo'lgan so'zlar. 2. Narsa-buyum, belgi, harakat-holatni turlicha darajalab atovchi so'zlar (graduonimlar).

Tadqiqotlarda so'zlarning o'z ma'nolari bilan sinonimik munosabatda bo'lishi leksik-semantik sinonim, funksional ma'nolari bilan sinonimik munosabatga kirishuvi funksional-semantik sinonim termini bilan yuritilgan. H.Shamsiddinov muayyan narsa-hodisalarni, ularning belgisi, miqdori, holati, harakati va o'zaro munosabatlarini tasviriy usulda, ifoda maqsadiga muvofiq qayta nomlab yoki narsa-hodisaga xoslab ifodalaydigan va alohida so'zga sinonim bo'ladigan tilning so'z va undan katta sath birliklariga nisbatan so'zlarning funksional-semantik sinonimlari (SFSS) terminini istifoda etadi hamda SFSSning ikki guruhini qayd etadi: I. So'z shaklidagi SFSS (metafora, metonimiya, sinekdoxa, ellipsis natijasida juft,

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 14-jild, T., "Fan", 1998, 83-bet.

² Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh jildlik. 13-jild, T., "Badiiy adabiyot" nashriyoti, 1966, 189-bet.

takror soʻzlarning vaziyat va kontekstga bogʻliq holda yuzaga keluvchi maʼnolari orqali shakllangan funksional-semantik sinonimlar). II. Sintaktik birliklar: frazeologizmlar, til birligiga aylangan tayyor ekspressema hisoblangan perifrazalar.¹

“Mahbub ul-qulub”dagi sinonimlar qatori ikkiga ajratildi: 1. Leksik-semantik sinonimlar. 2. Funktsional-semantik sinonimlar.

Leksik-semantik sinonimlar anʼanaviy tarzda qoʻllanib kelayotgan maʼnodosh soʻzlardir. Leksik-semantik sinonimiyaga asoslangan paradigmani tashkil qiluvchi ayrim soʻzlar arxaiklashadi. Davr oʻtishi mobaynida sinonimik paradigma yangi soʻzlar bilan boyib boradi. Leksik-semantik sinonimlar muayyan tushunchani ifodalovchi soʻzlar paradigmasidir. Bunday paradigmani hosil qiluvchi soʻzlar matndan mustaqil holda oʻzaro sinonimik munosabatda boʻladi. Leksik-semantik sinonimlar paradigmasi soʻzlarning genetik asosiga koʻra quyidagicha guruhlandi:

1. Leksik-semantik sinonimiya turkiy soʻzlar oʻrtasida sodir boʻlgan: tuy - sezir: Muhammad Mazid tarxon tuyub shahrdin chiqti. Tuymoq soʻziga sinonim sifatida sezirmoq soʻzi qoʻllangan: Bu muhimni Tanbalga sezirgach, tura olmadilar, xon qoshigʻa qochib keldilar. Sezirmoq boshqa manbalarda uchramaydi.

2. Leksik-semantik sinonimiya turkiy-forscha-tojikcha-arabcha soʻzlar oʻrtasida kuzatiladi: tutqun - asir - bandi; et - goʻsht - lahm: Hazoraning bir semiz loʻk tevasini topib kelturdilar, ani oʻlturub, goʻsh-tidin bir parcha kabob qilduk, ...oncha laziz teva eti hargiz yeyilgan emas edi, baʼzi qoʻy etidin farq qila olmaydilar.

Bobur mazkur sinonimik paradigmadan matn uslubini maqsadga muvofiq shakllantirishda foydalanган. Asarda, asosan, goʻsht, et soʻzlari qoʻllangan. Lahm arabcha birikma va jumlar tarkibida uchraydi: Yana loʻchadur... Maʼkul ul-lahmdur, bisyor laziz eti bordur. Maʼkulullahm «goʻshti yeyiladigan, halol» maʼnosidagi birikmadir. Yet qadimgi turkiy tilda qoʻllangan. Eski oʻzbek adabiy tilida ham faol ishlatilgan. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida, deyarli, mustaqil qoʻllanmaydi.

Yogʻi-dushman-gʻanim-yot soʻzlari «raqib tomon», «qarama-qarshi subyekt» tushunchalari asosida paradigma hosil qiladi. Bu soʻzlardan yogʻi, dushman, asosan, «raqiblar guruhi»ni anglatgan: Yogʻi qocha berdi, qoʻrgʻondagʻilarni koʻz tuttuk, ish vaqtida yetisha olmadilar, yogʻini tebratgandin soʻng birin-ikkini chopishib kela boshladilar. Oʻzaro raqobat, ziddiyat gʻanim soʻzida kuchliroq ifodalangan: gʻanim qoʻrgʻonda emas edi. Gʻanim soʻzi semalari farqli xususiyatlarda namoyon boʻlgan: a) yakka shaxs tushunchasini bildirgan: Ikkinchi bukim, mening gʻanimim Shayboqxondek purtajriba va koʻp ish koʻrgan va ulugʻ yoshliq kishi edi; b) raqiblar guruhini anglatgan: gʻanim kishisi Xoban kentidin yasab chiqti. Yot «begona», «notanish» maʼnosidagi soʻz, bevosita «raqib» tushunchasini ifodalash bilan birga, taʼkid, kuchaytirish uchun xizmat qilgan: Qandagʻi yot yogʻiy oʻzbek kelib mutasarrif boʻlib edi.

Yot soʻzida soʻzlashuv uslubi xususiyati mavjud: oʻz kishini yotdin farq qilgʻay. Muxolifa. «teskari, qarama-qarshi»... oʻshul manba Ali Doʻst tagʻoyi Andijon qalʼasini muxoliflarga beribtur. Yov soʻzi badiiy uslubga xos: ... va koʻp yovning tanasi mazallat tuprogʻigʻa tushub, fano bodigʻa yiborildi.

3. Leksik-semantik sinonimiya arabcha soʻzlar oʻrtasida kuzatiladi: avlod - nasl: ... balki bu taaddi va tashaddud Xojaning avlodigʻa dagʻi siroyat qildi; Yana bir Boboqul Bobo Alibek edi. Shayx Ali Bahodurning naslidin edi.

4. Leksik-semantik sinonimiya forscha-tojikcha-arabcha soʻzlar oʻrtasida kuzatiladi: asal-shahd: Kobul atrofidagi Koʻhistondagi asal bisyor kelur. Shahdxonalari bordur. Shahdxona «shahd» (asal) olindigan joy».

Xat - nishon - arzadosht - kitobat - sarxat paradigmasi rasmiy yozma maʼlumotlarning turli jihatlari yoritishga xizmat qilgan. Xat arabcha «chiziq», «iz» maʼnosidagi soʻz boʻlib, «yozuv» semasi keyin shakllangan. Shu sema asosida «shaxsning fikr-mulohazalari, istagi, orzu-intilishlari, tilaklari bitilgan matn» tushunchasi yuzaga kelgan. «Mahbub ul-qulub»da «shaxsning fikr-oʻy, daʼvat, talab, xohishni muayyan obyektga yetkazish» tushunchasini ifodalagan: bu navʼ xatlar kelib, mundoq ehtimol bila tilagʻaylar... oʻz ilgim bila xatlar bitib yibordim. Xat «yozuv», «imlo» maʼnosida ham qoʻllangan: ...xat va tasvir va oʻq va paykon va zihgir har nimaga iligi chaspondur.

Bobur tuzgan alifboning «Boburiy xati» tarzida nomlanishi ham xatning «yozuv», «imlo» maʼnosida qoʻllanganini koʻrsatadi. XV–XVI asrlarda qoʻllangan xat chiqar, xatti amon (xatti amoni), xat bor xat, xatti isteʼmolat, xatti najot, xatti ozodlik, xatti gʻubor birikmalarida xat soʻzining «hukm», «dalolat-

¹ Rasulov R., Moʻyidinov Q. Nutq madaniyati. T., 2004, 121 – 132-betlar.

noma», «izchil», «tizimli», «da'vatnoma», «tasdiqnoma», «ma'lumotnoma», «chiroyli yozuv» semalari namoyon bo'lgan. Eski turkiy tilda xat «husnixat»; «xat», «hujjat» ma'nolarida qo'llangan.

Sarxat so'zida xatning «namuna» semasi ifodalangan. Sarxat «yangi husnixat mashq qiluvchi uchun ko'rsatma sifatida muallim tomonidan yozib beriladigan xat namunasi»: Mirzobek tag'oyidin ham Kamrong'a tarjima va Hindqa kelgali aytqon ash'or va «Bobiriy xati» bila bitilgan sarxatlar yiborildi.

Sarxat namunaviy shakldagi husnixat bo'lib, ma'rifiy maqsadga xizmat qilgan. Sarxat milliy kalligrafiya taraqqiyoti haqida muayyan tasavvur beradi. Arzadosht arabcha «o'z ahvolini bayon qilish, istak, maqsadni xat orqali bildirish»dir. Arzadosht Navoiy ijodida «ariza tutish», «arz qilish» ma'nolarida ham qo'llangan. Arzadosht – istak maqsad, arzi hol bitilgan maktub: Manga arzadoshti kelib edi... Kitobat arabcha «yozish, ko'chirib yozish»; «xat yozish»; «yozuv»; «xat» ma'nosidagi so'z. «Mahbub ul-qulub» da «maktub» tushunchasini anglatib, yuqoridagi so'zlar bilan paradigma hosil qilgan.¹

Ikkinchi navbat Samarqandni olg'anima Alisherbek tirik edi, menga kitobati ham kelib edi. Kitobat ifodalanayotgan obyektning hajmiga ko'ra, xatdan farqlanadi. Xat va kitobat so'zlarining ketma-ket qo'llanishi ularning ayni bir tushunchani ifodalamasligini ko'rsatadi: xat va kitobatlar tayyor bo'lub, Bayonshayxqa topshurub, ruxsat berildi.

Xat va arzadosht so'zlarining ketma-ket qo'llangani ham mazkur birliklar ifoda semasida ma'lum farq borligini ko'rsatadi: Xatlardan va arzadoshtlardan ul yuzdagi, bu yuzdagi kayfiyat va holat mushaxxas va ma'lum bo'ldi. Nishon forscha-tojikcha «belgi», «alamat» ma'nosidagi so'z bo'lib, «xat, maktub» semalari keyin shakllangan: Ushbu fursatlar Sulton Husayn mirzodin... bir mazmun bila uzundan-uzoq nishonlar keldi, ul nishonlar bu tarixqacha mendadur. Nishon so'zining semantik ko'lamida quyidagi semalar mavjud: 1) «belgi, alamat»; 2) «darak, xabar»; 3) «ramz»; 4) «namuna». Mazkur so'zning «xat», «maktub» ma'nolarida qo'llanishida «xabar» semasi ustun hisoblanadi. Nishon eski turkiy tilda quyidagi ma'nolarda qo'llangan: 1) «belgi», «alamat», «iz»; «ishora», «tamg'a»; 2) «muhr», «hujjatdagi shaxsiy belgi muhri»; «maktub» ma'nosi kuzatilmaydi. «Maktub» ma'nosi, keyinchalik, metonimiya asosida yuzaga kelgan.

«Mahbub ul-qulub» leksikasi shakl va ma'no munosabatiga ko'ra, shakliy bir xil, ammo turli ma'no ifodalovchi (omonim), bir tushunchani turli uslubda, ma'noviy bo'yoqda, darajalab aks ettiruvchi (sinonim), ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiluvchi (antonim) leksik birliklardan iborat.² Asar matnida eski o'zbek tilidagi omonim, sinonim, antonimlar bilan bir qatorda, muallif uslubiga xos omonimik, sinonimik, antonimik paradigmalar qo'llangan.

Shakurova Nargiza Xamraqulovna (Qarshi davlat universiteti Lingvistika kafedrasida katta o'qituvchisi) “ONA” KONSEPTINING DINIY, ILMIY VA MADANIY TALQINI

Annotatsiya. Maqolada “Ona” konseptining diniy, ilmiy va madaniy talqini, ya'ni “ona” konsepti madaniyat va tarixga tayangan holda, turli xil ma'noga ega ekanligi yoritib berilgan.

Аннотация. Статья представляет собой религиозную, научную и культурологическую интерпретацию понятия «мать», то есть понятие «мать» имеет разные интерпретации в зависимости от культуры и истории.

Annotation. The article is a religious, scientific and cultural interpretation of the concept of “mother”, that is, the concept “mother” has different interpretations depending on culture and history.

Kalit so'zlar: reproduktiv, paradigma, matriarxat, patriarxat, arxitip, fito-morfik antropomorfik.

Ключевые слова: репродуктивная, парадигма, матриархат, патриархат, архетип, фито-морфность антропоморфный.

Key words: reproductive, paradigm, matriarchy, patriarchy, archetype, phito-morphic, autropomorphic.

Zamonaviy ilm-fanda “Ona” tushunchasi vaqt o'tishi bilan turli xil izohlar bilan boyitilgan. “Ona” kategoriyasi ko'plab ilmiy gumanitar paradigmalar doirasida ko'rib chiqilgan, masalan, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, mifologiya, genderologiya, tilshunoslik va boshqalar.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida onalik har doim ayolning hayotida muhim o'rin tutgan. Mash-

¹ E.Begmatov. Nutq madaniyati muammosining paydo bo'lishi va asoslanishi. Nutq madaniyatiga oid masalalar. T., “Fan”, 1971, 22-bet.

² Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., “O'qituvch”, 1991, 54-bet.

hur yozuvchi, faylasuf Simon de Bouarning “Ikkinchi jins” asarida ayollar haqidagi mashhur mulohazalar, qarashlar, ta’limotlar tahlil etilgan. Muallif erkaklarning uzoq tarix davomida mutlaq hukmron jins bo‘lganligini fiziologik, psixologik, ijtimoiy dalillar bilan asoslaydi. Simone de Bouairning yozishicha, ayol faqat ona bo‘lgandan keyingina ayol maqomini oladi, shu bilan bir qatorda, onalik uning hayotida muhim o‘rin egallab, farzandni dunyoga keltirish va insoniyat naslini davom ettirish uning hayotida asosiy rol o‘ynaydi. Bu jarayon tabiiy va reproduktiv hodisa va ayolning muhim vazifasi sifatida qaraladi De Bovuar muammoning sabablarini bunday izohlaydi: “Onalik mavqeyi baland bo‘lgan ilk dehqonchilik davrida ham ayollar yetakchilikni qo‘lga ololmadi, chunki farzand tug‘ish, uni tarbiyalash faoliyat emas, tabiiy jarayon edi”.

Tarixchilar bizga jamiyat rivojlanishining ilk bosqichida kishilik jamoasi matriarxat, ya’ni ona urug‘i ustun bo‘lgan davrda yashagan, deya o‘qdiradi. Ammo insoniyatning bugungi kungacha yetib kelgan qadriyatlari, me’yorlari, axloqiy qoidalari, keyinchalik, erkaklar mutlaqo ustunlikka erishgan paytlarda o‘rnatilgan bois biz u davrdagi hayot tarzi haqida qat’iy bir xulosa chiqara olmaymiz.

Birinchi marta “Ona” tushunchasi gumanitar fanlarning paradigmalarda, xususan, antropologiya va sotsiologiyada qamrab olindi, bunda uning jamiyat va odamlar uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi masalasi ko‘tarildi. Antropolog va sotsiolog Yoxan Yokub Baxoven qadimgi jamiyatlar afsonalari, ramzlari, dinlarini o‘rganar ekan, yuqorida ta’kidlaganimizdek, patriarxiya ijtimoiy rivojlanishning faqat ikkinchi bosqichi ekanligi va ayollarning hukmronligi va eng asosiysi” onalik” qonuni ustuvor bo‘lganligini tushundi. L.G.Morgan ibtidoiy jamiyatni 2 bosqichga bo‘lgan, birinchi bosqich “ibtidoiy urug‘chilik jamoasi”, ikkinchisini esa “harbiy demokratiya bosqichi” deb ataydi. “Ibtidoiy urug‘chilik jamoasi” fazasi davrida dastlabki jamoa bo‘lib yashash kurtagi paydo boldi. Bu kurtak urug‘ jamoasining tarkib topishiga asos solgan onalar atrofida yuz berdi. Shuning uchun ham urug‘chilik jamoasining bu ilk fazasi – ona urug‘i – matriarxat deb ataldi.

Urug‘chilikning birinchi tadjiriy rivojlanish fazasida ishlab chiqarish munosabatlari to‘laligicha urug‘ manfaatiga mos tushadi, jamoada ishlab chiqarish hukmron. Endi ibtidoiy urug‘chilik jamoasining ikkinchi fazasida ishlab chiqarish munosabatlari asta-sekin urug‘ manfaati doirasidan chiqq boshlaydi. Bunday iltimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ibtidoiy jamoa xo‘jaligida dehqonchilik va chorvachilikning kelib chiqishi, rivojlanishi bilan, jamoada ortiqcha mahsulotning paydo bo‘lishi va bozor munosabatlarining tarkib topishi bilan bog‘liq edi. Bu jarayonlar, albatta, ishlab chiqarishda erkaklar mehnatiga talabning o‘rtishi va urug‘lararo guruhli nikohning buzilishi va urug‘ jamoasidan tashqarida patriarxal juft oilaning qaror topishi bilan bog‘liq edi. Ibtidoiy urug‘chilik jamoasi zamonida ro‘y bergan bu o‘zgarishlar patriarxal urug‘ jamoasining patriarxal urug‘ jamoasiga o‘z o‘rnini bo‘shatib berishiga olib keldi.

Ammo insoniyatning deyarli barcha miflari, ertaklari, qonunlari, dinlari, ta’limotlari erkaklar hukmron bo‘lgan davrlarda yaratildi. Oqibatda ayollarning erkaklar hayotida tutgan o‘rni ikkiyoqlama ma’no kasb eta boshladi.

Analitik psixologiyasining asoschisi Karl Gustav Yung tomonidan kashf etilgan onaning psixologik arxetip konsepti ko‘plab muammolarni tushuntirishi mumkin.

Karl Yung arxetipni “inson tajribasini aks ettiruvchi odatiy universal takrorlanadigan surat, model yoki tajriba” deb ta’kidlagan. Har bir insoning onasi mavjud, insoniyatning butun hayoti onasi yoki uning o‘rnini bosuvchi insonlar qurshovida o‘tadi. Ona arxetipi inson psixikasiga singdirilgan dastlabki tasvirlardan biridir. Ona g‘amxo‘rliqi, muloyimligi, onalik muhabbati, himoyasi har qanday yorug‘lik, oqilona fikrdan, qonun va tartib-intizomdan ustundir.

“Ona” arxetipi boshqa ko‘plab arxetiplar singari, turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Birinchisi inson onasi, buvisi, o‘gay onasi, qaynonasi, so‘ngra esa inson bilan munosabatda bo‘lganhar qanday ayol, masalan enaga, ayol jinsiga mansub boshliq va boshqalar.

Keyingi qatorda esa faqat ko‘chma ma’noda “ona” sifatida qo‘llash mumkin bo‘lganlar. Ushbu toifaga Bibi Maryam, Sofiya ona, Oysha ona kabilar kiradi. Bundan tashqari, turli madaniyatlarda ramziy ma’noda “ona” so‘ziga ko‘chma ma’noda ”jannat, zamin, samo, dengiz, oymomo“ tenglashtiriladi.

Ona arxetipi, ko‘pincha, unumdorlik va hosildorlik bilan ham bog‘liq: bularga unumdor dala, hosildor bo‘g-u rog‘lar, bundan tashqari, himoya, boshpana, oziq-ovqat bilan ta’minlash funksiyasini bajaradigan manbalar bu g‘or, quduq, xarsang tosh va boshqalar kiradi.

Onalik ko‘plab madaniyatlarda turli ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Insonni dunyoga keltirish, ona suti bilan boqilishi “ayol” va “ona” ma’nolarini birlashtirdi va turli diniy va madaniy qarashlarda u, ya’ni ayol muqaddas sifatida tasvirlandi. Dunyodagi barcha madaniyatlarda ona obrazi san’at, afsona va dramatur-

giyada markaziy mavzulardan biri bolgan. Shuningdek, diniy bitiklar va afsonalar onalikni yoqori darajaga qo'yadi.

Islom dinida insoniyatning oxirgi Payg'ambari Muhammad alayhissalom ayol nomini ulug'lash, uning sha'nini ko'tarish, xotin-qizlarning huquqini belgilab berishda faqat Islom ummatigagina emas, balki kishilik jamiyatiga ibrat va namuna bo'lib kelyaptilar. U zotdan rivoyat qilingan hadisni bir eslang: "O'z xotiniga mehr-shafqatli bo'lgan kishilar oralaringizdagi eng yaxshi kishilardir". Payg'ambar alayhissalomdan «Nimani yaxshi ko'rasiz?» deb so'rashganida: «Ayolni, xushbo'y narsalarni va namozni», deb javob qaytarganlar. Alloh taolo birinchi ayol – Havvoni erkak, ya'ni Odamning qovurg'asidan yaratgan. Men bu holatdan ham bir ilohiy hikmat tuyaman. Inson tanasini qovurg'asidan ajratib bo'lmaganiday, erkakni ham ayoldan ayirish juda qiyin! Alloh taolo insoniyat sulolasini davom ettirish uchun ayolga onalik baxtini, imkonini bergan. Ayol erkak uchun lazozatli hayot va taskin, osoyishtalik timsoliga aylangan.

Nasroniy, yahudiy va hindlarning diniy qarashlarida onalikni idealizatsiyalashtiriladi. Shunday qilib, nasroniy an'analarida Iso payg'ambariga ham otalik, ham onalik xususiyatlarini tegishli deb hisoblangan. O'rta asrlarda rohiblar Iso payg'ambar haqida ham ota, ham ona deb yozganlar. Anselm Kenterber Isoni ota sifatida boshqaruvchi ona sifatida sevuvchi deb tasvirlagan.

Hindu urf-odatlarida ko'plab ma'budalar mavjud bo'lib, ular turli xil xususiyatlarni ifodalagan (Durga/Kali: kuch-qudratni, Lakshmi: farovonlikni, Sarasvati: bilim-idrokni va boshqalar). Slavyanlar orasida "Mokosh" ma'budasi ONA-YERni ifodalagan. Uning qo'llariga taqdirning muqaddas iplari bo'lib, insoniyatni hayoti va o'limini buyuradi deb hisoblashgan. Bundan tashqari, Mokosh hosildorlik onasi, qishloq xo'jaligi xudosi, mol-mulk va ayol kuchini aks ettiruvchi ma'bud hisoblangan. U knyaz Vladimir Panteoning tepaligida yagona ayol ma'budi sifatida yagona but hisoblanadi.

Arman mifologik manbalari ona ma'budasi Anaitni ijobiy obraz sifatida ishora qiladi, shuningdek, muxabbat va unumdorlik ma'budasi hisoblangan. U "Buyuk ona", "Aql-idrok onasi", "Buyuk malika" deb nomlangan. Aramazda xudosing qizi Ona va donolik ma'budasi Nanie "Buyuk ona" sifatida tan olingan.

Turk mifologiyasida, Oltoy ijodining afsonasi juda ko'p turli xil ma'lumotlarga ega. Ushbu afonaga ko'ra, butun koinotning yaratilishida faqat ikkita mavjudot mavjud. Bu xudolar Ulgen va Erlik. Ulgen yax-hilik timsoli Ulger esa yovuzlik timsoli hisoblangan. Yaratish kuchi Ulgenga ona, Ona, ayol ruh tomonidan berilgan edi. Bundan tashqari, Umay ma'budi to'g'risidagi ma'lumot Go'kturk yozuvlaridan olingan bo'lib, u ayollar, bolalar va tabiatni himoya qiladigan, yerni unumdor qiladigan ma'buda sifatida tasvirlangan. U ona tabiat deb ham yuritilgan.

Yevropa, Afrika va Osiyo diniy mifologiyalar va mahalliy folklorlarida ona ma'budalari yaratuvchi, tarbiyachi sifatida hurmatga sazovor hisoblansa, boshqa tarafdin ular nafaqat himoyachi, balki barbot qiluvchi ma'budlar, deb hisoblanadi.

"Ona" konsepti bola tug'ilishini kutayotgan ayolning muqaddas qiyofasi sifatida shakllangan, bu esa qadimda inson dunyoqarashida yerdan o'nib chiqqan urug' sifatida shakllangan. "Ayol, tug'ilish, yer" semantik triadasi mifologik konseptiga tayangan holda "gen" negizi tashkil topdi. Shu sababli turkiy, hind-yevropa tillarida inson yer, tabiatga ona sifatida qarashi ajablanarli emas: Ona yer, Ona zamin, Ona tabiat. Ushbu g'oya asosida bolaga inson urug'i sifatida qarash va bola o'simlik sifatida o'sadi. Metafora fitomorfik tasnifida "urug' va bola", usimlik va odam"ning arxaik birlashuvi qayd etilgan. Inson olamdan o'tgach, yana o'z ona bag'riga, ya'ni yer bag'riga qaytadi.

Qadimgi davrlarda turli madaniyatlarga mansub insonlar "onalik" tushunchasini o'zlarining oilaviy tajribalariga tayangan holda, yer yuzida bu tushunchaning qanchalik qadr-qimmatga ega ekanligini ta'kidlashgan. "Ona" tushunchasi insoniyat madaniyatining rivojlanishida asosiy kuchga aylandi. Yaratish, oziqlantirish, yetishtirish qo'llab-quvvatlash g'oyalari omon qolishning muhim omillaridan biridir. Onalik tabiati u bilan aloqada bo'lgan insonlarga ma'naviy va ruhiy yordam beradi, masalan, Ona Tabiat (Mother Nature), Vatan (Mother Country), Ona Bilim Yurti (alma mater).

Ona Yer (Mother Nature) – meva, unumdorlik ramzi. "Ona Yer" tushunchasi Yunonistonda paydo bo'lgan. Miloddan avvalgi VII asrda shoir Gezioid bag'ri keng unumdor ona yerni Geya nomi bilan atadi.

Tabiat ona, ayol tushunchasini aks ettiradi. "Ona Tabiat" bu antropomorfik mavjudot, ya'ni "Ona Tabiat" – bu tabiatning har qanday kuchlariga berilgan atama. "Ona Tabiat" tushunchasi hosildorlikni anglatadi Yunoniston qishloq xo'jaligining ma'budasi Demetra kabi. O'z-o'zidan ma'lumki, tabiat ona va ayolga xos bolgan xususiyatga ega, bu har yili o'simliklarning, jonzoatlarning yangilanishi va issiq iqlimi. Tabiatni ingliz, o'zbek, rus, shuningdek, dunyoning boshqa tillarida "ONA" deb atalishi ajablanarli emas, chunki tabiatga yaratuvchanlik xususiyati xosdir. Shu bilan bir qatorda, ONA TABIAT yaratadi

ham, aksincha, barbod qiladi degan tushuncha mavjud bo'lgan, Qurg'oqchilik o'rniga yomg'irli kunlar, ovlari baroridan kelishi maqsadida turli yo'llar bilan ona tabiatning mehrini qozonish kerak, degan tushuncha paydo bo'lgan. Shundan kelib chiqib, unga sajda qilish, qo'rbonlik qilish dini paydo bo'ldi. Buyuk ona tushunchasi Yaqin Sharq madaniyati va dinida keng tarqalgan, keyinchalik esa Yevropa va Osiyo madaniyatiga ham kirib kela boshlagan. Yerning unumdorligining diniy belgisi sifatida u ko'plab nomlar bilan mashhur. Sibilla, oq ma'budi, tabiat ma'budasi, "tug'ilish, sevgi va o'limning ayol ma'budasi", ya'ni uch martabali ma'buda vakili bo'lgan qadimgi Yevropa xudosi Magna Mater (Buyuk Ona) sifatida tanilgan.

Shunday qilib, onalik obrazi turli madaniyatlarda bu himoya va mo'l-ko'llik, bolasini ko'krak suti bilan boqadigan ayol ramzidir. Madonna – bu inson bilim tizimida chuqur ildiz otgan metafora. Onalik metaforasi insonning hayotiga shu qadar chuqur kirib bordiki, onalik xususiyatlarini boshqa obyektlarga qiyoslash paydo bo'ldi.

Turli madaniyatlarda onalik umumiy ma'noda tushuniladi. Qadimgi mifologik tizimlarda mamlakat, mintaqa yoki sinfga qaramasdan, onalik maqtovg'a sazovor va nasl beruvchi jismoniy shaxs hisoblanadi. ONA tushunchasi madaniyat va tarixga tayangan holda turli xil talqinga ega. Ushbu konseptiyani o'rganish tarix madaniyat, afsonalarga tayangan holda olib boriladi. Onalik tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ramzlar madaniy amaliyotlar dunyoda bir xil va xronologik jihatdan barqaror emas, deb aytish mumkin.

ONA-VATAN. Zamonaviy jamiyatda ona tushunchasi davlat ramzini aks ettiradi. Bu bilan "onaga muhabbat" – "vatanga muhabbat tushunchalari birlashadi". O'zbekistonda vatanparvarlik nutqlarida ONA-VATAN iborasi qo'llaniladi va vatanga sadoqat hissini o'yg'otadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, "ONA" tushunchasi madaniy, ijtimoiy va diniy qarashlarda tabiat, zamin, mamlakat metaforasiga ega bo'lib, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga qaramay, kognitiv uzluksizlikni tasdiqlaydi.

**Pulatova Zamira Abdullayevna (Urganch davlat universiteti; pulatova77@bk.ru)
ATOQLI RUS VA INGLIZ ADIBLARINING ASARLARIDA BOLALIK MAVZUSI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalik mavzusi rus adiblari S.T.Aksakov va L.Tolstoy va ingliz yozuvchilari Ch.Dickens, Rudyard Kipling, Jeymes Barri va Pamela Travers ijodida muhim mavzulardan biri ekanligi ko'rib chiqiladi. O'z qahramonlarining ruhiy holatini o'rganishda rus va ingliz adabiyoti bolalik tasvirlariga ko'proq ahamiyat qaratishgan. Bolalik mavzusi va uning obrazlari, yozuvchilar tomonidan beg'uborlik va poklik davri sifatida olib chiqilgan.

Аннотация. В данной статье тема детства рассматривается как одна из важных тем в творчестве русских писателей С.Т.Аксакова, Л.Н.Толстого и английских писателей Ч.Диккенса, Киплинга, Дж.Барри и Памела Траверса. Русская и английская литература, изучая душевное состояние своих героев, большое внимание уделяла образам детства. Тема детства и его образов рассмотрена писателями как период невинности и чистоты.

Annotation. In this article, the theme of childhood is considered as one of the important themes in the work of Russian writers S.T.Aksakov, L.N.Tolstoy and the English writers Ch.Dickens, Rudyard Kipling, James Barrie and Pamela Travers. Russian and English literature, studying the state of mind of their heroes, paid more attention to the images of childhood. The theme of childhood and its images is considered by writers as a period of innocence and purity.

Kalit so'zlar: bolalik, хотира, tasavvur, xarakter, qahramon, ichki dunyo.

Ключевые слова: детство, память, воображение, характер, герой, внутренний мир.

Key words: childhood, memory, imagination, character, hero, inner world.

Jahon adabiyotidagi bolalik obrazlari vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadigan, o'tkinchi voqeliklarni hisobga olgan holda talqin etiladigan, lekin mumtoz asarlardagidek nozik va zaif bo'lib qoladigan abadiy mavzulardan biridir. Adabiyotda bolalik obraziga qiziqishning namoyon bo'lishini birinchi marta Ma'rifat davri ijodida ko'rish mumkin. Shunday ekan, Yevropa va rus adabiyotining badiiy asarlarida bolalar obrazining paydo bo'lishida, albatta, ma'rifat davrining hissasi juda katta.

Zamonaviy adabiyot, ko'pincha, o'z qahramonlarining voyaga yetgandagi holatini aniqroq yetkazish uchun ularning bolalik davri tasvirlariga murojat qiladi. Bolalar dunyosini, bolalik хотiralarini badiiy adabiyotda o'rganish butun jamiyatning ruxiy kayfiyatini aks ettiradi va zamonaviy dunyoning axloqiy

qadriyatlarini uning barcha murakkab ko‘rinishlarida yorqin ifodalaydi. O‘z qahramonlarining ruhiy holatini o‘rganishda rus adabiyoti bolalik tasvirlariga ko‘proq ahamiyat qaratdi.

Ushbu maqolada keltirilgan asar qahramonlari bolalardir, lekin ular bolalar muammolarini, umuman, hal qilishmaydi. Bolalar tasvirlari bu asarlarda “dunyoda sodir bo‘layotgan va bolalar dunyosida kattalar dunyosi qonunlariga muvofiq harakat qiladigan yovuzliklarni kattalashtiruvchi shisha” sifatida keltiriladi.¹

Bolalar ko‘zida kattalar munosabatlarining yolg‘onligi va shafqatsizligi shu darajada katta ko‘rinadiki, ularning bu murosasizliklari bolalarni hayratga soladi.

Rus yozuvchisi A.S.Mixaylov shunday deb yozadi: “Rus adabiyoti har doim inson qalbini butunlay gunohga botishdan va uni yo‘q bo‘lib ketishidan qutqarish to‘g‘risida o‘ylagan. Shunday ekan, adabiyotda bolalik xotiralari va xayollariga e‘tibor qaratmagan adibning o‘zi topilmasa kerak. Hali hech bir xira bo‘lmagan, qalbning ilohiy tiniqligi hozirda ma‘naviy himoya va ustozga muhtojdir”.²

Bolalik mavzusi va uning obrazlari, yozuvchilar tomonidan beg‘uborlik va poklik davri sifatida olib chiqilgan. Ularning qalblari shunchalik tozaki, faqat qo‘rqanlaridagina yolg‘on gapirishadi va ulg‘ayganida ularni “o‘rab turgan” axloq me‘yorlarini qabul qilishadi. Bolalikda ular o‘zlarining ijtimoiy mavqeyini o‘ylamasdan tengdoshlari bilan do‘stlasha olishadi, ulg‘aygach, jamiyatda hayotiy qadriyatlariga mos kelmaydigan do‘stlardan uyaladilar.

XVIII–XIX asrlarning taniqli badiiy adabiyoti yozuvchilari o‘z asarlarida bolalar mavzularini yoritishi bizga, bir vaqtning o‘zida, ma‘lum bir davrning madaniy va tarixiy xususiyatlari g‘oyasini tizimlashtirish va bolalik obrazining o‘zgarishini kuzatish imkonini beradi. Bolalik obrazlari XIX asrning atoqli yozuvchilari J.Ostin, Ch.Dikkens, V.Tekkerey, Sh.Bronte, E.Gaskell, J.Eliot, J.Meridit, T.Xardi, S.Batler ijodida namoyon bo‘lgan.

Yozuvchilar hayotning yaxshiligini va uning qadr-qimmatini tushunishni o‘rganish kerak deb hisoblashadi va bu tushunchalar faqat bolalik davrlarida sodir bo‘ladi. S.T.Aksakovning “Nabira Bagrovning bolalik yillari” asarida ana shunday yondashuvni ko‘ramiz. Bu asar adibning bolalik davri, bolalik xotiralari bog‘langan insonlar obrazlari bilan to‘ldirilgan. Aksakov o‘zining birinchi nozik his-tuyg‘ularidan tortib to hayotning to‘liq tuyg‘usigacha bo‘lgan barcha insoniy his-tuyg‘ularga to‘lgan bolalik davridagi xotiralari haqida gapirib beradi.

Lev Tolstoyning “Bolalik” trilogiyasida bolalik mavzusi yangicha yondashuvda yaratilgan. Voqealar bosh qahramon nuqtayi nazaridan hikoya qilinadi. Hikoyada Tolstoy bolalikni hayotdagi eng baxtli davr sifatida ko‘rsatadi va bu davr uning butun hayotiga ta‘sir qiladi. Asarda bolalik obrazlari shu qadar yorqin ochib berilganki, bolalar mavzusining o‘zi ustun bo‘lib, atrofdagi dunyoni bolaning ko‘zi bilan ochadi.

Ingliz adabiyoti olimlarning ta‘kidlashicha, ingliz yozuvchilardan hech biri mamlakat tarixida Charlz Dikkens kabi shon-sharafga ega bo‘lmagan. Dikkens birinchi hikoyadan mashhurlikka erishgan va bu mashhurlik, keyinchalik, yozuvchining qarashlari va ijodi o‘zgargan bo‘lsa ham, uni tark etmadi. Uning zamondoshlari orasida mashhur bo‘lishining siri shundaki, Dikkens Angliya hayotidagi o‘zgarishlarni keskin his qilgan va minglab odamlarning umid va intilishlarini o‘z asarlarida yaqqol ko‘rsata olgan.

Yozuvchi ijodining yetakchi mavzusi bu ezguklik va yovuzlik kurashi bo‘lib, bu uning har bir asarida o‘z aksini topgan. Dikkens jamiyatning bolaga nisbatan munosabati undagi yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurashni susaytiradi deb hisobalagan. Shuning uchun uning ijodida bolalik mavzusi asosiy mavzulardan biridir. Dikkens ijodida bolalik mavzusi yozuvchi ijodining insonparvarlik yo‘nalishini ochib beradi, ezgulik va adolatni ulug‘laydi, jamiyatning bolalarga nisbatan loqaydligini qoralaydi.

Yozuvchi tomonidan yaratilgan Oliver Twist, Nikolas Niklbi, Nelli Trent, Pol va Florensiya Dombi, Emmi Dorrit va boshqa ko‘plab obrazlar bolalik davrining jahon tarixiga abadiy kirgan obrazlardir. Ushbu personajlar o‘zlarining realizmi, taniqliligi, shu bilan birga, ta‘sirchanligi, samimiyligi va lirikligi, ba‘zan esa komik tafsilotlari bilan kitobxonni hayratda qoldiradi. A.Sveyg “Dikkens” maqolasida o‘z qahramonini shunday tavsiflashi bejiz emas: ...Dikkensning o‘zi ham bolaligidagi quvonch va qayg‘ularni hech kimga o‘xshamagan holda abadiylashtirgan yozuvchidir”.³

¹ Лакшин В. Увеличительное стекло зла. “Иностранная литература”, 1970, № 12, с. 262 – 265.

² Михайлов А.С. Художественная концепция детства в русской литературе конца XIX – начала XX. М., “Академия”, 2010.

³ Цвейг А. Диккенс. Тайна Чарльза Диккенса. М., “Книжная палата”, 1990, с. 243 – 263.

“Oliver Twistning sarguzashtlari” romani yo‘zuvchining birinchi romani“ bo‘lib, Dikkens qayta va qayta murojaat qilgan janrlardan biridir. Uning asarlarda o‘xshashliklar ko‘p: ota-onasi tashlab ketgan bola, meros ilinjida bolaning himoyasizligidan foydalanvoqchi bo‘lgan qarindoshlarning ta‘qibi va asar oxirida baxtli yakun. Dikkensning deyarli barcha romanlari baxtli yakun bilan yakunlanadi, va aynan shu sababli muallif hayoti davomida va vafotidan keyin ham ko‘p qoralangan. Ammo “baxtli yakun” yo‘zuvchi falsafasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. U inson hayotida adabiyot kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega va inson ongiga shu qadar tez ta‘sir qiladiki, baxtli yakun ertanggi kunga umid bag‘ishlaydi va hayotdan quvonch olib yashashga undaydi deb hisoblagan.

Ammo realist yozuvchi sifatida Dikkens hayotda “baxtli yakunlar” har doim ham sodir bo‘lmagani ko‘rdi, u qahramonning moddiy mukofoti muammosiga munosabatini o‘zgartirib, ma‘lum bir moddiy darajaga erishish insonni baxtli qila olmasligini ko‘rsatdi.

Bolalar va ularning xarakterini tushunish va tasvirlashdagi evolutsiyani butun bir asar davomida kuzatish mumkin. Bosh qahramonlar – bolalar xarakterida yozuvchining diqqati vaqtini yaratadigan va shakllantiruvchi narsaga emas, balki u allaqachon mavjud bo‘lgan, ammo ma‘lum lahzagacha yashiringan narsani ochib berishga qaratilgan, shuning uchun ham qahramonlarga vaqt va o‘zgaruvchan sharoit sabab hech qanday ta‘sir ko‘rsatilmaganga o‘xshaydi. Ularning asl va o‘zgarimas mehribonligi shundandir.¹

Ingliz yozuvchisi Rudyard Kipling bolalarga, insoniy fazilat va kamchiliklarga ega bo‘lgan yovvoyi hayvonlar bilan o‘rab olingan va ular bilan do‘stlasha olgan o‘rmonning betakror o‘g‘li, qo‘rqmas bola Mauglini tanitdi. Asar bolalar va kattalar orasida tezda mashhurlik va e‘tirofga sazovor bo‘ldi.

Yana bir ingliz yozuvchisi Jeysms Barri kata bo‘lishni istamaydigan uchuvchi bola Piter Panni yaratdi. “Piter Pan va Vendi” (1906) Jeysms Barriga shuhrat keltirdi. Barrining yosh kitobxonlar orasida mashhur bo‘lgan ikkinchi kitobi “Kensington bog‘larida Piter Pan” deb nomlangan.

Angliyalik yozuvchi Pamela Travers (1906–1996) nafaqat adolatli va aqlli o‘qituvchi, balki o‘z farzandlarini yaxshi biladigan sehrGAR Meri Poppins obrazini yaratdi. “Meri Poppins” asari nashrdan chiqqanidan so‘ng u bolalarning sevimli qahramonlaridan biriga aylandi. Keyinchalik, “Meri Poppins qaytib keladi”, “Meri Poppins parkda”, “Meri Poppins eshikni ochadi” kitoblari nashr etildi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlari bolalar adabiyotining bosh qahramoni ingliz tili o‘qituvchisi Joan K. Rouling tomonidan yaratilgan sehrGAR bola Garri Potter edi. Do‘stlik, nafrat, yaxshilik va yovuzlik haqida hikoya qiluvchi Garri Potter va falsafa toshi kitobi 1977-yilda nashrdan chiqdi. Keyinchalik, bosh qahramon Garri Potter ishtirok qilgan oltita fantastik janrdagi kitoblari chop qilindi.

Ingliz va rus badiiy adabiyotida bolalik obrazi alohida o‘rin tutadi. Bolalik tasviri umumlashtirilgan tushuncha sifatida ishlaydi va bolalar dunyosi, muhiti, qiyofasi va tipologiyasini o‘z ichiga oladi. Klassik rus va ingliz adabiyoti bolalik mavzusini falsafiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqadi.

Yer yuzidagi eng sof, eng samimiy va eng beg‘ubor insonlar – bu bolalar. Kattalar bolalardagi bu oliyjanob hislatlarni o‘zlarida mujassam qilishlari va bir-birlari bilan samimiy bo‘lishlari, bir-biriga ishonishlari kerak. Har bir davrning mashhur ingliz va rus yozuvchilari o‘z asarlarida aynan shu narsani aytmoqchi edilar.

**Аннаева Назокат Ражапбаевна (Урганч Давлат университети мустақил изланувчиси;
annayeva_n@mail.ru)**

ГЕНДЕР ИДЕНТИФИКАЦИЯСИ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ ТАДҚИҚОТ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА

***Аннотация.** Ушбу мақолада жамиятдаги идеал аёл ёки эркакнинг қиёфаси унинг миллий анъаналари, маданияти, тарихи, дини, миллий менталитети билан белгиланиши кўрсатилади. Гендер – эркак ва аёлнинг маънавий дунёси, амалда, ахлоқ асосида амалга оширилиши ҳамда идентификация тушунчаси, таҳлил қилинади. Гендер деганда эркак ва аёл ўртасидаги муносабатларнинг ижтимоий жиҳати тушунилиши ва у ҳаётнинг барча жабҳаларида намоён бўлиши, гендер тенглиги стратегияси каби масалалар таҳлил этилади.*

***Аннотация.** В данной статье показано, что образ идеальной женщины или мужчины в обществе определяется ее национальными традициями, культурой, историей, религией, национальным менталитетом. Гендер – внутренний мир мужчины и женщины, на практике, его реализация на основе этики, а также концепция идентификации. Гендер относится к пониманию соци-*

¹ <http://www.dissercat.com/content/tipologiya-detskogo-kharaktera-v-tvorchestve-charlza-dikkensa>

ального аспекта отношений между мужчиной и женщиной и его проявлению во всех аспектах жизни, анализу таких вопросов, как стратегия гендерного равенства.

Annotation. In this article, it is shown that the image of an ideal woman or man in society is determined by her national traditions, culture, history, religion, national mentality. Gender - the domestic world of men and women, in practice, its implementation on the basis of ethics, as well as the concept of identification, is analyzed. Gender refers to the understanding of the social aspect of the relationship between a man and a woman and its manifestation in all aspects of life, the analysis of issues such as the strategy of gender equality.

Калим сўзлар: хотин-қизлар, гендер тенглиги тамойили, гендер – жинснинг маданий ниқоби, жинс, талаба-қизларнинг ижтимоий фаоллиги, гендер ёндашув, гендер идентификацияси, аёлнинг оғир юки, оилада психологик тенглик, аёл идрок, муносабат ва қобилият, фикр тенглиги, тенглик, ўзбек менталитети, анъаналар.

Ключевые слова: женщины, принцип гендерного равенства, гендер – культурная маска пола, гендер, социальная активность студентов, гендерный подход, гендерная идентификация, тяжесть женщины, психологическое равенство в семье, женское восприятие, установки и способности, равенство мысль, равенство, узбекский менталитет, традиции.

Keywords: women, the principle of gender equality, gender – the cultural mask of gender, gender, social activism of students, gender approach, gender identification, the heavy burden of women, psychological equality in the family, women's perception, attitudes and abilities, equality of thought, equality, Uzbek mentality, traditions.

Жамиятдаги идеал аёл ёки эркакнинг қиёфаси унинг миллий анъаналари: маданияти, тарихи, дини, миллий менталитети билан белгиланади. Ташқи кўриниш, ёзиш услуби, овоз идентификациянинг таркибий қисмларидир. Жинс ўзаро таъсир билан белгиланади. Гендер – эркак ва аёлнинг маиший дунёси, амалда, ахлоқ асосида амалга оширилади; у инкор этиб бўлмайдиган ижтимоий тузумнинг тизимли хусусияти онг таркибида доимо қайта тикланади.

Мамлакатимизда бу борадаги ишлар қувонарли. Айниқса, “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун”¹ муносиб шарт-шароит яратилаётганлиги эътиборга моликдир. Агар шахс идентификацияси шахс ҳаётининг мазмунини ўзга инсонларнинг ҳаёт мазмуни билан қиёслаш механизми бўлса, демак, идентификация бу айнан ўша механизмниг ҳаракатланишидир. Идентификация феноменини ўрганишнинг мураккаблиги шундаки, ушбу ҳодиса мураккаб таҳлилларни талаб этувчи жуда кўплаб психо-ижтимоий ҳодисалар билан боғлиқлидир. Шу боисдан ушбу феноменни мавжуд назарий тушунчаларини янада чуқурроқ таҳлил қилиш талаб этилади.²

“Гендер” тушунчаси, дастлаб, филология фанига тегишли бўлган. Бу тушунча бир неча асрлардан бери мавжуд. Инглиз тилида бу эркак ёки аёлни билдиради. 1958 йилда Лос-Анжелесдаги Калифорния университетига транссексуализмни ўрганиш маркази сифатида очилди. 1963 йилда психоаналист Роберт Столлер “гендер идентификатори” тушунчасини киритди. Гендер ўзига ҳослиги тушунчаси биологик ва маданий бўлимлардан иборат эди: жинс биологик (генлар, гормонлар, асаб тизими, морфология) маданий жиҳатдан: психологик, ижтимоий фарқлар. Шу нуқтаи назардан, Столлернинг 1968 йилда чоп этилган “Пол ва Гендер” китоби муҳим аҳамиятга эга. Шундан сўнг бу тушунча кенг тарқалиб, кенг қўлланила бошлади. Концепциянинг кенг қўлланилиши феминизмни келтириб чиқарди. Турли жамиятларда аёллар эркакларнинг ҳукмронлигидан норози бўлиб чиққанлар.

МДХ мамлакатларида бу тушунча 1992 йилдан бери қўлланила бошлади. Бу ҳақда биринчи марта “Аёллар ва ижтимоий сиёсат” тўпламида тилга олинган. Мамлакатда таълим барча учун мезонларга мувофиқ кенгайтирилган. Келинг, ушбу концепциянинг таърифларидан бошлайлик, яъни, ҳозирги вақтда “гендер” тушунчасига қуйидагича таъриф берилган:

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2016, 56-бет.

² Маратов Т.Ф. Шахс идентификацияси ижтимоий-психологик феномен сифатида//ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. 848-бет.

Гендер ижтимоий таркиби;
Гендер – ижтимоий институт;
Гендер доминант алоқа тизими сифатида;
Гендер мафкуравий тизими;

Гендер тушунчасида асосий таянч нуқта бўлиб, икки тушунча яъни, “жинс” ва “гендер” тушунчалари ўртасидаги фарқ тушунилади. Айрим ҳолларда ушбу тоифалар (жинс – эркак, аёл; ва гендер – маскулин, фемин) бир хил мазмундаги тушунчалар сифатида акс эттирилади.¹

Гендер деганда эркак ва аёл ўртасидаги муносабатларнинг ижтимоий жиҳати тушунилади ва у ҳаётнинг барча жабҳаларида намоён бўлади. Гендер тенглиги стратегияси, биринчи навбатда, эркаклар ва аёллар ўртасидаги тенгликка эришиш учун давлат ва жамиятнинг самарали ҳамкорлигига қаратилган қонунни ифодалайди. Айтиш пайтда фуқаролик жамияти томонидан миллий гендер сиёсатини амалга ошириш, ҳаётнинг барча жабҳаларида гендер тенглигига эришиш механизмини яратиш борасида фаол ишлар олиб борилмоқда.

Хотин-қизлар масаласининг мазмун-моҳияти гендер тенглиги тамойилини амалга оширишдан иборат. Биринчидан, тенглик жамиятдаги бир хил ижтимоий вазиятдир. Яна бир муҳим категория – “тенглик” фалсафий-ижтимоий тушунчаси бўлиб, жамиятда эркаклар қатори аёлларнинг ҳам ҳаётнинг барча жабҳаларида иштирок этишини назарда тутди.

Гендер табиатан белгиланмаган, ижтимоий ҳодисалар ато этган хусусиятлар йиғиндиси. Гендер – жинснинг маданий ниқоби, бизнинг ўз ижтимоий-маданий тасаввурларимиз доирасидаги жинс ҳақидаги қарашларимиз. Бунинг устига, жинс фақат гендер демакдир, яъни унинг ижтимоийлаштирилиши натижасида жинсни ташкил этган нарсасидир. Ҳозирги замон жамиятида талаба-қизларнинг ижтимоий фаоллигини белгилаш, аниқлаш ва ривожлантириш гендер ёндашув асосидаги ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, гуманитар муносабатлар асосида ўрганилади.²

Гендер идентификацияси талаблари нафақат аёллар, балки бошқа оила аъзоларининг ҳам тенг ҳуқуқлилигини таъминлайди, оиладаги зўравонликнинг олдини олишга хизмат қилади. Таъкидлаш жоизки, хотин-қизлар қайси соҳада ишламасин, ўша соҳада нафақат обрў-эътибор, балки масъулият ҳам ортиб бормоқда. Ҳар бир иш қийин ва қизиқарли, муваффақиятли ва самарали. Яхши нарсалар содир бўлиши мумкин. Хусусан, биринчи марта Ўзбекистон оилаларида оила бошлиғи, асосан, эркак киши бўлади. Аёл бошлиқ оилалар кам учрайди. Баъзи оилаларда аёл оила бюджетини бошқаради, бўш вақтини ташкил қилади, энага вазифасини бажаради. Бу ҳолат нормал эмас. Аёлнинг оғир юки кўтарилиб, тарбияда қанча уринмасин, отасининг ўрнини боса олмайди, оилада психологик тенглик бузилади. Кўпгина оилаларда эр ҳам, хотин ҳам худди шундай қилишади. Бундай тенгликка эришиш учун аёл идрок, муносабат ва қобилият жиҳатидан эрига тенг бўлиши керак. Фикр тенглигига ҳеч ким қарши эмас, лекин тенглик ўзбек менталитети анъаналарига мос бўлиши керак. Гендер тенглигини жорий қилиш нуқтаи назаридан, таълимдаги ижобий силжишларни алоҳида таъкидлаш керак. Яъни, 2017 йилдан бошлаб аксарият олий ўқув юрларида турли мутахассисликлар бўйича сиртқи бўлимлар фаолияти тикланди. Таълимнинг ушбу шакли ёш аёлларга болаларни парвариш қилиш ва бошқа оилавий мажбуриятларни бажаришга ҳалал қилмасдан олий маълумот олиш имкониятини беради.³

Инсониятни янги шаклланиш сари йўналтириш бугунги куннинг энг долзарб масалаларидан биридир. Шу муносабат билан, гендер таълимининг аҳамияти ортиб бормоқда. Хотин-қизлар масаласи жамиятда хотин-қизларнинг мавқеига эътибор қаратиш, ҳаётнинг барча жабҳаларида эркак ва аёл тенглигига эришиш, миллий ва этник муаммоларни ҳал этиш, сиёсий, ижтимоий қарама-қаршилик ва зиддиятларни бартараф этишдан иборат. XIX аср охири – XX аср бошларида жадид мутафаккирлари хотин-қизлар ҳаракатини эркаклар билан тенг равишда фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқларга эга бўлиш муаммосининг ечими сифатида қараганлар. Шу боисдан ҳам аёллар ҳаракати турли ижтимоий гуруҳларнинг маънавий кадриятлар ва меъёрларга, сиёсий мақсад ва мақсадларга эга бўлган биргаликдаги саъй-ҳаракатлари эканлиги алоҳида аҳамият касб этган. Ривоятларда оловни кашф этганлар эркаклар тимсолида учрайди. Аёллар оловнинг хусусиятларини ўрганиш,

¹ Большой толковый социологический словарь. Т.2, Москва, «АСТ», 1999, с. 346.

² Қурбонова Г., Абдуллаева З. Гендер ёндашув асосида талабақизларнинг ижтимоий фаоллигини ривожлантириш назарияси. “Замонавий таълим”/“Современное образование”, 2014, 6, 39-бет.

³ Фуломжонов О.Р. Жамият тараққиётининг янги босқичида гендер тенгликни таъминлашнинг ижтимоий аҳамияти //«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. Volume 1, ISSUE: 4, 239-бет.

уни турмушда қўллаш, уйни иситиш, овқат тайёрлаш каби заруратларни бажарганлари ҳақида ҳикоя қилинади. Кийим-кечак ва оёқ кийимларини ҳам аёллар кашф этишган.¹

Тадқиқотчилар бизнинг гендер таълимимизнинг заиф томонларини таъкидлайдилар:

–услубий плюрализм (ноаниқлик ва ноаниқлик). Гендер деганда: аёлларнинг тарихдаги роли, камситиш, гендер тенгсизлиги;

–ташкilotнинг ноаниқлиги, яъни гендер тадқиқотларини қандай ташкил этиш (марказ ичида ёки кафедрада ёки магистратура йўналишида) алоҳида масала. Бироқ марказдан бошланиши ҳақиқат.

Бу эса уни молиялаштириш масаласини кўтаради. Айрим олимлар ва ўқитувчилар этишмайди. Америкалик олим К.Стипсон уни беш турга ажратади. Асосчилар гендер масалалари бўйича дастлабки шарҳловчилардир. Аёллар ҳаракатидан мафкурачилар. Радикаллар, яъни сиёсат билан боғланганлар.

Жинс масаласидан кейин тадқиқотга жалб қилинганлар. Ўзининг ўқитувчилик фаолияти учун зарур ва қизиқарли деб ҳисоблаганлар. АҚШда бу масала 1970 йилда Сан-Дийего университетида инсоният жамиятидаги меҳнат тақсимоли натижасида ёки бошқа кўплаб омиллар таъсирида маданий анъаналар, урф-одатлар, қонунлар ва ҳоказолар томонидан қаттиқ назорат қилинади. Ўйнаш қобилятига эга бўлган генлар жинсий алоқадан кўра барқарор эмас. Бунинг учун бизда яхши сабаблар бор.

Гендер – бу одамларнинг ўзаро таъсири натижасида яратилган сунъий тузилма. Шундай қилиб, у йўқолиши ёки худди шу тарзда ўзгариши мумкин бўлган анъанавий конструкциядир. Бу ерда гап тарихимизда авлоддан-авлодга ўтиб келаётган генлар тўплами ҳақида бормоқда. Ҳатто ҳар бир давлат бу тушунчани ўзига хос тарзда тушунади ва қабул қилади. Ўқитувчилар бу масалага алоҳида эътибор беришлари керак. Ҳар бир жинс ўзининг генетик тузилиши орқали бир хил масалага келади. Мисол учун, 2002 йил 26 августдан 4 сентябргача Ёханнесбургда бўлиб ўтган саммитда Аёллар атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ташкилоти “ифлословчи” жавобгарликка тортилиши ва буни ўз ихтиёри билан бажариши керак деган қарорга келди. Эрақлар гуруҳи бунинг учун пул тўлашлари кераклигини айтди. Ушбу саммит муваффақиятсизликка учраган сабаблар қуйидагилар:

–ҳарбий бюджетнинг ижтимоий йўналтирилганлиги ва демилитаризация учун жавобгарликнинг йўқлиги;

–ихтиёрий корпоратив жавобгарлик.

Жаҳон банки, ЖСТга гендер талабларининг йўқлиги қонидани амалга оширишда иштирок етувчи томонларнинг назорат механизмидан йўқлиги ва бошқалар. Ҳаммаси тенгсизликнинг тури ва тарихига боғлиқ.

Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларга нисбатан зўравонликнинг барча шакллари ва кўринишларига қарши курашни назарда тутадиган бир қатор халқаро шартномаларни ратификация қилган. Булар хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисидаги конвенция, Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция ва бошқа халқаро-ҳуқуқий актлардир. Табиийки, оиладаги зўравонликнинг олдини олиш учун фақат халқаро миқёсдаги ҳуқуқий талабларнинг белгиланиши етарли эмас. Бу масаланинг ечими кўп жиҳатдан қонунчилик даражасида мустаҳкамланган самарали ҳуқуқни қўллаш фаолиятига боғлиқ.²

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, тенгсизлик деганда биз аёллар тенгсизлиги масаласини кўтарамиз. Аёлларнинг ҳолати бутун дунёда фарқ қилади. Тарихий ҳаётимизда ўзбек халқида аёлларнинг тенгсизлиги никоҳ ва муҳаббат туйғуларига боғлиқ. Ушбу муносабатда “Кучли”нинг кучсизларга қарши куч ишлатиши тенгсизлик синфий адолатсизлик ва ирқчилик билан боғлиқ. Тенгсизлик, айниқса, аёллар орасида кенг тарқалган. Аёлнинг асосий вазифаси оилада, шунинг учун у турмушга чиқади ва репродуктив ролга эга. Шу билан бирга, мамлакат анъаналари унга мослаштирилган. Синфлар тенгсизлиги куни ҳамон кўриниб турибди. Албатта, жамиятимизни синфсиз

¹ Холматова М. Жамиятда аёлларнинг ўрни (тарихий-фалсафий таҳлил). Экология ва аёл. Фарғона, 2001, 109–110-бетлар.

² Абдурахманова Ж.Н. Замонавий жамиятда гендер тенглиги таъминлаш – устувор вазифа сифатида.// ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2|ISSUE9|2021 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-400-406, 404-бет.

